

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Sobirov Sarvar Tursunmurotovich**

**TASVIRIY SAN'AT O'QITISH  
METODIKASI  
o'quv qo'llanma**

**CHIRCHIQ 2023**

**UO‘K 73/76;37.0**

**KBK 85.1/74.266.4**

**S-70**

**Sobirov S.T. / Tasviriy san’at o’qitish metodikasi / O’quv-qo’llanma – Chirchiq «City of book», 2023. - 288 бет**

**Muallif:** Sobirov Sarvar Tursunmurotovich

**Mas’ul muharrir:**

**Taqrizchilar:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori, p.f.n. B.B. Baymetov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’atshunoslik va madaniyat” kafedrasi dotsenti, s.f.n. I.I. Abduraxmonov

Ushbu o‘quv qo’llanma 60111200 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bugungi kun talablarini hisobga olingan holda tuzildi.

Qo‘llanma talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan - murakkabga usulida ishlab chiqilgan. O‘quv qo’llanma talabalarni “Tasviriy san’at o’qitish metodikasi” fanining nazariy hamda amaliy asoslari bilan tanishtiradi. U tasviriy san’at darslarining to‘rt turi: borliqni idrok etish, narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish, badiiy qurish-yasash va mavzu asosida rasm chizish, san’at asarlarining tahlili va suhbat darslarini o‘tkazishga oid umumiy korsatmalarni o‘z ichiga olgan. Mazkur o‘quv qo’llanmadan oliy o‘quv yurtlarining talabalari, umumta’lim maktablarining tasviriy san’at o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27 martdagи 68-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo’llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9415-6-6

© Sobirov S.T., .2023

©«City of book», 2023

## KIRISH

Jamiyatimiz rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan hozirgi vaqtda talabalarga ta’lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo‘llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki, ta’lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim islohoti bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Shu sababli yoshlarni yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash, ta’lim sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish g‘oyasi kun tartibidagi dolzarb va ustivor vazifalaridan biri sifatida davlatimiz rahbari tomonidan ta’kidlanib kelinmoqda. Mamlakatimizda o‘quv-ta’lim hamda tarbiya tizimini jahon andozalariga muvofiq tarzda qayta tashkil etish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Hukumatimiz bu yo‘nalishga yordam beradigan qator hujjatlarni ishlab chiqdiki, ular orasida “Milliy o‘quv dasturi”, 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini tasdiqlanishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublikamizda oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham aholining oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan ma’nana yetuk va jismonan barkamol yosh kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustivor yo‘nalishlaridan biri deb belgilab qo‘yilgan.<sup>1</sup>

Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, ta’lim mazmunini tubdan takomillashtirishni, o‘quv mashg‘ulotlarining

---

<sup>1</sup> Sultanov X.E., Sobirov S.T. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. (1-sinf uchun). O‘quv qo‘llanma. - T.: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021.

sifatini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalana olishni talab etmoqda.

Qabul qilingan qarorlarda ta’lim muassasalaridagi moddiy-texnika bazasini talab darajasida tashkil etish, xususan bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilarni o‘quv dasturlari, qo‘llanma va darsliklar bilan ta’minalash masalasi muhim qilib qo‘yilgan.

Barcha fanlar qatorida tasviriy san’atdan xabardor inson xarakterida insonparvarlik, olижаноблик, kishilarga nisbatan mehr-muruvvat kabi xususiyatlar ustunroq shakllanadi. Tasviriy san’at estetik fanlar sirasiga kiradi. Estetika – deganda nimani tushunamiz?

Estetika – go‘zallik manbai u to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri xursand bo‘lish, san’atning hayotdagi o‘rinni ko‘ra bilishdir – degan edi Aristotel. Ma’naviy did – insonda go‘zallikni his qilish, sezish qobiliyatining negizidir.<sup>2</sup>

Estetika yuqorida keltirilganidek go‘zallik manbai bo‘lsa, go‘zallik deganda nimani tushunamiz?

- Go‘zallik bu – takrori yo‘q gavhardir.
- Uni ko‘ra bilishning ilk g‘unchasi – san’atdir.
- Tabiat go‘zallik yaratuvchi bog‘bon.
- Umumbashariyat go‘zallik ila tirik va to‘la-to‘kis hamohang yashaydi.

Go‘zallik doimo ko‘z oldimizda, uni biz har lahzada ko‘rishimiz his qilishimiz mumkin lekin bu holatni his qilib sezish hammaga ham nasib etavermaydi. Olamda xunuk narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa chiroylidir. Uni qanday qabul qila olishga bog‘liqdir.

Chiroyni, go‘zallikni ko‘ra bilishlik, qalbdan sezish, zavqlanish, lazzatlanish – bu ma’naviy didimizga, axloqiy dunyoqarashimizga bog‘liq.

Tasviriy san’at o‘qitishda turli metodlardan foydalilanadi. Metodika so‘zi grekcha bo‘lib, “tadqiqot” yo‘li bilish, usul ma’nolarini beradi. Pedagogikada o‘qitish metodlari deganda, talabalarni bilim, msahorat va malakalarini oshirishda

---

<sup>2</sup> N.Abdullayev. San’at tarixi. T. 1991.

ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoviy bilimlarni chuqur egallashida o‘qituvchilarning qo‘llagan ish metodlari – usullari tushuniladi.<sup>3</sup>

San’at kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham tasviriy san’at kishilarni badiiy, ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbaalardan biri hisoblanadi. Mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o‘tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta’siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi.

Ta’limning barcha yo‘nalishlari kabi tasviriy san’atda ham talaygina ishlar olib borilmoqda. Xususan, yangi turdagи ta’lim standartlari, o‘quv reja va fan dasturlari tuzilib yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning dolzarb muammolarini hal etishda muhim o‘rin tutadi.

---

<sup>3</sup> R.K.Rajabov, X.E.Sultanov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2008.

## **TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI.**

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalardagi kabi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining zimmasiga ham o'ta mas'uliyatlari vazifalarni yuklaydi. O'qituvchining kasbiy xususiyatlari borasida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, u eng avvalo o'z kasbining jonkuyari, uni dildan sevadigan, o'z ishiga ijodiy va ilmiy yondoshadigan shaxs bo'lmog'i talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchida yangi bilimlar va ilg'or tajribalariga chanqoqlik, muhimi unda tashkilotchilik, kuzatuvchanlik, qat'iylik va insoniylik xususiyatlari bo'lishi zarur. O'qituvchi tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib muallimlikni bajara olmaydi yoki o'quvchi yoshlarga tabiat go'zalligini, ona Vatanimizning tarixini, milliy merosimizning tarixini ta'riflab bera olmaydi, hamda o'z kasbiga qiziqtira olmaydi.

Bugungi talaba, bo'lajak o'qituvchi, o'zbek xalqining hamda o'tmishi bor bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarning tasviriy san'at borasidagi noyob namunalarini o'zlashtirgan bo'lishi va to'laligicha o'quvchi yoshlarga ulashmog'i ayni davr talabidir. Shu sababli bo'lajak rassom-pedagoglarga quyidagi talablar yuklanadi:

- O'zлari ta'lim berishi lozim bo'lgan o'smir va yoshlarga san'at sirlarini, madaniy meros namunalarini har tomonlama o'rgatish;
- Ayni yangilanish, rivojlanish davrida yosh avlodni bilimdon, yaratuvchan, yuksak madaniyatli va mustaqil mamlakat taqdiri uchun mas'ul shaxslar qilib tarbiyalash;
- Ulug'ver bunyodkorlik ishida malakali, g'ayratli o'qituvchilar, yoshlar peshqadamlik qilmoqlari uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash;
- Talabalarni tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ijodkorlikka yetaklash, layoqat sezilganda astoydil o'rgatish uchun to'garaklarga jalb etish;
- O'quvchi va yoshlarga nafis san'at sirlarini o'rgatish borasida o'z ustida doimo izlanish, talabalar faoliyatini rivojlantirib, to'g'ri va asosli shakllantirish

uchun pedagogik qoidalar asosida tajribalar olib borish;

- Turli davr, turli xalqlarga mansub tasviriy san'at asarlarini mushohada qila olmog'i va uni tushunish sirlarini yoshlarga ulashish uslublariga ega bo'lish;

- Tasviriy san'at insonni shakllantirishdagi muhim va ishonchli vositalardandir, bunday imkoniyatni har bir mashg'ulotda qo'llash uchun yangicha uslub va mumkin bo'lgan usullarini ishga solish hamda amalda qo'llay olish mahoratini o'rgatish;

- Zamon talabi bilan dars va mashg'ulotlarni noan'anaviy dars rejalari asosida o'tkazish;

- Jalon andozalariga xos yangi texnologiyalarini o'rganib, darsda qo'llay olish mahoratini egallashi kerak.<sup>4</sup>

Tasviriy san'at o'qituvchisi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom o'qituvchilar qaerda, qanday o'quv maskanida ta'lif jarayonini olib borishidan qat'iy nazar, pedagogik faoliyatini ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining o'z sohasidagi savodxonligi yetarli darajada bo'lsagina, o'quvchilar bilan yonma-yon o'tirib o'zlari amaliy namuna ko'rsata oladilar. O'shangagina o'quvchilar o'z ko'zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko'rib ruhan his qiladi hamda san'atning nozik sirlarini tushunib yetishiga imkoniyatlari kengayadi.

Umumiy ta'lif maktablarida tasviriy san'at darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan xisoblanib, o'quvchilarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar, borliqni o'zlashtiradilar, bu esa ularni g'oyaviy, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, mактабда о'qитадиган тас'вирий сан'ат о'кув фанинг мақсад-вазифаси — мазмун-моҳиятига ко'ра:

---

<sup>4</sup> R.K.Rajabov, X.E.Sultanov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2008.

1. Borliqni idrok etish (1- 4-sinflarda);
2. Badiiy qurish-yasash (1-4-sinflarda);
3. Narsani o‘ziga qarab tasvirlash;
4. Kompozitsion faoliyat;
5. San’atshunoslik asoslari (san’atni idrok etish) kabi dars mashg‘ulotlar asosida faoliyat ko‘rsatadi.<sup>5</sup>

Tasviriy san’at darslari o‘quvchilarda ma’naviy dunyoqarashni, g‘oyaviy e’tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko‘rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o‘stiradi. Maktabda o‘qitiladigan tasviriy san’at darslarining har bir turi (narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san’at haqida suhbat) o‘quvchilar ijodiy qobiliyatining o‘sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya’ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

Tasviriy san’atning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o‘quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san’atdagi, jamiyatdagi go‘zalliklarini to‘liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalashdir. Go‘zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta’sir etib, ma’naviy dunyoqarashini boyitadi.

Estetikaning insonlarning ijodiy faoliyatlaridagi roli benihoya kattadir. Hayotga estetik munosabatda bo‘lish ilhomning asosi hisoblanib, mehnatni quvonch va ma’naviy zavq manbaiga aylantirishga yordam beradi.

Estetik tarbiya jarayonida kishilarning qarashlari, his-tuyg‘ulari, didi shakllanadi. Bu shakllanish esa g‘oyaviy-siyosiy tarbiya bilan, ijodiy tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi vaqtda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda borliqni faqat ijodiy o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishnigina emas, balki ularda go‘zallik qonunlari asosida borliqni

---

<sup>5</sup> B.N. Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi.(o‘quv]-metodik qo’llanma) Toshkent – “ILM ZIYO” - 2013

qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat’iy nazar go‘zallik va nafislikni ko‘ra bilishi va tushuna bilishi kerak. O‘quvchilarning estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o‘qituvchi ularga tabiatdagi go‘zallikni, shakllarning turli-tumanligini ko‘rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go‘zalliklari, so‘z bilan tasvirlab bo‘lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xayolida saqlanadi. Manzaraning, daraxt shoxlarining, barglarning, gullarning o‘ziga qarab rasmini chizish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish orqali bolalar tabiatga ko‘proq qiziqadigan bo‘ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroficha ko‘ra olishga, shuningdek ko‘rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to‘liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holatlari, rangi va och-to‘qlik nisbatlarini diqqat bilan o‘rganadilar.

Tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ko‘rish orqali idrok etishini o‘siradi. Ko‘z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya’ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi ko‘rinish jihatidan klassifikatsiyalashni anglaymiz. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma’lumotlarining 90% dan ortiqrog‘ini ko‘z orqali oladi. Bu kishilar hayotida ko‘zning roli beqiyos ekanligini ko‘rsatib turibdi va u ko‘zning imkoniyatlari o‘rganishni talab etadi. Maktabda esa ko‘z xotirasini, uning imkoniyatlarini rivojlantirnshda boshqa fanlarga qaraganda tasvirii san’at fani ancha ustun turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tasviriy san’atning insonlar hayotidagi roli yanada oydinlashadi.

Maktablarimiz dunyoviy ta’limga asoslangan bo‘lib, har bir fanning *oson, qisqa, asosli* o‘qitilishining pedagogik sharoitini yarata oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviylik, sistemalilik, ketma-ketlik, onglilik-faollik, ko‘rgazmalilik, ijodkorlik, nazariyot

bilan amaliyotning uzviyligi va yangi o‘quv materiallari, o‘quv fanlarini bir-biriga bog‘liq holda o‘qitishdan iborat bo‘ladi.<sup>6</sup>

Shunday qilib, maktabda tasviriy san’atni o‘qitish orqali bir qator ta’lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayoni o‘z o‘rnida o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida bolalarda materialistik dunyoqarash shakllantiriladi. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish realistik rasm chizishni o‘rganish odamlarga qanday imkoniyatlar yaratishini atroflicha ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yadi. O‘qituvchi suhbat jarayonida rasm chiza bilish har qanday ishda, har qanday mutaxassislikda qo‘l kelishini tushuntirib beradi. Masalan: insonlarda yozishdan oldin chizish qobilyatining shakllanganligini (ibtidoiy davrdagi qoyatoshlardagi tasvirlar), xozirda tasviriy faoliyatning boshqa fanlarni tushuntirishda qo‘llanilishi, teatr, kino, multfilm, arxitektura, mashinasozlik, o‘yinchoqlar, o‘quv qurollarini dizaynlari, kitoblarni badiiy bezash ishlarida, xona interyer dizayni va ishlab chiqarishning boshqa ko‘pgina soxalarida qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin. Maktabda tasviriy san’atning asosiy amaliy vazifalaridan biri o‘quvchilarni real rasm chizish usullari bilan qurollantirishdir. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga rasm chizish qurollari bilan qanday muomalada bo‘lish, to‘g‘ri va egri chiziqlarni qanday o‘tkazish, hajmli buyumlarni tekislikda qanday tasvirlay olish yo‘llarini o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning ijodiyy qobiliyatlarini o‘sirishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yar ekan, o‘qituvchi bolalar bilan ishlashning to‘g‘ri metodikasini ishlab chiqishi lozim bo‘ladi.

Fizika – matematika fanlari doktori, professor A.A.Kitaygorodskiy, shunday yozadi: Turli-tuman ko‘rinishlarga ega bo‘lgan go‘zallikni tushunish va sevish insonning ma’naviy boyishi uchungina emas, balki uning yaxshi ishlashi uchun

---

<sup>6</sup> B.N. Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi.(o‘quv]-metodik qo‘llanma) Toshkent – “ILM ZIYO” - 2013

ham kerakdir. Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyotchi va matematik, geograf yoki kimyogar, u nafosat va go‘zalliklarni ko‘ra olishi va tushuna olishi kerak.<sup>7</sup>

Tasviriy san’at bilan tanishish hayotdagi va san’atdagi go‘zallikni tushuna bilishga yo‘naltirilgan, tabiat va Vatanga bo‘lgan muhabbatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Har bir o‘quvchini hayotda, davlatimizning moddiy va ma’naviy rivojlanishida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlash uchun unga faqat bilim berib tarbiyalashgina kamlik qiladi, uning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, yangilik yaratishni o‘rgatish, go‘zallik qonuni bo‘yicha yashash va ijod qilishni shakllantirish lozim. Hayot go‘zalligini ko‘rishga intilish insonni olijanob qilib tarbiyalaydi, uning kundalik ishini estetik rohat-farog‘at manbaiga aylantiradi.

O‘quvchilarda bunday insoniy fazilatlarni shakllantirishda tasviriy san’at mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarni san’at asarlari va ularning ijodkorlari bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Suhbat davomida o‘qituvchi tasviriy san’at turlari, xalqlar madaniyatining rivojlanish tarixi, mashhur san’at asarlari, ulug‘ rassomlarning hayoti va ijodi haqida so‘zlab beradi.

Suhbat o‘tkazish jarayonida o‘qituvchi asosiy e’tiborini san’at asarlarini idrok qilishga, ya’ni ularni o‘qiy olishga qaratishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at fanining quyidagi turlari bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi:

Narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish.

Mavzu asosida rasm chizish.

Dekorativ rasm chizish.

Badiiy qurish-yasash

Tasviriy san’at asarlari haqida suhbat o‘tkazish.

Maktabda narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish tasviriy san’at fanining asosiy turlaridan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday darslarda o‘quvchilar ko‘z o‘ngida ko‘rinib turgan narsa va ob’ektlar rasmini chizadilar. Narsaning

---

<sup>7</sup> R.K.Rajabov, X.E.Sultanov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2008.

o‘ziga qarab rasmini chizish bolalarda narsa va hodisalarining xususiyatlari hisoblangan shakl, mutanosiblik, faktura, rang, fazoviy holatni tasvirlash qobiliyatini o‘stiradi.

Narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish darslarida o‘qituvchi o‘z e’tiborini quyidagilarga qaratishi maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning naturani ko‘ra bilishiga, undagi asosiy xususiyatlar - eng xarakterli va muhim tomonlarini tasvirlay olishiga;
- bolalarning chiziladigan narsa shaklini tahlil qila bilish ko‘nikmalarini o‘stirishga;
- buyumlarning konstruktiv tuzilishini, rasmini chiza bilishiga, perspektiva qoidalarini, ranglar haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishiga;
- obrazli fikr yuritishini o‘stirishga;
- o‘quvchilarni bironta jismni chizish vaqtida uning tashqi xususiyatini bilishga o‘rgatish kerak.

Naturani to‘g‘ri qo‘yish va tushunish rasmni sifatli chizishga yerdam beradi, chzishda va rang berishda ushbu qoidaga amal qilish kerak: umumiylidkan bo‘laklarga va bo‘laklardan yana umumiylikka o‘tish. Naturadagi detallar shaklini tahlil qila bilish, buyumlarning konstruksiyasini aniqlash, naturaga qo‘yilgan buaga qo‘yilgan buyum yoki detallarning mutanosibliklarini aniqlash, rasmda hajm va shakllar xarakterini tasvirlash yorug‘- soyaning buyum yoki detal yuzasida aks etishini to‘g‘ri tasvirlay olishiga bog‘liq bo‘ladi. To‘g‘ri tasvirlay olish uchun esa yorug‘-soya qonuniyatlarini bilish juda zarur. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar meva sabzavotlar hajmini qobilyatlariga yarasha tasvirlaydilar, shuning uchun ulardan detallar hajjni tasvirlashni yuqori darajada talab qilib bo‘lmaydi. O‘quvchilar naturadagi detallar yorug‘-soya va aks shulanining borligi sababli, buyumlar va detallar hajmli bo‘lib ko‘rinishini bilib olishi kerak. Sinfdagidan iqtidorli o‘quvchilarga iqtidori darajasida o‘rgatish va talab qilish lozim

Narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish darslarida uzoq davom etadigan vazifalarga 1 soat, qoralamalar uchun 10-15 minut vaqt ajratiladi. Uzoq davom

etadigan vazifalarda naturani qog‘oz farmatiga to‘g‘ri joylashtirish, yordamchi chiziqlar yordamida, perespektiva amal qilgan holda mukammal bajarish, keyin akvarel bo‘yoqlar bilan rang berish nazarda tutadi.

Xuddi shuningdek, xomaki ishlar ham qalam va akvarel bo‘yoqlar bilan bajariladi. O‘quvchilar tomonidan faqat akvarel bo‘yoqlari bilan bo‘yaladimi? Guashda bo‘yasa bo‘lmaydimi? Akril bo‘yog‘ida bo‘yasam bo‘ladimi? zaylidagi savollar bo‘lib turadi. Bunday xollarda o‘qituvch avvalo bu bo‘yoqlar to‘grisida ma’limotga ega bo‘lishi va o‘quvchilarga – guash va akril bo‘yoqlari narxi arzon emasligini, guashda ishslash texnikasi oson bo‘lgani bilan, sinfda ishslash jarayonida noqulayliklarni keltirishini (guashning xar bir rangi alohida idishlarda bo‘lganligi uchun barcha ranglardan foydalanish jarayonida partadagi sherigiga halaqit berishi), akril bo‘yog‘i (akril bo‘yogining ham xar bir rangi alohida idishlarda bo‘lganligi uchun barcha ranglardan foydalanish jarayonida partadagi sherigiga halaqit berishi) tez qurishi (qotib) qolishi natijasida noqulaylik keltirib chiqarishini to‘g‘ri tushuntirish kerak. Mobodo imkoniyati bor va xoxlovchi o‘quvchilarga guash va akril bo‘yoqlarida ishslashga ruxsat berish, ishslash texnikasini o‘rgatish lozim.

Maktabda qalam bilan rasm chizish uchun maxsus mashg‘ulotlar ajratilgan. Bunday mashg‘ulotlar kuzatuvchanlikni o‘sirishga, naturani mukammal idrok qilishga, jonli va jonsiz bo‘lishidan qat‘i nazar narsadagi xarakterli, tipik tomonlarini ko‘ra olish hamda chiza olishga o‘rgatadi. Xomaki ishlar yuzasidan o‘tkaziladigan darslar narsalarni to‘liq ko‘rish qobiliyatini tarbiyalaydi, naturani ko‘ra bilishga o‘rgatadi.

Naturalarni ko‘ra bilish, ular geometrik shaklda ekanligini anglagan xolda idrok qilish va ayni vaqtida shu narsaga xos xarakterli belgilarni aniqlay bilish juda murakkab jarayon ekanligi hamda bu ishni bolalar o‘qituvchining kuzatuvisiz bajara olmasligini hisobga olish kerak.

Narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish darslarida ba’zan bolalar naturani idrok qila olmagan xolatlar ham uchrab turadi. Bu xol ko‘pincha chiziladigan

naturadagi detallarning xarakterli holatda qo‘yilmaganoda ro‘y beradi. Natijada bolalar chizayotgan ishlarida narsalarning o‘lchov nisbatlari va o‘zaro nisbatlarning buzuladi, naturadagi detallar o‘z o‘rnida chizilmaydi, xattoki ayrim detallar rasmdan tushib qoladi. Shuning uchun chizish uchun narsa qo‘yilganda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

Narsani xarakterli xolatda qo‘yish (bir tomonidan ko‘rinish). Masalan, soat, barg, ninachi, kapalak, portfel old tomonidan ko‘rinishini, mashina, baliq, oyoq kiyimi, bolta kabilarni yon tomonida chizdirish maqsadga muvofiq. Ushbu tavsiyalar 1-2 sinf bolalari uchun mos keladi. 3-4 sinf o‘quvchilari uchun esa chizdirish uchun narsani old, usti va yon tomonlari bir vaqtning o‘zida ko‘rinib turadigan qilib qo‘ysa ham bo‘ladi.

Chiziladigan narsa hamma o‘quvchiga bir vaqtning o‘ziada aniq ko‘rinib turishi lozim.

O‘quvchilarning naturani idrok qilishlarida o‘qituvchi nutqi asosiy ekanligini unutmaslik lozim. O‘qituvchi nutqi kuzatilayotgan narsani muayyan darajada ifodalab beradi va chizilayotgan narsani tahlil qilishga o‘rgatadi.

Maktabda narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslari ikki narsani amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yadi:

Chiziladigan narsalarni idrok qilishga o‘rgatish: kuzatish, tahlil, solishtirish.

O‘quvchilarni tasvirlay olishga o‘rgatish: rasm daftariga to‘g‘ri joylashtirish, yordamchi chiziqlardan foydalanish, narsaning umumiy shaklini ko‘ra bilish, rang bera olishga.

Narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish jarayonida o‘quvchilar narsalarni o‘zaro solishtiradilar. Masalan: barg rasmini chizmoqchi bo‘lsa, bargni boshqacharoq barg bilan va qaychi rasmini chizmoqchi bo‘lsa, qaychini boshqacharoq qaychi bilan solishtiriladi. Bu narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda katta yordam beradi. Shuning uchun dars jarayonida chizilayotgan rasmni narsa bilan solishtirib turish, chizilayotgan ramdagagi xatolarni tuzatishda foydasи tegadi.

Narsalarni tasvirlashda chizuvchidan ularning xarakterli xususiyatlarini, asosiy o‘lchov nisbatlarini, naturadagi detallarning o‘zaro nisbatlarini (qaysi katta va qaysi kichikligini), detallarning tuzulishini, naturadagi detallarningo‘zaro bog‘liqligini, har bir narsaning rangini to‘g‘ri ifodalash talab etiladi. Shu sababli narsalarning xususiyatli tomonlarini tasvirlash uchu qo‘yiladigan narsalarni to‘g‘ri tanlash va ularni chizishda to‘g‘ri joylashtirish alohida axamiyatga ega.

Narsalarni aniq tasvirlashga uni to‘g‘ri kuzata bilish natijasidagina erishish mumkin. Shuning uchun ham kuzata bilish tasviriy san’at darslarida o‘qitishning asosi hisoblanadi. Qishini o‘rab olgan narsalar juda murakkabdir. Shuning uchun ham bolalar, hattoki kattalar ham ularni to‘g‘ri kuzata bilmaydilar. Shu sababdan narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish darslarida bolalarni har bir narsani kuzata bilishga, tahlil qila olishga o‘rgatish tasviriy san’at darslarida nihoyatda muhimdir. Chizishda bolalar narsa haqida bilganlariga asoslanib emas, balki ularning haqiqiy ko‘rinishiga asoslanib tasvirlashlari talab etiladi.

Narsalar rasmini bo‘yashdan avval, ular rangining farqiga borishga va bu ranglarni buyum va narsalar (gul, sabzavot, meva v. b.) da topa bilishga, nomlarini to‘g‘ri aytishga o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni narsalar rangini to‘g‘ri topishga o‘rgatish maqsadida o‘qituvchi rasmdagi narsa rangini narsaning haqiqiy rangi bilan solishtirib ko‘rsatadi va bu orqali bolalarda rasmni narsa bilan tez-tez solishtirib turish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Narsalarni chizish uchun uni to‘g‘ri o‘rnatish to‘g‘risida gap borganda shuni aytib o‘tish kerakki, chiziladigan narsalar qayerga qo‘yilishidan qat’iy nazar uning hamma bolalarga aniq ko‘rinishiga erishish lozim. Ularning shakli narsa fonida aniq sezilib turishi talab etiladi.

Agarda chiziladigan narsa to‘q rangda bo‘lsa, uning foni och rangda bo‘lishi va aksincha chiziladigan narsa och rangda bo‘lsa, uning foni to‘q rangda bo‘lishi lozim.

Ba’zi bir mayda narsalarni (barg, kapalak, ninachi, gullar, sabzi, qaychi, olma

v. b.) chizish uchun ular har bir partaga, hattoki har bir o‘quvchining oldiga alohida-alohida qo‘yiladi. Masalan, o‘rtacha kattalikdagi bolta, kapkir, o‘yinchoqlar, daftar, portfel kabilar o‘quvchilarning har bir qatori to‘g‘risiga o‘rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Chizish uchun qo‘yilgan narsalarning faqat bir tomoni ko‘rinib, qolgan tomonlari ko‘rinmagani ma’qul. Chizdiriladigan narsalar va o‘quv qurollarini dars boshlanmasdan avval tayyorlab qo‘yish hamda buzilganlarini yaroqli holga keltirish o‘qituvchiga mashg‘ulot jarayonida ma’lum qulayliklar tug‘diradi.

Chizdiriladigan narsalar bolalarning estetik hislarini uyg‘otadigan, ya’ni toza, chiroyli va rang jixatdan yorqin bo‘lishi lozim.

Qo‘llanmada ko‘rsatilgan narsalar topilmagan taqdirda ularning o‘rniga shunga o‘xshash bironta narsaning rasmini chizdirish mumkin. Biroq ularning shakli murakkab va bo‘laklari ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Dekorativ rasm darslarida o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash imkoniyatlari ancha kattadir. Chunki bunday darslarda o‘quvchilar xalq amaliy san’atining asl nusxalari bilan tanishadilar, uning ustalari kabi bolalar ham shu sohada ijod qiladilar. Shu jumladan amaliy san’atdagi ritm, rang, simmetriya kabi ifodalilik vositalari haqida fikr yuritadilar. Dekorativ rasm chizish darslari bolalarda rasm chizishning birlamchi ko‘nikma va malakalarini hosil qilish imkonini beradi.

O‘quvchilar dekorativ rasm darslarida naqsh ishlash uchun uning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olishinishini, bunga gullar, o‘simpliklar, daraxt shoxlari, barglari, meva va sabzavotlar, qush va hayvon tasvirlari xizmat qilishini anglab olishlari kerak.

O‘quvchilari dekorativ-amaliy san’atning ifodaligi vositalarini bilishga va bu orqali o‘z fikrlarini amalga oshira oladilar. Eng sodda badiiy buyumni dekorativ jihatdan bezatish ustida ish olib borayotgan o‘quvchiga o‘qituvchi dekorativ-amaliy san’atga xos bo‘lgan bezatish asoslarini tushuntirib berishi lozim. Buning uchun u natyurmortdagi meva rasmini naqshdagi meva rasmiga solishtirib

ko‘rsatadi. Dekorativ ishslash jarayonida o‘quvchilarning bezak buyumlarning vazifasiga, shakliga, materialiga bog‘liqligi haqidagi tushunchalarini doimo o‘stirib borish kerak.

Maktab o‘quvchilari uchun asosida tabiiy va geometrik shakllar yotadigan yo‘l-yo‘l, to‘rtburchak, kvadrat va doira shaklidagi naqshlar chizdiriladi. v qayta ishslash uchun uzum, chinor, paxta barglari, bahorgi gullar, mevalar qo‘llaniladi. Dekorativ rasm chizishga kirishishdan avval bu tabiiy shakllarning o‘ziga qarab rasmini chizish kerak bo‘ladi. Shunigdek, o‘quvchilarning tabiiy shakllarni stilizatsiyalash bo‘yicha mashqlar bajarib turishi ham foyda beradi. Stilizatsiyalash dekorativ qayta ishlanadigan tasvirlarning shakli, silueti va rangiga taalluqlidir. Dekorativ-amaliy san’atda stilizatsiyalash deb tabiiy shakllarning rasmini, hajmini va rangini soddalashtirish yo‘li bilan dekorativ umumlashtirishga aytildi.

Naqshlarni stilizatsiyalashda qo‘llangan ranglar real buyum va hodisalarda bo‘lmasligi mumkin. Dekorativ san’atda predmet rangi nisbiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda dekorativ rasm chizish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Tayyor naqsh namunasidan ko‘chirish.
- Mustaqil naqsh tuzish.
- Dekorativ grafik ishlar.


O‘quvchilar naqsh namunasidan ko‘chirish darslarida naqsh chizishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan, ritm, simmetriya va uning ahamiyati bilan tanishadilar, ranglarning nomlarini o‘rganadilar, bo‘yoqlar va ularni omuxta qilib ishlatish ustida ish olib boradilar. Naqsh namunasidan ko‘chirish darslarida rasm chizishni va naqshga rang berishni bosqichlar bilan olib borishni o‘rganadilar. Naqsh namunalaridan ko‘chirish va mustaqil naqsh chizish darslarida o‘quvchilar ko‘z bilan chamalashni o‘rganadilar, qalam, akvarel, mo‘yqalam, rangli qog‘ozlar bilan ishslash usullari bilan tanishadilar. Bularidan tashqari, naqsh namunasi o‘lchoviga teng bo‘lgan o‘lchovda va undan kattalashtirib, kichiklashtirib chizish ustida ham ish olib boradilar.

Naqsh bilan bezatilgan buyumlarni o‘qiy olishga o‘rgatish boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biridir. Shu maqsadda naqshning qurilishi, qanday bo‘laklardan tuzilganligi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, naqsh elementlarining takrorlanishi, naqsh bo‘laklarining birligi yoki ularning bir-biridan farqi, naqsh qaysi usulda ishlanganligi hamda naqsh namunasining bo‘yalishi va hokazolar o‘rganiladi. Naqsh namunasidan ko‘chirish va mustaqil naqsh chizish, xalq ijodi namunalarini ko‘rsatish, naqsh san’ati asarlarini ko‘chirish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarining badiiy didi shakllantiriladi (1-rasm).



1-rasm.

Mustaqil ravishda naqsh chizdirish orqali bolalarning ijodiy qobiliyati, fantaziysi va tafakkuri rivojlantiriladi. Bunda o‘quvchilar qachondir ko‘rgan naqshlariga o‘xhatib o‘zları naqsh chizadilar, oqibat natijada ular naqsh chizishdagi kompozitsiya qoidalarini o‘zlashtirib oladilar. Quyidagicha mashqlar bajarish o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar shakllantiradi (2-rasm).



2-rasm.

O‘quvchilar naqsh chizish darslarida rasm chizishning turmushdagi ahamiyatini tushunadilar hamda olgan bilimlari va malakalaridan keyinchalik ijtimoiy foydali mehnatda, turmushda, devoriy gazeta chizishda, zalni bezatishda, mehnat, geografiya, tarix va boshqa fanlarida foydalanadilar.

O‘quvchilarga o‘zbek xalq amaliy san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha berish va ularning estetik idrok etish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida suhbatlar o‘tkazib turish yaxshi samara beradi. O‘quvchilarga o‘zbek milliy naqsh namunalaridan tashqari boshqa xalqlarning

naqshlarini ko‘rsatish ularning amaliy san’atning o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishiga yordam beradi.

Amaliy san’at haqidagi suhbatning mazmuni o‘quvchilarning tayyorgarligiga qarab (qaysi sinfda o‘qitilishiga qarab) turlicha bo‘lishi mumkin. Suhbatda bolalarning e’tibori idish-tovoqlar, so‘zanalar, gilamlar, metalldan ishlangan idishlar, turli xil kiyimlarning bezatilishi turli-tuman ekanligiga qaratiladi. Bunday namunalarni bolalarga faqat sinfdagina emas, balki muzeys va ko‘rgazmalarga, yodgorlik va saroylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ko‘rsatish mumkin.

Bolalarning yodiga tushirish uchun ularga avvaldan ma’lum bo‘lgan naqshlarni chizish sxemasining variantlarini doskaga ishlab ko‘rsatish ham mumkin. Naqsh elementlarini bolalarning esiga tushirish uchun gullar, mevalar rasmi tasvirlangan ko‘rgazmali qurol doskaga osib qo‘yiladi, o‘quvchilar ulardan o‘zlariga yoqqanini tanlab chizadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni ko‘rsatilgan naqsh elementlari bilan chegaralab qo‘ymasligi lozim. O‘quvchilar boshqacha elementlardan naqsh chizish xohishlari borligini bildirganlarida ularning bu fikrlarini ma’qullah kerak. O‘quvchilar o‘z naqshlarini bo‘yab boshlashidan oldin o‘qituvchi ularga bo‘yalgan naqsh namunalaridan ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘z naqshlarini xohlagan rangga bo‘yaydilar. Boshlang‘ich sinflarda dekorativ-grafik ishlarning vazifasi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, dars jarayonida olgan bilim va malakasini hayotda, amaliy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda bu sinflarda bolalarga 1 sentiyabr Mustaqillik bayrami, 1 oktiyabr o‘qituvchi va murabbiylar kuni, 8 dekabr konstitutsiya qabul qilingan kun, 31-dekabr yangi yil, 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni, 8 Mart xalqaro xotin qizlar bayrami, 21-mart Navro‘z bayramlari munosabati bilan tabriknoma eskizini ishslash vazifa qilib topshiriladi.

Darsda va darsdan tashqari vaqtarda tayyorlangan bunday tabriknomalar bilan bolalar ota-onalarini va opa-singillari, yaqinlarini bayram bilan tabriklaydilar. Tabriknoma eskizini ishslash mashg‘ulotlarida o‘qituvchi avvaliga bolalarga

turlicha tabriknomalar, bolalarning ishlaridan namunalar ko'rsatadi. Vazifalarni bajarayotganda o'qituvchi bolalarning ishga ijodiy yondashayotganiga ahamiyat beradi, ularni rag'batlantirish maqsadida yaxshi chizilgan ishlarni sinfda namoyish qiladi.

Mavzu asosida rasm chizish tasviri san'atning eng qiziqarli va eng zarur yo'naliishlaridan biridir. Mavzu asosida chizilgan rasmlar asosan mazmunli bo'lishi lozim. Mazmunli rasmlar chizish uchun hayotiy voqealardan olingan mavzular, chet davlatlardagi odamlar hayotiga oid mavzular, adabiy asarlar manba bo'lib xizmat qiladi.

Odatda o'qituvchi vazifa berishda bitta yoki bir necha mavzu tavsiya etadi. O'quvchilar esa birini tanlab, shu mavzu asosida rasm chizadilar. Mavzu asosida rasm chizish darslarida o'quvchilar narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, san'at haqida suhbat o'tkazish darslarida olgan bilim va malakalaridan keng foydalanadilar.

Bunday darslarda bolalarning narsaning o'ziga qarab rasmini chizish jarayonida buyumlarning o'lchovi, mutanosibligi, rangi haqida olgan bilim va malakalari dekorativ rasm chizish darslarida qo'l keladi.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida bolalarning fantaziysi va tasavvuri faol faoliyatga aylanadi. Shuningdek, bunday mashg'ulotlar dunyoni bilish uchun xizmat qiladi. Mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, o'quv materialini tushungan holda o'zlashtirishga erishish, ko'rsatmalilik kabi talablarni bajarish, o'qitishni ma'lum ketma-ketlikda va muntazam amalga oshirishdan iboratdir. Bular quyidagi vazifalarni amalga oshirish bilan bog'lanadi:

predmet va buyumlarning vazifasi, shakli, rangi va boshqa sifatlariga o'quvchilar e'tiborini qaratgan holda, ularning predmet va buyumlar go'zalligi haqidagi tushunchalarini shakllantirish;

mavzuga oid rasm chizish maqsadida dastlabki kuzatish malakalarini o'stirish;

eng qiziq mazmunni tanlay bilishga o‘rgatish;

qog‘ozda rasmni to‘g‘ri joylashtnrishda shakl va rang muvozanatini saqlab qolishga erishish;

o‘quvchilarga buyumlar ko‘zdan uzoqlashib borgan sari kichrayib borishini rasmda tasvirlash malakalarini o‘stirish va ufq chizig‘I bilan tanishtirish;

buyumlarning konstruktiv xususiyatlarini, ularning rasmini, qurilishini, buyum bo‘laklari orasidagi mutanosiblikka rioya qilgan holda tasvirlash malakalarini o‘stirish;

odam gavdasining tuzilishini rasmda tasvirlashga o‘rgatish;

mavzu asosida rasm chizishda obraz va narsalarning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri tasvirlash malakalarini o‘stirish.<sup>8</sup>

Naturadan chiziladigan hamma rasmlar odatda guash yoki akvarel bo‘yoqlar bilan ishlanadi. Biroq narsaning o‘ziga qarab chiziladigan dastlabki xomaki rasmlar faqat qalam, tush yoki akvarel bo‘yoqlar bilan bajariladi. Chunki guash bilan xomaki ish qilish birmuncha qiyinchiliklarga olib keladi.

Mavzu asosida rasm chizishni tashkil qilish mavzuga oid bo‘lgan materiallarni oldindan o‘rganishni talab qiladi. Shuning uchun o‘quvchilar ishga kirishishdan avval kompozitsiyada ishtirok etuvchi buyum va ob’ektlarning xomaki rasmlarini chizadilar. Xomaki rasmlar naturaga qarab bajariladi. Mavzu asosida kompozitsiya yaratish jarayoni uchun tayyorgarlikning taxminiy tartibi quydagicha bo‘lishi mumkin:

mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan borliqni kuzatish (shuningdek, illustratsiya chizishda ham), ya’ni hayvonlar, qushlar, daraxtlar, binolar, odamlar harakati va boshqalarni maqsadga muvofiq ravishda kuzatish;

mavzuga aloqador bo‘lgan naturaning xomaki rasmini chizish (qalamda, akvarelda, sinfda, uyda yoki ko‘chada);

yig‘ilgan materiallar asosida qalamda kompozitsiya tayyorlash;

---

<sup>8</sup> Sultanov X.E., Sobirov S.T. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. (1-sinf uchun). O‘quv qo‘llanma. - T.: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021.

ishni rangda bajarish.

Kompozitsiya yaratishning tayyorgarlik bosqichida o‘quvchilar perspektiva, rangshunoslik yuzasidan olgan bilimlaridan keng foydalanishlari kerak. O‘qituvchi vazifani mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otishi darkor. Masalan, adabiy asarning mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan mavzuni ochib ko‘rsatishda o‘qituvchi bolalar e’tiborini hikoya, masal yoki ertakning g‘oyaviy tomoniga qaratib o‘quvchilarga tushuntirib berishi zarur.

Natijada o‘quvchilar asardagi asosiy voqeylek nima haqida ketayotganligini, undagi qaxramonlar kimlar, ularning xarakterlari va sifatlari qandayligini tushuna boshlaydilar. Mavzuni tushuntirgach, o‘qituvchi asarning mazmuni haqida suhbat o‘tkazib, vazifani yanada aniqlashtiradi. Birgina mavzuni turli xil mazmunda, har birini o‘ziga xos ko‘rinishda talqin qilgan holda tasvirlash mumkin. Masalan, “O‘lkamizda bahor” mavzusiga o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlari orqali yig‘ilgan materiallar asosida o‘lkamizning go‘zal manzarasini, tog‘laridagi baxorni, bog‘larni va bolajonlarning varak uchirayotganini, turli qushlarni tasvirlashlari mumkin. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi mavzuni qanchalik keng va to‘liq tushuntirsa, o‘quvchilar rasmlari shunchalik mazmundor va sifatli chizadilar.

Ba’zi o‘quvchilar qulay mavzu tanlasalar, boshqalari bunday xususiyatga ega emaslar. Ularda ijodiy tafakkur, fazoviy tasavvur yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi, bunday o‘quvchilarga o‘qituvchi alohida e’tibor berishi, tasvirlash zarur bo‘lgan holatni, g‘oyaviy mazmunini va ma’noni to‘liq yoritib berishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi u yoki bu mavzuni yoritib berishda har qanday mazmunli rasm kompozitsiyadan boshlanishini tushuntiradi. Masalan, qaysi shakl qanday yuzada, qog‘oz sathining qayerida (Joylashishini qanday ranglar bilan ishlanishini tasavvur qilishi, rasmda asosiy narsa yoki obraz kim yoki nima bo‘lishini bilishi kerak.

Biron ta shahar yoki qishloq hayotidan olingan mavzuga kompozisiya chizish uchun birinchi qismda mavzuga mos qomatni, orqa planda tabiatni, odamlar guruhini, uylar daraxtlar, mashina va boshqalarni tasvirlasa bo‘ladi. O‘quvchilar kompozitsiyaning umumiy sxemasini belgilashda ufq chizigini va ko‘rish nuqtasini

to‘liq tasavvur qilishlari lozim. Ana shu ko‘rish nuqtasi va ufq chizig‘i orqali bolalar perspektiv qisqarishni va mutanosibliklarni aniqlashtiradilar va tuzatadi. Kompozitsiyani tugatish jarayoni muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar ba’zi narsalar rasmini aniq ishslash va detallashtirish orqali ko‘pincha o‘quvchi rasmning bir butunligini buzadi, nati- jada kompozitsiyada yorug‘-soya va yarim soyalarning rasmdagi o‘zaro uyg‘unligi o‘zgaradi. Bunday hollarda o‘qituvchining mo‘yqalamni qo‘liga olib rasmni tuzatishi to‘gri bo‘lmaydi. O‘quvchining xatosini tushuntirib, unning o‘ziga rasmdagi xatosini tuzatishni o‘rgatish kerak. Tushuntirishda ko‘rgazmali qurollardan, o‘quvchilarning na’munali rasmlaridan, rassomlar asarlarining reproduksiyalarini ko‘rsatish yaxshi natijalar beradi.

Agar sinfda boshlangan ish dars oxirigacha tugallanmasa, o‘qituvchi uni tugallashni uyga vazifa qilib topshirishi mumkin. Bunday hollarda o‘qituvchi bajarilgan ishlarning muhokamasini keyingi darslarda o‘tkazadi. Rasmlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning o‘z fikrlarini bayon etishiga to‘la imkon berish kerak. Ularning javobidan mavzuning qanday o‘zlashtirilganligini va kompozitsiya qoidalari yodlarida qay darajada saqlanib qolganligini bilib olsa bo‘ladi. Mavzu asosida rasm chizish darslarida turli xildagi san’at asarlarining reproduksiyalari bo‘lishi talab etiladi.

Illyusdrativ rasm chizish mashg‘ulotlari uchun o‘qituvchining matnga taalluqli bo‘lgan hayvon rasimlarini tayyorlab kelishi va hikoyani ifodali qilib o‘qib berishi talab etiladi. “Tulki va turna” ertagi asosida rasm chizdirish uchun avvalo o‘qituvchi ertakning bayoni va illyustratsiyalari o‘quvchilar bilan birgalikda taxlil qilinadi. Bunda illyustratsialarning ertakning mazmuniniga mosligi va g‘oyasini ohib bera olganligi haqida fikr yuritiladi. Hikoya mazmunining ikki-uch o‘quvchiga so‘zlatilishi bolalar asar mazmuni va ertak, hikoya qaxramonlari haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Shundan keyin hayvonlarning harakatdagi holatini hayoldan tasvirlash uchun yordamchi chiziqlar bilan oson chizish usullari doskaga amaliy chizib ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bor

illyustratsiyalarni ko‘chirmasdan ulardan foydalanishi tushuntiriladi. Bolalarga shu ertakka ishlangan parallel sinf o‘quvchilarining rasmlaridan ko‘rsatiladi. Iloji bo‘lsa bolalrga shu ertak asosida ishlangan animatsion film nomoish etilsa, o‘quvchilarning ertakdagagi qahramonlarning obrazini tasavvur qilishi osonlashadi.

Topshiriqlarning har biri bu o‘qituvchining rahbarlik qilishni talab etadi. Topshiriqlardan asosiy maqsad bolalarning kuzatuv ishlarini muayyan bir yo‘nalishda olib borish va ularning ijodiy qobiliyatini, tasavvurini o‘stirishdir.

Hayvonlar va odamlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularga rasm chizdirilayotganda o‘quvchilarga o‘yinchoqlar va haykalchalarni ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu - hayvon yoki odamning xarakterli belgilariga bolalar diqqatini jalb qilish, uni har turli nuqtai nazardan ko‘z o‘ngiga keltira olish imkonini beradi. Mavzu yuzasidan sayohat tashkil etilishi lozim. Bunda bolalarning asosiy e’tibori faqat kuzatilayotgan narsalarnnng tuzilishi, tabiatda joylashuvigagina emas, balki tabiatning o‘ziga xos go‘zalligiga, ranglarning turlitumanligiga qaratilishi, bu bilan ularda estetik idrok etish tarbiyalab borilishi kerak.

Sayohatda quruq kuzatish bilan cheklanib qolmasdan, suhbat vositasida amalga oshirish va bu suhbatda bolalar faol ishtirok etishlari lozim. O‘quvchilarning faol ishtiroki tafakkurining o‘sishiga, xotira va tasavvurlarining rivojlanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi. Shunda keyingi bosqichda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga rahbarlik qilinadi. Agar darsning birinchi qismida o‘qituvchi bolalar bilan ko‘rganlari va kuzatganlari haqida suhbat olib borsa, ikkinchi qismida ularning ijodiy ishida individual yordam ko‘rsatadi.

Dars jarayonida bolalarning ishlarida umumiy xatolar ro‘y bergen taqdirda o‘qituvchi ularni ishdan to‘xtatib tegishli ko‘rsatmalar berishi mumkin. Dars jarayonida o‘qituvchi muvaffaqiyatli chiqqan rasmlardan bir nechtasini bolalar- ga ko‘rsatishi va shu ish egalarini rag‘batlantirishi kerak. Natijada boshqa bolalar ham shunday ishlashga harakat qilsinlar. Bolalar har qanday rasmni tezroq bo‘yashga juda shoshiladilar. O‘qituvchi bolalar ishini o‘z vaqtida nazorat qilib turmasa,

ko‘pchilik o‘quvchilar tugallanmagan tasvirni ham bo‘yab qo‘yadilar. Muvaffakiyatsiz chiqqan rasm o‘quvchining tasviriy faoliyatiga bo‘lgan aktivligini pasaytiradi. Shunday ish bir necha bor qaytarilgach, o‘quvchining chizishga bo‘lgan qiziqishi susayadi. Ana shunday muvaffaqiyatsizliklarni kamaytirish maqsadida o‘qituvchining ruxsatisiz o‘quvchining rasmni bo‘yashi qat’iy taqiqlanishi lozim. Darsning oxirida muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz ishlangan ishlardan bir nechtasini tanlab olib, bolalar ishtirokida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tahlilda rasm kompozitsiyasi, rangi, tasvirning ishonarli yoki ishonarsiz ekanligi, obrazlar va narsalarning o‘zaro bog‘liqligi hamda boshqalar haqida fikr yuritiladi. Shunday qilingan taqdirdagina bolalar to‘g‘ri va noto‘g‘ri ishlangan ishlar haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bunday muhokamalar ba’zi bolalarni rag‘batlantirib, ijodiy izlanishlar tomon yo‘llaydi. Mavzu asosida rasm chizishga o‘rgatishda bolalarni jonli tabiat bilan yuzlashtirishning roli kattadir.

Tabiat qo‘yniga sayohat uyunushtirilar ekan, o‘qituvchi o‘sha manzarani o‘quvchilarga ko‘rsatishdan avval uning mavzuga mos yoki mos emasligini bilib olishi lozim. Qisqasi, o‘quvchilar sayohatga boradigan joy eng xushmanzara bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tabiatga sayohat uyunushtirilar ekan, bolalar e’tibori tabiatning naqadar go‘zalligiga qaratilishi va uning go‘zalligini o‘qituvchi ifodali so‘zlar bilan o‘quvchilar ongiga yetkazishi lozim. Shundagina go‘zallikka intilish, undan lazzatlanish hislari rivojlanib boradi, o‘quvchilarda shakllantirnladigan bu his va tuyg‘ular asosida esa narsa va ob’ektlarni kuzata bilish yotadi. Tabiatni kuzata bilish bolalar tomonidan narsalarning shaklini tushunib yetishga, turli rang birikmalarini ko‘ra olishga olib keladi. Kuzatuvchanlik tabiatni idrok qilishni yengillashtiradi. Tasviriy san’at asarlarini idrok qilishda ahamiyati kattadir. Tabiat manzarasini tasvirlovchi tasviriy san’at asarini sevish esa o‘z o‘rnida tabiatni sevshishga ta’sir ko‘rsatadi. Taviriyl san’at asarlari haqida suhbat o‘tkazish bolalarning badiiy didini o‘stirishga, go‘zallikni sevish va tushunishga yordam beradi.

Birinchi va ikkinchi sinflarda tasviriy san’at bo‘yicha suhbat o‘tkazish uchun maxsus soatlar ajratilmaydi. Suhbat darslari fasllarga bag‘ishlab o‘tkaziladigan mavzu asosida rasm chizish darslari bilan qo‘sib olib boriladi. Bu sinflarda suhbat uchun ajratilgan vaqt 15-20 minutdan oshmasligi lozim. Chunki uzoq davom etadigan suhbatlar o‘quvchilarni zeriktiradi.

Kalendar tematik rejada o‘quvchilarga tavsiya etilgan suratlar yoki reproduksiyalari mактабда yoki sotuvda topilmagan taqdirda shu mavzuga mos keladigan boshqa suratning reproduksiyasini bolalarga ko‘rsatish mumkin. Biroq bu asarlar standartga javob berishi lozim. Ular jamiyat, tabiat hayotining turli tomonlarini olib ko‘rsatadi. O‘quvchilar suratlarda tabiat jamolini, kishilarning qadimiy va hozirgi hayotini, kelgusi porloq hayotga bo‘lgan ishonchini ko‘rib biladilar. Badiiy obrazlar o‘quvchilarga nihoyatda kuchli ta’sir ko‘rsatadi, ularda turli fikr va hislar uyg‘otadi.

O‘qituvchining vazifasi surat mazmunini tushuntirib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki unga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, suratning badiiy tilini tushuntirish, rassomning suratda tasvirlangan fikr va his-tuyg‘ularini, usul va vositalarini o‘quvchilar ongiga yetkazishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at asari haqida suhbat savol-javob va hikoya qilib berish tarzida amalga oshiriladi. Ko‘pchilik hollarda suhbat bunday darslarning aktiv formasi hisoblanib, u har bir darsda qo‘llaniladi. Ammo suxbatni uzoq davom ettirish Yuqorida qayd etganimizdek o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yadi.

O‘quvchilarni sportga, ertak qaxramonlariga oid mavzular ham zo‘r qiziqish uyg‘otadi. Ayniqsa futbol, boks, tennis, volleybol kabi o‘yinlar asosida chizilgan bolalar rasmlari boshqa mavzudagi ishlardan o‘zining yuqori saviyada ishlanganligi bilan farq qiladi. Bu narsa tabiiy, chunki bolalar o‘yining shu turlari bilan shug‘ullanadilar yoki bunday o‘yinlarni televizor ekranlarida tez-tez tomosha qiladilar. Natijada ular o‘yin yoki tomoshadan katta taassurot oladilar. Bolalarga “Ko‘chamizda futbol o‘yini”, “Yugurish bo‘yicha musobaqa”, “Boks” va boshqa shu kabi sportga oid mavzularni chizish uchun tavsiya etish mumkin.

Sport o‘quvchilarning kundalik faoliyatları bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun tasviriy faoliyatga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, bolalar o‘z tasviriy faoliyatlarida original syujetli rasmlar ishlashga qiziqadilar. O‘quvchilarni turli shakldagi samaliyotlar (harbiy, yo‘lovchi), hayvonlar, transport vositalari, tog‘lar, daryolar, o‘simlik hamda daraxtlar qiziqtiradi va o‘ziga chorlaydi.

Qiziqarli mavzular qatoriga “Otchoparda”, “Dorboz bola”, “Hayvon o‘rgatuvchi”, “Sirkda”, “Zooparkda” va boshqa shu kabi mavzularni ham kiritish mumkin. Xayoldan va tasavvurdan rasm chizish mashg‘ulotlarida bu eng yaxshi ko‘rgan o‘qituvchim, onam, mening do‘stim portreti mavzularida rasmlar ishlatish ham mashg‘ulotlar samaradorligini, o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ular o‘lari sevgan kishilarining rasmini asliga o‘xshatishga jondidan harakat qiladilar. Erishgan yutuq va ish natijalaridan esa zavqlanadilar. Ma’lumki, bolalar ertaklar asosida ham zo‘r ishtiyoq bilan rasmlar chizadilar. Bolalar sevib o‘qiydigan yoki tinglaydigan ertaklarga rasm chizdirilsa yana ham samarali natijalar beradi. Bunday ertaklar qatoriga “Bo‘g‘irsoq”, “Bo‘ri bilan tulki”, “Tulki bilan turna”, “Sholg‘om”, “Susambil”, “Ikki echki”, “Uch tulki” va boshqalarni kiritish mumkin. Rasm chizishda mavzuni to‘g‘ri tanlashning narsalarning o‘ziga qarab rasmini chizish darslarida ham ahamiyati katta. Bunday darslarda turli buyumlarni chizdiraverish bolalarni ancha zeriktiradi, mashg‘ulotlarning bu turiga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi. Bunday buyumlar rasmini chizdirish bolalarning rasm chizish malakalarini oshirishda katta samara berishi sir emas. Biroq bu barcha o‘quvchilarda ham samara beravermaydi. Shuning uchun shunday mavzular tanlash kerakki, ular hamma o‘quvchilarni rasm ishlashga qiziqishini orttirsin va ularning bilim va malakalarini o‘sirishga samarali ta’sir ko‘rsatsin. Ayniqsa chizdirish uchun turli xil kattalikdagi buyumlarni, turli xil rangdagi narsalarni qo‘yish yaxshi natijalar beradi. Masalan, tarvuz, qovun, anor, olma, qovoq, pomidor, nok, baqlajon, rubob, tambur, dutor, surnay, sopol lagan, tovoq, chinni vaza, tunuka patnis, chinni choynak, piyola va boshqalar. Shuni ham qayd qilib o‘tish lozimki, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish

maqsadida mavzular tanlashda unga bir yoqlama qarash yaramaydi. Bunda asosiy e'tibor faqat mavzular, chizdiriladigan narsalar va naqshlarning qiziqarli bo'lishigagina emas, balki bu materiallar bolalarning idroki, tasviriylar imkoniyati va qobiliyatiga qarab tanlanishiga, mavzularning mакtablarda olib boriladigan ta'limgartbiya vazifalariga mos bo'lib tushishiga ham qaratilishi zarur. Ma'lumki, ko'pchilik o'qituvchilar turli xil material hamda kamunikatsion texnologiyalarni qo'llashga yetarli e'tibor bermaydilar.

Hozirgi vaqtida maktablarda o'quvchilar rasm daftari, bo'yoq qalam, oddiy qalam va o'chirg'ichdan foydalanish bilan chegaralanib qolmoqdalar. Ba'zi bir maktablarda qisman akvarel bo'yoqdan fondalanilmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday sharoitda berilayotgan vazifalar bolalar uchun zerikarli va qiziqarsiz bo'ladi.

Rasm ishslashda faqat bo'yoq va akvareldangina emas, balki guash, tempera, tush, rangli bo'rilar, pastel, flomaster kabilardan ham keng foydalanish mumkin.

Rasm ishslashda oq, rangli, silliq, g'adir-budur, katta o'lchovli, kichik o'lchovli, zarli, karton va boshqa qog'ozlarning turli-tumanini ishlatish yaxshi natijalar beradi. Rasm ishslashda tabiiy materiallar hisoblangan qovun, tarvuz, bodring, mosh, loviya, jo'xori, qovoq urug'i, yeryong'oq, quritilgan barg va gullar, shuningdek rangli tosh, yog'och parchalari, turli rang va yo'g'onlikdagi simlardan fondalanish mashg'ulot mazmunini boyitadi hamda o'quvchilar individual badiiy xususiyatlarining ro'yogga chiqishiga imkon beradi.

Vazifalarni bajarishda turli material va texnikani qo'llash bolalarda ijodiy tashabbus uyg'otadi, ularning fantaziyasini, tasavvurini o'stiradi.

Tasviriylar san'at mashg'ulotlarida bolalar ishlagan rasmlarni tahlil qilish ularning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini va dars samaradorligini oshiradi. Ma'lumki, bolalar o'zlarini ishlagan rasmlarning boshqa o'quvchilarga ma'qul bo'lishini juda yoqtiradilar. O'zlarining tasviriylar faoliyatlarida shunga harakat qiladilar.

Shunday o‘quvchilar ham borki, ular o‘z kuchi va qobiliyatiga ishonmaydi va yaxshi rasm chizishga harakat ham qilmaydi. Bunday sharoitda boshqa bolalar ishlagan rasmlarni ko‘rsatish bu toifadagi o‘quvchilarni tasviriy faoliyatga ilhomlantiradi. O‘quvchilarga ko‘rsatiladigan tndoshlarining rasmlari uch xil bo‘lishi mumkin:

- o‘tgan yilgi shu sinf o‘quvchilari ishlagan rasmlar;
- ularning o‘zlari bilan bir sinfda o‘qiydigan o‘quvchilar ishlagan rasmlar;
- parallel sinf o‘quvchilari ishlagan rasmlar.

Rasmlarni bolalarga o‘tgan darsda berilgan uy vazifasini tekshirish jarayonida, yangi mavzuni bayon qilishda, yangi mavzuni mustahkamlashda, uyga vazifa berishda ko‘rsatish mumkin. Rasmni ko‘rsatish va tahlil qilishda o‘qituvchi bolalar e’tiborini rasmning egasi, uning qaysi mavzuga ishlanganligi, undagi yutuqlar va kamchiliklarga qaratishi maqsadga muvofiqliр.

O‘quvchilar e’tiborini rasmdagi yutuqlarga qaratish jarayonida uning mazmuni, avtorining texnik-grafik malakasi, rangshunoslik bo‘yicha bilimi, perspektiva qonunlarga qanchalik rioya qilganligi, soyalar nazariyasidan ma’lumoti, vazifani hal qilishda kompozitsiya qonunlariga qanchalik rioya qilganligi hisobga olinadi. Bolalar ishlagan rasmlar haqida gap borganda yutuq va kamchiliklar haqida to‘xtalish ayni muddaodir. Bolalar ishidagi yutuqlar haqida gapirganda uni haddan tashqari maqtab yuborish yaramaydi. Undagi ba’zi bir kamchilik va nuqsonlar haqida ham to‘xtalib o‘tish kelgusida o‘quvchilarning o‘z tasviriy faoliyatida ana shunday kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasligiga olib keladi. Uy vazifasini tekshirish yoki sinf ishini mustahkamlash jarayonida bolalar ishlagan rasmlar ko‘rsatilganda ularning e’tibori albatta yaxshi chiqmagan ishlarga ham qaratiladi. Shuni ham hisobga olish lozimki, ishni haddan tashqari yomonlash o‘quvchining o‘z qobiliyatiga ishonchini butunlay yo‘qotadi, uni tushkunlikka tushiradi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun ana shu yomon ishdagi ba’zi bir yutuqlarni eslash, ba’zan ularni bo‘rttirib ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Rasmlar tahlilini shunday

tashkil etish lozimki, yaxshi o'zlashtiruvchi bolalar yanada yaxshi, yomon o'zlashtiruvchilar esa yaxshi ishslashga harakat qilsinlar.

Tasviriyl san'at mashg'ulotlarida ham o'quvchilarni rag'batlantirish boshqa fanlardagi singari katta ta'lif va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki bolalar o'z faoliyatlarida mustaqil ravishda orig'inal ish yaratishga harakat qiladilar, natijada o'zlarini yangilik ochgandek his etadilar. Ko'pincha o'ziga ishonmaydigan bolalar rag'batlantirishga muhtoj bo'ladi. O'qituvchining bunday bolalarni doimo o'z e'tiborida tutishi bolalar faoliyatini faollashtirishga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Sinfda rag'batlantirishga butunlay arzimaydigan bolalar ham uchrab turadi, bunday holatlarda o'qituvchi uning yaxshi ko'rsatkichga erishishini kutib o'tirmasdan, u ishlagan rasmning yaxshiroq ishlangan joyini bo'rttirib ko'rsatishi bolaning tasviriy san'atga qiziqishiga dastlabki turtki bo'lishi mumkin. Shuni ham hisobga olish lozimki, ba'zi o'quvchilarni har doim va haddan tashqari ko'p rag'batlantiraverish yaxshi natijalarga olib kelavermaydi. U bolalarda o'z-o'zidan mammunlik, mag'rurlik hislarini uyg'otadi. Bola rasm chizishda ro'y berayotgan ba'zi bir xatolarni berkitishga harakat qiladigan bo'lib qoladi.

O'qituvchi rag'batlantirishda bolalar erishgan natijalarning o'zini baholabgina qolmasdan, bu natijalarga qaysi yo'l bilan erishganliklarini hisobga olishi lozim. Tasviriy san'at darslarida rag'batlantirishning baho qo'yish, og'zaki baholash, yaxshi ishlangan ishlarni butun sinfga ko'rsatish, yaxshi ishlangan rasmni ko'rgazmaga tavsiya etish, to'garak a'zoligiga qabul qilish, makkab yoki sinf devoriy gazetasida e'lon qilish, ota-onalar majlisida qayd qilish kabi usullaridan foydalanish mumkin. Rag'batlantirishning u yoki bu usuli bolalar psixologiyasi, ularning individual xususiyatlari va sharoitga qarab qo'llaniladi.

O'quvchilar ishlarini o'z vaqtida tekshirish va baholash o'quv-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishning muhim omillaridan biridir. O'quvchilar ishlarini tekshirish deganda o'tilgan mavzu materialini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganligini va o'zlashtirishning sifatini sinab ko'rishni tushunamiz.

Bolalarning ishlarini tekshirish va baholashning katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati bor. Shuning uchun bunga nihoyatda jiddiy munosabatda bo‘lish talab etiladi.

15-20 minutda hamma o‘quvchining ishini tekshirib ulguradigan o‘qituvchilarimiz ham bor. Boshqa guruh o‘qituvchilari esa chorak oxirida rasm daftarini bir yo‘la tekshirib baho qo‘yadilar. Ikkala usulda ham o‘qituvchilar qo‘yilgan bahoning sababini tushuntirmaydilar yoki daftarida chizib ko‘rsatib qo‘ymaydilar. Bunday metodga ham chek qo‘yish kerak bo‘ladi. Aks holda bolalarning o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi. O‘quvchilar o‘zlarini o‘qituvchi kuzatib turganini bilib turishlari lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning vazifalarini har bir darsda baxolashlari kerak. Xar darsda baholanmasa o‘quvchilar fanga nisbatan qiziqishlari so‘nadi, vazifani chizmay qo‘yishadi. O‘quvchilarning xar darsda baxolanishi, vazifani talabga muvofiq bajarish uchun asos bo‘ladi.

O‘qituvchi dars jarayonida to‘xtovsiz ravishda partalararo yurib, bolalarga tegishli yordam ko‘rsatadi. O‘qituvchi dars vaqtida eng yaxshi ishlangan ishlardan bir nechtasini tanlab olib, butun sinfga ko‘rsatadi va ularning yutuq hamda kamchiliklariga to‘xtaladi. Yaxshi ishlangan rasmlarning egalarini rag‘batlantirish maqsadida yaxshi va a’lo baholar qo‘yish mumkin. Sinfda bajarilayotgan ishlarni har bir darsda muntazam kuzatib turish o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirishga hamda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka asos bo‘ladi.

O‘quvchilar rasmlarini tekshirishning boshqa yo‘llari ham bor. Bunda o‘qituvchi bolalar ishlagan rasmlarni yig‘ib, uyda yoki darsdan so‘ng sinfning o‘zida tekshirishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilar bajargan ishlarni baholashda vaqtadan samarali foydalanish maqsadida yangi mavzuni tushuntirib, o‘quvchilar yangi mavzu asosida chizayotganlarida o‘qituvchi o‘quvchilarning oldiga borib ularning vazifalarini baholaydilar. O‘qituvchi bolalar ishini baholashda quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

rasmning daftar varog‘iga to‘g‘ri joylashtirilganligiga;  
uning ma’lum ketma-ketlikda chizilganligiga;

buyum shakli va tuzilishining xususiyatlarini yoki naqshdagi ritmik birlikni to‘g‘ri tasvirlashga (mavzu asosida rasm chizishda kompozitsiyani to‘g‘ri hal qilish);

narsalar rangini to‘g‘ri tasvirlash yoki naqsh rangini tushungan holda tanlashga;

vazifani bajarishda unga qanchalik ijodiy munosabatda bo‘lganligiga;

o‘quvchi qalam va bo‘yoq bilan ishlagning birlamchi malakalariga ega bo‘lgan yoki bo‘lmanligiga;

daftarning toza va tartibli bo‘lishiga.<sup>9</sup>

Mana shu baho mezonlariga asoslanib, o‘quvchilar ishlagan har qanday rasmni baholash mumkin. Bola rasmida qilgan xato boshqa rangdagi qalam bilan tuzatib ko‘rsatiladi yoki xatoning tagiga chizib qo‘yiladi.

Uyda tekshirilgan ishni bolalarga qaytarib berishda o‘qituvchi har bir o‘quvchining ishiga alohida to‘xtalmasdan, balki bolalar ishlarida ro‘y bergen umumiylar xatolar va kamchiliklar ustida so‘zlagani maqsadga muvofiqdir.

O‘quv yilining oxirida hamma sinflarda tasviriy san’atda o‘quvchilarning bir yil davomida ishlagan ishlari yuzasidan ko‘rik uyushtirishning ahamiyati katta. Bunda bolalar harakat qilgan taqdirda nimaga erishish mumkinligini tushunib oladilar. Ko‘rikda yaxshi chizuvchi bolalarning ishini ko‘rgan boshqa bolalar shundan rasm chizishga harakat qiladilar. Ko‘rikka qo‘yilgan ishlar bir yil davomida yig‘ib borilgan eng yaxshi sinf va uy ishlaridan tashkil topadi, ularning har birining tagiga chizuvchi bolaning familyasi, ismi hamda sinfi chiroyli qilib yozib qo‘yiladi. Bunday rasmlarning chetlarini tekis qirqib, burchaklar yordamida rangli (jigar rang, kul rang, sariq) yoki bir xil gulli qog‘ozga mahkamlanadi. Rasmlarni qog‘ozga shunday mahkamlash lozimkn, ko‘rik tugagandan so‘ng uni albom shaklida saqlash lozim bo‘lsin. Eng yaxshi rasmlar egalariga berilmaydi. Chunki bu ishlardan ba’zilarini mакtab, tuman, shahar, viloyat, respublika

---

<sup>9</sup> Sultanov X.E., Sobirov S.T. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. (1-sinf uchun). O‘quv qo‘llanma. - T.: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021.

ko‘riklariga o‘tkazish imkoniyati tug‘ilgan taqdirda ular tayyor holda turishlari lozim.

Ko‘rgazma tashkil etilgan stendning o‘stki yoki pastki qismiga “...sinf o‘quvchilarining ... o‘quv yilidagi ishlari” deb yozib qo‘yiladi. Boshqa parallel sinf o‘quvchilari tashkil etgan ko‘rgazmalarga sayohat tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday hisobot ko‘rgazmalari o‘quv yilining oxirida, ota-onalar majlisi bo‘ladigan kunda tashkil etilishi ham yaxshi natijalar beradi. Chunki bu kun ko‘pchilik maktablarda bayram tusiga kiradi. O‘quvchilar sinfni o‘qituvchi ishtirokida gullar, bayroqchalar bilan bezatadilar.

Shu kuni o‘qituvchi ota-onalar bilan kelgan o‘quvchilarni erishgan yutuqlari bilan taqdirlaydi. O‘quvchilar yil davomida qilgan ishlari haqida hisobot beradilar, ota-onalariga yil davomida qilgan ishlarini, nimalarni o‘rganganliklarini namoyish qiladilar, she’rlar o‘qiydilar, ashulalar aytadilar, rasm daftari va mehnat darslarida yasagan narsalarini ko‘rsatadilar. Shuning uchun ham tasviriy san’at ko‘rgazmasi o‘quvchilarning hamma sohadagi hisobotlari qatoridan o‘rin oladi.

Yuqorida aytilganlardan bilamizki tasviriy san’at maqsad vazifalarini va mazmun mohiyatini tushungan holda o‘qituvchi o‘quvchilarga buyum va xodisalarini o‘zaro taqqoslash, o‘xshashlik va tafovutni aniqlash, ularning shakl va uslubiga qarab turkumlashtirishga o‘rgatishni tushunamiz. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining vazifasi jiddiy e’tibor bilan qarashga, fikrlashga, buyumlar shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatishdan iboratdir. Rang-barang taassurotlarini mulohaza qilish, kuzatishlardan umumlashmalar chiqarish va to‘g‘ri xulosalarga kelish natijasida o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmalari rivojlanadi, ularda yangi bilimlar egallashga intilish uyg‘onadi. O‘quvchilarda ongli ko‘rish, e’tiborini takomillashtirib borish natijasida diqqat-e’tiborning boshqa shakllarini, ya’ni maktab yoshdagi bolalar uchun zarur bo‘lgan turlarini rivojlantirishga yordamlashadi.

Yuqorida zikr etilgan talablarni o‘zida mujassam etgan har qanday talabaga kelajak avlodimizni ishonib topshirsak bo‘ladi.

## **Nazorat uchun savollar:**

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi maqsadi.

Metodika nima degani?

Umumiy metodikani qanday tushunasiz?

### **Narsaning o'ziga qarab rasm chizish.**

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish o'tiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Bu mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning narsa va hodisalarning kuzata bilish qobiliyatları rivojlanadi, xotiradan va tafakkurdan rasm chizish malakalari ortadi, narsalarning fazodagi holatlarini aniqlay bilish, ularning hajmi, shakli, rangini, shu'la-soyasi yordamida tekislikda tasvirlash tushunchalari o'sib boradi. Kuzatish jarayonida o'quvchilar narsalarning o'lchovlarini o'zaro solishtiradilar, ular o'rtasidagi farqni taqqoslash yo'llari bilan topadilar.


Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari ikki bosqichda olib boriladi.  
(3-rasm) Kapitel.

Birinchi bosqich – bu hajmga ega bo'limgan perspektiv qisqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan tekis narsalar, ya'ni daftarlar, bayroqcha, papka, o'quvchilar sumkasi, bolta, arra, har xil daraxtlar barglari va shunga o'xshash boshqa narsalar rasmini old tomondan, frontal holatda chizdiriladi.

Ikkinci bosqichda – hajmli narsalar ya'ni mevalar, gul, hayvon, odam, uy anjomlari, qisqasi 3 o'lchovga ega bo'lgan (eni, bo'yi, kengligi) geometrik shakllar va narsalarni chizdirishdan iboratdir.

O'quvchilar dars jarayonida birinchidan rasm chizishning asosini o'rgansalar, ikkinchidan ijodiy qobiliyatları o'sib, estetik jihatdan tarbiyalanib boradilar, I-II guruhlarda o'ziga qarab rasm chiziladigan narsalarni to'g'ri ko'rishga asosiy shaklning bo'yini eniga nisbatan qog'oz yuziga kompozitsion jihatdan to'g'ri joylanishini, bo'laklarning nisbiy o'lchovini ko'rsatib, ularning bir-biriga bog'liqligini, ranglarini aniqlash va ularning o'ziga xos xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi. I-II bosqichlardagi tasviriy san'at darslarida tik, yotiq,

qiya chiziqlarini to‘g‘ri chiza olishni, kvadrat, to‘g‘ri burchakli, to‘rtburchakli, uchburchak, uchburchak, doira va boshqalarni tasavvur qila olish, to‘g‘ri chiza bilish hamda chiziqlarni ko‘z chamasida teng bo‘laklarga bo‘lish qobiliyatlarini o‘sirib borish kerak bo‘ladi. Chizilgan rasmni akvarel guash bo‘yoqlari bilan bo‘yashdan oldin uning rangini to‘g‘ri aniqlab olish va shu rang nomini to‘g‘ri aytishga o‘quvchilarni o‘rgatib borish talab etiladi.



3-rasm.

Buning uchun o‘qituvchi maxsus tayyorlangan rangli plyonka, oyna yoki polietilin (sariq, qizil va zangori asosiy ranglar) materiallari orqali ko‘rgazmali

qurol tayyorlab, o‘quvchilar bilan savol-javob yordamida tanishib chiqsa yaxshi natijalarga erishadi. I-II bosqichlarda chiziladigan narsaning maxsus nusxasi katta o‘lchovda bo‘lib, yaxshi ko‘rinadigan joyga o‘rnatiladi. Agar chizdiriladigan narsa mayda o‘lchovda bo‘lsa (har xil barglar, gullar va boshqalar) ularning har bir partaga bittadan tarqatib chiqish lozim bo‘ladi.


O‘quvchilar narsani o‘ziga qarab rasm chizganlarida chiziladigan predmetlar ular oldida shunday qo‘yilmog‘i kerakki, ya’ni perspektiv xodisalar aniq sezilmog‘i kerak.

I-II bosqichlarda ko‘z bilan chamalanadigan pesrpektiv hodisalarining elementar qoidalari bilan tanishtiriladi. Hajmli narsalar qalam, akvarel, guash bo‘yoqlari bilan yorug‘-soya yordamida qanday ko‘rinsa, shunday tasvirlash vazifasi qo‘yiladi.

Narsalar shaklini, yorug‘lik manbaini hisobga olgan holda, ularning sirtda yorug‘ va soyalarning joylashuvi, narsa rangining yoruglik tushishiga qarab o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oladilar. Shu maqsadda sabzavot va mevalarni alohida va to‘p holdagi rasmlari chizdiriladi. Shuningdek, narsalarning shakli va nisbatlari proporsiyalarining o‘zgarishini tasvirlay olish va ularning malakalarini o‘sirish maqsadida oddiy geometrik shakllarni eslatadigan uy jihozlarining o‘ziga qarab rasm chizadilar.

To‘g‘ri to‘rtburchak bilan chegaralangan narsalarni kengaytirish va o‘sirish, hajmli narsalarni yorug‘-soya yordamida tasvirlay olishni o‘rgatish maqsadida o‘quvchilarga nisbatan burchak ostida stolga qo‘yilgan kitob, yashik, har xil qutilar va geometrik shakllar rasmlari chizdiriladi (4-rasm).

Perspektiv xodisalarni ko‘rgazma asosida o‘quvchilarga o‘rgatish dars jarayonida ancha qulaylik tug‘diradi. Bunda san’at asarlari, sxemalar, plakatlar va modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: Ch.Axmarovning «A.Navoiy» yoki Z.Inog‘omovning “Choyga” asarlarini o‘quvchilarga ko‘rsatib, undagi perspektiv xodisalarni so‘zlab berish mumkin (5-rasm).



4-rasm.

Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslari tasviriy san’at predmeti kursida yakunlovchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun bu guruhlarda o‘tiladigan darslar o‘quvchilarni faqatgina nazariy mashg‘ulotlarini boyitibgina qolmasdan, sistematik ravishda amaliy mashg‘ulotlar o‘tib ularning bilim malakalarini takomillashtirib bormoq ham kerak.

Perespektiva va uni qo‘llash usullarini faqat narsalarning o‘ziga qarab rasmini chizish darslardagina emas balki xayoldan, tasavvurdan rasm chizish dars jarayonida rassomlar asarlari haqida suhbat o‘tkazish mashg‘ulotlarga o‘rgatib, tushuntira borish katta ahamiyat kasb etadi.



5-rasm. Ch.Axmarov.

O'quvchilar chiziqli perspektiva bo'yicha surat tekisligi markaziy ko'rish nuri, maydoni haqida bilimlar oladilar va bir yoki undan ortiq kesishish nuqtasiga ega bo'lgan ufq chizig'i hakida olgan ma'lumotlarini yanada kengaytiradilar.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida o'quvchilarga odam, hayvon shuningdek qushlar turkumining o'lchov nisbatlari, umumiy o'lchovlar: kala, qo'l, oyoq, tos va boshqa plastik anatomiya haqida tushunchalar boriladi. Bundan

tashqari faktura haqida ma'lumot berib boriladi, masalan, yuzi g'adir-budir narsalar bilan bir qatorda yuzasi yaltiroq bo'lgan shisha yoki sirli narsalarning shakli chiziladi. Shuningdek, chizilayotgan narsani o'ziga o'xshatib, xarakterini topa bilish bilan birga uning fakturasini ham ifoda etish talab etiladi.

Narsaning o'ziga qarab chizilgan tasvirida estetik tomonga ko'proq ahamiyat beriladi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darsi jarayonida har bir o'qituvchi mavzuga oid tasviri san'at asarlarini keltirib unda rassom qanday tasviri vositalardan foydalanganligi, uning kompozitsiyasi, asardagi ranglarning moslashuvi haqida chizilayotgan narsalarning taqqoslab ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu borada o'quvchilar faqat narsaning o'ziga qarab rasm chizishdagi malakalari oshib bormasdan balki san'atimiz namoyondalari ishlagan san'at asarlari namunalari bilan tanishib boradilar.

Masalan: biror sabzavot va mevalardan tashkil topgan natyurmortni o'quvchilar chizayotgan bo'lsalar shunga mos yoki shu mavzuda bor narsalardan chizilgan O'zbekistonlik rassomlarning asarlaridan rangli reproduksiyalarni o'quvchilarga ko'rsatish samaralidir. Masalan, rassomlar A.Abdullayev, E.M.Kavolevskiy, O'.Tansiqboyev, R.Ahmedov, Z.Inog'omov, Yu.I.Yelizarov, M.Nabiiev va boshqa rassomlarning asarlari reproduksiyalari shunga qo'l kelishi mumkin. Reproduksiyalar xayoldan va narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda o'quvchilardan bevosita kuzatishni, predmetlar, erran vositalari, kitobga ishlangan illustrasiyalar, hujjatli materiallar, kompyuter texnikasi vositalaridan keng foydalanishni talab etadi va bular badiiy obrazni yaratishda o'quvchilarga katta yordam beradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

Natyurmort nima degani?

O'qituvchida nutq madaniyatini qanday tushunasiz?

Perespektiva deganda nimani tushunasiz?

## **Naturadan rasm ishlash darslarida ko‘rgazmali quollardan foydalanish.**

Ko‘rgazmali quollardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, narsaning o‘ziga qarab rasm chizish jarayonida naturadan chizilishi lozim bo‘lgan narsalarning sinfga olib kirilishi shart ekanligini talab etsa, mavzu asosida rasm chizish mashg‘ulotlarini esa uning tasviri (obraz tafsiloti, san’at asarlarining reproduksiyalarini namoyish etish) orqali amalga oshirish ham mumkin.

Ko‘rgazmali quollardan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish uchun ularni guruhlarga bo‘lib olish lozim. Bunda birinchi navbatda chiziladigan narsalar ma’lum ketma-ketlikda oddiydan murakkabga borish asosida guruhanadi, hamda narsalar real borliqdan olinib, unda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari nazarda tutiladi.

Ko‘rgazmali quollarni ko‘rinishi, xususiyatlariga ko‘ra ikkiga natural va tasviriya ajratish mumkin.

**Natural** ko‘rgazmali quollar qatoriga shartli ravishda hajmsiz deb qabul qilingan yupqa, shuningdek, hajmli-silindrlik, konus, shar, qirrali aralash, shakldagi jismlar kiritiladi.

**Tasviriylar** ko‘rgazmali quollar qatoriga esa rasmlar, san’at asarlarining reproduksiyalarini, ko‘rgazmali rasmlar, fotografiyalar, pedagogik rasm kiradi.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, ko‘rgazmali quollarni tanlashda ularni dars mavzusi va vazifalarga muvofiqligi e’tiborga olinadi, ya’ni chizish uchun tanlanadigan nusxalar qanchalik dars mavzusiga mos bo‘lsa, o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim va malakalarni hosil qilish jarayoni samarali kechadi.

Ba’zi bir o‘qituvchilarimiz tasviriylar san’at darslaridagi ko‘rgazmalilikka yetarli e’tibor bermaydilar. Masalan, narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslarida chiziladigan narsa o‘rniga, doskaga o‘sha narsaning tasvirini osib qo‘yib, bolalarga chizishni buyuradilar, hattoki ba’zan bolalarni o‘sha narsaning tasvirini xayoldan chizishga majbur qiladilar. Tasviriylar san’at haqida suhbat o‘tkazish darslarida esa fasllarga bog‘langan tasviriylar san’at asarlarining nusxalari

o‘rniga tabiat manzarasiga oid fotolar ko‘rsatiladi: Fotolar sifatli va jozibador bo‘lsada, aslida ular tasviriy san’at asari reproduksiyasiga xos samaradorlikni bermaydi.

Bunda narsaning o‘zi bo‘lmasa, uning tahlili qanday tashkil etiladi, degan savol tug‘iladi. Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslarini bunday tashkil etish o‘quvchilarni narsalarning obrazini yaxshi idrok qila olmasligiga sabab bo‘ladi. Rasmdan ko‘chirish o‘ziga qarab rasm chizishdan oson bo‘lganligi uchun bunday darslarda o‘quvchilarning avvalo darsning mavzusi mazmuni hamda didaktik vazifalaridan kelib chiqqan holda fikrlashlariga imkon qolmaydi.

Maktablarda narsaning o‘ziga qarab chizishda daraxtlarning shoxlari, gullar, barglar, asbob-uskunalar, oshxona buyumlari, meva, sabzavotlar, poliz ekinlari juda kam ishlatiladi. Shuning uchun narsaning o‘ziga qarab chizish darslarida naturmortga qo‘yiladigan buyumlar tanlash alohida e’tibor qaratish talab qilinadi.

O‘qituvchi maktabda bolalar faqat rasm chizish malakalarini egallabgina qolmasdan, balki uni kelgusi hayotda mustaqil qo‘llay bilishlarini ham nazarda tutishi lozim. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilar tasvirlashning elementar asoslarini o‘rganishlari, buyumni estetik jihatdan baholay olishlari talab etiladi.

Chizish uchun narsalar tanlashda doimo mazmun muvofiqligi ta’minlanishi lozim. Masalan, bolalarning portfeli, daftар, kitob kabilarni solish uchun mo‘ljallanganligi sababli uning tomonlari to‘rtburchak va hajmi prizmatik shaklga ega.

Chelak yoki bidon esa suyuqlik solish uchun moslashtirilgan bo‘lib, og‘zi keng, tagi uni yerga qo‘yish uchun qulay qilib tayyorlangan.

Narsaga qarab rasm chizish darslaridagi naturaning quyidagi turlari mavjud:

Turmushda va mehnatda qo‘llaniladigan buyumlardan tashkil topgan naturalar:

- a) uy ro‘zg‘or va mehnat qurollari;
- b) tabiatdan olingan narsalar.

Qog‘ozda tasvirlangan rasmlar:

- biron-bir buyumni chizish yoki bo'yash uslubini ko'rsatadigan rasm;
- tugatilgan ishning xarakterini ko'rsatuvchi rasm, (Bu rasm o'qituvchi tomonidan yoki parallel sinf o'quvchilarining dars jarayonida chizgan ishidan olishi mumkin.)

Uy ro'zg'or buyumlarinining rasmini chizdirish hamma sinflar uchun tавсиya etilgan. Ular turlicha shakllarga, rang va materiallarga ega bo'lганligidan chizish uchun qiziqarli va qulaydir. O'quvchilarga turli-tuman mazmun jihatdan qiziqarli va tushunarli bo'lган buyumlarni har xil yoshdagi bolalarga chizdirish uchun tanlash mumkin. Bolalar yoshlidan boshlab bu buyumlarni ishlatadilar va qanday ishlatilayotganligini ko'rganliklari, jarayonni kuzatganliklari uchun ularni idrok etish va tasvirlash birmuncha tushunarli va qulay bo'ladi.

Naturaga qarab rasm ishslash darslari uchun buyumlardan shundaylarini tanlab olish kerakki, ularning qanday maqsadda ishlatilishi, shakli, rangi tuzilishi aniq bilinib tursin. Shundagina o'quvchilar buyumlarning vazifasiga asosiy e'tiborlarini qaratadilar. Bir xil vazifani o'taydigan, biroq turli shakldagi buyum va shuningdek, bir xil shakldagi, birok turli vazifani o'taydigan narsalarni bolalarga chizdirish uchun qo'yish, ularni o'zaro solishtira bilish malakalarini mustahkamlashga, ular o'rasidagi o'xshashlik va tafavutlarni topishga yordam beradi.

Narsaga qarab rasm chizish orqali o'quvchilar shakl va hajm haqidagi umumiyligi tushunchadan, nisbatlar, bo'laklarning o'zaro bog'liqligi, narsalardagi turlicha, nozik belgilarni sezish va tasvirlay olishni o'rganadi.

Narsaga qarab rasm chizish darslarida bolalar buyumlarning o'ziga xos xususiyatlarini yangicha idrok qilishlari lozim. Shu vaqtgacha bolalar uyda, ko'chada chizilayotgan narsalarga befarq qaragan bo'lsalar, endi ular bu narsalarni shakl va mazmun jihatdan to'liq o'rganadilar. Bunday bilishning yaxshi tomoni naturani tekislikda tasvirlashga, rasm chizish qoidalarini tushunishga, rasm bilan chiziladigan narsa o'rtasidagi o'xshashlikni topa olishda ko'rindi.

Har qanday buyumlarni to‘g‘ri tahlil qilish o‘quvchilarga chiroyli narsalarning chiroyli bo‘lмаган buyumlardan ajrata bilishga, ularning shaklini to‘g‘ri baholay olishga o‘rgatadi. Bu borada tabiiy materiallar, ayniqsa o‘simlik va daraxtlar, ularning shox va barglarining shakli, rangi o‘zining aniq tuzilishiga ega.

Rasmni bosqichlar bilan bajarish vazifasi shaklni asta-sekin va nihoyatda to‘lik idrok qilish, uning xarakterli xususiyatlari va bo‘laklarini tasvirlash vositalarini tushunish bilan bog‘likdir.

Har xil o‘simliklar rasmini birinchi sinfdan boshlab chizdirish o‘quvchilarni daraxt shoxlarining tuzilishi, joylashuvi, o‘zaro ulanishi va bo‘laklarning o‘zaro bog‘liqligini bilishga olib keladi.

O‘simliklarning shakli, tuzilishi, rangi turli-tumandir. Shuning uchun shakl va rang jihatdan sodda va murakkab bo‘lмаган narsalarni chizdirish orqali turli ta’lim va tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. O‘simliklar ham qalam, ham bo‘yoq bilan ishslash uchun, davomli hamda xomaki rasmlar xayoldan rasm chizdirish uchun nihoyatda qulaydir.

O‘simliklar, hasharotlar va qushlarning shakl va rang jihatdan maqsadga muvofiqligi ularni o‘rab olgan borliq bilan aloqadorligini tushunish, o‘quvchilarda tabiatning go‘zalligi haqida to‘g‘ri tushunchalarni hosil qilishga yordam beradi, unga muhabbatini oshiradi, estetik tuyg‘ularni shakllantirishga imkon beradi.

Narsaning o‘ziga qarab chizish uchun naturmortga turli-tuman buyumlar va narsalar qo‘yish o‘quvchilarning narsalarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, natura haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Masalan, biror hayvon rasmini chizishda o‘qituvchining bolalarga uning tuzilishi, xarakterli xususiyatlari, rangi, hayot tarzi haqida so‘zlab berishi ham o‘quvchida qiziqishini va bilimlarini kengaytiradi.

Naturadan rasm chizish darslarida buyumlarning ko‘rinishini optimal holatda bo‘lishiga e’tibor qaratish ham muhim shartlardan biri hisoblanadi, ya’ni chiziladigan narsalarni xarakterli va soda holatda qo‘yib o‘rganish foydalidir. Masalan, samolyotning ustidan, baliq va mashinalarning yon tomonidan qo‘yib

chizdirilsa, ularning bolalar tomonidan idrok qilinishi osonlashadi. Demak, chizish uchun narsalar tanlashning eng muhim tomonlaridan biri uning shakli, rangi va fazoviy holatini hisobga olishdan iborat bo‘lishi lozim.

Buyumlar o‘ziga yarasha ma’lum tuzilishga, og‘irlikka va o‘ziga xos xarakterli yuzaga ega, shu parametrlar orqali idrok qilamiz, farqini yoki o‘xshashligini topamiz va ularni tasvirlaymiz.

Bir necha kurtak va bargga ega bo‘lgan shoxchani kuzatishda biz, avvalo, barg yuzasini idrok qilamiz, so‘ngra yuza orqali, shoxchaning tuzilishini idrok qilishga o‘tamiz. Chizish uchun buyum tanlashda va uni tahlil qilishda birinchi o‘rinda narsaning bolalar hayotida tutgan o‘rniga e’tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Buyumlar shaklini to‘g‘ri tasvirlash uchun bolalar narsa va uning bo‘laklari nechta va qanday bo‘laklardan tuzilganligi, uning bo‘laklari nega turlicha joylashganligi, buyumlarning tuzilishi uning hayotdagi vazifasi bilan belgilanishini bilishlari lozim.

Ko‘rgazmali qurollarning mohiyati va uni o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazish haqida fikr yuritganda, narsani tahlil qilish vaqtida ularni solishtirishga alohida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. K. Ushinskiy: “biz dunyoda hamma narsalarni faqat solishtirish orqali bilamiz, agarda bizga boshqa bironta narsaga solishtirib bo‘l- maydigan va boshqa bironta narsadan farqini topib bo‘lmaydigan qandaydir yangi buyumni ko‘rsatsalar, biz o‘sha buyum haqida bir og‘iz ham so‘z ayta olmagan bo‘lar edik”, - degan edi.

Naturadan rasm chizish darslarida foydalanilayotgan ko‘rgazmali qurollar bir qator didaktik funksiyalarni bajarishi lozim. Birinchidan, ko‘rgazmali qurol o‘quv vazifasi - naturani tasvirlash tartibi haqida, ikkinchidan naturadagi buyumlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha, tasavvur hosil qilishi lozim. Solishtirish metodi narsa va hodisalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashlikni aniqlash va bilish uchun xizmat qiladi. Solishtirish o‘zaro taqqoslanayotgan narsalarning o‘ziga xos xususiyatlarini, asosiy va ikkinchi darajali belgilarini aniq

va to‘lik o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, solishtirish o‘quvchilarning, fikrlash qobiliyatini o‘siradi. Solishtirish vositasida esda qoladigan narsalarning ko‘rgazmali obrazi shakllanadi. Solishtirishda avval farqni topish, so‘ngra o‘xhash belgilarni topishga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Masalan, terak bargini tolbargi bilan, anorni olma bilan, natyurmortdagi narsalarni bir-biri bilan, turli xildagi daraxtlar va kompozitsion jihatdan xilma-xil qilib tuzilgan yo‘l-yo‘l naqshlar o‘zaro solishtiriladi. Solishtirish buyumlarning o‘zida va rasmlar orqali o‘tkazilishi ham mumkin. Biroq amaliy solishtirish jarayoni ma’lum qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lib, hattoki oddiy kuzatishda uni butunlay amalga oshi-rib ham bo‘lmaydi. Agarda biz har xil uzoqlikda joylashgan bir nechta buyum va obektlarni bir vaqtning o‘zida aniq ko‘ra oлganimizda edi, solishtirish jarayoni ancha yengil ko‘chgan bo‘lar edi.<sup>10</sup>

Ko‘rish maydonida bir nechta detallar joylashgan taqdirda ular bir xil idrok qilinmaydi. Ulardan biri yaxshi ko‘rinib, boshqalari esa orqa planda qolib ketadi va aniq idrok qilinmaydi. Buning sababi o‘sha ko‘rinayotgan narsa yoki ob‘ektni ko‘rish maydonining markaziga tushib qolishidir. Shuning uchun biz buyumning butun yuzasini yoki bir qancha detallarni bir vaqtning o‘zida aniq va toza ko‘ra olmaymiz. Solishtirish va buyumlarning o‘lchovlari, ranglardagi o‘xhashlik va farqni uzoqdan ko‘rib aniqlash, solishtirib aniqlash uchun biz ularni bir vaqtning o‘zida bir xil aniqlikda ko‘rishimiz kerak bo‘ladi. Buning uchun iloji boricha o‘sha buyumlarga bitta-bitta lekin tez-tez bir necha bor qarash kerak bo‘ladi. Shu vaqtida o‘sha narsalar aniq emas, umumiyligi ko‘rinadi. Bu umumiyligi ko‘rishning asosida, naturadagi u yoki bu bo‘lakka diqqat-e’tibor bermaslik naturani atrofdagilari bilan birgalikda idrok qilish yotadi. Bunday qarashda, narsalar guruhi xira idrok qilinsa ham, biroq ularni to‘liq idrok qilish uchun sharoit yaratiladi, chunki uning o‘lchov va rang nisbatlarini aniqlash uchun ahamiyati kattadir.

---

<sup>10</sup> Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. Naturadan rasm ishlash darslarida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish vositasida o‘quvchilarining badiiy tafakkurlarini rivojlantirish. “Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali. № 1

O‘quvchilarining badiiy tafakkurlarini rivojlantirishda, borliqni idrok qilishida, tasvirlash qobiliyatining shakllanishida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish va narsaning o‘ziga qarab rasm ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ko‘rgazmali qurollarning ko‘rinishi, xususiyatlariga ko‘ra qanaqa turlari mavjud?
2. Narsaga qarab rasm chizish darslaridagi naturaning qnday turlari mavjud?
3. Naturadan rasm chizish darslarida foydalilanayotgan ko‘rgazmali qurollar qanday didaktik funksiyalarni bajarishi lozim bo‘ladi?

### **Mavzu asosida rasm chizish (illyustrativ rasm ishlash).**

Mavzu asosida rasm chizish darslari tasviriy san’at fanining qiziqarli mashg‘ulotlaridan biridir. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘zlari bilgan ta’sirlangan voqeа va xodisalarни xayoldan tasavvur qilib tasvirni ishlaydilar, badiiy adabiyotlarga illustrasiyalar ishlaydilar. Ayniqsa o‘quvchilarning kundalik hayotlaridan olingan mavzular, hayvonlarning hayotiga oid mavzular, adabiy asarlar (ertak, masal, hikoya, she’r) mavzuli rasm darslarining manbai bo‘lib xizmat qiladi. Mavzu asosida tasvir ishlash darslarda bolalarning fantaziysi va tasavvuri aktiv faoliyatga aylanadi. Mavzu asosida rasm chizish mashg‘ulotlarining oldida turgan maqsad va vazifalar pedagogikaning ilmiy asoslari bilan belgilanadi (6-rasm).

Mavzuli rasm chizish bolalar yosh xususiyatni e’tiborga olgan holda eng sodda bo‘lgan mavzular tavsiya etiladi. Bunda yil fasllarga mos keladigan mavzular “Tog‘da kuz”, “Kuzgi ishlar”, “Yangi yil bayrami”, “Qishki o‘yinlar”, “Maktab bog‘ida”, “Navro‘z”, “O‘zbekiston mustaqilligi kuni” kabi (7-rasm).

Dastur asosida ancha murakkab ya’ni “Hosilni yig‘ib-terib olish”, “Maktab tajriba uchaskasida”, “Bahor kelmoqda”, “Molxona”, “O‘zbekistonda hosil bayrami”, “Mustaqillik bayrami”, “O‘zbekiston konstitutsiyasi kuni”, “Hayvonot

bog‘ida” kabi va boshqa mavzular bilan bir qatorda, badiiy asarlarga, ertak, hikoya, masallarga illustrativ rasmlar chizishning o’rni beqiyosdir.



6-rasm.

**Tasviriy san’at darslarida illyustrativ rasm ishlash.** Badiiy ta’lim tarixida o‘quvchilarning tasviriy savodxonligi, estetik didini shakllantirishda tasviriy san’at tarkibidagi illyustrativ rasm ishlash darslari alohida ahamiyat kasb etishi bilan ham nafaqat badiiy-estetik ta’limda, balki umuman ta’limda, ayniqsa, tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Zero, bu jarayon o‘quvchilarda tasviriy savodxonlik kompetentsiyalari bilan hamohang tarzda o‘quvchilar ma’naviyatini boyitish, ularda axloqiy ideallarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Umumiy o‘rtta ta’lim fanlari tarkibidagi “Tasviriy san’at” o‘quv fanining Davlat ta’lim standartida kompozitsion faoliyat badiiy ta’limning asosiy turlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Boshlang‘ich sinflarda bu turdagи darslar o‘quv dasturiga ko‘ra namunaviy topshiriqlarda keltirilgan mavzular bo‘yicha amalga oshiriladi. Tasviriy san’at ta’limining mazkur blokidagi o‘quv materiallari asosida o‘quvchilarning kompozitsion faoliyatini

kompleks tashkil etishda 7-sinfning oxirgi choragi – “Kitobat san’ati” bloki, birinchidan, keng qamrovli imkoniyatlarni taqdim etadi.




7-rasm. S. T. Sobirov.

Ikkinchidan, kitobat san’ati nafaqat 7-sinf tasviriy san’at ta’limini, balki, umuman maktab tasviriy san’at ta’limini yakunlovchi qismi bo‘lganligi uchun ham o‘quvchilarning barcha bilimlari amaliy tatbiqini baholash mumkin bo‘ladi, ya’ni tasviriy san’at ta’limining uzviylik va uzlucksizlik prinsiplari asosida o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartida belgilangan o‘quv kompetensiyalarini egallaganlik darajalarini baholash imkonini beradi. Shuning uchun ham tasviriy san’at darslari uzviyligini ta’minlashda illyustrativ rasm ishlash mashg‘ulotlarining imkoniyatlaridan foydalanish diqqat markazida bo‘lishi maqsadga muvofiq. Zero,


unda tasviriy faoliyatning barcha turlarida o'zlashtirilgan nazariy bilim hamda egallangan amaliy-tasviriy kompetensiyalarni tatbiq etishning didaktik imkoniyatlari mavjud. Ayni paytda ta'kidlash joizki, tasviriy san'at darslarida illyustrativ rasm ishslashda amal qilinishi lozim bo'lgan talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning boshlang'ich hamda 5-6-sinflarda illyustrativ rasm ishslash darslarida o'zlashtirilgan o'quv materiallari asosida shakllantirilgan tasviriy-ijodiy kompetensiyalardan foydalanish;
- tanlangan yoki tavsiya etilayotgan adabiy manbalar yuzasidan o'quvchilarga kerakli tushuntirish berish. Bunda tanlangan asar syujetining murakkabligi, undan tasviriy kompozitsiya ishslash imkoniyatlarining murakkablashib borishini uzviylik prinsipi asosida bosqichma-bosqich to'ldirib borishni nazarda tutish;
- tanlangan manbaning mazmunini tahlil qilish. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga, asosan, mazmun jihatidan uncha murakkab bo'limgan xalq ertaklari syujetlari asosida illyustratsiyalar ishslash tavsiya etilib, o'qituvchi savol-javob vositasida o'quvchilarda illyustratsiya kompozitsiyasi uchun syujet, mavzu tanlashda o'qituvchining tavsiyalari, maslahatlari hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, tasviriy san'at ta'limining oxirgi yilida bu jarayonda o'quvchilarga ijodiy faollik va mustaqillik berish tavsiya etiladi;

Illyustrativ rasm ishslash darslarida kitobat san'atining badiiy-grafik elementlarini yaratishga kompleks yondashish. Bu turdag'i darslarda o'quvchilarga kitobning strukturasi hamda kitobat san'atiga oid atamalar haqida kerakli ma'lumotlar berish lozim bo'ladi. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilar faqat illyustratsiya haqida tushunchaga ega bo'lgan bo'lsalar, 7-sinfda ular kitobat san'atining muqova, forzats, frontispis, shmustitul, titul varog'i, bosh harf (bosh harflarning badiiylashtirilgan variantlari), zastavka, illyustratsiya, konsovka kabi badiiy-grafik elementlarining lug'aviy ma'nosi, kitob strukturasi hamda



Baland ovoz bilan ... ROOOARI



Mo'jiza tepalikdan sakradi va uchib ketdi ... bir lahzaga,



so'ng suvg'a qulab tushdi. Ho'l bo'lib ketgan yirtqich hayvon yana yashirinish uchun ortga qorong'u g'or tomon qaytdi.



Dunyoda hech bir ayiqcha oilasi va uyini yo'qotib qo'ymasin!



Yosh kitobxon

ga  
tegishli.

Mo'jiza ularga qanday qilib muzli joylardan kelib qolgani haqida gapirib berdi. U faqatgina oilasi bag'tiga qaytishni istavotgan og ayiqcha edi.

8-rasm. Illyustratsiya. N. Sayfiyeva.

arxitektonikasidagi o‘rni va funksiyasi haqida tushunchaga ega bo‘lishlari nazarda tutiladi. Bu omillar o‘quvchilarni tasviriy san’at ta’limining illyustrativ rasm ishslash turiga uzviylik va uzlucksizlik prinsiplari asosida bosqichma-bosqich tayyorlab borish lozimligini anglatadi.<sup>11</sup>(8-rasm).

O‘quvchilar uchun illyustratsiya eng muhim bilim va axborot manbai bo‘lib, u shubhasiz, ta’limiy qiymatga ega. Bu orqali o‘quvchi atrofdagi voqelikni, tabiatni va hayvonot dunyosi, insonlarning turmush tarzi haqida juda ko‘p narsalarni o‘rganadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning tasviriy san’at darslarida illyustrativ rasm ishlashi, shuningdek illyustratsiyalar mazmunli va tushunarli bo‘lishi o‘quvchilarda tasavvurning rivojlanishiga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Chunki kitob bilan muloqot o‘quvchining ichki dunyosi shakllanishiga, tasavvurining boyishiga ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy adabiyotni o‘qish orqali o‘quvchi tarixni, bugungi kunni va kelajakni tahlil qilishni o‘rganadi, axloqiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari shakllanib, umumiy dunyoqarashi kengayib boradi.

Illyustratsiya o‘quvchilar uchun kitobning eng muhim elementi bo‘lib, u asosan kitobning badiiy qiymatini va hissiy ta’siri darajasini belgilaydi.

Illyustratsiya – adabiy asar mazmunini tasviriy tarzda ochib beruvchi grafik asar bo‘lib, birinchi navbatda asar uslubiga bo‘ysunuvchi, shu bilan birga kitobni badiiy estetik qiymatini oshiruvchi, qo‘srimcha, to‘ldiruvchi va boyituvchi elementi hisoblanadi (9-rasm).

Illyustratsiya – adabiy asar mazmunini tasviriy tarzda ochib beruvchi grafik asar bo‘lib, birinchi navbatda asar uslubiga bo‘ysunuvchi, shu bilan birga kitobni badiiy estetik qiymatini oshiruvchi, qo‘srimcha, to‘ldiruvchi va boyituvchi elementi hisoblanadi.

“Bola kitoblardagi illyustratsiyalarning yorqin ranglarda bo‘lganini yoqtiradi. Bolalarga ko‘rish bilan bir qatorda ushlab ko‘rish juda muhimdir.

---

<sup>11</sup> Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. Developing Students’ Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes. International Journal of Social Science Research and Review. <http://ijssrr.com> editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.

Bolalardagi bu istak bolalar kitoblarining nafaqat mazmun jixatdan balki material jihatidan ham mustahkam va sifatli bo‘lishini talab etadi.



9-rasm. Illyustratsiya. H.T. Sobirov.

Bolalar kitoblaridagi narsalarni jonlantirish va insonlardagi xati-harakatlar, fel –atvorlarini hayvonlar obrazida tasvirlash muhim axamiyat kasb etadi. Bola ko'pincha o'zini ertakdagi biror qaxramon yoki narsaning o'rniqa qo'yib ko'radi. Shu sababli voqeylekni illyustratsiyalarda xuddi hayotdagi kabi tasvirlash bolalar uchun qiziqarli bo'lmaydi”.<sup>12</sup> (10-rasm).


Illyustratsiyalar manba mazmunini to'liqroq yetkazishga yordam beradi, biroq bu pedagogik yondoshuvni ham o'z talablari mavjud. Agar illyustrativ material noto'g'ri vaqtda ko'rsatilsa, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Jumladan, o'quvchining tasavvur qilishiga ham xalaqit berishi mumkin.

<sup>12</sup> Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852.

O‘quvchilarda illyustrativ rasm ishslash va illyustratsiya tasviriy san'atning maxsus turi sifatida tasavvurning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi u o‘quvchining estetik ta'sirchanligini rivojlantiradi, bu esa o‘quvchining go‘zallikka bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi.

Didaktik funksiya nuqtai nazaridan illyustratsiyaning asosiy vazifalari sifatida quydagilarni e’tirof etish mumkin:

- Birinchidan, kitobdagи tasvirlar bola uchratgan ilk tasviriy san'at asarlaridan biri bo‘lib, badiiy tasavvurlarini rivojlantiradi, badiiy ijodiyot yo’nalishidagi intilishlarini rag‘batlantiradi mashg’ulotlar o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. Illyustratsiyalar bevosita o‘quvchilarga estetik zavq beradi.



10-rasm. Illyustrtsiya. H.T. Sobirov.

- Ikkinchidan, illyustratsiyalar bolalarda badiiy didni shakllantiradi, o‘quvchilarga kartinalarda har doim ham ko‘rmaydigan va ularni tushunish qiyinroq bo‘lgan badiiy vositalarni ko‘rishga, tasavvur etishga va baholashga

yordam beradi. Rasmlardagi rang, ritm, kompozitsiya va boshqa tushunchalar o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘ladi. O‘quvchilardagi bu sifatlar aynan kitoblardagi illyustrativ materiallarni badiiy-estetik idrok etish, tahlil qilish, baholash asosida shakllangan tasavvurlarga tayangan holda amaliy, tasviriy-ijodiy faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

- Uchinchidan, bolalar nutqini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi: hikoyalar tuzish, turli emotsiyal holatlarni tasvirlash orqali so‘z boyligini boyitadi.
- To‘rtinchidan, kitobga ishlangan illyustratsiyalar bilan ishlash va barcha aqliy bilish jarayonlarini faollashtirishga yordam beruvchi maxsus mashqlar, o‘yinlardan foydalanish: xotira, fikrlash, diqqat, tasavvur va ularning rivojlanishiga yordam beradi.
- Beshinchidan, kitobga illyustratsiya ishlovchi rassomlarning ijodiy uslubi bilan tanishish o‘quvchilarni chizishga undaydi va ularning tasviriy malakalarini oshirish imkoniyatini beradi.<sup>13</sup>

Illyustratsiya ta’sirida o‘quvchilar o‘qish uchun kitob tanlash jarayonini boshlaydi. Illyustratsiya o‘quvchining adabiy asar matnini tushunishiga yordam beradi, uning mavzusi, g’oyasi, xarakterlari haqida tasavvur hosil qiladi va adabiy asardagi voqeа va belgilariga baho beradi. Illyustratsiya – o‘quvchilarni adabiy dunyoga kirib, uni his qilish, do‘splashish, sevishga yo‘naltiradi.

O‘quvchilarni kitob grafikasi bilan badiiy asar sifatida tanishtirish uchun o‘qituvchi pedagogik ishlarni to‘g‘ri olib borish maqsadida illyustratsiya va kitob grafikasining turli yosh guruhlarini idrok etish xususiyatlarining qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Illyustratsiyalar avvalo adabiy asarning g‘oyaviy mazmuni tasviriy ifodalash bilan chambarchas bog‘liq holda qahramonlarning obrazlarini xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Obrazni xarakterli tasvirlash vositalariga quyidagilar kiradi:

---

<sup>13</sup> Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852.

qahramonning grafik tasviri, qahramonning psixologik holatini olib beruvchi yuz ifodalari, qaddi-qomati, imo-ishorasi, hattoki ranglar orqali xarakterini olib berish. “G‘oyani rangda ifodalash ham eng muhimlardan biridir. Inson bajargan har bir ijodiy ish bu qandaydir darajadagi bir asar. Badiiy asarning o‘zi qanday muammo ifodalanganligidan qat’i nazar “alohida asar” sifatida e’tiborga molik bo‘lishi kerak”.<sup>14</sup>

Illyustratsiya bolalarning matnni tushunishlariga katta ta’sir ko’rsatadi. Bu ta’sir erta mакtabgacha yoshdagi bolalarda muhim hisoblanadi. Keyinchalik illyustratsiyalarning ta’siri kamayadi va matnning roli ortadi.

Kichik bola uchun chizilgan illyustratsiya nafaqat yordamchi vazifani bajarmaydi, balki asosiy material rolini o‘ynaydi. Rivojlanishning bu bosqichida illyustratsiya bola uchun voqelikning o‘zini ifodalaydi, uni og‘zaki tavsif bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Katta yoshdagi bolalar illyustratsiyalar yordamisiz ertak yoki oddiy hikoya syujetini tushuna boshlaydilar. Biroq, murakkabroq badiiy asarning ichki mazmunini - xatti-harakatlarining axloqiy mazmunini tushunish o‘quvchi uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda illyustratsiya yana muhim rol o‘ynay boshlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, matn va illyustratsiyalar kitob mazmunini taqdim etishning asosiy shakli bo‘lgani uchun o‘quvchining kitobni tushunishi og‘zaki taqdimot va ko‘rgazmali tasvirning to‘g‘ri nisbati bilan ta’minlanadi. O‘quvchi tasavvurining shakllanishida kitobning va kitobga ishlangan illyustratsiya, tasviriy san’at darslarida illyustrativ rasm ishlashning o‘rni beqiyos. Kitob bolaning tabiiy qizo‘quvchanligini boshqaradi, uni rivojlantiradi va chuqurlashtiradi, tasavvurida paydo bo‘lgan minglab savollarga javob beradi.

Illyustrativ rasm ishlash o‘quvchilarning tasviriy san’atning boshqa

---

<sup>14</sup> Sobirov Sarvar Tursunmurotovich. Developing Students’ Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes. International Journal of Social Science Research and Review. <http://ijssrr.com> editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.

janrlarida egallangan malakalaridan samarali foydalanishlarini tashkil etish ham badiiy ta'limning muhim ahamiyatga molik masalalari sirasiga kiradi. Bu omil, birinchidan, o'quvchilarining darsda egallagan bilimlarining darajasini baholash imkonini beradi. Ikkinchidan, o'quvchilarda illyustrativ rasm ishslash jarayoniga kompleks yondashgan holda uning mukammalligiga erishish uchun ilgari egallagan bilimlarni yangi o'zlashtirilgan bilimlar bilan aloqadorlikda, uzviy tarzda qo'llash kompetensiyalari shakllantiriladi. Illyustrativ rasm ishslash va illyustratsiya o'quvchilarni matnni yanada chuqurroq va yaxshiroq tasavvur etishiga, tasavvurining boyishiga yordam beradi.

Kompozitsiya chizish uchun tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar narsaga qarab rasm chizish perspektiva, rangshunoslikdan olgan bilimlardan keng foydalanishlari kerak. O'qituvchi vazifani tushuntirishda o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi lozim.

Birgina mavzuni turli xil mazmunda, har birini o'ziga xos ko'rinishda talqin qilgan holda tasvirlash mumkin. Masalan: "Bizning qurilishlarimiz" mavzusida o'quvchilar kuzatishlari asosida turli konstruksiyadagi zamonaviy uylarni, har xil mashinalarni, turli ishlarni bajarayotgan odamlarni tasvirlashlari mumkin.

O'qituvchi mavzuni qanchalik keng va to'liq tushuntirsa bolalar rasmlari shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi. Har bir mavzuni chizishdan oldin o'quvchilar bilan ma'lum vaqtgacha ekskursiyalar o'tkazish, mavzu asosida ishlagan asarlarini tahlil qilish ham maqsadga muvofiqdir. Rasm chizish jarayonida chizish qiyin bo'lgan obrazlar, masalan, odam, hayvon, murakkab texnika va h.k.z ni chizish yo'llari haqida ma'lumot berish, sxematik tasvirni chizib ko'rsatish kerak.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mavzuli rasm chizish bolalar yosh xususiyatni e'tiborga olgan holda qanday mavzularni tavsiya etish mumkin?
2. Tasviriy san'at darslarida illyustrativ rasm ishslash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan talablar nimalardan iborat?

3. Kitobat san'atining badiiy-grafik elementlariga nimalar kiradi?
4. Illyustratsiya deganda nimani tushunasiz?
5. Illyustratsiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

### **Bezakli – dekorativ tasvir ishslash.**

Dekorativ rasm darslarida o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashning imkoniyatlari ancha kattadir. Chunki bunday darslardan o‘quvchilar xalq amaliy-dekorativ san’atining asl nusxalari bilan tanishadilar, uning ustalari kabi bolalar ham shu sohada ijod qiladilar. Amaliy san’atdagi ritm, rang, simmetriya kabi ifodalilik vositalari haqida fikr yuritadilar. Dekorativ tasvir chizish darslarida bolalar har qanday naqshning, asosan tevarak atrofdagi narsa va xodisalardan olinganligini anglashlari lozim. O‘quvchilar naqsh namunasidan ko‘chirish darslarida naqsh chizishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, ranglarning nomlarini o‘rganadilar. Bo‘yoqlarni aralashtirib ishlash ustida ish olib boradilar. Naqsh namunalaridan ko‘chirish va mustaqil naqsh chizish darslarida o‘quvchilar ko‘z bilan chamalashni o‘rganadilar.

O’zbekistonning amaliy bezak san’atini go‘zal naqsh bezaklarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu san’at turi namunalarining eng oddiyidan tortib o‘ta murakkablarida ham, o‘lcham jihatidan mo‘jazlaridan tortib to mahobatli namunalarida ham ramziy ma’no kasb etgan shakllarni ko‘rishimiz mumkin. Bunday nafis bezaklarni bolalar o‘yinchoqlarida, beshiklar, sandiqlar, kursilar, stollar, xontaxtalar, qutichalar, shaxmat taxtasi, otning egarlari, choyshab, belbog‘lar, so‘zanalar, palaklar, kashtalar, gilam-kigizlar, zargarlik buyumlari, zardo‘zlik va shu kabi badiiy hunarmandlik namunalarida ko‘rishimiz mumkin.

Zardo‘zlik san’ati XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahrida rivoj topdi. Biroq, bu yerdagi ustaxonalarda etik, mahsi, to‘n, belbog, do‘ppi kabi zar bilan bezatilgan kiyimlar faqat hukmdorlar, badavlat kishilar, xorijiy elchilarga tortiq qilish uchun maxsus tayyorlanar edi.

Buxorolik mashhur ustalar Usta Salim, Usta Olimjon Majidov, Usta Fayzullo G‘aybullayevlar yaratgan zardo‘zlik buyumlari hozirgi kunda dunyoning bir qator muzeylarida saqlanadi. O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston Xalq amaliy san’ati muzeylarining ekspozitsiyalari orasida ham zardo‘zlik san’ati namunalari bor.

Bugungi kunda kelin-kuyovlar, to‘ybolalar, yubilyarlar, ulkan yutuqqa erishganlarga zarchopon kiydirish odat tusiga kirib bormoqda(8-9 rasmlar).







8-rasm. Zar chopon.







9-rasm. Bodom kashtasi.|

Zardo‘zlik san’atida qo‘llaniladigan ramziy shakllar ham insonlar hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Undagi naqsh elementlaridan bodom, uzum, uzum gajagi, paxta, buta, daraxt, turli shakldagi gullar, ko‘za va undagi buta, zirk butasi (turunj), kungaboqar, majnuntol, novda va yaproq kabilarning shakllari stilizatsiyalashtirilgan (badiiy lashtirilgan) ko‘rinishda qo‘llaniladi.





Tasviriylar san’at xalq amaliy san’ati va badiiy hunarmandchilik an’analari bilan birga hozirgi zamon texnika estetikasi va badiiy bezash asoslari bilan bog‘lanadi.






1-gul.






2-gul.






3-gul.




4-gul.



5-gul.







6-gul.




7-gul.



8-gul.



9-gul.



10-gul.

10-rasm. 10 ta gul.

Naqsh bilan bezatilgan buyumlarni o‘qiy olishga o‘rgatish amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biridir. Naqsh namunasidan ko‘chirish va mustaqil naqsh chizish ijodiyoti namunalaridan ko‘rsatish, naqsh san’ati asarlarini ko‘chirish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarning badiiy didi o‘stiriladi (10-rasm. 10 ta gul namunasi).

Mustaqil naqsh chizish orqali bolalarning ijodiy qobiliyati, fantaziyasini, tafakkuri rivojlantiriladi. O‘quvchilarga o‘zbek amaliy-dekarativ san’ati va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha berish va ularning estetik idrok etish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida suhbatlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Suhbatda bolalarning e’tibori turli idishlarda, har xil bezatilgan kiyimlar ajoyib ishlangan o‘yinchoqlar va boshqalarga qaratiladi.

Dekorativ grafik ishlarning vazifasi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish dars jaryonida olgan bilim va malakasini hayotda amaliy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatishdir. Dekorativ amaliy faoliyat darslari tasviriy san’at predmetini tekislikda tasvirlash, plastilin bilan ishlash, san’atni idrok qilish, kompozitsion faoliyat va boshqalarga tayangan holda o‘tiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Zardo‘zlik san’ati nechanchi asrda, qayerda rivoj topdi?
2. Stilizatsiyalash zardo‘zlik san’atida qanday qo‘llaniladi?
3. Zardo‘zlik san’atida naqshning axamiyati qanday?

### **Haykaltaroshlik.**

Tasviriy san’atning turlaridan yana biri haykaltaroshlik bo‘lib, u ham boshqa tasviriy san’at turlari qatori hayotni real aks ettiradi, dunyoni bilishga insonga yordam beradi, uni g‘oyaviy va estetik jihatdan tarbiyalaydi.

“Hajmi, moxiyati jixatidan yasalgan xolda tasvirlansa” - bu san’at haykaltaroshlik deb nomlanadi. Haykaltaroshlik ko‘rinishiga qarab, dumaloq va qavariq (relef) xaykallar yaratish turi. Dumaloq haykallarni xamma tomondan ko‘rish mumkin bo‘lib, yagar bu san’atda inson obrazining bosh qismi yoki

beligacha tasvirlansa, bunday xaykallar byust deb ataladi. Relef (qavariq) xaykallar esa yuzaga bo'rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko'rishga mo'ljallangan bo'ladi. Releflar o'z o'rnida gorelef va barelef larga bo'linadi. Gorelef yuzaga yopishgan xolda nisbatan bo'rtib ko'rinishi, xatto biror-bir bo'lagi dumaloq xaykal darajasida xam bo'ladi. Barelef lar yuzaga nisbatan kam bo'rtib tasvirlanadi, bu o'rinda tanga va taqinchoqlarni misol keltrish mumkin. Haykaltaroshlik san'atida asosan qattiq jismlardan tosh, yog'och marmar, granit, bronza, gips va boshqa shu kabi materiallardan foydalaniladi. Ta'lim olayotgan talaba va yoshlar Haykaltaroshlik san'ati xususida aniq tushunchaga, nazariy bilimga ega bo'lish orqaligina amaliy faoliyat yurita olishi mumkin. Shuning uchun xam haykaltaroshlik san'atini ilmiy pedagogik jixatdan taxlil qilinishi ta'lim mazmunini takomillashtirishdagi muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Haykaltaroshlik san'atining qadimgi namunalari xalqlarimizning tarixini, e'tiqodlarini, estetik dunyoqarashlarini, turmush tarzini qiziqarli va jonli xikoya qilib beradi.

Odatda, haykaltaroshlik san'atida rangli namunalar juda kam uchraydi. Nefreteti byustida esa rangli Haykaltaroshlikni o'ta san'atkorona bajarilganligining guvoxi bo'lamiz. Fikrimiz haykaltaroshlik san'ati xaqidagi dalillarga qaratilar ekan, qadimgi yunonlarning va rimliklarning bu boradagi namunalarini eslamasdan o'tib bo'lmaydi.

Yunon asotirlarida keltirishicha Afrodita go'zallik va muxabbat timsolidir. Buni Afroditaga bag'ishlangan haykallarda ko'ramiz. Ular nafisligi go'zalligi bilan kishini o'ziga rom qiladi. Bu o'rinda ayniqsa "Milos Afrositasi" haykali aloxida diqqatga sazovordir. Eng qadim xalqlardan hindlar o'zlarining diniy e'tiqodi bo'lmish Buddaga oid minglab haykallar yasashgan.

Albatta o'quvchilar va barcha yoshlarni tarbiyalashda vatanimizning san'at merosi bebaxo ilmiy qimmatga egadir. Bu borada o'lkamizning Surxandaryo viloyatidan qadim kushonlar davriga oid Buddizimga xos haykaltaroshlik namunalarini ham ko'plab uchratish mumkin. O'zbekiston hududidagi qadim Samarqandning o'rni Afrosiyobdan bir qancha kichik haykalchalar arxeolog

olimlarimiz tomonidan topilgan va haykalchalarda go‘zallik sadoqat insoniylik va diniy e’tiqodlar aks ettirilgan.

Haykaltaroshlik namunalari qadim Buxoro Xiva kabi shaxarlar tarixida ham mavjud bo‘lgan. Haykaltaroshlik san’atining Yuqoridagi dalillaridan ko‘rinib turibdiki bu san’at asarlari xam mazmuni va vazifasiga qarab qo‘yidagi turlarga bo‘linadi monumental dekorativ va dastgox kabilar. Monumental haykaltaroshlik muhit memorlik binolari hamda tabiatga uyg‘unlashtirib ishlangan bo‘ladi. Monumental xaykallari uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘lganligi uchun unda yaxlit forma shakllardan keng foydalilaniladi. Bu borada Toshkent shaxridagi O‘zbekiston mudofaa vazirligining binosi qarshisidagi “Jangchi saldat” shuningdek Alisher Navoiy va Sohibqiron Amur Temur haykallari ibratli misol bo‘la oladi. Dekorativ haykaltaroshlikda haykallar memorchilik binolarini xiyobonlar bog‘larni bezashda ishlatiladi. Mustaqil mazmunga ega bo‘lgan vokelikni butun borlig‘i bilan aks ettirgan hamda inson ichki ruhiy olamni o‘ziga xos ochib beradigan va shular bilan birga muzeylar ko‘rgazma zallari va bashqa joylarga qo‘yishga mo‘lljallangan haykallar dastgox haykaltaroshligi deb yuritiladi.

Haykaltaroshlik san’atining ilmiy –pedagogik jihatdan o‘rganib uni bulajak o‘qituvchilarga har jixatdan taxlil qila oladigan darajada yetkazish amaliy va ilmiy qimmatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda taniqli haykaltaroshlik san’atining maxoratlari ustalaridan ayniqsa Abdumomin Boymatov, Shapiro Aliyev, Ulug‘bek Mardihev, Ilxon Jobborov va boshqa bir qancha san’atkorlarning asarlari ko‘pchilikning e’tiborini o‘ziga xos yetarlicha pedagogik tajribalarga xam ega.

O‘quvchilar bu darsda tekislikni tasvirlash va dekorativ amaliy faoliyat darslarida olgan bilimlariga tayanib haykallar ishlaydilar. Bolalar yoshligidanoq haykaltaroshlik sirlari bilan tanishadilar. Shuning uchun ham maktablarda tasviriy san’atning bu turi (lepka) plastilin yoki loy bilan ishlash bo‘yicha dars o‘tish dasturlashtirilgan. Bu o‘quvchilarning badiiy didlarini san’atga bo‘lgan

qiziqishlarini orttiradi, tabiatda, insonlarda bo‘lgan individual xususiyatlarni tezda anglab olishga yordam beradi.

Plastilin va loydan shakllar yasash darslarida o‘quvchilar san’atining muhim turi bo‘lgan haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishadilar. Bu darsda o‘qituvchi bolalarga haykaltaroshlik mohiyati, axamiyati haqida, haykal ishslashning o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lumot berib boradi. Haykal ishslashda loy, plastilin, qisman yog‘och va tabiiy shakllardan foydalaniladi (11-rasm).




11-rasm. Tuya va bo‘toloq. A. Muxtorov.

Dekorativ haykaltaroshlikning bu yo‘nalishida haykallar va bo‘rtma tasvirlar kichik o‘lchamda bo‘lishi bilan farqlanadi. Mayda plastika dekorativ haykaltaroshligida asosan yodgorlik haykallari, binoning ichki va tashqi bo‘rtma bezaklari, loy, chinni va shishadan boshqa ashylardan kichik o‘lchamdagи o‘yinchoq haykalchalar ishlanadi. Insonga zavq berib hayratlantiradigan loy, shisha, metall, yog‘och, suyakdan ishlangan kichik o‘lchamdagи go‘zal haykalchalar borki, ular javonlami, yozuv stollarini badiiy estetik jihatи bilan bezab turadi.

Mayda plastika dekorativ haykaltaroshlikda o‘yinchoq haykalchalar yasash. O‘qituvchi o‘quvchilarga - Rasm daftaringizga eskizlar variantini chizib oling.

Ma'qul bo'lgan eskiz variantini tanlab, taglik va sim karkas tayyorlang. O'yinchoq haykalcha tasvirini loy yoki plastilindan ishlang deb yo'nalish beradi. O'yinchoq haykalchani sim karkassiz yasash mumkinligi namunada ko'rsatilgan (12-rasm).



12-rasm.

Loy va plastilindan haykalchalar yasash, ayniqsa boshlang'ich sinfda ishlanganda, har bir buyumning konstruktiv tuzilishi, hajmini chuqurroq xis etishga yordam beradi. Bulardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning qo'l barmoqlari, mushaklari rivljanadi, fantaziyasining yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Haykaltaroshlik deb nimaga aytildi?
2. Haykaltaroshlikda qanday materiallardan foydalilanildi?
3. Haykaltaroshlik na'munalarini vatanimizning qaysi hududlarida uchratamiz?
4. O'zbekistonda taniqli haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz?

## **San'atni idrok qilish.**


Bolalarning san'at idrok etish bilimi tasviriy san'at darslarida asta-sekin kengayib boradi. Bu esa o'quvchilarning amaliy ishlarda borliqdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etishga ongli ravishda yondoshish imkonini beradi. Darslarda tasviriy san'atning tur va janrlari haqida tez-tez suhbat o'tkazish, mashhur san'atkor va ularning yetuk asarlarini tahlil etish bolalarning badiiy didini o'stirishga, go'zallikni sevish va tushunishga yordam beradi.

Tasviriy san'at bo'yicha suhbat o'tkazish uchun maxsus soatlar ajratilmaydi. Suhbat darslari tasviriy san'at turlari tekislikni tasvirlash, plastilin bilan ishlash, dekorativ amaliy san'at bilan qo'shib o'tiladi.

Tasviriy san'atda suhbat uchun ajratilgan vaqt 15-20 minutdan oshmasligi lozim. Suhbat darslarining mavzusi har xil bo'lishi mumkin. Rassomlar, haykaltaroshlarning ijodlari, tasviriy san'atning tur va janrlari to'g'risida suhbatlar o'tkazilishi mumkin. Suhbatda o'quvchilar rassomlarning hayoti va ijodini, asarlarning taxlil qilishga o'rghanadilar. San'at asarlarini idrok etish bo'limida O'zbekiston xalqlari hayoti va ijodini aks ettiruvchi asarlarga ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at asarlari bilan o'quvchilarini tanishtirishda, ularga yaqin va tevarak atrofdagi hayotdan olingan mavzu asosida o'tkaziladi. Bular tabiat manzarasini aks ettirgan iste'dodli o'zbek rassomlarining, O'zbekiston tabiatining manzarasi, ko'ko'par tog'lari, keng quloch yoygan yam-yashil dalalarini, qurilish inshoatlarini rang-barang yorqin bo'yoqlarda ifoda etilgan asarlari orqali tanishtirish mumkin.

Dars jarayonida o'zbek tasviriy san'atini va boshqa qardosh xalqlar tasviriy san'ati bilan taqqoslash usulini qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq. O'.Tansiqboyev, N.Karaxon, R.Temurov, Sh.Abdurashidov, N.Ko'ziboyevlarning chizgan rasmlari bilan tanishayotganimizda rus manzarachi rassomlari I.Levitan, A.Savrasov va I.Shishkinlarning asarlari namunasini taqqoslab ko'rsatishimiz mumkin. Suratlarni solishtirish maboynida o'quvchilar tabiat go'zalligini xis

qilishi, kishilarning qadimiy va hozirgi hayoti haqida tasavvurga ega bo‘ladilar (13-14 rasmlar).



13-rasm. O‘. Tansiqboyev.



14-rasm. I. Levitan.

Bolani tasvirlashga o‘rgatishning asosiy sabablaridan biri o‘qitish uslubi psixologik xususiyatga ega bo‘lganligidir. Chunki shu yo‘sinda biror bir ma’noni anglatishini faqat tasvirlar orqali amalga oshirishini talab etardi.

Qadimgi Misrda yoshlarni maktabda o‘qitish tizimi juda qattiqqo‘llik bilan hattoki majburlash darajasida olib borilgan. Belgilangan maktab qonuniga amal qilmagan o‘quvchi jazolanardi. Qadimgi manbalarda yozilishicha, maktab qonun-qoidalarga bo‘ysunmagan shogird gavron bilan savalanib, so‘ngra uzoq vaqt qorong‘i zulmatda saqlangan ekan. O‘sha davr maktab qonuni quyidagilarni talab etardi: "Kundalik o‘qishda faol va atrofdagilarga muloyim bo‘l. Hech qachon dangasa bo‘lma, yo‘qsa kaltaklanasan!". Maktablarga rasm chizishga o‘rgatish dastlab qadimgi Misrda paydo bo‘ldi. O‘qitish rassom – pedagoglar tomonidan aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan metod hamda qonunlar asosida olib borilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, Misrliklar rasm chizish va uning nazariy qonunlariga asos solganlar. O‘sha davr maktablarida yoshlarga ta’lim berishning aniq ishlab chiqilgan didaktik tamoyillari bo‘lmagan. Yoshlarga rasm chizishni o‘rgatish naturani kuzatish, tahlil etish, atrof tabiatdagi voqeя va hodisalarini kuzatish orqali emas, balki oldindan ishlab chiqilgan andozalar asosida olib borilgan<sup>15</sup>.

Misrliklardan farqli o‘laroq qadimgi Yunon rassomlari tasviriy san’atni o‘qitish borasida ta’lim-tarbiyaga o‘zgacha yondoshib, uni tubdan o‘zgartirib boyitdilar. Ular yosh rassomlarni ko‘proq tabiatni o‘rganishga va uni ajralmas bo‘laklaridan biri bo‘lgan inson go‘zalligini yuksak darajada tasvirlashga chaqirganlar. Ular qo‘llagan metodlar rassomlarning borliqdagi xodisalarini insonning tabiat bilan chambarchas uyg‘unligini kengroq bilib olishlariga yordam beradi, narsalarning shakli konstruksiyasini elementar tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini hamda kuzatuvchanligini o‘stirish imkonini berdi va tasviriy san’at darslari shu tarzda tashkil etiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

**Yangi pedagogik texnologiya nima?**

---

<sup>15</sup> М.Набиев, Б.Азимова. Расм чизишни ўргатиш методикаси. Т., 1983 й.

Ijodkorlik nima degani?

Ilk bora chizish paydo bo‘lganmi yoki yozuv?

### **Tasviriy san’at metodikasi fani, mazmuni va mohiyati.**

Tasviriy va amaliy san’at fanlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi” Tasviriy san’at yo‘nalishida o‘rganiladigan asosiy kurslardan biri bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amaliy mashg‘ulotlar II-IV bosqich talabalarning badiiy-kasbiy bilimini, malaka va mahoratini shakllantirishga hamda ularni maktab o‘quvchilariga badiiy ta’lim-tarbiya berish jarayonida qo‘llashga o‘rgatishga qaratilgan.

“Metod” so‘zi grekcha bo‘lib, “tadqiqot yo‘li” bilish usuli ma’nosini anglatadi. Pedagogika o‘qitish metodlari deganda, maktab o‘quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallashida, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o‘qituvchilarning qo‘llagan ish usullari tushuniladi.

Metodika ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishslash usullari mazmunining xususiyatlarini ko‘rib qarab chiqadi. Ma’lumki, maktabda o‘qitishning xilma-xil metodlari qo‘llaniladi. Bu yerda ta’lim usuli, o‘quv materiallarining joylashishi (o‘quv reja, dastur), ta’lim prinsiplari va yana (so‘ngida), o‘quv tarbiyaviy ishlarning umumiyligi maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika so‘zi avvalo ta’lim va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma’nosini bildiradi, mazkur darslikda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tasviriy san’atni o‘qitish metodikasining bir qator jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Tasviriy san’at o‘qitish metodlari deganda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishslash usullari natijasida o‘quv materiallarini yaxshi bilib olish darajasiga erishishi va o‘zlashtirish darajasini oshirilishi nazarda tutiladi. Har bir o‘qitish

metodlari o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlarining mazmuni (hajmi)ga monand tarzda ta’lim maqsadiga, o‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq. “Usul” iborasi pedagogik adabiyotlarida tez-tez uchrab turadi. O‘qitish usuli – bu ta’lim-tarbiyaning alohida qismlari hisoblanadi, ularning yig‘indisi o‘qitish metodlariga kiradi. Umumiy yo‘nalishga qaratilgan ma’lum bir o‘qitish metodlari va usullarining majmuasidan o‘qitish tizimi tuziladi.

Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergen o‘qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika asosan pedagogika, psixologiya, estetika va san’atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy san’atni o‘rgatish qonun-qoidalarini ta’riflab beradi, keljak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi.

Amaliy metodika ta’lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o‘rganadi. Pedagogik maxorat ko‘nikmalarini o‘rganish uni egallashga qaratilgan ma’lum iste’dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud bo‘lishini talab etadi, chunki metodika fani san’at pedagogikasining mashaqqatli murakkab va juda mas’uliyatli sohasidir.

Demak, tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi fani pedagogika ilmining o‘quvchilarni tasviriy san’atga o‘rgatish mazmuni, vazifalari va metodlarini, o‘qitishning mazmuni, vazifalari va metodlarini aniqlovchi, ijodiy ishlardagi oqilona usullarini o‘rganuvchi, ta’lim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o‘quv jarayonini tashkil etuvchi shakl va yo‘llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Tasviriy san’at metodikasi metodika fanining boshqa sohalari kabi umumiyligi va xususiy turlarga ajratiladi.

**Umumiy metodika** – o‘quv fanining nazariy qismi asoslariga qarashli savollarni va ko‘pchilik fanlarga tegishli o‘qitish usul va uslublarini qo‘llanishlarini ko‘rib chiqadi. Bular quyidagilar:

- tasviriy san’at fanining maqsad va vazifalari;

- tasviriy san'at fani dasturlarining tuzilishi va mazmuni;
- o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlarini ishlab chiqish;
- ko'rgazmali metodik vositalarni tadqiq qilish va tanlash (o'quv ko'rgazmali qurollar va texnik vositalari);
- tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (adabiyot, musiqa, biologiya, tarix);
- tushunchalarni, iboralarmi ta'riflash va boshqalar.

**Xususiy metodika** - biron-bir o'quv fanining o'qitish uslubi nazarda tutiladi:

- ko'rgazmali quollardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi;
- amaliy va ijodiy ishlarning mazmunlari aniqlanadi va h.k.

Hozirgi kundagi rasm chizmaning o'rgatish metodikasi birdaniga shakllangan emas, bunga qadar mazkur metodika murakkab shakllanishi va taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Respublikamizda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasining shakllanishida mahalliy olimlar, metodistlarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarning ahamiyati juda katta o'rinn tutadi. Badiiy pedagogikada metodika sohasidagi so'ngi yutuqlar ko'rsatilgan va talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va maxoratlar bilan quollantirish o'qitish san'atini egallashiga yordam berishni o'ziga asosiy maksad qilib qo'ygan.

O'qituvchi tasviriy va amaliy san'at darslarining tashkilotchisi, rahbari va ilhomchisi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga quyidagilar kiradi: dastur asosida o'qitiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlari narsaning asliga qarab tasvir chizish; xotira va mavzu asosida tasvir chizish; dekarativ amaliy san'at va haykaltaroshlik; san'atni idrok qilish kabi turlarda olib boriladi. Quyida biz tasviriy san'at fanining turlarini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni dars mavzusiga aktivlashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chiqish qoidalarni tushuntirishi zarur. Ba'zida o'qituvchilar tasviriy san'at

darslarini tashkil etish uchun o‘quvchilarga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to‘ldirish kabi vositalardan foydalilanadi.

O‘quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtarda mustakil ravishda bajarayotgan ishlari orqali bilimga, malakaga, ijodiy ko‘nikmaga ega bo‘ladilar, o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berish, ragbarlantirish metodi asosida ilhomlantirish, yutuq va kamchiliklarni o‘z vaqtida ko‘rsatish, ularni o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlash.

Dars jarayonida har bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi yoshlar bilan ish olib boriladi. O‘quvchilar orasida ko‘rib turgan narsalarni to‘g‘ri tasvirlay oladigan xotira asosida qiyalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy tasvirga qarab nusxa ko‘chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba’zi o‘quvchilarning ko‘rish qobiliyati sust, rang sezmaydigan bolalar borligi kabi boshqa hollarni hisobga olishimiz kerak.

O‘quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlarga bo‘lib ta’lim berish metodiga o‘z vaqtida rus pedagogi Ushinskiy ijobiy baho bergen edi.

Guruhlarga bo‘lib o‘qitish shuning uchun qulayki, kuchli o‘quvchilarga qo‘sishimcha topshiriqlar beriladi, ular o‘zlariga berilgan topshiriqlarni qiyalmay bajarib turishadi. Bo‘s, qiynaladigan o‘quvchilar esa o‘qituvchisidan va kuchli o‘qituvchisidan o‘rganadi. Bunday o‘quvchilar tasvir chizishda surunkasiga orqada qoladilar, natijada ular o‘qishga qiziqmay qoladilar. Bu o‘qish ulardan ko‘proq aqliy kuch sarflashni talab qiladi. Shularni bartaraf qilish uchun sinfda olib boriladigan individual ishni ayrim o‘quvchilar bilan olib boriladigan individual ish bilan qo‘sib olib borish kerak.

“Kuchli” biladigan o‘quvchilarga bilimi pastroq o‘quvchilarni biriktirib qo‘yish ham yaxshi natija beradi. O‘quvchilarning tasviriy faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o‘quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo‘lish va unga pedagogik ta’sir o‘tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta’limni individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va psixolog olimlar va metodistlarni qiziqtirmoqda. M.N.Skatkin, N.N.Rostovsev, M.I.Mahmudov, V.S.Kuzin, A.P.Inog‘omov, R.K.Rajabov, S.F.Abdirasilov, O‘Nurtoyev, B.I.Yusupov, S.S.Bulatov asarlarida bu masalalar yoritilgan. Sinfdag‘i bolalar haqidagi dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lgandan keyin, o‘qituvchi hamma bolalarning qobiliyat va malakalariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘ladilar:

1. Tasviriy faoliyati yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tasavvuri taraqqiy qilgan, tasviriy san’at materiallarini o‘zlashtirgan yoki tez o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar. Bu 3 toifa o‘quvchilarning har biri bilan alohida ishlab, ularning barchasini darsga qiziqtirish uchun quyidagi usullardan foydalanishi ma’qul bo‘lar edi.
2. Kuzatuvchanligi, ijodiy tasavvuri o‘rtacha rivojlangan tasviriy san’at materiallarini o‘qituvchi yordamida o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar guruhi.
3. Kuzatish ko‘nikmasi yaxshi rivojlanmagan, ijodiy tasavvuri bo‘lmagan, tasviriy san’at materiallarini o‘qituvchilar yordjamida qiyin o‘zlashtiradigan o‘quvchilar.

Bunday dars o‘tish bizning fikrimizcha o‘quvchilarning aktivligini oshiradi.

O‘quvchilar bilan individual ishslashning ahamiyati katta. Bu metod yordamida qoloqlarsiz o‘qitish darajasiga yetish mumkin. Bundan tashqari tasviriy san’at sinf xonalari yetarlicha yorug‘ bo‘lishi kerak. Yorug‘lik normal bo‘lmagan joyda ko‘rish sezgilariga zo‘r berish zararlidir. Bunday hollarda o‘quvchilarning tez charchashlarni oqibatida darsga bo‘lgan qiziqishlari sustlashishi kuzatiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

Ustoz, shogird munosabatini qanday tushunasiz?

Metodika qaysi tildan olingan?

Ta’limni individuallashtirish masalasida qaysi pedagoglar va psixolog olimlar izlanishlar olib borishgan?

## **Chet ellarda tasviriy san'atni o'qitish tarixidan. Uyg'onish davrida tasviriy san'at o'rgatish metodlari.**

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqat qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlar hayvonlarning yurgan yo'llarini o'rganib, tik qoya va g'orlarda turli tasvirlar va ular orqali insoniyatning ilk davriga xos g'oyalar qoldirganlar. Vaqt o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari aks ettirilib tasvirlar chizib o'sha davr xodisalarini ifodalay boshlaganlar.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga ko'mir bilan turli tasvirlar tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurgizib chiqqanlar. Keyin esa tasvirlarni pushti rang bilan bo'yaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlarni afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdaga dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassmlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy), so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi, undan keyin esa harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi.

Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarini tabiatni bevosita kuzatish, unga taqlid qilish, o'rganish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va hunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning mexnat qilishi natijasidagina san'atga bo'lgan qiziqish uyg'ona bordi.

Rasm chizishga nisbatan ishtiyoq insonlarning kundalik hayotida ishlatiladigan buyumlarni bezash orqali rivojlandi. Eng avvalo sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu alfovda tasvirlar ishslashning dastlabki metodlari xam yuzaga keldi.

Endi hunarmand o‘z shogirdining tasvirlarini qanday ishlashni kuzatib, unga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi. Chunki shogirdning ustoz ko‘rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom etishida muhim o‘rin egallagan.

Shunday qilib tasvir bajarishni o‘rgatishning dastlabki usullari paydo bo‘ldi. Lekin ushbu metodlar aniq ishlab chiqilmagan, yul-yo‘riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san’atga o‘rgatish hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlandi.

Tasviriy san’atga o‘rgatish metodlari to‘g‘risida gap borganda avvalo qadimgi Misrning yuksak rivojlangan madaniyatini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Tarix manbalarida yozilishicha qadimgi Misr maktablarida turli fanlar qatori rasm chizish ham keng o‘rgatilgan. Maktabni tugatgan o‘siprin xona ichki ko‘rinishini tasvirlay olishi, katta maydonning chizmasini chizib, uning o‘lchamlarini qo‘ya bilishi, suv inshootlari tasvirini chiza bilishi shart edi.

Parassiy, Efes, Pamfil, Apeplek va boshqa maktab rassomlari o‘zlarining nazariy asarlarida dunyodagi barcha narsa va buyumlar simmetrik, garmonik, hamda matematik jihatdan o‘lchamlarga ega ekanligi haqida yozadilar. Jumladan, eramizdan avvalgi 432 yilda yashab ijod etgan haykaltarosh Poliklet odam tana bo‘laklarining bir-biriga nisbatlari haqida yozib, uning isboti sifatida “Dorilfor” ma’budasini yasagan. Keyinchalik rasm chizishini o‘rganayotgan yoshlarga Poliklet yasagan haykallardan birini o‘ziga qarab tasvirlash majburiy ravishda ta’lim tizimiga kiritilganligini ko‘ramiz (15-16 rasmlar).

Eramizdan oldingi IV asrga kelib qadimgi Yunonda Sikkion, Efes, Fivan kabi o‘sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari vujudga keldi. Shulardan eng ko‘zga ko‘ringani Sikkion maktabi bo‘lib, u nafaqat rasm chizish metodlarini takomillashtirishga balki, umuman tasviriy san’atning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi, hamda u yoshlarning e’tiborini tasviriy san’atni o‘rgatish orqali go‘zal tabiatni sevishga, uning qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o‘rgatishga qaratdi.

Tasvirlash jarayonida yoshlar tabiatni kuzatish bilan bir qatorda mavjud narsalarning tuzilish xususiyatlarini ham o‘rganganlar. Shuning uchun Sikkion


maktabining asoschilaridan biri Pamfil rasm chizishi fan sifatida barcha o‘quv dargohlarida o‘qitilishning yo‘lga qo‘ygan. U tasviriy san’atga ilmiy nuqtai nazardan qarashni birinchilardan bo‘lib oldinga surdi. Tasviriy san’atning asosi bo‘lgan qalam tasvirga yuksak baxo berarkan “qalamtasvir ishlashda yuqori darajada aniqlik va ilmiy asos bo‘lishi kerak” deb hisoblardi.



15-rasm.

Ko‘rib turibmizki, Pamfil tasviriy san’atni, xususan qalamtasvir bo‘yicha

yoshlarga saboq berishning ilmiy asoslangan, nazariy va ilmiy metodikasini ishlab chiqqan.



16-rasm.

Uning metodikasi asosida saboq olish yoshlardan nazariy bilimlarni egallashi va ko‘plab amaliy mashg‘ulotlar bajarishni talab etardi. Bu yerda to‘liq o‘qish davri 12 yil davom etgan qadimgi Yunon mo‘yqalam ustalari o‘z o‘quvchilariga tabiatni ko‘proq kuzatib idrok qilishni o‘rgatganlar, uning beqiyos

va takrorlanmas go‘zalliklaridan ilhomlanib rasm chizish va buyumlarning o‘ziga qarab haqqoniy tasvirlashga birinchi bo‘lib asos solganlar. Rasm chizishning barcha maktablarda

haqqoniy tasvirini ifodalay bilishlari ular tarbiyasiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Qadimgi Rim davri san’atkorlari Yunon rassomlari erishgan yutuqlarni davom ettirgan holda, tasviriy san’at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdilar. O‘sha davrning boy kishilari san’ati asari namunalarini yig‘ib, keng ommaga bu san’at asarlarini ko‘rsatish, tanishtirish, targ‘ibot qilishni ko‘p amalga oshirganlar. Lekin Yunonistonlik san’atkorlardan farqli o‘laroq Rim rassomlari tasviriy san’atni o‘qitish tizimiga hech bir yangilik kiritmadilar. Rim imperiyasi rassom-o‘qituvchi badiiy ijod muammolari bilan shug‘ullanmas edilar. Asosan o‘qitish tizimida yunon rassomlari yaratgan namunalarga esa rassom-ijodkor sifatida emas, hunarmand nuqtai nazaridan nusxa ko‘chirish, ularni namoyish qilishni odat qilganlar xalos. Ayniqsa, bu hol sezар rassom-pedagoglari ishlab chiqqan o‘qitishning ilmiy asoslangan uslublaridan voz kechish oxir oqibatda tasviriy san’atning rivojlanishiga to‘sinqilik qildi<sup>16</sup>.

O‘rta asrlarga kelib, realistik tasviriy san’at batamom inqirozga uchradi. Chunki bu davr rassomi na buyumni tekislikda haqqoniy tasvirlash qoidalarini na tasvirlashni, tasvirlashda Yunon rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy prinsiplarni to‘liq bilmas edi. Ruhoniylar buyuk Yunon rassom-pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan o‘qitishning nazariy asoslarini yo‘q qildilar. Uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan rassom – nazariyotchisi Giberti bu haqda shunday yozdi. Imperator Konstantin va Silestr papasi davrida Xristianlik dini tarkib topdi. Tasviriy san’at misli ko‘rilmagan darajada ta’qib qilindi. Buyuk san’at asarlari – kartinalar, ma’budalar va insonning eng buyuk tuyg‘usini, shakllantiruvchi

---

<sup>16</sup> R.K.Rajabov, X.E.Sultanov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2008.

rassomlik san'atini o'qitish borasida to'plangan chizma, qonun hamda yozuvlar yo'q qilindi.

Antik nomi bilan yuritilgan ushbu davr san'atining vayron qilinishida turk istilochilar ham o'z «Hissalarini» qo'shdilar. Turklar tomonidan Yunonistonning bosib olinishi tasviriy san'atning batamom rivojlanishdan to'xtalishiga olib keldi. Tasviriy san'at, xususan rangtasvir san'ati bilan shug'ullangan Stendel o'rta asr davrini shunday izohlaydi: "Bosqinchilar qadimgi olimlarning qo'lyozmalarini yoqib kul qildilar, buyuk san'atkorlar tomonidan tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari yo'q qilindi. IV, X, XI asrlarda tasviriy san'at uchun, qora zulmat asrlari boshlandi".

Bu vaqtga kelib tasviriy san'at darslarini umumiy ta'lif fani sifatida o'qitish olib tashlandi. Oqibatida o'qitishning aniq ishlab chiqilgan nazariy va metodik tizimi yo'q bo'ldi. Keyinchalik bu murakkab vmas'uliyatli vazifalar uyg'onish davri rassom-ijodkorlari tomonidan qaytadan tiklandi.

Uyg'onish davri tasviriy san'atning rivojlanashida yangi davrni ochdi. Rasm chizish nazariyasi sohasida rassomlar yangicha metodlarni ishlab chiqqa boshladilar. Salkam ming yillik turg'unlikdan so'ng, ilmiy bilimlar va san'atni rivojlantirish muammolariga bo'lgan qiziqish yana qaror topdi.

Tasviriy san'at, xususan qalamtasvir bajarishning yangi metodlari bo'yicha Chellini, Rafael, Alberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer kabi ko'plab buyuk san'atkorlar shug'ullana boshladilar. Ular tasviriy san'at sohasida ilmiy izlanishlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb qaradilar.

Rasm chizishga nisbatan ko'p bo'lman 4-6 o'quvchidan iborat guruqlar tashkil qilinib, ular rassomlar ustaxonasida tahsil olar edilar. Qalamda tasvirlash kompozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda olib borilgan. Usta rassomlar qanday qilib qalamchizgi bajarishi, keyin uni materialda ishlash hamda kartonda xomaki rasm tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'rgatar edilar.

Qalamtasvir, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi sifatida tan olinar edi. Shuning uchun ham uyg'onish davri buyuk rassomlari rasm

chizish metodlariga katta e’tibor bergenlar.

Benvunuto Chellini “Rangtasvir qonuniyatları” nomli asarida qalamtasvir bajarish metodlariga katta e’tibor berib, uning zaminida narsalarning o‘ziga qarab tasvirlash mashqlari yotadi deb yozgan edi. Uning ta’kidlashicha yuksak mahoratga ega bo‘lish uchun shogird har kuni bir necha soat rasm chizishi kerak.

Florensiyalik me’mor – Leon Vatista Alberti ham qalamtasvir va uni o‘qitish metodlariga katta e’tibor beradi. Xususan uning “Rangtasvir to‘g‘risida uch kitob” nomli mashhur asarlar to‘plamida yozishicha, ranglar bilan ishlashni o‘rganishdan avval qalamtasvirning asosiy qonun-qoidalari o‘rgatish zarurligini aytadi. Uning ushbu asari 500 yil avval yozilganiga qaramasdan, qonuniyatları, xulosalari, hozirga zamон akademik rasm chizish metodlariga to‘la-to‘kis mos keladi. Alberti rasm chizishga jiddiy ilmiy fan sifatida qarar edi.

Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinci ham o‘z hissasini qo‘shti. Uning “Rangtasvir haqida”gi kitobida olamning tuzilishi, tabiatdagi o‘zgarishlar, haykaltaroshlik, chiziqli va fazo perspektivasi haqida ko‘plab ilmiy asoslangan fikrlarni ko‘rish mumkin.

Alberti kabi Leonardo da Vinci ham tasviriy san’atning asosi qalamtasvir deb hisoblab, narsaning o‘ziga qarab tasvirlash o‘qitishning zarur qismi ekanligini ta’kidlar edi. Leonardo da Vinci inson a’zolari tuzilishini anatomik kabi yuksak darajada o‘qib o‘rgandi. Insonning har bir mushak to‘qimalarini o‘rganib, ularning tasvirlarini chizib qoldirgan. Uyg‘onish davrining usta rassomlari orasida qalamtasvir bajarish metodlarini takomillashtirish muammolari bilan shug‘ullanganlaridan yana bir nemis rassomi Albert Dyurer va Shonlardir. Ular tasvirlashda perspektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko‘plab tajriba sinovlar o‘tkazdi. Rassom olimlarning diqqatiga sazovar ishlardan yana biri inson qomatining nisbatlarini ishlab chiqish va uni kesik shakllar orqali aks ettirish metodini ishlab chiqqanlidir.

Uyg‘onish davri rassomlari jaxon tasviriy san’atining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. ularning tasviriy san’at bo‘yicha ishlab chiqqan perspektiva

qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlarga misli ko‘rilmagan darajada yordam berdi. Agar o‘rta asrlarda tasvirlash metodikasi buyumlar shaklu shamoyilining o‘xshashligini e’tiborga olgan holda bajarilgan bo‘lsa, endi bu davr qalamtasvir ilmiy asoslangan anatomiya qonunlarini chuqur o‘rganish, perspektiva qoidalariga to‘la-to‘kis rioya qilish, yorug‘likning buyumlarga tushish qonuniyatlarini hisobga olib aks ettirilgan tasvirlash metodlari rivojlangan davr bo‘ldi. Yuqorida ta’kidlaganidek uyg‘onish davri rassomlari rasm chizish metodikasiga katta hissa qo‘shdilar va qalamtasvirning fan sifatida rivojlanishiga asos soldilar. Lekin, ular o‘qitishning didaktik negizlariga kam e’tibor berdilar. Bu muhim vazifani XVI asrning oxiriga kelib turli davlatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalar davom ettirib, hal eta boshladilar.

XVII asr tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi qalamtasvirning fan sifatida to‘la-to‘kis uning akademik tarzda davom etishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirni pedagogik amaliyotda o‘qitishning tizimi dastlab Florensiyadagi “Qalamtasvir akademiyasida” ishlab chiqildi.

Aka-uka Karrachilar tomonidan tashkil etilgan Boloniyyadagi yosh musavvirlarga quyidagi usulda saboq berilgan. Dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalari bilan tanishgach, so‘ngra gips namunalarini tasvirlaganlar, shundan keyin inson qiyofasini o‘ziga qarab rasmini chizganlar. Bu mashg‘ulotlarda u insonning anatomik tuzilishlarini ham chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Boloniya akademiyasi o‘z davrida yoshlarga badiiy ta’lim berish borasida eng maqbul namunali oliv o‘quv dargohi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib, 1648 yilda Parij qalamtasvir va haykaltaroshlik bo‘yicha qirollik akademiyasi, 1660 yili Rimda badiiy akademiya, 1696 yili Berlinda, 1753 yili Madrida San-Fernando akademiyasi, 1757 yili Peterburg akademiyasi, 1768 yili London badiiy akademiyasi tashkil etilgan, yurtimiz mustaqilligidan keyin 1998 yili O‘zbekistonda ham badiiy akademiya tashkil etildi. Bu badiiy akademiyalar tashkil topishi tasviriy san’atning rivojida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari mavjud edi. O'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Faoriya rassomi Rubensning xususiy maktabidir. Rubens o'z zamonasining yirik namoyondasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi bo'libgina qolmay. balki san'at asarlarini yuksak qadrlay biladigan olim-tadqiqotchi, davlat va jamoat arbobi, shogirdlarning mehribon ustozi bo'lgan. U yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarida yozish va so'zlashni mukammal bilgan.

Antik davr san'atini chuqur o'rganib, o'z shogirdlariga o'sha davrda yaratilgan haykallarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ushbu namunalarni aks ettirish orqali inson a'zolarini tasvirlashda ilmiy tomondan yondoshishga da'vat etgan. Qalamtasvir metodlarini rivojlantirishda aka-uka Aleksandr va Ferdinand Dyurelar ham katta hissa qo'shdilar. 1835 yil ular Parijda rassom hunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlarga tasviriy san'at bo'yicha saboq berdilar. Diqqatga sazovar joyi shundaki, ushbu maktabda o'qitishning metodik bosqichlari o'ziga xosdir. Bu yerda boshqa san'at dargohlardan farqli o'laroq eng murakkab bo'lgan inson qomatini tasvirlashni mukammal o'rganib bo'lganidan keyin gips naqsh namunalarini chizishga o'tilgan.

Aka-uka Dyurelarning ta'kidlashicha o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning barcha eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xususiy akademiyalar yanada ko'payib bordi. Ba'zi akademiyalar ko'p yillar davomida tajriba va sinovlardan o'tib, ta'lim berishda amaliy jihatdan to'plangan tajribalarni inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi-professor o'zining xususiy maktabini targ'ibot etish maqsadida o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni "Eskirib, bir yerda qotib qolgan" deb hisoblab ko'p hollarda o'zлari yoshlarga hech qanday tizimga ega bo'lmagan usulda ta'lim berdilar.

Xususiy akademiyalarga 40-50 ga yaqin o'quvchilar jalb etilib, ular bilan na kurslarga va na guruhlarga bo'linmagan holda mashg'ulotlar olib borilgan.

Mashg‘ulotlar quyidagi tarzda edi: Katta xonaning bir necha joyda natura qo‘yilgan bo‘lib, o‘quvchilar hech bir yo‘nalishga ega bo‘lmagan xolda tahsil olar edilar. Shuni ta’kidlash kerakki, xususiy tarzda tashkil etilgan akademiyalar orasida ham aniq yo‘nalishlarga ega bo‘lgan o‘quv dargohlar mayjud bo‘lgan: Jumladan Venger rassomi Shimon Xolloshi (1857-1918) va yugoslov pedagog-rassomi Anton Ashbelar (1986-1905) maktabi diqqatga sazovordir.

Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan metodika va o‘ziga xos ravishda tuzilgan dastur asosida o‘qitish tizimi ularni butun jahonga mashhur qilgan bo‘lib, ushbu mактабдан o‘nlab iste’dodli rassomlar yetishib chиqqanlar.

XX asrning oxiriga kelib akademik tarzda o‘qitish tizimi o‘z yo‘nalishi jihatdan yangi zamon talablariga javob bera olmay qoldi. Qisqa vaqt ichida turli badiiy oqimlar paydo bo‘la boshladi. Neoekspressionizm, kubizm, ekspressionizm, surrealizm va turli tarmoqli oqimlarning o‘zaro ziddiyatlari o‘qitish metodikasiga ayniqsa, qalamtasvirning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

San’atshunoslik akademik tarzda o‘qitish tizimiga qarshi bunday shaklda ta’lim-tarbiya berish yoshlarning ijodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi deb hisoblar edilar. XX asrning boshlariga kelib g‘arbiy Yevropa va Amerika Davlatlarining badiiy maktablari to‘la inqirozga uchradi, qalamtasvir ishslashda uslublar ham keskin o‘zgardi. Tasvirlanajak namuna qiyofasini noizchil o‘rganish, uning tuzilish qonun-qoidalarini yengil-yelpi egallash oqibatida uzoq muddatli akademik qalamtasvirlar ishslash o‘rni yuksak qoralamalar bilan almashdi. Ba’zi rassom-pedagoglar esa o‘z o‘quvchilariga buyumlar shaklini xohlaganicha buzib tasvirlashga ruxsat etdilar.

Bu hol, sobiq sovet tuzumining ilk davrida o‘qitish tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Akademiyalarda antik davrga mansub gips haykal namunalari yo‘q qilindi, iqtidorli rassomlar tomonidan yaratilgan akademik ishlar barbod etildi. Natijada akademik rasm chizish mustaqil o‘quv fani sifatida o‘zining qadrini yo‘qotdi. 1939 yildan boshlab sobiq ittifoqning ko‘pgina yirik shaharlaridagi oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘limlari tashkil etildi.

1942 yildan boshlab esa ushbu bo‘limlar badiiy grafika fakultetlariga aylandilar. Ushbu o‘quv dargohlarda tasviriy san’at mashg‘ulotlari xususan – akademik qalamtasvir narsa va buyumlarni haqqoniy qilib o‘xshatib tasvirlash yo‘lga qo‘yilgani bilan e’tiborlidir. Buning natijasida yoshlarni turli xil formali yo‘nalishlarga kirib qolmaslariga imkoniyat paydo bo‘ldi. 1947 yilda sobiq ittifoq badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning o‘sha yili qabul qilingan qarorlariga esa 1947-1948 o‘quv yilidan boshlab barcha badiiy oliy dargohlari birinchi kurslarida gipsda ishlangan antik davr bosh namunalari va odam portreti, ikkinchi kurslarda inson qomati va gips tors namunalari, uchinchi kurslarda inson qomatining turli murakkab holatlarini tasvirlash, to‘rtinchchi va beshinchchi kurslarda esa libossiz gavdaning qalamtasvirni uzoq muddatli akademik tasvirlash vazifalari belgilanadi.

Shundan so‘ng sobiq ittifoq respublikalarining Tallin, Kiyev, Tbilisi, shaharlarida badiiy institut tashkil etildi. 1955 yili Nizomiy nomidagi TDPI qoshida ham Badiiy-grafika fakulteti tashkil etilib, turli yillarda iqtidorli rassom-pedagoglar O‘zbekiston xalq rassomlari M.Nabiyyev, N.Qo‘ziboyev, akademiklar R.Choriyev, O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan san’at arboblari A.Boymatov, M.Saidov, professorlar Sh.Abdurashidov, K.Eminov, M.Ten, A.Inog‘omov, G.Abduraxmonov kabi mutaxassislar faoliyat ko‘rsatadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

Qadimgi Misr maktablari haqida.

Yunonistonda o‘qitish usullari qanday bo‘lgan?

Uyg‘onish davri nechanchi asrlar?

### **Tasviriy san’at o‘qitish metodikasida Rossiya maktablari.**

Sobiq sho‘rolar hokimiyati o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasi masalalarini tushunishga tubdan yangicha o‘zgarishlar kiritdi. Tabaqalarning yo‘qolishi, maktabning dindan ajratilishi tufayli – maktabdagi barcha ta’lim ishlari qaytadan ko‘riladigan bo‘ldi. Xalq maorif xodimlari oldiga o‘qitishning mazmuni, shakli, ham metodlarini qayta ko‘rish vazifalarini qo‘yadi.

Lekin bu davrda ham pedagoglarning bolalar rivoji biologik hamda sotsial omillarga nasliy faktorlarga bog‘liq deb ta’kidlovchilar bor edi. Bu nazariya bolalarni rasm chizish qoidalariga o‘rgatish kerak emas deydigan avvalgi holatiga qaytardi. Ideologiya nazariyasi tarafdozlarning fikriga ko‘ra, nasliylik asosiy omil bo‘lib, undan kelib chiqadigan xulosa odamda san’atga tug‘ma, nasliy qobiliyat bo‘lmasa, uni o‘qitish bekorga vaqt ketkazish deb hisoblanar edi. Bu nazariya maktab dasturlarida ham o‘z aksini topgan.

Pedagoglarning faoliyati 20-yillarining oxiridan 1936 yilgacha 4 iyulda sobiq partianing “Xalq maorif sistemasi sohasidagi ideologik chalkashliklar haqida” qarori chiqqungacha davom etdi<sup>17</sup>.

Bu ishlar umumta’lim maktablaridagi rasm chizishga o‘rgatish sifatini yaxshilashga ta’sir qildi. (17-rasm)



17-rasm.

---

<sup>17</sup> R.K.Rajabov, X.Sultonov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T. 2008.

Bunday kurash rasm chizishni o‘qitishning yangi metodikasi paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasining shakllanishida bolalarni badiiy tarbiyalash Markaziy uyi, ayniqsa 1933 yilda uning qoshida uyushtirilgan Rassomlik metodik kengashining ma’lum darajada xizmati bo‘ldi. Garchand kengash asosan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bilan shug‘ullansa ham, shu bilan bir qatorda u bolalarni badiiy rassomlik masalalari bo‘yicha tarbiyalash sohasida yakkayu-yagona ilmiy metodik markaz edi.

O‘sha yillarda rasm o‘qituvchilarini tomonida qator qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar va to‘plamlar nashr etildi. Rasm metodikasi bilan taniqli rassomlar ham shug‘ullana boshladilar. Shular ichida umumta’lim maktablarida rasm o‘qitish bo‘yicha sobiq sovet metodikasining rivojiga ta’sir ko‘rsatgan taniqli pedagog-rassomlardan D.N.Kardovskiy (1866-1943) hamda K.F.Yuon (1875-1958)lar bo‘lgan. Jumladan D.N.Kardovskiy o‘rtalagi maktablar uchun rasm o‘qituvchilarini tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarini ochish tashkilotchilaridan birinchisi bo‘ldi. U va uning shogirdlari 1939 yilda dastlabki o‘qituvchilar institutini tuzishning tashabbuschilar bo‘ldilar, shu institut asosida 1942 yilda Moskvadagi V.P.Potemkin nomli shahar pedagogika institutida badiiy grafika fakulteti ochilgan edi<sup>18</sup>. V.Potemkin nomidagi MGPI dagi rassomlik grafik fakulteti 1955 yilga qadar oliy ma’lumotli rasm va chizmachilik o‘qituvchilarini tayyorlaydigan sobiq SSSRdagagi yagona fakultet bo‘lib turdi.

Fakultetdagi rassomlik ta’limi sistemasiga D.N.Kardovskiyning pedagogik prinsipi va metodi asos qilib olindi. Kardovskiyning shogirdlari, izdoshlari qator institutlarning badiiy-grafika fakultetlarida uning prinsip va metodlarini rivojlantirib, takomillashtira bordilar.

D.N.Kordovskiy o‘tmishdagi eng yaxshi an’analariga tayangan holda rasm o‘rganish metodikasining yangi qirralarini namoyon etdi. U o‘z metodikasiga “Qirqma” (obrub), ya’ni buyumlarning o‘ta murakkab shaklini juda soddallashtirish

---

<sup>18</sup> R.Rajabov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi ma’ruzalar matni. TDPI. 2006 y.

prinsipini asos qilib oldi va shu metod yordami bilan uch o'lchovli shakldagi predmetni ikki o'lchovdagi sahida to'g'ri va qonuniy joylashtirishga erishdi. Masalan, xurmachaga qarab bola rasm chizar ekan, u avvalo buyum shaklining asosini silindrmi yoki dumaloq sharmi, shuni bilib olishi, keyin naturaga qarab aniqlashtirish kerak deb tushintiriladi.

D.N.Kardovskiyning rasmga o'rgatish metodidagi asosiy qoidalarining keyinchalik turli rassomlik, pedagogik va umumta'lim o'quv yurtlarida dars bergen uning izdoshlari davom ettirib rivojlantirdi. Ular o'qituvchilarni tayyorlash ishida Kardovskiyning sistemasining qoidalariga tayanib ish ko'rdilar.

Konstantin Fedorovich Yuon ham umumta'lim maktablarida rasmga o'rgatish metodlarini rivojlantirish ishiga ma'lum hissa qo'shganlardandir. Yuon rassomlik maktablaridagi o'qitish metodikasi masalalariga katta e'tibor berish bilan birga, umumta'lim maktablarida rasmga o'rgatish masalalari bilan ham qiziqdi, bu borada qimmatli fikrlar aytdi. Yuon ko'zga ko'rinish turgan dunyo qonunlarini muntazam va og'ishmay o'rgatish zarurligini qayta-qayta ta'kidladi.

40-yillarda sobiq sovet maktabi siyosiy san'at yo'liga mustahkam o'rnashib oldi. Rasm chizishga o'rgatishning prinsip va metodlari tasdiqlandi. Rasmdan ta'lim berish muammolarini yanada chuqurroq ilmiy hal etish zarurati paydo bo'ldi.

O'rta maktabda rasmga o'rgatish sobiq sovet metodikasining yanada rivojlanishiga RSFSR pedagogika fanlar akademiyasi (1943) hamda sobiq SSSR rassomlik akademiyasi (1947) katta ta'sir ko'rsatdi. Sobiq Pedagogika fanlar akademiyasining pedagogika nazariyasi va tarixi instituti huzurida (1944) maxsus estetik tarbiya kabineti tuzildi, so'ngra badiiy tarbiyalash bo'yicha ilmiy-tadqiqot instituti (1947) barpo etildi. Bu institutning xodimlari bolalar ijodiy ilmiy jihatdan tadqiq etish, maktablar uchun o'quv dasturlarni hamda o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarini ishslash bilan shug'ullanadilar.

Sobiq RSFSR PFA, SSSR PFA si qilib qayta tuzilganiga qadar badiiy tarbiya institutida qo'llanmalar tayyorlandi, to'plamlar nashr etila boshlandi,

jurnallarda qator makolalar e'lon qilina boshlandi. Asosan rus tilidi rasm chizishdan dars berish metodikasi masalalari bilan ko'pgina mutaxassislar shug'ullana boshlaydilar. Maktab o'qituvchilari uchun kitoblar nashr qilishi kengaydi. Jumladan, S.S.Kondaxchaning 1951 yili "O'rta mакtabda rasm o'qitish metodikasi" kitobining nashr etilishini o'qituvchi va mutaxassislarning asosiy ommasi ma'qullab kutib olishdi, biroq ba'zi bir tanqidiy fikrlar ham aytildi. Darhaqiqat, kitob kamchiliklardan xoli emas, biroq Ye.S.Kondaxchaning prinsipial qoidalari to'g'ri edi. Bu asar rasm o'qituvchilarini san'atga o'tmish merosini o'rgatishga, xususan, Kondaxchaga tez-tez murojat qilib turadigan P.P.Chistyakovning pedagogik merosini o'rgatishga da'vat qilar edi.

1950-ayniqsa 1960-yillarda bir qator ilmiy tadqiqot asarlari paydo bo'ldiki, bular o'qitish metodikasi nazariyasini ko'p jihatdan boyitdi.

Bu asarlar rasm metodistlariga o'z problemalarini hal etishga to'g'ri yondoshishga ko'maklashdi.

1950-yillarda maktabdagи metodik ishlarni tartibga solish maqsadida rasm bo'yicha maxsus darsliklar tuzish g'oyasi paydo bo'ldi.



18-rasm.Tezkor qoralamalar.

1957 yilda birinchi va ikkinchi sinflar uchun dastlabki sinov darsliklari (muallifi N.N.Rostovsev), keyin unga qo'shimcha sifatida metodik qo'llanma chiqdi. 1961 yilda yangi ikkita darslik III va IV-sinflar uchun (muallifli N.Rostovsev) kitoblar chiqdi. Mana shu darsliklarga bolalarning ta'limi boshidanoq naturaga qarab rasm chizishni o'rgatuvchi P.P.Chistakovning sistemasi asos qilib olingan edi.

1960-yillarning boshlaridan esa rasm eksperimental darsliklari muntazam chiqa boshladi.

Shu yillarning o'zidayoq maktablarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga bag'ishlangan nazariy asarlar nashr etildi (18-rasm).

1966 yilda sobiq sovet hukumati qarorina asosan Pedagogika Fanlari Akademiyasi qilib qayta tuzish haqidagi qarori chiqdi. Shu bilan bir qatorda Akademianing ilmiy tadqiqot institutlari ham, shu jumladan badiiy tarbiya instituti ham qayta qurildi. Ayni vaqtida sobiq RSFSR Maorif Minstrligi huzurida tasviriy san'at o'qitish metodikasini o'rganish bo'yicha maxsus laboratoriyali ilmiy-tekshirish instituti tashkil qilindi.

XX asr boshlarida rus pedagoglari tarbiyada cheksizlik nazariyasi tus oldi. Bu esa o'quvchi, o'qituvchisiz o'qishi kerakligini taqozo etadi.

Bu nuqtai nazar yangilik emas edi. Maktabda rasm o'qitishning metodlari va o'quv rejalarini mazmuni qayta ishlab chiqiladi. Bu o'quv rejalarida naturadan, mavzu asosida hamda dekorativ rasm ishlash kabilar kiritildi. Shular bilan birgalikda suxbat o'tkazish darslari ham berilgan edi. Futurlaylar shu yillarda ham kopirovka metodlarini yoqlab, talabalarning o'qishlarida perspektiva nazariyasiga qarshi chiqdilar.

A.Sapojnikov o'zining serunum mehnati bilan tasviriy san'at bo'yicha badiiy Akademiyaga o'z ulushini qo'shdi. Rossiya XIX asrda Yevropada birinchilar qatorida edi. Bunda K.Bryulov ham o'zining katta xizmatlarini ko'rsatdi. 1758-1805 yillarda Akademiya tasviriy san'atning namunali markazi bo'ldi. Arzamas hamda Venesianov rassomlik maktablari boshqalar Akademiyaga

bog‘liq edilar. Bu maktablarga Akademiya metodik yordam ko‘rsatdi. 1934 yili A.Sapojnikovni “Rasm kursi” kitobi nashr etildi. Muallif kitobida turli chiziqlar vositasida o‘z o‘quvchisiga ma’lumotlar berib, undan sung burchaklar, turli shakllar bilan tanishtiradi. A.Sapojnikov hajmli buyumlar bilan mashhur modellariga murojat qilib, perspektiva hamda geometrik jismlarga keldi. Kitobda yorug‘ va soyalar ustida ham gap borib, ko‘rgazmali modellarga to‘xtaladi. O‘quvchilar oddiy va geometrik jismlarni yaxshi o‘zlashtirib olsalar, so‘ng murakkab geometrik jismga o‘tar edilar. Oldin geometrik figuralardan natyurmortlar ishlab, so‘ng esa gipsli kallalar ishlatishni oldinga surgan, Sapojnikov kalla konstruksiyasini, ko‘rgazmali vositasini ishladi. Ko‘rgazma gips kallani ishlashda ancha oldinda turadi. A.Sapojnikov o‘z o‘quvchisi oldiga naturani o‘lhash, uni his etish kabi maslaxatlar berdi. Model va perspektiv jadvallar tuzdi.

Rasm ta’limini o‘rganishda naturadan foydalanmay Preysler kitobidan nusxa olinar edi. Bunday metodlardan barcha pedagog va rassomlar ham foydalanishgan. Yana bu metodlardan rassomlik mакtablari hamda badiiy Akademiyada foydalanishgan. Preysler metodini kamchiliklardan biri ular naturadan foydalanmadilar. Nusxa olish bilan shug‘ullandi. Shakllarni chuqur tahlil etmadilar. Narsalarni konstruksiyasi o‘qitilmadi.

- Pedagog va metodist P.P.Chistyakov 1832 yili dehqon oilasida tugiladi. U 8 yoshga qadar otasi qo‘lida ta’lim oladi. 1840 yili Krasniy Xolm shahriga otasi tomonidan o‘qishga yuboriladi. Talaba 12 yoshga yetganida Bejesk shahridagi 4 sinf uezd o‘qishiga boradi. Uezda umumta’lim va rasm fanlarini jiddiy ravishda o‘kib mакtabni a’lo tugallaydi. O‘qishni tugatganidan so‘ng /1847/ yer o‘lchovchisining yordamchisi bo‘lib xizmat qiladi. 1849 yili Chistyakov Peterburg badiiy Akademiyasiga o‘qishga kiradi. Akademiyani a’lo tugatib, chet mamlakatlarga borib kelgandan so‘ng, u Akademiyada ishlaydi va 1890 yili Badiiy Akademiyani mozaika bo‘limini boshlig‘i bo‘ladi va ana shu vaqtarda metodika ta’limiga asos soladi. U hayotini ilm bilan bog‘laydi. Haqiqiy buyuk san’atkor,

ilmsiz bo‘lishi mumkin emas. Yuqori rangtasvir texnikasi uchun perspektiva va fantaziya ilmi zarurdir. Chistyakovning o‘quvchilari uning yaxshi hislatlarini eslaydilar. Badiiy akademiyani 2 sessiyasida sobiq SSSR Badiiy Akademiyasi Prezidenti, Akademik A.M.Gerasimov shunday deydi, “Biz eski rus matabining eng yaxshi an'analariga amal qilib, uni shakllantirishimiz kerak. Asosan Chistyakovning pedagogik sistema an'analarini rivojlantirishimiz va shakllantirishimiz zarur” - deydi.

Maktablarda rasm darsini o‘qitishda rassom pedagoglardan D.N.Kardovskiy /1866-1943/ va K.F.Yuoon /1875-1938/ sobiq sovet tasviriy san’at metodikasiga katta hissa qo‘shdilar.

D.N.Kardovskiy qalamtasvir sohasida ko‘zga ko‘ringan namoyondalardan biridir. U.P.Chistyakov Akademiya matabini o‘tagan hamda Myunxenda taniqli rassom-pedagog A.Ashbe qo‘lida tahsil oladi<sup>19</sup>.

Kardovskiy murakkab formalarni oddiylashtirib ishlashni ko‘rsatib berdi. U “obrub” prinsipini ishlab chiqdi. O‘quvchi aylanali narsalarni ishlash uchun oldin silindrli qilib, so‘ng uni oddiylashtirib o‘xshashlikni chiqarishga o‘rgatdi. Shunday qilib, uch o‘lchovli formalarni keltirib chiqaradi. Uning ishlarini keyinchalik o‘quvchilari davom ettirdi. Tasviriy san’at o‘qitish metodlarini rivojlantirishda Yuoon K.F. ham o‘zining qimmatli umrini bag‘ishladi. Ta’lim maktablarida rasm darslariga katta ahamiyat berdi. Rasmning inson shaxsini shakllanishida hamda tevarak hayotni tushunishida juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib beradi va tomoshabin dunyonи qo‘llar yordamida doim o‘rganishni kerakligini ham ko‘rsatadi. O‘scha yillari quyidagi metodik kitoblarni o‘quvchilarga tavsiya etadi: P.Ya.Pavlikov “Graficheskaya rabota”, Kardovskoyning 1938 yili chop etilgan “Detskiy risunok” kitoblaridir.


K.F.Yuoon rasm fanini zarur ekanligini ko‘rsatadi. Agar unga vaqt to‘liq berilganda edi, masalan, o‘qitish metodik obrazlarini ishlab chiqish ustida, ana unda boshqa fanlar bo‘yicha bilim olishlari osonlashar edi. “Inson shaxsini

---

<sup>19</sup> H.H.Растовиев. История методов обучению, рисованию. М. 1992.

shakllantirishda rasm katta ahamiyatga ega bo‘lib, hayot xodisalarini tushunishni shakllantiradi”, - degan edi. K.D.Yuoon “Mening asosiy chizishim shundan iboratkim, uni doim o‘rganish kerak hamda tomoshabin dunyosiga qoidalar bo‘yicha ko‘rsatmoq kerak”.

Perspektiva haqidagi asosy tushunchalarni berish zarur. Gorizontal chiziqlarning holatlari inson ko‘zining joyga qarashiga nisbatan bo‘lishi kerak. Talabalar rang bilan ishlaganlarida esa spektr yorug‘ va soyalarmi chiqarishdagi holatlarni olish va boshqalar. Shu bilan Yuoon o‘quvchilarni geometrik shakllar bilan ishlashni aytib o‘tadi. Rasmning boshqa fanlar bilan bog‘liqligini va uni ilmiyligini ko‘rsatadi (19-rasm).



19-rasm.

### **Nazorat uchun savollar:**

Perspektiva haqida ma'lumot bering  
Rangshunoslikni qanday tushunasiz?  
P.P.Chistyakov kim bo'lgan?  
K.F.Yuoon nima degan edi?

### **O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'atning o'qitilishi.**

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O'zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltoroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1- asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. 11-rasm. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustanning shogirga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiyligi badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ro'y bergenligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo'g'llar, arab, rus istilollariga borib taqaladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatURA turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatURA va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u nafaqat Sharq, hattoki Yevropa mamalakatlari san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatURA

maktablari bilan bir qatorda Bag‘dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatura makatblari ham shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta’lim yo‘nalishida rivojlangan bo‘lsa-da, lekin ulardan umumiy ta’lim tizimidagi tasviriy san’atni o‘qitishda bemalol foydalansa bo‘ladi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda San’atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishslash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo‘limlari mavjud bo‘lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta’lim tizimlari o‘rtasiga qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Tasviriy san’atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiy ta’lim tizimida o‘rganiladi. Faqat tasviriy san’atni o‘qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasiriy san’at tarixida naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatura rangtasviri sirlarini o‘rgatgani haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, ustoz Mirok naqqoshning Xirot “Nigoristoni” (San’at akademiyasi) bo‘lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma’lum.

Professor Orif Usmonov o‘zining “Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi” nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtida nafis tasviriy san’at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o‘z atrofiga eng iste’dodli yoshlarni to‘plagani, ularga san’atining sir-asrorlarini o‘rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosiy, Mahmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy, Xasan Bag‘dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, Xeraviy singari o‘nlab iste’dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san’at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma’lumotlardan ayon.

O‘zbekistonda hozirgi zamon ta’lim tizimining paydo bo‘lishi XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Rossiyada Oktabr inqilobi so‘zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Yangi tuzum o‘zini ko‘rsatish maqsadida e’tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o‘lkalariga e’tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan Shug‘ullanuvchilar, ayrimlari yoshlar badiiy ta’limiga o‘z e’tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o‘z asarlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommunal ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o‘lka badiiy xalq maktabi ishga to’sadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Buxoroda san’at to‘garagi tashkil etildi, muslimonlar uchun tasviriy san’at kurslari ochildi. Bir yildan so‘ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga yetdi va unda Shug‘ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil ko‘zida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o‘quvchidan 150 tasi o‘zbeklar edi.

1924 yilda Toshkent tasviriy san’at muzeyi qoshida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruhidan), S.Chuykov, mahalliy yosh rassomlardan O‘. Tansiqboyevlar yoshlar bilan mashg‘ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O‘zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko‘proq mahalliy yoshlar qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo‘lsa-da umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash borasida ham ma’lum rol o‘ynadi.

Mustaqilikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta’limini tubdan isloq qilish, uni jahoning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Shu maqsadda 1992 iyulda “Ta’lim tug‘risida” gi

qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o'rta ta'lif maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontseptsiyasi" ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5 may 1993 yilgi 5-5 sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur kontseptsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

- mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar;

- ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

- ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

- maktabdagagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;

- maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqlashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish;

- O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi.

Kontseptsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at va badiiy mehnat", 1-7-sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan "Tasviriy san'at" dasturlari tayyorlandi. Shuningdek, 1-8 sinflar uchun mo'ljallangan 560 soatli "Tasviriy

san'at” dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko‘p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi.

Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo‘lib, u tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsad va vazifalari, ta’lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o‘z ifodasini topdi. Tasviriy san’at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o‘qituvchilar uchun o‘quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R.Hasanov va X.Egamovlarning birinchi sinf o‘qituvchilari uchun “Tasviriy san’at va badiiy mehnat darslari” (-Toshkent: O‘qituvchi, 1997), R.Hasanovning 5-sinf o‘qituvchilari uchun “Tasviriy san’at darslari” (-Toshkent: O‘qituvchi, 1997.) nomli qo‘llanmalari chop etildi.

Yangi dasturlar asosida tasviriy san’at darsliklarini yaratish muammosi paydo bo‘ldi. Natijada 1996-1998 yillar davomida 1-4 sinflar uchun “Tasviriy san’at va badiiy mehnat” darsliklari yaratildi, biroq ularidan 1998 yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O‘zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999 yilda yangi o‘quv rejalari va ta’limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta’limning davlat standartida bu o‘quv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi.

R.Hasanovning fakultativ mashg‘ulotlar uchun “Tasviriy san’at” (1989), “O‘qituvchining o‘zi ustida mustaqil ishlash dasturi”(1993), “Tasviriy san’at darsliklarini yaratish mezonlari” (1994), O.Xudoyorovaning “O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish tarixidan” (1993), B.Boymetov va N. Tolipovlarning “Maktabda tasviriy san’at to‘garagi” (1995) nomli risolalari ham amaliyotchilarga yetkazildi.

O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining “San’at va chizmachilikni o‘qitish nazariyasi va metodikasi” bo‘limida “O‘quvchilarni tasviriy san’atdan mustaqil ishlari”, “Tasviriy san’atdan sinfdan tashqari ishlar metodikasi”ga oid tadqiqotlar ham olib borildi.

1995 yilda buyo‘q naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 540 yilligi munosabati bilan pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida “Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o‘rganishning pedagogik ahamiyati” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumanı o‘tkazildi. 2000 yilda esa Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yiligi munosabati bilan “Kamoliddin Behzodni jahon tasviri san’ati va ta’lim tizimiga ta’siri” mavzusida ana Shunday anjuman o‘tkazildi. Ikkala anjuman materiallari ham to‘plam shaklida chop etildi.

1997 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hujjatlarining e’lon qilinishi katta tarixiy voqeа bo‘ldi. U amaldagi ta’lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo‘lib, unda ta’lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da estetik turkumdagи fanlarni o‘qitilishiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, xususan uning “Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari” qismida uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish printsiplaridan biri ta’limning ijtimoiylaShuvi deb qaraldi. Unda ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

Ma’lumki, birinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) “Ta’lim to‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilingan edi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekistondagi ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbollari Shu yaratilgan xuquqiy xujjalarga borib taqaladi. Ya’ni O‘zbekistonda ta’lim tizimining istiqboli qonun va dasturni qanchalik amalga oshirilishi darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Qonunning 9-moddasida ta’lim tizimi haqida so‘z boradi, ya’ni unda: “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir”. Uzluksiz ta’lim mavjud ekan qonunning 10 moddasida uning turlari haqida so‘z boradi, umumiyl o‘rta ta’lim, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv

yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim.

Yuqoridagi ta’lim tizimini, ya’ni uzluksiz ta’limni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratiyalashtirish alohida ahamiyatga ega.

Ta’limni insonparvarlashtirishning asosiy yinalishlari ta’lim oluvchilarning qobiliyat va iste’dodlarini har tomonlama ochish, milliy va umumbashariy \oyalar hamda qadriyatlarni singdirish, shaxs, jamiyat va atrof muhit munosabatlarini uyg‘unlashtirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa sermazmun an’ana: “Ustoz-shogird” munosabatlari doirasida bilishiga erishishdan iborat.

Ta’limni ijtimoiylashtirish ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni, yuksak darajadagi ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni, shaxsni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirishga ustuvorlik bergen holda ta’lim va kasb dasturlarining mazmunini qayta kirib chiqishini taqozo etadi. “Mantiq”, “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, “Jahon san’ati tarixi”, “Jahon dinlari tarixi” dan iborat maxsus kurslarni joriy etish ta’lim jarayonini ijtimoiylashtirish doirasidagi yondashuvlardan biridir.

Maktabda tasviriy san’at mashg‘ulotlarining vazifalari haqida to‘xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin:

1. Tasviriy san’at darslarining o‘ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san’atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o‘rgatish; estetik va badiiy didni o‘stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san’atning nazariy asoslari (yorug‘soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishslash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko‘rish xotirasi, chandalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me’morchilik san’at asarlarini tushungan holda

o‘qiy olishga o‘rgatish; san’atga nisbatan qiziqish uyg‘otish, uni qadrlashga, sevishga o‘rgatish.

2. Tasviriy san’at darslarining qo‘sishimcha vazifalari, ular: borliqni, hayotni bilishga ko‘maklashish; milliy g‘urur va milliy istiqlol mafkurasini amalgaga oshirish; bolalarda axloqiy (vatanparvarlik, baynalminal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalgaga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarlarga yo‘llash.

Tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to‘xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u matabda o‘qitiladigan deyarli barcha o‘quv predmetlari bilan bog‘lanadi va ular yuzasidan materiallarni o‘zlashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, u o‘qish, adabiyot, geografiya, tabiatShunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san’at estetik tarbiyani amalgaga oshirishga qaratilgan bo‘lsada, u axloqiy, mexnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Har qanday o‘quv predmeti ta’lim mazmunida, albatta, o‘zbek halqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma’naviy merosni o‘ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o‘zbek halqining dunyoga mashhur bo‘lgan me’morchilik, amaliy va tasviriy san’at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta’lim mazmunining viloyat va shaharlar bo‘yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O‘zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san’at va me’morchilikning rivojlanishida o‘ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Rishton, Shahrisabz, Nurota, Marg‘ilon, G‘ijduvon, Urgut, Xo‘jayli va boshqa shaharlarning san’atida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Milliy san’atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o‘rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o‘quvchilarga o‘rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o‘z o‘rnini topa olmaydi. Aks holda, o‘quvchilarimiz milliy qobiqga

o‘ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo‘la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko‘p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz (tasviriy san’at, dekorativ-amaliy san’at, me’morchilik san’ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o‘quvchilarga tasviriy va amaliy san’atdan beriladigan malakalarni unutmasligimiz zarur.

Maktabda tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo‘naltirilgan asosiy o‘quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarning tabiat, san’at va hayotdagi go‘zalliklarni idrok etishga o‘rgatish:

- o‘quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go‘zallikni baholay olish qobiliyati, xaqiqiy go‘zallikni xunik voqeа va narsalardan farqlay bilishga o‘rgatish;

- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o‘zini ko‘rsata bilishga, hattiharakatini qo‘llab-quvvatlash va hayotga go‘zallik kiritish malakalarini o‘stirish:

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san’at o‘quv predmeti o‘z xarakteriga ko‘ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg‘u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o‘stirishda katta rol o‘ynaydi. Dekorativ kompozitsiya darslarida o‘quvchilar naqshlar, amaliy san’at buyumlaridagi go‘zallikni his qiladilar va o‘zlari ham Shunday kompozitsiyalar tuzishga harakat qiladilar. Shu maqsadda, bolalarga halq amaliy san’ati namunalari ko‘rsatiladi, ularning shakl va ranglarini tahlil qilib beriladi. O‘quvchilar o‘zbek va qardosh halqlarning naqshlarini kuzatish va o‘rganish orqali ularning shakl va ranglaridagi go‘zalliklarni, shakl va rasm ranglarining garmonik birligini tuShunadigan bo‘ladilar. Ming yillar mobaynida ustadan-ustaga, qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, har jihatdan takomillashib, go‘zallahib borgan halq san’ati namunalari bolalarni xayratga soladi va ularda tajribali ustalar kabi ifodali amaliy san’at asarlari yaratish ishtiyoqi paydo bo‘ladi. Gullar, hayvonlar va parandalarni natura

sifatida kuzatish va tahlil qilish jarayonida O‘qituvchi ularning tuzilishidagi shakl, rang, o‘lchovlari, harakatlaridagi nafosatni qayd qiladi.

O‘quvchilarни tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo‘laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylaShuvi to‘lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo‘lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning yengil parvozi, baxorgi va ko‘zgu manzaralarning chiroyi, manjuntolning suluvg‘ligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechgi miltillab ko‘rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday estetik his-tuyg‘uning o‘sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya’ni “xushbichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Maktab va kasb-hunar kollejida tasviriy san’at darslarining mazmuni. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining mazmuni davlat ta’lim standartlari bilan bog‘liqligi.

Kasb-hunar kollejida tasviriy san’at mashg‘ulotlarining turlari: qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, san’at tarixi, haykaltaroshlik. Mashg‘ulot turlarining vazifalari. 1-2-3 kurslarda tasviriy san’at mashg‘ulotlari mazmunining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e’tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko‘ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o‘rgatiladi.

O‘qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko‘rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg‘irdan so‘ng o‘simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo‘ygandek ko‘rinishi, ulardagи yomg‘ir donalarining kumushdek yaltirab ko‘rinishini takidlaydi. Ko‘z faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg‘ish ranglarining oltin tusga

kirganligini, to‘qilgan barglarning shildirab “gaplashishi” obrazli ko‘rinishda ifodalanadi. Bolalar o‘z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so‘zsiz tasvirlanuvchilarning o‘lchovlari, proportsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to‘g‘ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proportsionallik, mo‘qammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va xayvonlarni shakl va rang jixatdan o‘ziga jalg etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko‘rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadaligi haqida o‘ylaydilar. O‘quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o‘ylar ekanlar, o‘qituvchi o‘z e’tiborini ularning tuShunchasiga mos bo‘lgan voqe va hodisalarning go‘zalligi va mo‘qammalligiga qaratadi. U go‘zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak – atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o‘rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘qituvchi San’atshunoslik asoslari darslarida o‘lkamiz tabiat, halqimizning fidokorona mehnati, buyo‘q ajdodlarimizning mustaqillik uchun qahramonona kurashi kabi mavzularda yaratilgan ko‘plab asarlarni namoyish etish va tahlil qilish jarayonida ulardagi nozik nafosatni ochib berishga harakat qiladi. Bu borada rassomlardan O‘.Tansiqboyev, N.Karaxan, A.Mo‘minov, L.Salimjonova, I.Jabborov, Ch. Axmarovlarning yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san’at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o‘lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o‘rganadilar va ularni o‘z ishlarida tasvirlaydilar. Ko‘zatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo‘ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san’atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin

yashab o‘tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O‘sha davrdagi binolar, o‘simliklar, xayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Ma’lumki, bolalar, tarixiy. batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, halqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko‘pgina bilimlarga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o‘rgatishda tasavvur va xotirani, ijodkorlik va fantaziyani rivojlantirishda mакtabda tasviriy san’atni oldiga to’shadigan bironta ham o‘quv predmeti yo‘q. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijodiy fikrlashga o‘rgatishda katta o‘rinni egallaydigan fanlardan matematika ham bunday imkoniyatga ega emas. Xususan, matematika darslarida o‘nta masalani bir yo‘l yoki bir formula asosida yechilsa, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar bir masala (topshiriq) ni bir necha yo‘l bilan yechadilar, u so‘zsiz bolalarni fikrlashga, ijodiy o‘ylashga yo‘naltiradi. Aytaylik, o‘quvchi u yoki bu hayotiy yoki afsonaviy mavzularda kompozitsiya ishlash jarayonida, mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan voqeani eslashga harakat qiladi. Bunda voqea qaysi davrda, qaerda yoki boshqa sayyoralardami, suv ostidami, tabiat qo‘ynidami yoki uy ichidami, rasmda odamlar tasvirlanadimi yoki hayvonlarmi, tasvirlanadigan mavjudodlarning tuzilishi, shakli, ranglari, o‘lchovlari qanaqa bo‘lishligi haqida o‘ylaydilar.

Eng muhimi, qog‘oz yo‘zasida mazmun kompozitsion jihatdan qanday joylashtirilishidadir. Shuningdek, tasvir variativlik, kombinatsiya, muqobililik va boshqalar asosida ishlanadi. Bolalar rasm ishlashda tasviriy san’atning nazariy asoslari-yorug‘soya, rangShunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalalarini tasavvur qiladilar va qo‘llaydilar. Ular o‘z rasmlarini ijodiy, yangi, qaytarilmas mazmunda bo‘lishligiga harakat qiladilar.

Tasviriy san’atni o‘qitish jarayonida qo‘yiladigan topshiriqlar esa o‘quvchilarni birdan bir va betakror o‘z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo‘llaydi. Bolalar o‘quv topshiriqlarini yechishda o‘zlarini ijodkor bo‘lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma’lum bo‘lgan yo‘ldan

muammoni tez va oson hal qilib qo‘yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas yechimlar orqali o‘zlarining ijodkorlik va hayolotlarini, me’yor va uyg‘unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada ma’lum miqdorda orginal, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsimon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko‘p jihatdan ana Shunday kishilarga bog‘liq. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko‘zda tutilmagan har qanday vaziyatlarda muammoni tez va oson yechimini topa oladigan kishilar halqimizni taraqqiyotining yangi bosqichga ko‘taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g‘oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o‘ziga xoslikni ruyobga chiqishga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injenermi, vrachmi, dexqonmi, nonvoymi v.b) uchun muhimdir.

Shuning uchun ham ta’lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuhtai nazardan qaraganda umumiy o‘rtalim maktablarida ijodiy tafakkurni o‘stirishda tasviriy san’at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o‘rinni egallaydi.

O‘quvchilarning ijodkorligi esa ko‘proq bolalarda diqqat va tasavvurni o‘stirishi bilan bog‘lanadi. O‘quvchi ayniqsa, boshqa sayyoralar, suv osti dunyosi, afsonaviy hayvonlar (dev, kentavr, suv parisi, dengiz shoxlari v.b.) bilan bog‘liq rasmlar ishlaganda tasavvurni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. Qolaversa har bir ijodiy ishni tasavvursiz va diqqatsiz yechib bo‘lmaydi. Shuningdek bu masala bolalarda his-hayajonni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ma’lumki, bolalar nihoyatda hayajonga boy bo‘ladilar. Bolalarni narsalar tasviridagi turfa rang va shakllar, real va afsonaviy obraz va ko‘rinishlar, voqealarni hodisalar larzagaga soladi, ularni to‘lqinlantiradi.

## **1920-1990 yillardagi tasviriy san'at o'qitish metodikasining qisqacha tarixi. Rossiya, O'zbekiston.**

Yangi vazifalarni amalga oshirish katta nazariy yoki amaliy ishlarni amalga oshirishni, xalq maorifi xodimlarning jisplashuvini talab etdi. Bunday birlashuvga birdaniga erishish mumkin emas edi. Dastlabki paytlarda san'atni davlatning vazifalaridan chetda turishiga harakat qilgan, o'tmish merosini o'rganishning ahamiyatini rad qilgan arboblar bu ishga anchagina to'siq bo'ldilar.

Badiiy ijod sohasida realistik san'atning mustahkam e'tiqodli tarafдорлари bilan badiiy maktabni rad etuvchi formalistik yo'lining targ'ibotchilari o'rtasida keskin g'oyaviy kurash borar edi.



20-rasm.

Afsuski, hokimiyatning dastlabki yillarida rasmiy san'at ma'muriyati, maorif xodimlari vaziyatga to'g'ri baho berisha olmadilar. Rassomchilik Badiiy

akademiyasida antik davr haykallaridan ishlangan ganch ko‘chirmalar urib sindirildi, chiqarib tashlandi, uning nazariyasi va metodikasi sohasida boshboshdoklik hukmron edi. 1921 yili yagona mehnat mакtabida o‘rgatiladigan tasviriy san’at o‘qitish dasturi ilmiy jihatdan jiddiy kamchiliklarga ega edi. Masalan, dasturda ta’limning dastlabki pog‘onasida “naturaga qarab majburiy rasm chizishdan mutlaqo voz kechish kerak” - deb aytilgan edi<sup>20</sup>.(20-rasm).

Dasturlarda tasviriy san’atdan savod chiqarishni emas, balki bolalarni to‘la ravishda o‘z ixtiyoriga tashlab quyib, ularning qobiliyatini rivojlantirishga intilish asos qilib olingan. Yigirmanchi yillarning boshlarida ko‘pchilik maktablarda bolalarni to‘g‘ri, realistik rasm chizishga o‘qitishgan emas. Mazmunsiz ustomonlik metodikaning mohiyatini chiqaribgina qolmasdan, balki umumta’lim maktablaridagi rasm o‘qitish va vazifalarni ham buzib qo‘ymoqda edi. Natijada rasm chizish bolalarning aqliy rivojiga hech narcha bermagandan tashqari, aslida ularning estetik tarbiyasiga to‘sinq bo‘lib qolgan edi.

1920-yillarning oxiri 1930-yillarning boshida o‘qitishning formalistik metodlari keng va adolatli tanqid qilina boshlandi. Bu metodlarning keltirilgan zarari yakqol ko‘rinib qoladi. Sobiq VKP (b) Markaziy komitetining 1931 yil 25 avgustidagi qaroridagi maktabdagi ta’lim yetarli darajadagi umumta’lim bilimlarni bera olmayotgani, texnikumlar uchun, hamda oliy maktablar uchun to‘la bilimli bo‘lgan, fan asoslarini yaxshi o‘rgangan kishilarni yetkazib berish vazifasini qoniqarli hal qila olmayotgani ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Dastur va o‘quv rejalarini mazmunini qayta ko‘rib chiqish natijasida maktabda rasmdan dars berish metodlari o‘zgartirildi. Rasm o‘kitish dunyonи o‘rganishning jiddiy vositalaridan biri sifatida qaraladigan bo‘ldi. O‘qituvchi rasmdan dars berish jarayonida o‘quvchilar zarur bilim va ko‘nikmalarni egallab, ular ongli ravishda rasm chizadigan bo‘lishlarini qo‘llab dars bermog‘i lozim ekanligini ta’kidlandi.

1931 yilda nashr etilgan dastur o‘quv materiallari va rasmdan ta’lim berish metodlari mazmunini yangidan belgilab berdi. Uning asosiga naturadan rasm

---

<sup>20</sup> O.Xudoyarov. O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’at o‘qitish tarixidan. T. 1999 y.

chizish yo‘lga quyilgan edi. Shu bilan birga dasturda xayoldan, bezakli rasm chizish, mavzular bo‘yicha rasm ishlashga ham joy ajratilgan. San’at haqidagi suhbatlarga muhim ahamiyat berilgan. Bu suhbatlar o‘quvchilarni tasviriy san’at asarlari bilan tanishtirishi, g‘oyaviy va siyosiy tarbiyaga ko‘maklashuvi kerak edi.

Keyingi yillarda sobiq SSSR Rassomlar uyushmasi, sobiq SSSR Pedagogika Fanlar Akademiyasi qoshidagi badiiy tarbiya instituti birqalikda ilmiy xodimlar va pedagoglar guruhi badiiy ta’limni yangi mazmunini ishlab chiqdi /1947-1984 yillar/ umumta’lim mакtablarida tasviriy san’at fanini o‘qitilishini takomillashtirish borasida nazariy va amaliy tavsiyalar berildi.

Mana shu ishlarning hammasi o‘qituvchilarda yanada jiddiy va chuqr tayyorgarlikni, pedagogika va o‘qitish metodikasi qoidalarini nazariy jihatdan bilishni talab qiladi.

Rasm chizish hamda san’at asarlarini idrok etish jarayonida o‘quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlanadi va shu tariqa ularning dunyoqarashlari shakllanib boradi. Rasm chiza bilish va san’at asarlarini idrok etilishi har bir kishi uchun zarurdir. Rasm chizishni bilish agronomga, shofyorga, dastgrh yonidagi ishchiga, og‘ir operatsiyani bajarayotgan xirurga ko‘maklashadi, olim va o‘quvchiga, arxitektor va konstruktorga, shuningdek faoliyat darajasi bevosita rasm bilan aloqador bo‘lgan boshqa mutaxassislarga ko‘proq nafi tegadi. Mana shu ishlarning hammasi o‘sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlash ishida rasm chizishning ulkan amaliy ahamiyati borligidan dalolatdir.

O‘rta maktabdagagi tasviriy san’at o‘qitishning asosiy amaliy vazifasi – bu realistik rasmning, uning usullari va rasm chizishning malakalarini o‘rganishdan iboratdir. O‘quvchi qalamni qo‘lda qanday to‘g‘ri ushslash, chiziqlarni qanday chizish, chiziqlar orqali tekislikda hajmi katta predmetlarni qanday tavsirlash kerakligini ko‘rsatadi. O‘qituvchi turli rassomchilik materiallari hamda qurollari bilan tanishtiradi, metodik izchillikni saklagan holda rasm ustida qanday ishslash kerakligini ko‘rsatadi.

Umumta’lim mакtablarida tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘z oldiga bolalarda

boshqa sifatlarni tarbiyalash vazifasini ham uyushqoqlik, ish rejasini o'ylab olish, ongli va rejali ravishda ishlashni mantiqan tafakkur qilish sifatlarini ham o'rgatadi. Rasm chizish jarayoni maqsadga qaratilgan mehnatdir. O'quvchi rasm chizar ekan, ma'lum bir maqsadni o'z oldiga quyadi. Ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida o'z kuchlarini bir yerga to'play olish mahorati kishining amaliy faoliyati uchun juda katta ahamiyatga egadir. Mehnat jarayonida maqsadga intilish hissasini rivojlantirar ekan, biz shu bilan birga maktab partasida paytidayoq odamning kelajakdagi hayoti uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashga yordamlashgan bo'lamiz.

Nihoyat tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilar mashhur san'at asarlari va ularning ijodkorlari bilan tanishadilar. San'at haqidagi suhbatlarda o'qituvchi tasviriy san'atning har xil turlari: grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morlik, bezakli – amaliy san'at turlari hakida hikoya qiladi. San'at haqidagi suhbatlar o'quvchilarni insoniyat madaniyati taraqqiyot tarixi, san'atning ulug' asarlari, buyuk rassomning hayoti va ijodi, ma'lum bir davrning uslublari, o'tmishdagi va hozirgi kundagi atoqli kishilar hayoti, ijodi bilan tanishadilar.

O'qituvchining vazifasi mana shu ma'lumotlarni sodda, lo'nda qilib tushunarli shaklda bolalar ongiga yetkazishdan iboratdir. Bu ish asosan tasviriy san'at turlarini hamda ulug' rassomlarning nomlarini sanab chiqish bilan ish bitmaydi., - o'quvchilarni san'at asarlarni qadr-qimmatini tushunishga o'rgatish, o'shalar haqida bolalarning o'z fikrlari va mulohazalarini rivojlantirish qobiliyatini o'stirish kerak. Buning uchun pedagog o'quvchilarni muttasil suhbatga tortib turish, ularga o'z fikrlarini aytishga imkoniyat berishi, u yoki bu asarga o'quvchi to'g'ri baho berganda rag'batlantirish, rassomlarning asarlaridagi eng muhim va qadrli, qimmatli o'rirlarni tushunmay qolganda sabr bilan to'g'rilab tushuntirishi lozim.

Tasviriy san'at bilan tanishish san'atdagi hamda hayotdagi go'zallikni tushunishga, tabiat, vatanga – muhabbat hissini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘qituvchi san’at haqidagi suhbatlar orqali bolalar e’tiborini badiiy tasvir vositalarga, ijro etish texnikasiga o‘rgatadi, ya’ni san’at asarlarini “o‘qiydigan” qiladi.

Sanab chiqilgan o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishlaganda ma’lum bir sistemaga rioya qilishi hamda rang-barang metodikadan foydalanish zarur. Har bir mashg‘ulot o‘zining metodikasini, ishga o‘ziga xos yondashuvini talab etadi. Mashg‘ulotlarga ijodiy yondashuvda pedagogning topqirligi va maxorati o‘ziga xos katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchi ish jarayonida yutuqqa erishmoqchi ekan, u shuningdek o‘quvchi qaysi yoshda qancha hajmdagi bilim va malakani egallay olishini yaxshi bilishi, o‘quvchilar bilan ish metodikasini puxta o‘ylab ko‘rishi, ular bilan ishslash xususiyatlarini nazarda tutishi lozim. Bu vazifa asosan sobiq SSSR Maorif minstrligi ta’sis etgan tasviriy san’atdan mакtab o‘quv dasturida hal etilgan, biroq dasturda o‘qituvchi ishining barcha xususiyatlarini aniqlash mumkin emas. Eng muhim dasturni bilganda uni quruq yodlash emas, balki o‘ylab, nazariy jihatdan puxta o‘ylab tushunib bilishi kerak.

O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixi fani hayotda va amaliyatda tutgan o‘rni va mavqeiga ko‘ra asosiy va yetakchi fanlardan biri hisoblanadi. Xalqimiz tasviriy san’atini ibtidosidan to bugungi rang-barang yutuqlarigacha bo‘lgan jihatlarini o‘z ichiga qamrab olgan holda bo‘lajak milliy pedagoglarimizga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan eng dolzarb masalalaridan biri. Shu boisdan ham O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixining ulkan bir qismi sifatida shakllantirilishiga yetarli asos bor.

Bugungi o‘zligimizni anglash, o‘z qadrimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan davrda mustaqil O‘zbekistonda milliy madaniyatimizning o‘ziga xosligini tiklash, umumta’lim, akademik litsey va kasbhunar kollejlarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to‘laroq idrok etish uchun eng to‘g‘risi tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki har bir yangilik tarixiy bog‘lanish orqali amalga oshiriladi.

Tarixiy manbalardan foydalanish esa ajdodlarimiz to‘plagan qimmatli tajribalarga asoslangan bo‘ladi.

Har bir soha kishisiga o‘z ijodiy faoliyatida istiqboldagi vazifalarni belgilab olish imkoniyatini yaratadi.

O‘tgan davrlarda yoshlarning juda kam qismi badiiy ta’lim olish uchun o‘sha davrdagi tajribali xalq ustalaridan, podsholikning saroy ustaxonalaridan mashaqqatli hunar ta’limni o‘qib o‘rgangan.

Badiiy-estetik ta’lim-tarbiyani yanada rivojlantirish, unga mahalliy yoshlarni jalg qilishda bir necha yillar mobaynida Turkistonga kelgan rus rassomlarining xizmatlari sezilarli bo‘lgan<sup>21</sup>.

Ular o‘lkamizning bir necha yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etganlar, o‘zlarining yaratilgan asarlaridan ko‘rgazmalar uyushtirilgan.

1918 yili ana shu badiiy studiyalar bazasida Toshkentda badiiy maktab ochiladi. Boshqa shaharlarda 1918 yilgacha birin-ketin maxsus maktablar, internatlar, badiiy to‘garak va ustaxonalar barpo etildi. Bu barpo etilgan badiiy maktablarda darslarni asosan mutaxassis bo‘lmagan yoki ishi yurishmagan ba’zi bir rassomlar olib borgan. Mashg‘ulotlarni o‘qitish va o‘rgatishga milliy dasturlar ishlanmagan, mahalliy badiiy materiallar, asbob-uskunalar mavjud bo‘lmagan holda o‘ta nochor ahvolda darslar o‘tilgan.

1920-1921 yillarga kelib ilk bor ochilgan badiiy maktablar tajribasi o‘rganilib, ularning ish tajribalarini umumlashtirib birinchi bor tasviriy san’at, "rasm" darsiga dasturlar ishlandi.

1923-1924 yillarda mahalliy pedagoglarning ish tajribalari asosida yangi o‘quv dasturi loyihasi tuzildi. 1925 yilda o‘quv dasturi yana ham mukammallashtirildi va «Birinchi bosqich maktabda badiiy tarbiya» dasturi nomi bilan nashr etildi.

1927 yili Toshkent va 1928 yili Samarqandda tashkil etilgan badiiy bilim yurti O‘zbekiston maktablarida to‘garak va studiyalarni rahbar va o‘qituvchilar bilan ta’minlashda muxim ahamiyatga ega bo‘ldi.

---

<sup>21</sup> N.Oydinov. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. T. 1996 y.

1927-1928 o‘quv yilida sobiq Maorif Xalq Komissarligi sobiq O‘zSSR maktablari uchun yangi dastur ishlab chiqdi. Bu yilda ishlab chiqilgan dastur ikkinchi bosqich maktablari uchun o‘quv jadvalida tasviriy san’atga 1-5-sinflarda haftasiga 1 soatdan o‘rin berildi. Yil davomida har bir sinfda 34 soatni tashkil etdi. Dasturda asosan Toshkent, Samarqand va Rossiya maktab dasturlaridan keng foydalanildi. Shu tariqa tasviriy san’at dasturlari har 3-5 yil davomida qaytadan ishlanib turgan. O‘sha paytdagi statistik ma’lumotga ko‘ra Turkistonda hammasi bo‘lib 100 kishiga yaqin rassom pedagog mutaxassislar bor edi.

Ularning ko‘pchiligi asosan Toshkent va Samarqandda faoliyat ko‘rsatganlar.

Musulmon rasm o‘qituvchilari mutloqa yo‘q edi. 30 yillarning birinchi yarmida tasviriy san’at rivojiga katta salmoqli hissa qo‘shgan Iskandar Ikromov dastlabki kitob grafikasi rassomi hisoblangan.

1932 yilda o‘zbek tilida uning "rasm o‘rganish qo‘llanmasi" nashr etildi.

Bu qo‘llanma oddiy, to‘g‘ri burchakli harflarning yozilishi to‘g‘risida boshlang‘ich ma’lumot berildi. Bular o‘zbek tilida yozilgan birdan-bir qo‘llanma bo‘lib, maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga oid dastlabki qo‘llanma bo‘ldi hamda o‘zbek maktablaridagi to‘garaklarga katta metodik yordam berdi.


Dasturlar qayta-qayta ishlanib o‘z zamonasiga monand holatga keltirilgan. 1937 yildan boshlab sobiq O‘zbekiston SSR Xalq Maorif Komissarligi boshlang‘ich maktablar boshqarmasi tomonidan tuzilgan “boshlang‘ich maktab dasturlari”da rasm “Rasm va loy ishi”, - deb yuritildi. Dasturning maqsadi o‘quvchilarning bilim va tasavvurini ko‘rgazmali shaklda ifodalash uchun ularga zarur blo‘lgan malaka va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratildi. Shuningdek, talabalarning shakl va rang haqidagi tasavvurlarini aniqlash va kengaytirish, ularni ko‘rish va kuzatishga o‘rgatish, bo‘yoq va plastik materiallar bilan ishlashda boshlang‘ich malakani ta’minlashni tarkib toptirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari dasturdagi mavzular o‘quvchilarning yoshini ham hisobga olgan xolda tuzilgan bo‘lib:

Bu dastur o‘z ichiga quyidagi tartibda bo‘limlardan iborat bo‘lgan:

- mavzuli rasm (erkin rasm ishslash);
- tasavvur va kuzatish asosida rasm ishslash;
- hayotdan olingan ayrim buyumlar yoki buyumlar guruhining rasmini ishslash;
- oddiy naqshlar ishslash va rang xususiyatlari bilan talabalarni tanishtirish uchun ba’zi bir mashqlarni bajarish;
- shrift va plakat ishlari;
- loy ishlari;

Bundan tashqari har bir sinfda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab talab darajasi belgilanadi.

Misol, 1-sinfda o‘quvchilar qizil, sariq, ko‘k, yashil, qora va to‘q sariq foydalana olishni, 2-sinfda mavzuli rasmlar bilan birga ayrim buyumlarning rasmini tasavvur va kuzatish asosida ishlashni nazarda tutilgan. 3-sinfda o‘quvchilar buyumlarning shakli, rangi, fazoviy holati, perspektivasini bilishi talab etilgan (21-rasm).



21-rasm.

1936, 1937, 1939 yillar davomida "rasm va loy ishi", "rasm solish", 1945-46, 1947-48 yillarga kelib "rasm" o'quv dasturi bilan jamlanib qayta ishlov berildi va amalda foydalanildi. 1942 yillarda O'zbekistonda boshlang'ich 7 yillik va o'rta maktab bo'yicha o'quvchilarning pedagogik ma'lumoti aniqlanganda musiqa, chizmachilik va rasm o'qituvchilarining umumiyligi soni 246 kishini tashkil etgan, ammo bu degani hammasi maxsus ma'lumotli degani emas.

1941-1945 Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston juda ko'p tasviriy san'atni turlari ma'lum miqdorda jonlandi.

1949-1950 o'quv yilida tuzilgan dasturlarni amalda qo'llashga e'tibor berilmadi. 5-6-sinflarda rasm darslari uchun soat ajratilmadi, balki sinfdan tashqari qo'shimcha dars soatlariga qo'shib quyildi.

1954-1955, 1957-1958, 1958-1959 o'quv yillarda rasm dasturiga o'zgartirishlar kiritilmadi.

1959-1960 o'quv yilida dastur qayta qurilib 1-4 sinflarning rasm darslari qayta jadval soatlariga kiritildi.

1960 yil O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy – tekshirish institutining tuzilishi ham tasviriy san'at pedagogikasining ravnaqiga salmoqli hissa qo'shdi.

Xuddi shunday O'zbekistonning milliy tasviriy san'at ustalari B.Hamdamiy, Sh. Xasanov, A. Abdullayev, O'.Tansiqboyev va M.Nabiyev hamda boshqalarning ijodiy ishlari, pedagogik metodik o'quv qo'llanmalari hamda o'zlarining ish tajribalari bilan yoshlarimizni tasviriy san'at ta'limiga bo'lgan intilishini yana ham ilhomlantirish hissiyoti bilan sug'ordi. Endilikda mustaqil Respublikamizda amalga oshirilayotgan inqilobiy o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan jahoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Oliy majlisning 1997 yil 28 avgustda IX sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" muhim tarixiy, amaliy hujjat bo'lib, ta'lim tizimini tubdan isloq qilish, uni dunyoning ilg'or demokratik davlatlari darajasiga yetkazish

va yosh kadrlarni yuksak ma’naviy, axloqiy, yuqori bilimlarga ega qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ydi.

Keyingi vaqtida hamma sohalarda bo‘lgani kabi xalq ta’limi tizimida ham ko‘pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Pedagogika universiteti va institutlari San’atshunoslik fakultetlarida bo’lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha yangi o‘quv rejalar, dasturlar tuzilmoqda.

**Nazorat uchun savollar:**

Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi haqida.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi nima?

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’atning maqsad va vazifalari,  
mashg’ulotlarning mazmuni.**

Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni, ko‘rish xotirasi, maarom va uyg‘unlik tug‘ulari, hayotdagi va san’atdagi nafosatni ko‘ra bilish hamda anglab yetish mahoratini, rang sezish, emotsional sezgirlik, kuzatuvchanlik va obrazli tafakkurni o‘stirishda, sabr-toqat va fikrni bir joyga to‘plash ko‘nikmasini hosil qilishda maktabda tasviriy san’at fanining oldiga tushadigan birorta ham o‘quv fani yo‘q. Shaxs kamolotida esa har bir shaxsning turmushdagi va kasbiy faoliyatida bunday xususiyatlar nihoyatda kerak bo‘ladi. Shu bilan birga bu o‘quv fani inson aql-idrokining hamda uning tevarak-atrofini, undagi voqeа-hodisalarini bilish hamda uni o‘zgartirish yo‘llarini o‘rgatadi. U iqtidor va iste’dodning shakllanushi uchun keng imkoniyatlarini ochib beradi. Tasviriy san’atni o‘qitish jarayonida uning oldiga quyiladigan topshiriqlar esa o‘quvchilarni biron-bir betakror va o‘z shaxsini, o‘zining ma’naviy imkoniyatlarini namoyon etishga sharoit yaratadi.

Muayyan bilimlar, malaka va ko‘nikma majmuiga ega bo‘lgan kishi faqat ijrochi kishilar, xolos. Jamiyatimiz uchun esa ijrochilar emas, balki ijodkor, tashabbuskor, o‘ylovchi va o‘zgartiruvchi kishilar kerak. Ertangi kun ishchisi, muxandisi, olimi maxsus bilimlardan tashqari yaxshi rivojlangan fahm-farosat va ayni chog‘ida aniq mantiqiy tafakkur, hayotda ko‘zda tutilmagan yangi

vaziyatlarga tez va to‘g‘ri javob bera olish, kutilmagan nostandart yechimlar topa bilish mahoratiga ega bo‘lishi nihoyatda muhimdir. Kishilarning tashabbuskorligi, ijodkorligi, mustaqilligiga keng imkoniyat yaratib berish kerak.

Maktabda badiiy ta’lim mazmunini aniqlashning eng katta va eng qiyin, lekin muhim va asosiy vazifasi ana shundan iborat.

Maktabda badiiy ta’limning yangi sifat darajasiga ko‘tarish birinchi galda oliv maxsus ma’lumotli o‘qituvchilar tayyorlash bilan bog‘liq. Buning kadrlar tayyorlashning mavjud tizimini rassom-o‘qituvchilar tayyorlovchi o‘quv yurtlarining o‘quv rejalarini tubdan o‘zgartirish lozim bo‘ladi. Busiz konsepsiyada ilgari surilgan g‘oya va rejalarini hal qilib bo‘lmaydi. Yangi o‘quv rejalarida o‘zbek xalq amaliy san’ati, me’morchilikini o‘rganish asosiy o‘rinni egallash kerak bo‘ladi.

Bu yo‘nalishdagi ishlar sinfdan va maktabdan tashqari to‘garak va studiyalar uchun tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlari bo‘yicha rahbarlar tayyorlashga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Ma’lumki, akademik litsey va kollejlarda tasviriy san’at ta’limi asoslari milliy madaniyatimizning va uning an’analarining, shuningdek, jaxon badiiy madaniyati durdonalari asosida belgilanadi. Bu narsa o‘z-o‘zidan qator dastur, darslik, metodik qo‘llanma va ko‘rgazmalarni qaytadan ishlab chiqishni toqazo etadi va katta ilmiy-metodik kuchlarni talab qiladi. Buning uchun badiiy ta’lim bo‘yicha O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, O‘zbekiston tasviriy san’at muallimlar Uyushmasi, viloyat pedagogika va malaka oshirish institutlari, akademik litsey va kollejlardagi mavjud kuchlarini markazlashtirish lozim bo‘ladi. Bu kuchlar e’tibori dolzarb muammolarini yechishga qaratilgan. Muammolarini yechishdan avval ularning ko‘lami va ishlarining rejasи ishlab chiqiladi.

Mazkur ishlar bilan pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti va RUMMS ishtirokida tuzilgan markaz shug‘ullanadi. Bu markazda tasviriy san’at o‘quv fanining mazmuni va soatlar hajmining xilma-xilligi, sinfdagi o‘rtta, yaxshi va yomon o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan dasturlar, metodik

qo'llanma, tavsiyanoma va boshqa materiallar ishlab chiqiladi. Tasviriylar san'atni o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotida nashr ishlari bilan bir qatorda matbuot, televidenie, maxsus ilmiy-amaliy konferensiyalar, tanlovlardan katta rol o'ynaydi<sup>22</sup>.

Maktabda uzluksiz badiiy ta'limni amalga oshirish, uni talablar darajasida o'qitilishni xohlar ekanmiz, boshlang'ich sinflarda (mutaxassislar bor joylarda) tasviriylar san'at darslarini rassom-o'qituvchilari olib borilishi shart. Aks holda badiiy ta'limda ham, qolaversa umuman boshlang'ich ta'limda ham yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Lekin tasviriylar san'at o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini, o'ziga xos jihatlarini mukammal bilishlari va ular bilan ish olib borish usullarini egallashlari zarur bo'ladi.

Tasviriylar san'at mashg'ulotlarining bir qismi, ayniqsa tabiatni va mehnat jarayonlarini idrok etish, tabiiy materiallar yordamida tasvirlash, tabiatdagi ranglarni o'rghanish bevosita tabiat qo'ynida, me'morchilik, xalq amaliy va tasviriylar san'at asarlarini idrok etish esa muzeylelar, maydonlar, ko'rgazma zallari hamda san'at asarlari va me'morchilik obidalari mavjud joylarda, shuningdek rassomlar xalq ustalarining ustaxonalarida amalga oshirilishi lozim.

Maktablarda tasviriylar va amaliy san'at, me'morchilikni o'qitishning o'ziga xos tomonlarini hisobga olib, mashg'ulotlar uchun kamida ikki sinf xonasi va natura hamda ko'rgazmali qurollar uchun maxsus xona bo'lishi talab etiladi.

Tasviriylar san'at bevosita o'quvchilarining ijodiy faoliyatlarini bilan bog'langanligini hisobga olib, tabaqlashtirilgan ta'limni joriy etish maqsadida bu mashg'ulotlarni ikki guruhga bo'lib o'qitiladi.

Tasviriylar san'at va badiiy mehnat o'quv fani o'quvchilarida ma'naviy madaniyatini ajramlamas qismi hisoblangan badiiy va axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o'quv fani mazmunan integrallashgan kurs bo'lib, u tasviriylar san'at dekarativ amaliy san'at turlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bu fandan ta'lim mazmuni avvalgilardan keskin farq qilib, unga umumiyligi ta'lim mazmunida keng o'mni berilishi nazarda tutiladi.

---

<sup>22</sup> M.Nabihev. Rangshunoslik. T. 1995 y.

Bu o‘quv fanining yana bir o‘zigi xos xususiyatlari shundan iboratki, bunday darslarda talabalarga badiiy bilimlardan tashqari yana tasviriy malakalar shakllantirishdan, ularda kuzatuvchanlik, ko‘z xotirasi, chamalash qobiliyatları, obrazli tasavvur kabi ko‘nikmalari o‘stirib boriladi. Tasviriy san’atning eng muhim vazifalari talabada ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy estetik did kabi hislatlarni o‘stirishga qaratilgandir.

Shuni ham yoddan chiqarmas kerakki, Vatanimizga har tomonlama (ham mafkuraviy, ham iqtisodiy, ham madaniy) rivojlangan, ilmiy fikrlaydigan, mustaqil tashabbuskor shaxslar kerak bo‘ladi, faqat ijodkor kishilargina xalqimizning farovon kelajagini yaratishlari mumkin.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston xorijga yuz tutib, hamma fanlardan ta’limni dunyo standartlari darajasiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan ekan, badiiy ta’lim, xususan, tasviriy san’at ta’limini ham dunyo standartlari darajasiga olib chiqish kerak bo‘ladi.

Buning uchun tasviriy san’ati rivojlangan mamlakatlarning o‘quv rejalaridagi o‘rnini yaxshi o‘rganish lozim.

Tasviriy san’at o‘quv fani rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, ANGLIYA, FRANSIYA, OLMONIYA, ITALIYA v.b.) umumiy ta’lim maktablarinig birinchi sinfidan oxirgi sinflargacha har bir sinfda haftasiga 2-5 soatgacha o‘qitilib turgan bir paytda, bizda 1-7-sinflarda haftasiga 1 soatdan o‘qitilayotganligini yetarli deb bo‘lmaydi. Natijada maktablarda tasviriy san’at o‘qituvchilarining tegishli soatlar bilan ta’minlay olmaslik muammosi ham paydo bo‘ldi. Bu esa ko‘pchilik o‘qituvchilarni maktabni tashlab, boshqa sohalarga ishga o‘tib ketishlariga sabab bo‘lmoqda.

Har qanday o‘quv fani ta’lim mazmunida albatta o‘zbek xalqi yaratgan beqiyos boy madaniy va ma’naviy merosni asos qilib olish kerak. Ularni bolalar ko‘proq bilishlari shart. Shunday ekan, o‘zbek xalqini dunyoga mashhur qilgan me’morchilik, amaliy va tasviriy san’atni umumtalim maktablari va maxsus san’at maktablarida chuqurroq o‘rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga ta’lim mazmunini

viloyat va shaharlar bo'yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xivada me'morchilik, dekorativ-amaliy san'at kengroq o'qitilishi mumkin. Chunki, O'zbekistonning viloyat, shaxar, xattoki qishloqlarida dekorativ-amaliy san'at va me'morchilikning rivojlanishida o'ziga xoslik bor. Buni Samarqand, Toshkent, Buxoro, Rishton, Shaxrisabz, Nurota, Marg'ilon, G'ijduvon, Urgut, Xo'jayli kabi shaharlarning san'atida yaqqol ko'rish mumkin.

Milliy san'atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o'rganishimiz tabiiy. Lekin jahonda hamma xalqlar tomonidan tan olingen umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham bor. Ularni talabalarga o'rgatmasdan turib, xalqimiz jaxon madaniyatidagi o'z o'rnini topa olmaydi. Aks holda o'quvchilarimiz milliy qobiqqa o'ralashib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo'la olmaydilar.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko'p asrlik milliy-badiiy madaniyatmizni (tasviriy san'at, bezakli amaliy san'at, me'morchilik san'ati) va shu bilan birga o'quvchilarning tasviriy va amaliysan'atdan o'zlashtirishi lozim bo'lgan malakalar ham hisobga olinishi lozim.

Mazkur standartda Respublika o'quvchilari o'zlashtirishlari lozim bo'lgan minimal bilim va malakalar bayon etilgan. Bu asosida O'zbekistonning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Xalq ta'limi vazirligi va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi tasviriy san'atdan o'zlaridagi o'ziga xoslikni hisobga olib, ta'lim mazmunini ishlab chiqadilar. Bu ta'lim mazmunida har bir hududning san'ati va madaniyati, uning badiiy an'analarini o'z ifodasini topadi.

Jahonning ilg'or san'atini o'quv rejalarida berilgan haftasiga bir soatlik tasviriy san'at darslarpida yetarli darajada o'zlashtirishga imkon yuq. Shunday ekan, o'quv rejalarida tasviriy san'at o'quv fanining salmog'ini oshirish va uni har bir sinfda kamida 2 soatdan o'qitilishini ta'minlash zarur bo'ladi.

Respublikaning akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan bu yo'nalishdagi o'quv fani "Tasviriy va amaliy san'at", "Tasviriy va me'morchilik san'ati", "Tasviriy san'at va badiiy mehnat", "San'at" bo'lishi mumkin.

Yuqorida nomlari qayd qilingan har bir o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni talabalarning kuchiga (bo‘sh, o‘rta, yuqori) shuningdek, qishloq va shahar maktablariga moslab tabaqlashtiriladi.

Maxsus san’at maktablarida tasviriy san’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarda badiiy va estetik madaniyatini shakllantirishni maqsad qilib quyar ekan, u quyidagi faoliyat turlari asosida amalga oshiriladi:

Qalamtasvir.

Rangtasvir.

Kompozitsiya.

Amaliy san’at.

Haykaltaroshlik.

San’at tarixi.

Qurish-yasash (Qog‘oz plastikasi).

Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga ularni o‘rab olgan tabiat-o‘simliklar, gullar, daraxtlar, hashoratlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar v.b. turmushda qo‘llaniladigan buyumlar va xalq amaliy san’ati namunalari, kiyim-kechaklar, binolar va me’morchilik obidalari, mehnat qurollari va transport vositalari, xalqimizning turmush tarzi, mehnat jarayonlari, yil fasllaridagi o‘zgarishlarni kuzatish va ularni bilib olishni nazarda tutadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, hayotni va borliqni bilmasdan turib, to‘laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Kompozitsiya - tasviriy san’at o‘quv fanining eng yirik va muhim qismlardan hisoblanib, bu bo‘limning asosiy vazifalari talabalarda ijodiy tafakkur, fantaziya, ko‘z xotirasi, badiiy did kabi psixologik jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday faoliyat orqali faqat badiiy ijod vazifalarini hal qilinib qolmay, balki yoshlarni axloqiy sifatlari, xususan milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ulari rivojlanadi.

Rangshunoslik bo‘limi ranglarning kishi hayotidagi roli to‘g‘risida, ayniqsa tabiatda ranglar, rangning xalq iste’moli mollari va texnika buyumlarini ishlab

chiqarishdagi roli, rangning tasviriy va dekovrativ amaliy san'at, me'morchilikdagi ahamiyati hakida ayrim nazariy ma'lumotlarni beradi. Bunday tushunchalar va tasavvurlar rangshunoslik bo'yicha mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ham, naturaga qarab tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlarda ham, tevarak-atrof, voqealar va san'atni idrok etishda ham, kompozitsiya faoliyatida ham berib boriladi.

Mazkur ta'lim standarti turlicha badiiy materiallar va tasvirlash vositalaridan foydalanishga jiddiy e'tibor berishni ham nazarda tutiladi. Bunday badiiy materiallar qatorida qalam, sous, pastel, sangina, ko'mir, akvarel, tush, loy, plastilin, rangli qog'ozlar, tabiiy materiallar, oyna, to shva gazlama parchalari va hakozolar kiradi. Tasvirlash texnikasi esa shtrixovka, ho'l va quruq qog'ozlarda ishslash, xomaki ishlar (qoralama, ranglama), gravyura, mozika, apilikatsiya, kollaj kabilardan iborat.

«Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi»ni o'rghanish jarayonida talabalarga quyilgan minimal talablar qo'yiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

Borliqni idrok etish deganda nimani tushunasiz?

Rangshunoslik va ranglarning kishi hayotidagi roli to'g'risida nimalarni bilasiz?

### **Tasviriy san'at davlat ta'lim standarti (maktab, oliy ta'lim).**

Tasviriy san'atdan maktab va Oliy o'quv yurtini davlat ta'lim standarti va uning mohiyati. Maktab va Oliy o'quv yurtida tasviriy san'at fanlaridan o'quvchi talabalar bilimiga qo'yiladigan minimal talablar. Davlat ta'lim standartini nazorat qilinishi. Davlat ta'lim standartida tasviriy san'atning mutaxassislik fanlari maqsad va vazifalarining belgilanishi. Tasviriy san'at fanlaridan davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etilishi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgust qaroriga ko'ra 1999-2000 o'quv yildan boshlab umumiyo o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san'at ta'limi bo'yicha ham davlat standartlari joriy

etildi. Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqilishi avvalo O‘zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog‘lanadi.

Hozirda har bir fan bo‘yicha, Shu qatori badiiy-estetik turkumdagи fanlardan davlat ta’lim standartlarining yaratilishi, uni ho‘qumat tomonidan tasdiqlanishi katta ilmiy va aamaliy ahamiyatga ega bo‘lgan voqeadir. Mazkur standartlar O‘zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo‘lib, u respublikamiz maktablarida ta’limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Standart davlat tomonidan qo‘yilgan talablarni to‘g‘ri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda amaliyotda qo‘llanib kelayotgan dastur, dastur, darslik va metodik qo‘llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish hamda uni o‘qitilishini talablar darajasini tashkil etish imkonini ham beradi. Shuningdek, u maktablarda ta’lim ishlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun ham asosiy hujjat vazifasini o‘taydi.

Davlat standartiga ko‘ra tasviriy san’at ta’limi mazmuni boshlang‘ich sinflarda quyidagi to‘rt yo‘nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish-yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash.
4. Kompozitsion faoliyat.

Beshinchi-yettinchi sinflarda esa u quyidagi uch yo‘nalishda o‘z aksini topgan: 1.San’atshunoslik asoslari. 2.Naturaga qarab tasvirlash. 3. Kompozitsion faoliyat.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha tasviriy san’at o‘quv predmetini o‘qitishda har bir O‘qituvchi asosiy e’tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo‘ladi. Tasviriy san’atni o‘qitishda o‘qituvchining e’tibor berishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarni borliqdagi (tevarak-atrofdagi) va san’at asarlaridagi nafosatni ko‘rishga, idrok etishga va undan zavqlanishga hamda qadrlashga o‘rgatish.

2. Bolalarni ijodiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobiliyatlari va fantaziyalarini o‘stirishga yo‘naltirish.

3. Tasviriy, amaliy, me’morchilik san’atlari yuzasidan nazariy, biroq umumiylar bilimlar berish.

4. O‘quvchilarda kuzatuvchanlik, ko‘z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo‘lgan sifatlarni o‘stirish.

5. Rasm va naqsh, haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarni o‘stirish.

6. Estetik his-hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.

7. San’atga qiziqishni o‘stirish va muhabbatni tarbiyalash.

Bu vazifalar mакtabda tasviriy san’at darsini olib boruvchi har bir o‘qituvchini mutaxassis bo‘lishligini talab etadi. Chunki, standart mazmuni mutaxassis o‘qituvchilar uchun mo‘ljallab to‘zilgan.

Tasviriy san’at ta’limi davlat standarti san’atning uch turi-tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlari mazmunini aks ettirgan bo‘lib, u avvalo milliy o‘zbek san’atini, uning badiiy an’analarini, ayrim mashhur o‘zbek tasviriy, amaliy, me’morchilik san’atlari ustalarining hayoti va ijodini, O‘zbekistonda san’atning bu turlari rivoj topgan markazlarni, O‘zbekistondagi yirik san’at mo‘zeylarini bilish tasviriy san’at o‘quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san’at vositasida o‘quvchilarga badiiy ta’lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o‘zbek san’atini chet el va jahonning hozirgi zamon ilg‘or san’atiga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatishdan maqsad har bir o‘zbek o‘quvchisi o‘z halqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san’atini ham nisbatan kengroq bilishiga erishishdir. Milliy san’at ta’lim mazmunida poydevor bo‘lishi lozim.

Ularni o‘rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo‘la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o‘ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqsa olmaydilar. Ayniqsa yoshlarimiz qadimgi Misr, YUnioniston, hindiston me’morchiligi, Afg‘oniston, Iroq, Turkiya miniatURA rangtasvir asarlari, Yevropada Uyg‘onish davri tasviri san’ati, rivojlangan /arb mamlakatlarining hozirgi zamon tasviri va me’morchilik san’ati namunalarini o‘rganmasdan va bilmasdan turib madaniylashgan shaxs bo‘lish mumkin emas.

Davlat ta’lim standartlari talablarini faqat o‘quv rejalarida ajratilgan vaqt hajmida muvaffaqiyatli bajarib bo‘lmaydi.

Chunki Yuqorida qayd qilinganidek, ta’lim mazmuniga doir o‘quv-metodik majmualar, moddiy texnikaviy asos, yuqori malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi, mavjud muammoni bir muncha murakkablashtiradi. Bu esa o‘quvchilarning darsdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishni samarali shakllari va yo‘llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Mazkur muammo bevosita o‘quvchilarning mustaqil ishlari uchun tegishli adabiyotlar, xrestomatik materiallar, moddiy-texnikaviy materiallar, o‘quv va metodik yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqish bilan bog‘langan. hattoki, bu masalada ota-onalarning vazifalari, ish mazmuni haqida o‘ylab ko‘rish, ularga ma’lum yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar berish foydadan holi emas. Masalaga ana Shunday yondaShuv ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan bilim va malakalarning minimum darajasini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishgagina ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki uni maksimumga ko‘tarish imkonini ham beradi.

Ma’lumki, bolalarning ta’lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini qanday o‘zlashtirganlik darajasini ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo‘yicha ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi.

U tasviri, amaliy, me’morchilik san’atlari bo‘yicha atama va iboralar, tuShuncha va ma’lumotlar, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan malakalarni o‘z ichiga oladi. Bu materillarni bolalar tomonidan o‘zlashtirilishini nazorat qilish esa ularning bilimlarini tekshirishga doir test materillarini, bolalar tomonidan

bajarilgan tasviriy ishlarni baholash mezonlari va boshqa materillar tayyorlash aloqida aqamiyat kasb etadi. Ular o‘z o‘rnida o‘quvchilarning bilim va malakalarini tez va oson baqolash imkonini beradi.

Davlat ta’lim standartida tasviriy san’at ta’limi mazmuniga bo‘lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O‘qituvchi uni bajarishi shart. Lekin O‘qituvchi Shu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq ta’lim mazmunini yuqori darajaga olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo‘yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, maktablarimiz nomi umumiy o‘rta ta’lim maktabi deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Davlat ta’lim standartlari bo‘yicha boshlang‘ich maktablarning to‘rtinchisinfini bitiruvchi o‘quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san’at darslarida ishlatiladigan ish qurollari va materiallarni-albom, qalam, mo‘yqalam, stek, bo‘yoq, politra, guash, akvarel;

-rang nomlarini-oq, qora, qizil, sariq, moviy, yashil, zarg‘aldoq, binafsha, zangori, jigarrang, kulrang, och qizil, to‘q qizil, moshrang, sabza, pushti, qirmizi, pistoqi, lojuvard, lolaro‘y;

-tasviriy san’at darslarida ishlatiladigan o‘quv qurollari bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish qoidalarini;

-15 ta atrofida ijod qiluvchi rassom va haykaltaroshlarning ismi va familiyasini hamda ularning asarlarining nomlarini:

4-5 ta loydan halq o‘yinchoqlari va kulolchilik buyumlarni yaratuvchi kulollarning ismi va familiyasini;

-asosiy va hosila ranglarni, xromatik va axromatik ranglarni, iliq va sovuq ranglarni;

-naqsh turlarini-yo‘lsimon naqsh, to‘rburchak naqsh, kvadrat naqsh, doira naqsh;

-amaliy san'atda ishlatiladigan gul nomlarini-barg, dubarg, sebarg, oygul, bodom, shobarg, paxtagul;

-amaliy san'atda ishlatiladigan atamalarni-rassom, rang, rasm, shakl, aplikatsiya, ritm, simmetriya, asimetriya, suvrat, format;

-badiiy qurish-yasash ishlarida ishlatiladigan - badiiy, tabiiy va tashlandiq materiallarni.

Boshlang'ich mакtablarning to'rtinchi sinflarini bitiruvchi o'quvchilar quyidagi malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozim:

Oddiy qalam, mo'yqalam, stek, qaychi bilan ishlay olish; to'g'ri, og'ma va egri chiziqlar chizish; oddiy narsalarning shaklini qalam, mo'yqalam steklar bilan tasvirlay olish; ma'lum o'lchovdagi chiziqni bir nechta teng bo'laklarga bo'lish; akvarel va guash bo'yoqlaridan to'g'ri foydalana bilish-bo'yoqni eritish, aralashtirish; asosiy ranglarni aralashtirish orqali hosila ranglarni olish; eng sodda naqshlar chiza olish; rasm, suvrat va illyusratsiyalarda ifodalangan tabiat hodisalari (yil fasllari, ob-havo), qush, hayvon va odamlarning xarakterli va harakatli holatda tasvirlay olish; manzara va turmush janridagi suratlar haqida elementar fikr yuritish (menga yoqdi, hammasidan ham yoqdi, yoqmadi kabilar); loy va plastilin, tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlay olish; belgilangan qog'oz yo'zasini tekis bo'yash; tabiat manzaralaridagi go'zallikni idrok etish va undan zavqlanish; haykal ishlaganda ulardagi obraz va narsalarni o'zaro bog'liq holda tasvirlash; loydan ishlangan o'yinchoqlarni guash bo'yog'i bilan bo'yay olish; rasm ishlaganda qog'oz o'lchovi va formatini to'g'ri olish; tevarak-atrofdagi tabiat manzaralari va mehnat jarayonlaridagi go'zalliklarni ko'ra olish va ulardan zavqlanish; tavsiya etilgan ertak va hikoyalar mazmuni asosida rasm va haykal ishlash; narsalarni rasmini chizmasdan turib ularni shaklini mo'yqalam bilan tegizib olish yo'li bilan hosil qilish; ijodiy tarzda yo'lsimon, kvadrat, to'rtburchak, doira shaklida naqshlar ishlay olish; naqshlar ishlashda geometrik va o'simliksimon unsurlardan bemalol foydalana olish; narsa va hodisalarning fazoviy holatini rasmda tasvirlay olish; bola o'zi yasagan haykalga bezak unsurlarini stek

yoki qo‘l bilan hosil qila olish; mavzu asosida rasm ishlaganda ulardagi asosiy va qiziqarli unsurlarni kompozitsiyada joy, o‘lchov va rang jihatdan ajratib tasvirlash.

### **Tasviriy san’atni o‘qitishda didaktik prinsiplar.**

Maktablarda ta’lim-tarbiya ishlarini samarali bo‘lish mashg‘ulotlarning to‘g‘ri mazmunli va izchil olib borishga bog‘liq.

Ta’limning tarbiyalovchilik xususiyatini ta’lim mazmuni bilan, ta’lim metodlari bilan amalga oshiriladi. Har bir fan o‘qituvchisi kabi san’at o‘qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va uning prinsiplarini mukammal o‘rganishlarini talab qiladi.

Didaktika – pedagogik ta’lim jarayonining umumiyligi qonuniyatlarini o‘rganiladigan qismidir. Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, saboq bo‘ladigan so‘zdir, ya’ni didaktika – ta’lim nazariyasi demakdir.

Didaktika xususiy metodikalar bilan mustahkam bog‘langan holda, barcha o‘quv fanlari uchun qonun va qoidalarni belgilab beradi.

Umumiyligi didaktika asosida ba’zi o‘quv predmetlari bo‘yicha xususiy didaktikalar kelib chiqadi. Ular metodika deb ataladi. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi, matematika, adabiyot metodikalari va tasviriy san’at fani asoslarini o‘rganishda quyidagi pedagogikaning nazariy prinsiplari katta ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim-tarbiya birligi.

Ta’limning ilmiylik prinsipi.

Ta’limda ko‘rsatmalik prinsiplari.

Ta’limda onglilik va aktivlik prinsiplari.

Ta’lim protsessida o‘quvchilarni yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.

Tasviriy jarayonida boshqa fan materiallari bilan bog‘liqligi

Ta’lim prinsipi tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qish va o‘qitish jarayonining xarakteri, yo‘nalishi, o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishning, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil

qilishning qonun va qoidalarini o‘z ichiga oladi. Bizning davrimizda maktab ta’lim sistemasida onglilik va aktivlik prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi maktab ta’limi o‘quvchilarining ongli, mustaqil, aktiv faoliyatiga suyanadi.

Ta’limda ongliylik o‘quvchilarining ilmiy bilimlarni amalda qo‘llay olishlarini o‘z ichiga oladi.

Maktablarda o‘quvchilarga beriladigan bilimlar hozirgi zamon bilimlar darajasida bo‘lish, o‘quvchilarga ularni muayyan sistemada bo‘lishni ta’min etishi lozim.

O‘qituvchining vazifasi ob’ektiv jihatdan narsa va hodisalar tasvirini ifodalashda realistik san’atining mohiyatini ilmiy ravishda ohib bera olish kerak.

Maktabda tasviriy san’at dars predmeti boshqa fanlar qatori o‘zining mustaqilligiga ega. Shuning uchun tasviriy san’at predmeti bir qator ilmiy asoslarga yondoshiladi.

**Ta’lim-tarbiyaning birligi, prinsipi.** Maktab sharoitida ilg‘or o‘qituvchi bo‘lish uchun hozirgi zamonaviy didaktik prinsiplarni egallab uni ijodiy ravishda amaliyotda qo‘llay bilish maqsadga muvofiq.

Hozirgi pedagogika ta’lim-tarbiyaning mohiyatini, didaktik prinsiplarini ohib beradi, shuning uchun birinchi o‘rinda siyosiy g‘oyaning maqsadga yo‘nalishi va ta’lim-tarbiyaning birligidadir.

Umumta’lim maktabning vazifasi yosh avlodni tetik ruhda tarbiyalab, ularning dunyoqarashlarini ma’naviy shakllantirishdir.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining vazifalari ta’lim-tarbiyada yaratilgan prinsipni tasviriy san’at asarlar g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini ko‘rsatishdir<sup>23</sup>. O‘qituvchilarda ta’lim-tarbiya berish ta’limotlari hamda davlatimizning ko‘rsatmalari asosida yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetgan ma’lumotli va zamon talabiga javob beradigan, yuksak darajadagi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan kishilar qilib tarbiyalashdir.

---

<sup>23</sup> R.K.Rajabov, X.E.Sultanov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T. 2008.

O‘quvchilarga tasviriy san’at bo‘yicha ta’sir ko‘rsatish kuchidan foydalanishda, tasviriy san’at o‘qituvchisi keng imkoniyatga ega.

Yosh o‘quvchilariga tasviriy san’atni targ‘ib etishimizda, uning maqsad va vazifalarini, jamiyatimizning qurilishdagi ahamiyati, san’atning haqqoniyligi va xalqchilligi, san’atning realistik prinsiplari asosida yaratilishini ochib berishimiz lozim.

Tasviriy san’at o‘zining yorqin obrazi bilan bolalar hayotida, haqqoniyligi, go‘zallik vositasida, asarda tasvirlangan badiiy obrazlarda hayotni real ochib beradi.

U insonga emotsional ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchilar sezgisini o‘siradi, badiiy didini shakllantiradi. Ana shunday sifalarga qarab, tasviriy san’at o‘qituvchisi tarbiyaviy maqsadlarni ko‘zlab undan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

San’atning insonga ta’sir qilish kuchiga suyanib, o‘qituvchi bolalar bilan har tomonlama tarbiyaviy ishlarni olib borishi mumkin.

Bolalarni san’at bilan yaqinlashtirar ekanmiz, avvalo biz ularga san’atning maqsad va vazifalarini ochib berishimiz kerak va asosan realistik san’at prinsiplari, xalqchillik va uning prinsipi, jamiyat qurilishida tasviriy san’atning ahamiyatini tushuntirib berishimiz kerak.

Hayotni adabiy obrazlarda aks etira turib, unga estetik baho berib, tasviriy san’at hayotda go‘zallikni ko‘ra bilish uchun kuchli qurol ekanligini tushintira bilishimiz zarur. U kechagi haqiqatni bildiribgina qolmay, balki ertangi hayotni ham to‘g‘ri ifoda etadi.

Agar o‘quvchilarning o‘zida ijodiy qiziqish katta bo‘lsa, o‘z fikr mulohazalarini, hissiyotlarini ifoda eta olishsa atrofdagi har bir narsaga estetik jihatdan qaray bilishsa estetik g‘oyaviy tarbiya juda muvaffaqiyatli kechadi.

Estetik tarbiya bilan shug‘ullana turib, bo‘lajak o‘qituvchi, mакtab o‘quvchilarining san’atni to‘g‘ri tushunib kamolotga erishayotganini yaxshi bilishi kerak.

Tasviriy san'at o'qitish bolalarga atrof-muhitni tushuna bilishlari go'zallikni ko'ra olishda yordam beradi.

**Ilmiylik prinsiplari.** O'quvchilarning dunyoqarashlarini tarkib toptirish va ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda ilmiylik prinsipi asos hisoblanadi.

Buning asosiy negizi ob'ektiv qonuniyatdan iborat bo'lib fan asoslarini chuqur o'zlashtirmay turib, o'quvchilarda dunyoqarashni vujudga keltira olmaydi.

Ilmiylik prinsipini maktab ta'limi mundarijasiga fan tomonidan aniq berilgan o'quv materialining kiritilishini (bu talab mакtab dasturlarini va darsliklari tuzish vaqtida shuningdek o'qituvchi har bir dars uchun material tanlayotganda hisobga olinadi) hamda o'quvchilarning yoshi uchun munosib bo'lgan ilmiy tushunchalar va terminlar bilan qurollantirishni taqoza qiladi. Dasturlarda va darsliklarda terminologiyani egallashdagi tartib va izchillik belgilanadi.

Bu tartibga qat'iy rioya qilish hamda o'quv jarayonida qabul qilingan terminlarnigina joriy etish muhimdir.

Ilmiy nazariyalar bilan tanishtirish talabi ko'proq darajada o'rtta va yuqori sinflarga taalluqlidir, ammo boshlang'ich mакtabda ham o'qituvchi darslar mundarijasiga ilmiy bilimlar joriy etib, bu ishga muayyan hissa qo'shadi. O'quvchilarga rus tili grammatikasi, tasviriy san'at, tabiatshunoslikdan ba'zi ilmiy tushunchalar beriladi.

Ilmiylik prinsipini boshlang'ich mакtab o'quvchisidan mакtab o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berishini talab qiladi. O'qituvchi bolalarning ayrim masalalarini ilmiy asosida tushunishda hech qanday chetga chiqishlariga yo'l qo'ya olmaydi, hamda ilmiy tushunchalar va terminlarni to'g'ri ishlata bilishga o'rgatadi.

O'z predmetini yaxshilab o'rgangan, bolalarning psixologiyasini ta'lim va tarbiya nazariyasini biladigan o'qituvchigina o'qitishning dastlabki yillaridanoq o'quvchilarni ilmiy bilimlar dunyosiga olib kira oladi, ularda bilimlarni, fanni egallashga zo'r intilish uyg'ota oladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining vazifasi, o'quvchilarga tekislikda predmetlarni tasvirlash qonunlarini va tevarak-atrofda tutgan o'rni haqida tushuncha berish, o'quvchilarni asosiy prinsiplar bo'yicha fikrlashlari, realistik san'atga ob'ektiv qarashlari va narsa va hodisalarga haqqoniy tasvirlashlariga yordam berishlari kerak.

Tasviriy san'at ta'limning o'qitilishida o'qituvchi turli shakllar tuzilishini konstruktiv jihatdan uning tabiatdagi go'zalligini ochib berib o'quvchilarning estetik didlarini rivojlantirishi lozim.

Tasviriy san'at ta'limining ilmiylik prinsiplari asosida perspektiva, yorug' soyalar va ularning qonunlari, anatomiya va boshqalar yotadi.

Masalan: tasviriy san'at ta'limida perspektiva qonunlari qurilishlarini o'quvchilarga tushuntirib va ularning perspektiva haqida aniq tushunchaga ega bo'lib, uni amalda qo'llay olishga erishmoq kerak.

Predmetlarni konstruktiv qurilishini o'quvchilarga albatta tahlil etib berish lozim.

Rasm individual bo'lishi mumkin, u holda ham hamma o'quvchilarni ishlari tekislikda perspektiv qonunlar asosida qurilishi lozim.

Shunday qilib, badiiy jarayonda ham ilmiylik prinsiplari zarurdir.

O'qitish jarayonida maktab o'quvchilari real hayotni to'laroq aks ettiradigan, fan tomonidan aniq belgilangan bilimlar sistemasini yaxshi o'zlashtirishlari lozim bo'ladi.

Rasm chizishning asoslari perspektiva, rangshunoslik, soyalar nazariyasi kabi fanlar mujassamlangan. Perspektiv rasm chizishga o'rgata turib, bolalar diqqatini perspektiva qoidalariga rioya qilishga jalg etamiz. O'quvchilar bu darslarda buyumning konstruktiv formasini aniq to'g'ri chiqarishga odatlanadilar.

Rasm chizishning texnikasi har xil bo'lishi mumkin, lekin chizish qoida va qonunlari o'zgarmaydi.

San'atda materialistik va idealistik nuqtai nazar qanday aks etishi haqida alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Realistik san'at bu haqiqatdagi bor narsani real

ijodiy ifodalashdir. Rassomning tabiatga bo‘lgan munosabatning bahosidir.

Formalistik san’at-rassom turli hodisalarini yuzaki ifodalashidir. Formalistik rassomning asarida realizmdan yiroq sub’ektiv hayot muhimdir.

Real haqiqat rassom realistikasining dastlabki momentidir. Realistik san’at ob’ektiv dunyoni birinchi o‘rinda ko‘rdi, shu bilan birga materiya birlamchiligin va ongning ikkilamchiligin ko‘rsatdi.

Naturaga qarab rasm chiza turib, biz faqat buyumni tekshiribgina qolmay, uning ichki strukturasini ham bilishga qiziqamiz.

Buyumning tashqi ko‘rinishi uning ichki tuzilishidan aniqlandi.

Masalan, skelet ko‘zga ko‘rinmaydi, lekin tashqi formani to‘g‘ri chizishimiz juda muhimdir, shunday qilib, chiza turib odam dunyoni o‘rganadi, uni analiz qiladi. Real haqiqatni idrok etish jarayoni ilm va san’atning asosidir.

Rasm chizishni o‘qitishning ilmiylik prinsip realistik san’at metodlarini egallashdagina emas, kuzatish va qizo‘quvchanlikni rivojlantirishda ham ahamiyati katta.

Tashqi muhit bilan tanishishda uning qonunlarini o‘rgana bilishda o‘quvchilarni aktiv bo‘lishga o‘rgatadi. Har bir pedagog ma’lum bolalarni o‘ylamay naturadan ko‘chirma olishdan saqlash qiyin. O‘ylamay chizishdan saqlay olish usullaridan biri: tadqiqot qilish xarakteriga ega bo‘lgan masalani o‘rtaga qo‘yishdir.

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji ishlarida ilg‘or o‘qituvchi bo‘lish uchun hozirgi zamon didaktikasini egallashi va uni ijodiy ravishda amalda qo‘llay bilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ta’lim va tarbiyaning mohiyatini quyidagi didaktik sistemadagi prinsiplar ochib beradi. Ta’lim-tarbiyada o‘quvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda mutaxassislikning maqsadga intilish, yosh avlodni mustaqillik ta’limotlari ko‘rsatmalari asosida har tomonlama ma’lumotli o‘zligini anglashlik, xissiyotlarini o‘zida mujassamlashtirgan kishilar qilib tarbiyalash. Shuning uchun avvalo, tarbiya ishlarida o‘zlikni anglash g‘oyaviylikda alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘quvchilar yoshlarga tasviriy san’at ta’sir kuchidan foydalanishida,

tasviriy san'at o'qituvchisi keng imkoniyatga ega. Biz o'quvchi yoshlarga tasviriy san'atni targ'ibot etishimizda uning maqsad va vazifalari katta ahamiyatga ega bo'lgan san'atning realistik prinsiplari asosida yaratilishini ochib berishimiz kerak. San'at asarlari o'quvchilarga hayajonli ta'sir ko'rsatib, inson sezgisini o'stiradi, fikrini shakllantiradi. Ana shunday xislatlarga ko'ra tasviriy san'at o'qituvchisi tarbiyaviy maqsadlarni qo'llab, undan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Hammamizga ma'lumki, faoliyatimizda ilmiylik prinsipi eng muhim o'rnlardan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchi, yoshlarga beriladigan barcha bilimlar ilmiy asoslangan bo'lib, u amaliyot bilan chambarchas bog'langan xulosadan iboratdir.

Tasviriy san'at o'qituvchisining vazifasi o'quvchi, yoshlarga tekislikda narsalarni bo'yoq bilan tasvirlash qonunlarini va ularni tevarak-atrofdagi tutgan o'rnini o'quvchi-yoshlarga ularni real tasvirlay olishlariga yordam berishi kerak. O'qituvchi o'quvchi, yoshlar oldida ketma-ketlik topshiriqlar sistemasini quyib, rasm ta'limining asosiy tuzilish qonunlarini tavsiya etmog'i lozim.

Tasviriy san'at darslarini o'qitishda rassom-o'qituvchi, turli shakllarni tuzilishi konstruktiv jihatdan tabiatning go'zalligini ochib berib, o'quvchilarda estetik didlarini rivojlantirishi kerak.

**Tasviriy san'at ta'limida ko'rgazmalilik prinsipi.** Asosan o'quvchi-yoshlar ko'rgazmalilik prinsiplarida vosita yordamida aniq tushunchalarga ega bo'lib boradilar. Predmetga qarab, uni tuzilish hislatlarini aniq ko'radilar. Narsaga qarab rasm ishlashning o'zi ham ko'rgazmalilikdir. Narsadan rasm ishslash davomida shaklni kuzatishda his-tuyg'ular, farqlashlar yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham o'quv jarayonida narsadan foydalaniladi. Pedagogning vazifasi o'quvchi, yoshlarga diqqat-e'tiborni bir joyga jamlashni o'rgatish, ishga mustaqil ravishda yondoshishga o'rgatish. Shuning uchun pedagog har bir narsa qo'yilmasini jiddiy ravishda o'ylab ko'rishi kerak. Narsani kuzatishda ko'rsatmaliliklardan ham foydalanib boriladi. Bunda karton va boshqa materiaalardan foydalaniladi. Ko'rgazma ham metodik tomondan o'quvchi,

yoshlarga tushunarli bo‘lishi kerak. Masalan, talabalarga geometrik jismlarni ishlayotganlarida uning konstruktiv tuzilishiga, sxemalarni ko‘rsatish va uni chizish, ko‘rgazmalardan foydalanish juda o‘rinlidir. Bu holda o‘quvchi, yoshlarni tez fikrlab narsani chizish yo‘llarini o‘rganib oladilar.

Ta’lim sistemasi va ko‘rgazmalilik prinsipi juda muhim ahamiyatga ega. Pedagogika klassiklari ta’limning ko‘rgazmali bo‘lishiga oid qimmatli fikrlar bergenlar. Buyuk pedagog Yan Amos Komenskiy, Pestolossi, ayniqsa ulug‘ rus pedagogi K.D.Ushinskiyning ta’limni ko‘rgazmali bo‘lishi haqida fikrlari muhim ahamiyatga ega va u hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Hozirgi pedagogika tarixiy nazariyalarga tanqidiy yondoshib tajribalar va yutuqlarga asoslangan holda ko‘rgazmalilikning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi va uni amalda qo‘llashning yo‘l-yo‘riqlarini belgilab berdi.

Ta’limning ko‘rgazmalilik prinsipini boshqa didaktik prinsiplardan ajratgan holda talqin qilib bo‘lmaydi. U didaktikaning boshqa prinsiplari, ayniqsa ta’limda onglilik va aktivlik, mustahkam va puxta o‘zlashtirish kabi prinsiplar bilan mustahkam bog‘liqdir.

Ta’limning ko‘rsatmalilik prinsipi o‘quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita o‘quvchilarning idrok qilishlarini ta’minlashga qaratilgan prinsipi bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

“Bu ko‘rgazmalilik shunday ta’limki, - u mavhum tasavvur va so‘zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qilgan aniq obrazlarga asoslanadi. Bu obrazlarni bolalar o‘qituvchilarining rahbarligi ostida o‘qish protsessisning o‘zida bilib olishganmi, ilgari mustaqil kuzatish natijasida bilib olganmi, bari bir”.

Ko‘rgazmalilik prinsipi o‘quvchilarni ishonarli bilimlar bilan qurollash, idrok eta bilish manbai bo‘lgan buyumlarning o‘ziga murojaat etishdan iboratdir.

Naturaga qarab rasm chizishning o‘zi ko‘rgazmali o‘qitish metodidir. Naturaga qarab rasm chizish protsessii buyumni ko‘ra bilish, his qilish, kuzatishdan boshlanadi.

Ko‘rgazmalilik naturani kuzatish va uni analizini to‘g‘ri talqin qilinishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu buyumni va hodisalarni yaxshi tushunishda ta’sir qiladi, shu bilan birga, tasvirni qog‘oz sathida to‘g‘ri ifodalashdagi sifatini ham yaxshilaydi.

Fizika va geometriya o‘qituvchisi tajriba bilan o‘z fanini tushuntirishga tirishganidek tasviriylar san’at o‘qituvchisi ham xuddi shunday modellarining shaklini ko‘rsatish kerak. Ko‘rgazmalilikning hamma xillari o‘quvchiga shaklning tuzilishini nimadan iboratligini, to‘g‘ri ko‘rishga, tushunishga yordam beradi.

Maktab ta’limida o‘quvchilarning o‘quvchi materiallarini fakt, narsa, hodisa va voqealarning aniq obrazini idrok qilish, sezish orqali ro‘y beradi. Ayni bir vaqtda ko‘rgazmali narsalarni sezish ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Binobarin, ko‘rsatmalilik orqali idrok qilish murakkab psixik jarayondir. U ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m-maza bilish, mustaqil harakat va boshqalar sezishga alohida-alohida va bir yo‘la, bir ob’ektiv ustida bir necha sezgi organlarini safarbar qilishni talab qiladi.

Kuzatilayotgan ob’ektning xarakteri yoki o‘quv materialining xususiyatiga qarab idrok qilish turlicha bo‘lishi mumkin: hayotdagi narsa, hodisa va voqealarni yoki o‘quv materiallarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish orqali bevosita idrok qilish, ilgaridan sezilgan va idrok qilingan narsalar va o‘quv materiallarining obrazlarini qaytadan esga tushirish, tasavvur qilish kiradi.

Narsa, hodisa va voqealar yoki o‘quv materiallarining tasviri ifodalangan ko‘rgazma materiallarini namoyish qilish yo‘li bilan idrok qilish. Ta’limda qo‘llanilayotgan ko‘rgazma qurollar o‘quvchilarning qanchalik yaqqol va aniq obrazli idrok etishini ta’minalasa va kuzatilayotgan ob’ektga mumkin qadar ko‘proq sezgi organlari safarbar qilinsa, o‘quv materiallari shunchalik tez, qulay va oson o‘zlashtiriladi. Bu esa o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirishni ta’minalaydi.

Ko‘rgazma materiallar orqali o‘quvchilar ob’ektiv borliqdagi narsa, hodisalar va voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari va bir-biri bilan bog‘lanish vositalari bilan tanishadilar.

Mavhumiy hodisalarning konkret obrazlar orqali idrok qilish natijasida o‘quvchilarining mantiqiy fikr qilish faoliyatları rivojlanadi. Ayniqsa, biror o‘quv materiali xususiyatlarini mustaqil fikr yuritish /taqqoslash, analiz qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish/ orqali aniqlab, tushunib, o‘zlashtirishlariga qaratilgan sxema, tablitsa, diagramma kabi materialllar ustida ishlash muhimdir.

Ko‘rgazmalilikni Yuqoridagicha tashkil qilish o‘quv materialini ongli, mustaqil va aktivlik bilan o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Ko‘rgazmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlarini ham nazarda tutish lozim. Birinchidan, ishlatiladigan ko‘rgazmali qurollar har bir sinf o‘quvchilarining saviyasi, yosh va umumiylar xarakter xususiyatlariga mos keladigan bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, foydalanimadigan ko‘rgazma qurollar o‘tilayotgan dars mavzusining xarakter xususiyatlariga mos keladigan mavzuning mazmunini ochib berishga yordam beradigan bo‘lishi kerak. Darslarda ko‘rsatma materialdan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Ko‘rgazmali qurollar ko‘payib ketgan paytda taassurotlarining ko‘payishi, fikrda qayta ishlashni qiyinlashtiradi, hamda o‘quvchilar bilimlarining sifatiga putur yetkazadi.

Inson bilish faoliyatida hissiy obraz qanday rol o‘ynashini atroficha tushunishga, aniq fikrlashdan abstrakt fikrlashga, hissiy obrazga o‘tishini anglashga imkon beradi.

O‘quvchilarining rivojlanishidagi aniq obrazli bilan mustaqil jarayon ham, absrakt fikrlarining shakllanish vositasi ham bo‘lishi mumkin.

Ta’limning ko‘rgazmaliligi termini bolaning rivojlanishidagi hissiy bilish boyligi va uning ahamiyatini ifodalay olmaydi. Ko‘rsatmali o‘quv qo‘rollar o‘quvchining hissiy bilishini tashkil qilish tomonlaridan biridir. Ular o‘quvchining bilish faoliyatidagi hissiy va aqliy bilishning o‘zaro murakkab dialektik ziddiyatlari bog‘lanish momenti, xolos.

Shaxsni garmonik ravishda rivojlantirish, o‘quvchilarining aqlini o‘stirishning murakkab vazifalari o‘qituvchidan bolaning hissiy bilishini mohirona

yo‘lga qo‘yishni talab qiladi.

O‘qitish protsessidagi bilish faoliyatini shu asosida boshqarish o‘quvchilarning aqlini o‘stirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Ko‘rgazmalilik prinsipi o‘qitish maqsadlariga mos bo‘lib, materialining mazmuni bilan belgilanadi. Bu materialni o‘rganish esa o‘quvchilarni chinakkam ilmiy va hayotiy muxim bilimlar bilan qurollantirishga undaydi. Ko‘rsatmalik bu bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirib olishga hamda ularning hayot bilan, mehnat praktikasi bilan bog‘lanishiga yordam beradi. Mashg‘ulotlarda turli xil ko‘rgazmali qurollarni qo‘llash o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini aktivlashtiradi, ularning diqqatini safarbar etadi. Shuning uchun ko‘rgazmalilik vositalari o‘qitishning hamma bosqichlarida o‘quvchilarining yangi materialini idrok qilishlarida, bilimlarni mustahkamlashda, tekshirish hamda amaliy faoliyatda va ishda qo‘llanishda, mehnat ko‘nikmalari va malakalarini hosil qilishda tatbiq etiladi.

Ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilikdan foydalanishda bir qator metodik talabalarga rioya qilish kerak.

Birinchidan, ko‘rgazmali qo‘rollarning u yoki bu xilini tanlash darsning maqsadini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchidan, ko‘rgazmali qurollar bilan ishlaganda o‘qituvchi o‘quvchilarning bu qurollarini idrok etishga rahbarlik qilishlari, ularning diqkat-e’tiborani o‘rganilayotgan buyumning asosiy va muxim tomonlariga qaratishlari, o‘quvchilarning mumkin qadar ko‘proq aktiv va mustaqil ravishda ishlashlari uchun sharoit yaratishlari kerak.

Uchinchidan, darsni ko‘rsatmali qurollar bilan to‘ldirib yubormaslik, ulardan ta’lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan miqdorda foydalanish lozim. Agar darsda bir necha ko‘rgazmali qurolni ko‘rsatishga to‘g‘ri kelsa, ularning hammasini birdaniga emas, balki ehtiyojga qarab ko‘rsatish kerak. Ko‘rgazmalilik prinsipidan yana biri, u ham bo‘lsa o‘qituvchini chizgan rasmlari. Birinchidan, o‘kituvchi o‘zi chizib ko‘rsatgan rasmlarida kerakli bo‘lgan rasm texnika o‘quv materiallaridan qanday foydalanish kerakligi haqida tushuntiradi.

Bu borada o'qituvchining sinf doskada bo'r /mel/ bilan chizgan rasmlari alohida o'rin egallaydi. Sinf doskasida rasm chizishni o'ziga xos xususiyati bo'lib buni tushuntirayotgan materialni tez va sodda qilib 2-3 minut sxematik ravishda chizib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Ayrim o'qituvchilar sinf doskasida chizayotgan rasmlarga 10-15 minut sarflashadi, shu bilan birga ular o'quvchilarni vaqtlarini oladilar.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning rasm daftarlarini chetiga chizib ko'rsatishi. Bunda biz o'quvchilarni ishga nazar tashlab ko'pchilikni fikrini chalg'itmasdan ayrim o'quvchilarni ishini ko'rib chiqamaz va tuzatish kiritamiz:

- Sim va boshqa narsalardan ishlangan karkasli modellar konstruktiv jihatdan ishlangan va bo'yalgan qog'ozli ko'rsatmalar;
- Yorug' va soya, perspektiva qoidalarini asoslab ishlangan maxsus ko'rgazmalar;
- Turli shakllarning qonunlashtirilgan sxematik tasvirlari;
- Metodik jihatdan ishlangan ketma-ketlik tartibi;
- Tasviriy san'at namoyondalarining rasm va reproduksiyalari;
- O'qituvchining ko'rsatmasi, qog'oz va sinf taxtasi kabilar.

Bularning hammasi o'quvchi, yoshlarga naturani ko'rish va uni chizish yo'llarini o'rganishga yaqimndan yordam beradi. Ya.A.Komenskiy – «ko'rgazmalilik prinsipi – didaktikaning oltin qoidasi», - deb bejiz aytmagan.

Chunki ko'rsatmali qurol o'z xolicha qolib ketmasligi uni so'z bilan isbotlashni taqozo etadi.

Tasviriy san'at predmetlaridan qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarni quyidagicha guruqlariga ajratish va ularning ta'lim-tarbiyadagi maqsadlariga to'xtalsak:

a) Naturaga qarab rasm ishlash darslarga bog'liq bo'lган ko'rgazmalar /yassi predmetlar, daftar, kitob, bayroqchalar/ hajmga ega bo'lган predmetlar, meva va sabzavot maxsuloti, geometrik jismlar, muktab va o'quv qurollari, uy va ro'zg'or buyumlari, odam, qush va hayvon turlari va boshqalar:

b) narsa predmetlarni konstruktiv qurilishlari jihatdan hamda perspektiv va rang qoidalari asosida ishlashgan ko‘rgazmali qurollar:

v) tablitsa va sxemalar. Perspektiva qoida va qonunlarini tushuntirish uchun ishlangan poezd yo‘li, katta ko‘chalar, metro ichi va boshqalarga qarab, metodik tomondan ishlangan chiziqli yoki rangli ko‘rgazmalar;

g) kartina reproduksiyalari.

O‘quvchi haykaltaroshlik; grafika, rangli tasvirlangan asarlarni yaratgan taniqli rassomlar haqida ma’lumotlardan foydalanish zarur.

d) pedagogning chizma rasmlari.

Sinf taxtasida o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan natura predmetlarni kompozitsiya perspektiva tomonidan sinf taxtasi yoki varaqda xomaki rasmlarni chizib ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari turli rangli qog‘ozlarga chizib ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar naturadan ko‘ra bilishlari, natura detallarini tahlil eta bilib, naturani obrazli qonun-qoidalari asosida ishlay bilishlari, bo‘yashda umumiyyadan detallashtirishga va yana umumiyyaga o‘tish kabilarni talabalar amalda qo‘llay bilishlari maqsaga muvofiq qilib qo‘yadi. Etapli ko‘rsatmalar qalam va akvarellardan ikki predmetdan tashkil topgan ketma-ketlilik, ko‘rsatma odatda 4 etapdan tashkil topishi mumkin 1 etapda natyurmortni kompozitsion tuzilishi, natyurmort predmetlarini ustki o‘ng va chap chetki qirralarini aniqlab qog‘oz sathiga umumiy joylashishi belgilanadi.

Zamonaviy hamda jaxon andozalariga mos mutaxassislar tayyorlab o‘qitish faoliyati. 2 etapda natura predmetlarini bir-birlariga bo‘lgan nisbatlari aniqlab olinadi.

3 etapda natura predmetlarini perspektivada qisqarishlari hamda ularni konstruktiv qurilishi, har bir predmetning xarakterlarini makonda ko‘rsatadi. 4 etapda ishning tamomlash jarayoni ko‘rsatilib so‘nggi etaplarda esa naturani ranglar bo‘yicha ishlanganligi va boshqalar ko‘rsatiladi.

Turli geometrik jismlar kopus, silindr hamda to‘g‘ri burchakli shakllardan tashkil topgan predmetlarda yorug‘-soyalarni belgilash bo‘yicha ishlangan holda

o‘qituvchining ko‘rgazmali qurollar katta ahamiyatga ega.

Odam, qush va hayvon kabi boshqa murakkab narsalarning konstruktiv qurilishlari bo‘yicha ishlangan tablitsalarni o‘quvchilarga ko‘rsatishi zarur hisoblanadi.

Turli-tuman ishlangan ko‘rgazmali quollarni oq vatman qog‘ozda bajarilishi planshetlarga qo‘yib uni o‘quvchilarga ko‘rsatishda yaxshi natijalarga erishilganligi o‘qituvchilarni ish tajribalardan ko‘rinib turibdi.

Tasviriy san’at ta’limini o‘qitishda dars samaradorligini yanada oshirish, omillaridan biri texnika vositalaridan foydalanishdir. Bular o‘z navbatida talabalarni bilim darajasi o‘sishida katta ahamiyatga egadir.

**Ta’lim onglilik va aktivlik prinsiplari.** Pedagogika fanida aktivlik va onglilik asosiy pedagogikaning prinsiplaridan hisoblanadi. Onglilik aktivlik va mustaqil ishlash hamisha o‘quv materialini yaxshi egallashga olib keladi. Bundan tashqari onglilik va aktivlilik o‘quvchilar olgan bilimlarni chuqurroq o‘rganishda zarur bo‘ladi, ishga qiziqish uyg‘otadi, ijodiy ishlashga chorlaydi.

Bu prinsip o‘qitishning shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o‘quvchilar bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash metodlarini ongli va aktiv egallab olishsin ijodiy tashabbuskorlik keng dunyo qarash tarkib topadigan bo‘lsin. Faqat shunday o‘qitish yosh avlodni ijodiy mehnatga layoqatli jamiyat qurilishiga aktiv ishtirok etuvchi shaxsni tayyorlash imkonini beradi.

O‘qitishdagi onglilik prinuipi o‘quvchilarning o‘quv ishlarini konkret maqsadlarini aniq tushunishi, o‘rganilayotgan hodisa jarayonlarni va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushungan holda o‘zlashtirib olishini, olingen bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay bilishini taqazo etadi.

O‘qitishdagi onglilik o‘quvchilarning o‘qishga mas’uliyatini sezgan holda munosabatda bo‘lishini, o‘quvchining topshiriqlarini o‘z vaqtida aniq, mustaqil va ijodiy ravishda bajarishga harakat qilishga ham yo‘llaydi.

O‘quvchilarning aktivligi ularni nazariy materialni egallab olishida va tasviriy san’at xonalarida hamda tabiatni kuzatish natijasida bajargan vazifalarida

namoyon bo‘ladi. Aktivlik o‘quvchilarning o‘quv va mexnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog‘langan.

Onglili va aktivlik prinsipini amalga oshirishda o‘quvchilar o‘rganishga kirishgan fan yoki uning bilimining maqsadi hamda vazifalarini ularga ochib berishdan, kasbiy tayyorgarlik uchun uning amaliy ahamiyatini ko‘rsatishdan boshlanadi.

Ta’limning samaradorligi o‘qituvchining o‘z amaliy ishida bolalarni tasviriy san’at darslarida izchil va muntazam qiziqtirib borish usullariga juda ham bog‘liqdir.

Bilimga qaratilgan jarayonlar yetarli darajada aktivlashgan va ruhiy holat aktiv bo‘lgan vaqtdagina o‘quv materialini o‘zlashtirish mumkin. Ruhiy voqelikning oynaviy aks, emas, balki aktni ifodasidir. Ruhning faol in’ikosi tashqi omillar ta’sirida paydo bo‘ladi, o‘z mohiyatiga ko‘ra u o‘quvchi ichki holatining, o‘quvchidagi bilish kuchlari va shaxsiy hislatlarning ifodasidir.

O‘qituvchining vazifasi o‘quvchining bilim olishiga bo‘lgan intilishidan foydalanish, unda bilishga qiziqishi shakllantirish va mustahkamlashdir.

O‘qituvchining vazifasi boshlang‘i sinf o‘qituvchilarining bilim olishidagi umumiyligi aktivligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni tasviriy san’atga ijodiy munosabatda bo‘lishiga mustaqillikka va ishchanlikka odatlantirishdir. O‘qituvchi bolalarning aktivligini oshirish uchun kerakli savollar berishi zarur. Shu bilan birga, bolalarni sistemali mustaqil ishslashga o‘rgatish kerak. Uyga beriladigan vazifa hamda darsdagi topshiriq xarakter jihatdan har xil bo‘lishi mumkin, naturadan faqat qalam bilan chizish, yoki bo‘lmasa akvarel guash bo‘yoqlari bilan yorug‘lik va soyalar yordamida chizib, o‘quvchilar to‘g‘ri bo‘yash yoki shtrixovka bilan ifodalashga harakat qiladilar, har biri mustaqil va aql bilan ishlaydi.

O‘quvchining vazifasi – o‘quvchining fikr yuritishi va rivojlantirishini qo‘llab-quvvatlab kuzatib borishdir.

O‘quvchi faqat og‘zaki tushuntirib, ko‘rsatibgina qolmay o‘quvchilar bilan bir-birini tushunishga, qiziqtirishga intilishi kerak. Shu ikki momentning qo‘silishi murakkab jarayon hosil qiladi, bu esa o‘qituvchidan katta tajriba talab qiladi.

Ta’limda onglilik prinsipi, dastavval, aqliy fikr qilish faoliyatidagi aktivlikka bog‘liqdir. Tafakkur qilish borasidagi esa bayon qilinayotgshan o‘quv materiallari yoki tevarak atrofni o‘rab olgan borliqdagi narsa, hodisa, voqealar ustida fikr qilishdir. Aktiv fikrlashda, ya’ni taqqoslash analiz va sintez qilish faoliyatini aktivlashtirishga qaratilgan bo‘lmog‘i zarur.

O‘qituvchi tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni darsda mavzusiga faollashtirish uchun dars mavzusining mazmuni, hayotdagi ahamiyati va uni chizish qoidalarini tushuntirish zarur. Ba’zida o‘kituvchilar o‘quvchilarni faollashtirish uchun ularga dars mavzusi yuzasidan savollar berib, unga berilgan javoblarni to‘ldirish kabi vositalaridan ham foydalandilar.

O‘quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtarda mustaqil ravishda bajarayotgan ishlari vositasida bilimga, malaka ijodiy ko‘nikmaga ega bo‘ladilar, o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning mustaqil ishlariga yordam berishi, rag‘barlantirish metodi asosida yutuq va kamchiliklarini o‘z vaqtida ko‘rsatish, ularni o‘z kuchlariga ishonchini mustahkamlash kabi vazifa yuklanadi.

Tasviriy san’atdan suhbat darslarida o‘quvchilar kinofilmarda tasviriy san’at namoyondalarining hayoti va uldarning yaratgan asarlari bilan batafsil tanishadilar.

Bunda narsa predmetlari konstruktiv jihatdan ko‘rilishi, perspektiva rangshunoslik kabilarga oid ko‘rgazmali qurollar bilan bir qatorda ko‘rsatilishi mumkin.

Darsda texnika vositalaridan foydalanish o‘quvchilarni dars mavzusi va texnika vositalariga bo‘lgan malakalarini oshirish.

O‘quvchilarga puxta bilim berishda ularning o‘z ish joylarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda o‘qituvchi yil davomida o‘quvchi, yoshlarni

sistematishda ularni darsga tayyorgarliklarini kuzatib boradi.

Talabalarning darsga tayyorgarliklarini doim kuzatib boradi. Talabalar o‘quv qurollarini doim darsga olib kelishlari uqtirildi.

**Faollik, mustaqillik prinsipi.** O‘qitish faoliyatida faollik va mustaqillik muhim o‘rinlardan hisoblanadi. Tasviriy san’at ta’limda bu qonun hisoblanadi.

Tushunish borasining o‘zi ham «onglilik», «faollik», «mustaqillik» kabilardan tashkil topadi. Bular bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib onglilik o‘z vaqtida o‘quvchi, yoshlardan faollikni talab qiladi, shunga ko‘ra ko‘pchilik mutaxassislar amaliy mashg‘ulotlarda faollik va mustaqillik muxim deb hisoblaydilar. Tasviriy san’at darslarida talabalarni dars mavzusi va uning ahamiyati, chizish yo‘llari, perspektiv qoidalari bilan tanishtirib, tushuntirib borish kerak bo‘ladi.

O‘quvchi, yoshlar mustaqil ishlarda albatta bilim malakalariga ega bo‘lishlari, mustaqil ishlarda ularga alohida-alohida yordam berib va turli ishlarda bilim, yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatib talabalarni o‘z kuchlariga qarab bilimli qilish va olgan bilimlarini amalda qo‘llash kabilarga chorlab borish kerak va zurardir.

**Ta’limning sistematik va ketma-ketlik prinsipi.** Pedagogika fani har bir narsani yangiligi bilan isbotlangan. Har bir fandagi izlanishning bilimga asoslanganligi, har bir narsaning doim oddiydan murakkabga o‘tish holatini kuzatilib kelinadi. Shuning uchun o‘tilgan dars mavzularini yangi dars mavzulariga bog‘lab ketma-ketlikka kengaytirib uni chuqur loyihalab borish kerak.

Sistematik va ketma-ketlik prinsiplarini tuzilishi ham yangi material aniqligi bilan birga to‘ldirib borilishini taqozo etadi.

Tasviriy san’atda ta’limning sistematik prinsipi juda muxim rol o‘ynaydi. Bu asosan qoidaga asoslanib hozirgi dars mavzusini o‘tilgandan so‘ng keyingi dars mavzusiga bog‘lanadi. Chunki, yangi mavzu o‘tilgan dars mavzusiga nisbatan murakkablashib boradi. O‘qituvchi shunday qilishi kerakki, natura darslarini

o‘quvchilarga qiziqarli bo‘lishi uchun naturadagi narsalarni oddiydan asta-sekinlik bilan murakkablashtirib borishi lozim.

Tasviriylar san’at ta’limida voqealari yoki hodisalar bilan o‘quvchi, yoshlarni qiziqtirmasdan balki mashg‘ulotlarni sistematik olib borilishi bilan qiziqtirish lozim.

Tasviriylar san’atni dars turlariga bo‘lib o‘qitiladi:

Qalamtasvir.

Rangtasvir.

Kompozitsiya.

Amaliy san’at.

Haykaltaroshlik.

San’at tarixi.

Qurish-yasash.

Bu fanlarning bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lib mashg‘ulotlar davomida bir-birlarini doim to‘ldirib boradi. O‘quvchilar esa olgan bilimlarni kengaytirib boradi.

**Tasviriylar san’at asoslarini o‘qitishda o‘quvchilarga individual yondoshish.**

Maktab har bir individual xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan turli yoshdagi bolalar ta’lim oladi. O‘quvchilar orasida ko‘rib turgan narsalarni to‘g‘ri tasvirlay oladigan xotira assoida qiynalmay rasm chizadiganlar bilan bir qatorda, oddiy rasmga qarab nusxa ko‘chirishga ham qiynaladiganlar uchraydi. Bu borada biz ba’zi o‘quvchilarining ko‘rish qobiliyatlarining sustligi, rang sezmasligi kabi boshqa xollar hisobga olinadi.

O‘quvchilarning psixik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish, har bir o‘quvchining imkoniyatiga moslashish degan so‘z emas. Aksincha turli usul va metodlar yordamida bilimlarini har bir o‘quvchiga yetkazish demakdir.

O‘quvchilarning qobiliyat va xususiyatlariga qarab guruhlarga bo‘lib ta’lim berish metodi maqsadlidir.

Yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilarga o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilarni biriktirib quyish ham yaxshi natijalar beradi. O‘quvchilarning tasviriy faoliyatini aktivlashtirishda, ayrim o‘quvchilar bilan yakka tartibda munosabatda bo‘lish va unga pedagogik ta’sir o‘tkazish ham katta ahamiyatga ega.

Ta’limning individuallashtirish masalasi hozirgi davrda pedagog va ruhshunos olimlar va uslubchilarni qiziqtirmoqda.

Sinfdagи bolalar haqidagi dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lgandan keyin, o‘qituvchi hamma bolalarni qobiliyati va malakalariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘ladilar:

- tasviriy faoliyat yaxshi rivojlangan, kuzatuvchanligi, ijodiy tasavvuri taraqqiy qilgan, rasm materiallarini o‘zlashtirgan yoki tez o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar;
- o‘quv materiallarini umumiylashtirishdan keyin mustaqil ishslash orqali o‘zlashtiradigan o‘quvchilar.

Tasavvur qilish qobiliyati, so‘z va dars materialini sust o‘zlashtiradigan, o‘qituvchining maxsus yordamida muhtoj o‘quvchilar har uchchala guruhdagi o‘quvchilarga tavsiya qilinadigan topshiriqlar oldindan tayyorlanib, o‘qituvchining frontal tushuntirishdan keyin hamma o‘quvchilar o‘z qobiliyatlariga yarasha ish bilan band bo‘lishi kerak.

O‘quvchilar aktivligini oshirishda o‘qituvchi suhbati katta ahamiyatga ega. Suhbat har bir o‘quvchining aktivligini ma’lum darajada o‘stiradi. Natijada darsga aktiv qatnashadilar va har bir savolga javob berishga intiladilar. Turli kartochka-savollar tarqatish o‘quvchilarning ijodiy xayolini rivojlanishi uchun turktki bo‘lib xizmat qiladi, mazmunli rasm chizishda muvaffaqiyatga erishishlariga quyidagi usullar yordam berishi mumkin.

1. Kartochka-savollar taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:
2. Sen mavzuni yoritish uchun qanday mazmunda rasm chizmoqchisan?
3. Tasviringda asosiy o‘rinni nima egallaydi?
4. Ayrim narsalarni rasmini to‘g‘ri chizdingmi? Tekshirib ko‘r.

5. Birinchi rejadagi narsalarni va figuralarni orqa rejadagilar bilan taqqoslash va boshqalar.

To‘g‘ri tuzilgan kartochka savollar o‘quvchilar bilimining mustahkamligini oshiradi, ularning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

O‘quvchilar bilan individual ishslashda rag‘batlantirish usullarining roli ham katta. O‘qituvchi o‘quvchilarning vazifalarini tekshirayotgan faqat I-II guruh o‘quvchilarning yutuqlarini namuna sifatida ko‘rsatavermay, III guruh o‘quvchilarini xatiga e’tibor berishi kerak. Ulardagi ozgina bo‘lsada o‘sish va o‘zgarishni hisobga olgan holda, ularni rag‘batlantirib turish shart. Masalan: bolalar qarang Karim chizgan suratga. Oldingi ishlaridan ancha tuzuk. Karim harakat qilsa, a’lochi o‘rtoqlariga tez kunda yetib olishi mumkin ekan. Bugun men unga “4” bal qo‘yaman. Agar bundan ham yaxshiroq chizib qolsa, u ham o‘rtoqlariga o‘xshab “5” baho oladi. O‘qituvchining bu so‘zlari Karimni albatta “5” baho olishga undaydi. O‘quvchilarning aktivligini oshiradi.

O‘quvchilar bilan individual ishslashning ahamiyati katta. Bu usul yordamida qoloqlarsiz o‘qitish darajasiga yetish mumkin. Tasviriy san’at o‘qitish xonalari yorug‘ bo‘lishi kerak. Yorug‘lik normal bo‘lmagan joyda ko‘rish sezgilariga zo‘r berish zararlidir.

Ba’zi bir xil o‘quvchilarda yaxshi eshitmaslik, uzoqdagini ko‘ra olmaslik kabi kasalliklar uchraydi. Odatda bu xil o‘quvchilar o‘qituvchining e’tiborda bo‘lishi va oldingi partalarda o‘tirgani ma’qulroqdir.

Ko‘z har xil uzunlikdagi yorug‘lik to‘lqinlarini bir xilda sezmaydi. Ko‘z sariq va havo rangni sezishga moyilroq bo‘ladi. Ba’zan xromatik ranglarni mutloqa sezmaslik hollari ham uchrab turadi.

Bunday kishining ko‘ziga barcha buyumlar qoramtil ranga bo‘yalgandek ko‘rinadi. Ko‘pincha ayrim ranglarni qizil va yashil rangni sezmaslik holati uchrashi mumkin, bu daltonizm deyiladi.

Daltonizm ko‘rinishidagi eng muhim kamchilik hisoblanadi. Bunday o‘quvchilarning kasb tanlashda o‘qituvchi alohida e’tibor bermog‘i zarur, chunki

daltonizmga uchragan, shofyor, mashinist va uchuvchilik qila olmaydi, rassom bo‘la olmaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

Ilmiylik prinsipini qanday tushunasiz?

Tasviriy san’atda ko‘rgazmalilik prinsipi nima?

### **Boshlang‘ich 1-4 sinflarda va 5-7 sinflarda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi.**

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’atni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta’lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma’lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma’lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o‘qish va yozishdan ko‘ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo‘ladi, 1-2 minut, ko‘pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo‘yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo‘lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko‘rinishni, voqeani yoki buyumni o‘z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo‘yoqlar bilan ishslash ularga ma’lum

qiyingchiliklar tug‘dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko‘rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo‘yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o‘z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o‘qituvchining bolalarga tez yordam ko‘rsatishi va kayfiyatini ko‘tarishga harakat qilishi foydadan holi bo‘lmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo‘lgan xarakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko‘rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, qayvonlar, qushlar, baliqlar,

bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo‘ng‘iz v.b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug‘soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tuShunib yetmaganliklaridir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo‘lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to‘sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. CHunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu hususiyatlari bolalar tafakko‘rining konkret, obrazli va emotsional tarzda bo‘lishligi bilan bog‘lanadi.

Endi boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at darslarini o‘tkazish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak avvalo uning quyidagi to‘rt turi qayd qilinishi lozim:

1. Borliqni idrok etish. 2. Badiiy qurish-yasash. 3. Naturaga qarab tasvirlash (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab haykal ishlash). 4. Kompozitsion faoliyat.

Borliqni idrok etish mashg‘ulotlari 1-4-sinf dasturida aks etgan bo‘lib, uning maqsadi bolalarni o‘rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari, o‘lchov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya’ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo‘lganliklari taqdirdagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar. Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o‘rganishi kerak bo‘lgan quyidagi yo‘llar qo‘llaniladi:

1. Buyumni, tabiatni o‘ziga qarab kuzatish orqali o‘rganish.
2. Borliq haqida o‘qituvchining suhbati orqali o‘rganish.
3. Savol-javob orqali o‘rganish.
4. Borliqni rasmini chizish orqali o‘rganish.
5. O‘qituvchining pedagogik rasmi orqali o‘rganish v.b.

O‘qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg‘ulot mavzusi bilan bog‘liq holda bo‘lib, ular o‘z tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg‘otadigan bo‘lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo‘lishligi muhim.

Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma’lumotlarni bolalarga og‘zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

5-7 sinflarda naturaga qarab tasvirlash metodikasi. 5-7 sinflarda rangtasvir kompozitsiyasi mashg‘ulotlari metodikasi. 5-7 sinflarda dekorativ kompozitsiya mashg‘ulotlari metodikasi. 5-7 sinflarda haykaltaroshlik kompozitsiyasi mashg‘ulotlari metodikasi. 5-7 sinflarda San’atshunoslik asoslari.

San’atshunoslik asoslari bo‘limi o‘quv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5-7 sinflarda mustaqil bo‘lim sifatida o‘zining o‘quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy-bezak, me’morchilik san’atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bo‘limning maqsadi o‘quvchilar tomonidan san’at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushunishga yordam berishdan iboratdir.

San’atshunoslik asoslari bo‘limi o‘quvchi shaxsining estetik rivojiga ko‘maklashib, uni jahon madaniyatining buyo‘q durdonalari va san’at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go‘zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san’atni sevishga o‘rgatadi.

O‘quvchilar bilan San’atshunoslik asoslari bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyo‘q an’analari va san’atning halq uchun xizmat qilishi, san’atdagi turli oqimlar va yo‘nalishlar to‘g‘risida tushunchalar hosil qilinadi.

Tasviriy va amaliy san’at asarlarini idrok etishga oid o‘quv materiallari o‘quvchilarning amaliy ishlari bilan bog‘langandir. San’at asarlarining no’shalarini

balalarga ko'rsatish va ularning tahlili o'quvchilarda san'atga qiziqish uyg'otadi va ularni shu sohaga yo'llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan g'oya, asosiy fikr va qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Dekorativ-amaliy san'atga doir San'atshunoslik asoslari darslarida amaliy-bezak san'ati, halq amaliy-bezak san'ati, o'zbek halq amaliy-bezak san'ati, liboslar, o'zbek va chet el halqlarining milliy liboslari haqida bilimlar berish, halq ustalari ishlatajigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdagi halq amaliy san'ati muzeyi va Respublikamizdagi halq amaliy san'ati rivoj topgan markazlar, o'zbek halq amaliy san'atining mashhur nomoyondalari hisoblangan Usta Shirin Muradov, Ota Polvonov, hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Me'morchilik san'ati borasida esa me'morchilik san'ati va uni atrof-muhit bilan bog'liqligi, me'morchilikda go'zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me'morchilik, ularing turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik yechimining o'zaro bog'liqligi, fasad va inter'erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me'morchilikda qo'llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlataladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston xududidagi eng qadimgi me'morchilik obidalari, O'zbekiston IX-XIX asr me'morchiligi, Sharq va G'arb mamlakatlarida Uyg'onish davri me'morchiligi, O'zbekiston va jahonning hozirgi zamon ilg'or me'morchiligi yuzasidan mashg'ulotlar olib boriladi.

Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga San'atshunoslik asoslaridan quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1.Tasviriy san'at-san'atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbekiston xududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrasiob, Varaxsha, Tuproq qal'a v.b. joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir,grafika, haykaltaroshlik) va janrlari

(manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatURA rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik; Relef (barelef, gorelef); yumaloq haykallar.

3. Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta-jurnal grafikasi; targ‘ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4. Movaraunnahr miniatURA maktabi; Sharq miniatURA maktablari. Yevropada Uyg‘onish davri tasviriy san’ati; O‘zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san’ati; Jahonning hozirgi zamon ilg‘or tasviriy san’ati; jahon tasviriy san’atidagi asosiy oqimlar; dunyoning eng yirik tasviriy san’at mo‘zeylari; O‘zbekistonning eng yirik tasviriy san’at muzeyi. Jahonga mashhur eng buyo‘q rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinci, O‘rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlari narsalarining tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, og‘ma, egri, to‘lqinsimon chiziqlarni chizish, bo‘yoqlar bilan tegishli yo‘zani bir meyorda bo‘yash, och tusdan to‘q tusga va aksincha to‘qdan ochga o‘tish, o‘quvchilar to‘g‘ri va egri chiziqlarni teng bo‘laklarga bo‘lish malakalarni o‘zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog‘oz formatini to‘g‘ri tanlashni hamda rasmni qog‘ozda kompozitsion jihatdan to‘g‘ri joylashtirishni o‘rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishslashni o‘zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlarida o‘quvchilar mo‘yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo‘yoqlari bilan ishslash yo‘llarini o‘rganadilar, imkoni bor joylarda ko‘mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

## **Tasviriy san'at fanidan topshiriqlar. Ularni nazorat qilish va baholash.**

O‘quvchilarning tasviriy san’atdan faoliyatları o‘qituvchining ularga beradigan topshiriqlari yuzasidan dars va darsdan tashqari vaqtarda amalgalashadi. Bu topshiriqlarni sinf va uy ishlari shaklida ifodalasa ham bo‘ladi. O‘quvchilarning sinfda bajaradigan ishlari mazkur darslikning “Maktabda tasviriy san’at mashg‘ulotlari mazmuni” qismida bayon etilgan. Sinfda bolalarga beriladigan topshiriqlar mazmuni, asosan yangi bilim va malakalar berish maqsadida amalgalashadi. Dars jarayonida topshiriqlarning quyidagi ikki shakli ko‘p qo‘llaniladi:

1. Sinfda bajariladigan topshiriqlar.
2. Uyda bajariladigan topshiriqlar.

Sinfda bajariladigan topshiriqlarning quyidagi turlari mavjud.

San’atshunoslik asoslari mashg‘ulotlarida:

-tasviriy, amaliy, me’morchilik san’atlarining nazariy asoslari, tarixi, san’atkorlarning hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o‘tkazish;

-o‘quvchilarning o‘zлari ishlagan rasmlari yuzasidan insholar yozdirish;

-San’atshunosliklikka oid krossvord, chaynvord yechish, viktorina o‘yinlarini o‘ynash;

-o‘rganish maqsadida mahalliy san’at yodgorliklariga, ko‘rgazma va muzeylarga borish.

Kompozitsiya mashg‘ulotlarida.

- O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan yoki erkin mavzularda mustaqil ravishda kompozitsiyalar ishlash;

-Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmagan topshiriqnı davom etdirish.

-Kompozitsiya mashg‘ulotlari bilan bog‘liq eskiz, ranglama va qoralamalar ishslash.

Naturaga qarab rasm ishslash mashg‘ulotlarida.

-Naturaga qarab rasm ishslash bo'yicha O'qituvchi tomonidan sinfda o'rnatilgan naturaning rasmini ishslash;

-Avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish.

Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida:

-O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzuda tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallardan badiiy qurish ishlarini bajarish;

-avvalgi darsda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom ettirish;

-qurish-yasash ishlari uchun material to'plash;

-qurish-yasash ishlari uchun tayyorgarlik bosqichini bajaruvchi rasm ishslash.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlarida:

-Yil fasllarida tabiatdagi o'zgarishlarni, ulardagi go'zallikni, turli fasllardagi kishilarning mehnat jarayonlarini kuzatish, tabiat manzaralarining go'zalligi, qush va hayvonlarning hayotini ko'rsatuvchi filmlarni tomosha qilish va o'rganish;

-mavzu bilan bog'liq bo'lgan gullar, daraxtlar, qush, hayvonlar rasmlarini ishslash.

Uyda bajariladigan topshiriqlarning quyidagi turlari xarakterlidir:

-San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari bo'yicha.

-San'at asarlarining reproduksiyalari, otkritkalari, fotolari, rasmlarini to'plash.

-San'at va san'atkorlar haqida kitoblar, hikoyalar, maqolalar o'qish.

-San'at asarlari, san'atkorlar haqida insholar yozish.

-San'at va san'atkorlar haqida viktorina, chaynvord, krossvordlar yechish, to'qish, topishmoqlarni topish.

-San'atkorlar bilan suhbatlashish.

-Muzey, ko'rgazma va san'at yodgorliklariga borish.

-Mavzuga doir san'at va san'atkorlar haqida ota-onalar, tanish-bilishlar bilan suhbatlar qilish.

Kompozitsiya ishslash mashg'ulotlari bo'yicha.

-Sinfda ishlangan chala kompozitsiyani davom ettirish.

-Sinfda ishlangan mavzu bo‘yicha yangi kompozitsiya ishlash.

-Ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan materiallar to‘plash.

-Kompozitsiya mavzusi yuzasidan borliqni, hayotdagi voqealarni kuzatish.

-Kompozitsiya mavzusiga aloqador qoralama va ranglamalar ishlash

-Erkin mavzuda kompozitsiya ishlash

-Kompozitsiya mavzusiga doir (sirk, televiziyalar, musobaqalar, bayramlar, o‘yinlar, spektakllar, kinofilmlarda ko‘rganlarni eslab kelish.

-Sinfda va uyda bajarilgan ishlarni ko‘rgazmaga qo‘yish uchun tayyorlash.

-Kelgusi darsda ishlanadigan kompozitsiya mavzusi yuzasidan tayyorgarlik ko‘rish.

-Dars uchun o‘quv qurollarini tayyorlab kelish.

-Naturaga qarab rasm ishlash mashg‘ulotlari bo‘yicha.

-Naturaga qarab qoralama, ranglama natyurmort va boshqa rasmlar ishlash.

-Turli materiallar (sangina, sous, pastel, ugol, retush v.b.) bilan mashqlar bajarish.

-Sinfda ishlangan mavzu bo‘yicha uyda naturaga qarab rasmlar ishlash, dars uchun o‘quv qurollarini tayyorlash.

Badiiy qurish-yasash mashg‘ulotlari bo‘yicha.

-Mavzuga doir tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarni to‘plash.

-Sinfda boshlangan va yakunlanmay qolgan ishni davom etdirish.

-Sinfda bajarilgan mavzuda yangicha kompozitsiya ishlash.

Borliqni idrok etish mashg‘ulotlari bo‘yicha.

-Yil fasllari davomida tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatish.

-Yil fasllari haqida she’rlar yodlash.

-Bahor, ko‘z faslidagi mehnatkashlarning mehnat jarayonlarini kuzatish.

-Yil fasllari va mehnat jarayonlari haqida, ularning go‘zalligi haqida insholar yozish.

Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish hisoblanadi va u davlat ta'lif standartlari asosida amalga oshiriladi. U o'z o'rnida birinchidan, o'qituvchi faoliyatiga baho berish, ikkinchidan bolalar tomonidan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, u bolalarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning faoliyatlaridagi yutuq, kamchilik va nuqsonlarni aniqlashga yordam beradi. Oqibatda bolalarni o'z tasviriy faoliyatlariga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi.

Pedagogika fanida har bir o'quvchining har qanday faoliyatini nazorat qilish, o'z vaqtida baholab turilishi lozimligi qayd qilingan. Ayniqsa, o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi qo'llab-quvvatlanishi, past o'zlashtiruvchi bolalarni kamchiliklarini ko'rsatish va ularni tuShuntirish samaralidir. Lekin past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga past baholar qo'yish va ularni kamsitish tavsiya etilmaydi. Ko'pchilik hollarda, masalaga bunday yondoshish o'quvchilarni tasviriy va ijodiy faoliyatga qiziqishlarini so'ndiradi. Ayrim hollarda ular tasviyy faoliyatdan butunlay sovib ketishlari mumkin.

Tasviriy san'atdan o'quvchilar faoliyatini o'z vaqtida va muntazam nazorat qilib turish va baholash nihoyatda muhimdir. Chunki o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bolalar ancha vaqt va kuch sarflab bajaradilar, ularni talablar darajasiga yetkazishga harakat qiladilar. Ularni o'qituvchilarga yoqishni, yuqori baholar olishni hohlaydilar, topshiriq yuzasidan ko'p bilimlarga ega ekanliklarini ko'rsatmoqchi va maqtanmoqchi bo'ladilar. Bu kunni ular orziqib kutadilar. O'qituvchi esa topshiriq berib uni nazorat qilmasa bolalarning topshiriqlarni bajarishga bo'lgan ixloslari asta-sekin susayadi. Bora-bora ular topshiriqlarni butunlay bajarmay qo'yadilar. Shunday ekan, o'qituvchi faqat topshiriqni o'z vaqtida tekshirishi va uni sinf jurnalida qayd qilib turishi lozim. Topshiriqlarni nazorat qilishning bir qator shakllari mavjud. Ular joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazorat deb yuritiladi.

Joriy nazorat muntazam ravishda xox u nazariy, xox amaliy bo‘lsin, har bir darsda amalga oshiriladi. Uni yangi materiallarni bayon etish jarayonida, Shuningdek, dars oxirida o‘tkaziladi. Yangi materialni bayon etish jarayonida bolalarni darsdagi faolligi va topshiriqni bajarishdagi sa’i-harakati uchun baholar qo‘yiladi. Nazoratning ikkinchi turida o‘quvchining topshiriqni qanday darajada bajarganligi tekshiriladi va baholanadi. Bunda bolalarning darsdagi faolligi ham hisobga olinishi mumkin.

Amaliy ishlarni baholash bevosita bolalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlari (rasm, haykal, qurish-yasash) asosida nazariy bilimlarni baholash esa savol-javob, suhbat tarzida amalga oshiriladi.

Joriy nazorat darsning boshlang‘ich qismida, o‘tgan darsda unga berilgan topshiriqlarni tekshirish maqsadida ham o‘tkaziladi.

Bolalarning o‘zlashtirishini nazorat qilish va ob’ektiv baholash uchun joriy nazoratni tez-tez o‘tkazib turishi lozim. Nazorat Shunday tashkil etilishi lozimki, chorak davomida hech bo‘lmaganda har bir bolada 4-5ta baho bo‘lishi lozim. Shuni ham hisobga olish lozimki, tasviriy san’at darslari haftasiga bir marotaba va bir soatdan o‘tkazilishi bolalar faoliyatlarini to‘liq nazorat qilish uchun yetarli emas. Eng kichik chorak olti hafta hisoblansa, chorak oxirida har bir bolalar bittadan baho olishlari lozim. Aks holda, chorak oxirida har bir bolada oltitadan baho bo‘lmaydi. Natijada choraklik baholar ob’ektiv chiqmaydi.

Tasviriy san’atdan nazariy mashg‘ulotlarda hamma bolalarni bir darsda baholashning imkoniy yo‘qligini hisobga olsak, chorak davomida har bir bolada 4-5 tadan baho bo‘lishi lozim.

Amaliy ishlarni har bir darsda har bir bola faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniy bor. Ularni ma’lum qismini darsning boshlang‘ich qismida, bir qismini dars davomida, qolgan qismini, bolalar ishlarni yig‘ib olib O‘qituvchi darsdan so‘ng tekshirsa bo‘ladi.

Bolalarning darsdagi faolligini taqdirlash, qiziqishini oshirish maqsadida ular tomonidan bajarilgan ishlarnigina emas, topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan

munosabatlari, harakati uchun ham baholar qo‘yish mumkin. Shuningdek, har qanday baho qo‘yganda butun sinfni nima uchun Shunday baho qo‘yilganligidan xabardor etish lozimki, bolalar baho mezonlarini ongli ravishda tuShunib yetsinlar. Bolalarning topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan munosabatlariga qo‘yilgan baholar faqat ijobjiy emas, salbiy bo‘lishi ham mumkin. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, pasaytirilgan baholar asoslagan holda va bolalarni tushkunlikka tushirib yuboradigan bo‘lmasligi lozim. Bir topshiriqni baholashda bolaning avvalgi darslardagi o‘zlashtirishlarini ham hisobga olish lozim. Muntazam yaxshi o‘zlashtirib kelgan o‘quvchini avvalgi muvaffaqiyatlari va harakatlarini hisobga olib, bu galgi qoniqarsiz ishiga yomon baho qo‘ymasa ham bo‘ladi.

Oraliq nazorat dasturdagi u yoki bu bo‘limning tugashi va chorak davomida bajarilgan ishlarning yakunini nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi. Oraliq nazorat savol-javob, suhbat, test, insho, amaliy tasviriy ishlarni tahlil etish kabi yo‘llar bilan amalga oshiriladi.

Oraliq nazoratda faqat chorak davomida qo‘yilgan baholarni umumlashtirish bilan chegaralanib qolmasdan, chorak oxirida bolalarga qayta tekshiruv topshiriqlari ham beriladi. Bu topshiriqlar bolalar tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va ular tasviriy, Shuningdek yozma insho shaklida bo‘ladi. Bolalarni qayta tekshiruv topshiriqlari va chorak davomida olingen baho natijalari umumlashtirilib yagona oraliq nazorat baholari qo‘yiladi. Yagona oraliq nazorat baholarini qo‘yishda O‘qituvchi bolalarni tasviriy san’atdan darsdan tashqari ishlarini bajarishdagi xarakatlari, faolligi va yutuqlarini hisobga olishi lozim va u o‘quvchilarni bu sohadagi yangi ishlarga ilhomlantiradi, baholarni ob’ektivligini ta’minlaydi.

Yakuniy nazorat o‘quv yili davomida o‘quvchilarning tasviriy faoliyatlarini natijalarini aniqlash va umumlashtirish maqsadida o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratning bu turida baholar o‘quvchilarni choraklar, qayta tekshiruv natijalari, ularning sinfdan va muktabdan tashqari olib borgan ishlari, ularning bu fanga qiziqishlari, harakatlari asosida qo‘yiladi.

Ba'zan shunday bo'ladiki, bolaning o'zlashtirishi chorakma-chorak yaxshilanib boradi yoki aksincha yomonlashib boradi. Bunday holda o'quvchining so'nggi chorakdag'i baholari, qayta tekshiruvdan olgan baholari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ayrim hollarda tasviriy san'atdan baholarni biroz ko'tarib qo'yish hollari uchrab turadi. Buni inkor etish mumkin emas. Lekin, u asoslangan holda bo'lishi lozim. Bunga quyidagi hollarda rioya qilish muhim:

1. O'quvchining shu fanga qiziqishi katta, harakati kuchli.
2. Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi.
3. Sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etadi.
4. Tasviriy san'at to'garagiga qatnashadi.
5. Darsdan tashqari vaqtarda mustaqil ishlaydi (kitob o'qiydi, rasm ishlaydi, ko'rgazma va muzeylarga boradi, rassomlar bilan aloqalari bor.)

Pedagogik amaliyotda o'quvchilar faoliyatlarini baholash maqsadida nazoratning quyidagi turlari qo'llaniladi:

1. Og'zaki so'rov.
2. Mashq.
3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ish.
4. Yozma (matnli) mustaqil ish.
5. Test.
6. Uy vazifasi.

1. Og'zaki so'rov. Nazoratning bu turida o'quvchilarning tasviriy amaliy, me'morchilik san'atlaridan nazariy bilimlari (kompozitsiya, yorug'soya, rangShunoslik, perspektiva), maxsus atamalar, rassom va xaykaltaroshlarning ishlatadigan asosiy ish qurollari va materiallari, tasviriy san'atning tur va janrlari, mashhur rassomlar va ularning asarlari haqidagi tushunchalari hajmi aniqlanadi. Og'zaki so'rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u o'quvchilarni tez-tez nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, og'zaki so'rov o'quvchilarni tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantirishga ham yordam beradi. Nazoratning bu turida hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash va boshqa usullardan foydalanish samaralidir.

2. Mashqlar. Nazoratning bu turida o'quvchilarning qalam, mo'yqalam, stek va boshqa ish qurollari, badiiy materiallar bilan ishlash malakalari va

ko‘nikmalarining darajasi aniqlanadi. Bu ish ko‘proq naturaga qarab rasm ishslash va kompozitsiya mashg‘ulotlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Tasviriy-ijodiy mustaqil ishlar. Nazoratning bu turida o‘quvchilarni badiiy tafakkuri va qobiliyatları, rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu ish ko‘proq rangtasvir, dekorativ ishlar va haykaltaroshlikdan kompozitsiyalarni bajarishda qo‘llaniladi.

4. Yozma (matnli) mustaqil ish. Mustaqil ishning bu turida o‘quvchilar tomonidan olingan bilimlarni qanchalik o‘zlashtirilganligi aniqlanadi. U bevosita tasviriy san’atning San’atshunoslik asoslari kursi bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘quvchilar chaynvord, krossvordlar yechadilar, viktorina savollariga javob qaytaradilar, tasviriy san’atdan insho va referatlar yozadilar.

5. Test sinovlari. Nazoratning bu turida o‘quvchilar tomonidan tasviriy san’atning nazariy asoslari, maxsus atamalar, rassom, haykaltaroshlar va ularning asarlari, ish qurollari va ishlataidigan materiallari, bolalar tomonidan rang nomlarini o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish tasviriy san’at darslarining barcha turlari (naturadan rasm ishslash, kompozitsiya, San’atshunoslik asoslari) bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

6. Uy vazifasi. Uy vazifalari sinfda o‘tilgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy ishlarni bajarish, naturaga qarab ranglama va qoramalar ishslash, mashqlarni bajarish, sinfda tugallanmay qolgan ishni tugatish, tevarak-atrofdagi ko‘rinish va hodisalarни kuzatish, sinf ishiga doir adabiyotlar o‘qish, mo‘zey va ko‘rgazmalarga, san’at yodgorliklariga borish, kelgusi dars uchun materiallar to‘plash yoki tayyorgarlik ko‘rish, sinfda o‘tilgan mavzular bo‘yicha insho, referatlar yozish, krossvord, chaynvordlar yechish, viktorina savollariga javob qaytarish, san’atkorlar, ota-onalar bilan topshirilgan mavzuda suhbatlar qilish, san’at asarlarining reproduktsiyalari va foto nusxalarini, illyustratsiya va rasmlarni to‘plash yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi.

Uy vazifalari tasviriy san’at mashg‘ulotlarining barcha turlariga taaluqli bo‘lib, u nafaqat yangi materiallarni o‘zlashtirish, balki o‘tilganlarni

mustahkamlash, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, malakalar va ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga xizmat qiladi.

Nazoratning bu turlaridan barcha sinflarda bir xil foydalanib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlik xususiyatlari, bilim va malakalari saviyasingin pastligini hisobga olib, 1-2 sinflarda test sinovlari, 1-5 sinflarda yozma mustaqil ishlar (insho, referat, krossvord, chaynvord, viktorina) o'tkazish tavsiya etilmaydi.

### **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi fanidan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi.**

Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar umumiy o'rta ta'lif tizimida muhim o'rinni egallaydi. Ular tasviriy va amaliy san'at, me'morchilik kabi san'at turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bular sinfdan tashqari ishlar, to'garaklardagi mashg'ulotlar, uchraShuv, ko'rgazma, tanlov, san'at kechalari kabi qator yo'nalishlarda o'tkaziladi va ular o'quvchilarni badiiy-ijodiy ehtiyojlarini qondirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi individuallik va inte'dodni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan birga u yoshlarning badiiy va estetik fikr doirasini kengaytiradi hamda didini rivojlantiradi.

Tasviriy, amaliy san'at va me'morchilikdan tashkil etiladigan to'garaklar umumiy o'rta ta'lif maktablarining barcha sinflarini qamrab oladi. Ular kichik (1-4 chinflar), o'rta (5-7 sinflar), katta (8-9 sinflar) guruhlardan tashkil topadi va ular rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, badiiy sopoldo'zlik, Shuningdek, me'morchilik, San'atshunoslik to'garaklari hisoblanadi.

To'garaklar san'atning u yoki bu turi yoki janri asosida ham tashkil etilishi mumkin. Bu to'garaklarning turlari ularga ajratilgan soatlar hajmi va ta'lif mazmuni bolalarning istaklari, mayllari va mifik imkoniyatlari, bolalarning yoshlik xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Mifik to'garaklarining maqsad va vazifalari asosan bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanar ekan, ularni qat'iy reja asosida

muntazam olib borilishi talab etiladi.

To‘garaklar har bir matabda san’atning turlari, guruhlar bo‘yicha bitta yoki bir nechta bo‘lishi mumkin. Umumiyo‘rtta ta’lim maktabalarida to‘garak rahbarining asosiy e’tibori quyidagilarga qaratiladi:

-tasviriy yoki amaliy san’at to‘garaklariga qiziqishi va qobiliyati bor o‘quvchilar qabul qilinadi hamda har bir guruhda ularning soni 10-15 tadan oshmasligi lozim. Aks holda ular bilan olib boriladigan ishlarning sifati pasayib ketadi.

-to‘garakda bolalarning qiziqishi, idroki, tasviriy malakalari, ijodiy qobiliyatları o‘rganilib va ma’lum vaqt mobaynida sinovdan o‘tkazilib, qabul qilinadi.

To‘garaklarda tasviriy va amaliy san’at ta’limi mazmuni alohida e’tiborga loyiq. Ta’lim mazmunining to‘g‘ri belgilanishi to‘garak ishini muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shuning uchun rahbar mavjud dasturlarni o‘rganib chiqishi va Shu asosda o‘zining mahalliy sharoitlari, bolalarning tayyorgarligi va imkoniyatlari, moddiy-texnikaviy asosning mavjudligiga qarab ta’lim mazmuniga oid o‘z rejasini ishlab chiqadi.

To‘garaklar tasviriy va amaliy san’atning qaysi turi yoki janri yuzasidan bo‘lishligidan qat’iy nazar, u amaliy va nazariy qismlardan tashkil topadi.

Tasviriy san’atdan amaliy ishlar bevosita, naturaga qarab rasm ishslash, kompozitsiya, suvrat namunalarini ko‘chirish kabi yo‘nalishlarda amalgalash oshiriladi.

Amaliy san’atga doir (naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, badiiy sopoldo‘zlik, misgarlik, kashtachilik v.b.) to‘garaklarda bolalar naqsh namunalaridan ko‘chirish, mustaqil ijodiy kompozitsiyalar ishslashdan tashqari tasviriy san’at to‘garaklaridagi kabi naturaga qarab rasm ishslash bilan ham Shug‘ullanadilar. Bunday darslarda O‘qituvchi tasvirlashning nazariy asoslari hisoblangan yorug‘soya, perspektiva, rangShunoslik qonunlariga ham alohida

e'tibor beradi.Bu qonun va hoidalarga doir maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi ham mumkin.

Rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika to'garaklari mashg'ulotlarida kompozitsiyalar ishlashga katta o'rinn beriladi.Bolalar tasviriy san'atni barcha janrlari(manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, animal, portret, afsonaviy, marina) bo'yicha mustaqil kompozitsiya ishlash, tayyor san'at asarlari namunalaridan ko'chirish bilan Shug'ullanadilar. Ular adabiy asarlarga illyustratsiyalar ishlash, badiiy bezak ishlariga doir topshiriqlarni ham bajaradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida to'garak a'zolarining yoshlari yoki guruhlarga qarab tabiat mahsulotlari (barglar, gullar, meva va sabzavotlar), uy-ro'zg'or, mehnat buyumlari, texnika, sport, san'atga doir predmetlar, me'morchilik obidalari, turgan yoki harakatdagi odam, qush, hayvonlar rasmlari chizdiriladi.

Bunday mashg'ulotlarda, gipsli geometrik shakllar, rezetkalar, odam va hayvonlarning gipsli shakllari, meva va sabzavotlarning mulyajlari, qush va kichik o'lchovdagi hayvonlarning tulumlarini o'quv mashg'ulotlarida chizdirish qo'yilgan maqsadga erishishni yengillashtiradi. Yuqorida qayd qilingan buyum va narsalar topshiriqning vazifasiga qarab aloqida yoki to'p holda, harakatda yoki harakatsiz holatlarda chizdirilishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar mavzuga oid rassomlar asarlarining reproduksiyalarini namoyish etish va tahlil qilish bilan qo'shib olib boriladi. Shuningdek, bu mashg'ulotlarni o'zoq, qisqa muddatda, darsda, mustaqil tarzda amalga oshiriladi.

Beriladigan topshiriqlar mavzu va mazmun jihatda bolalarning yoshi, qiziqishi, tasviriy imkoniyatlariga yarasha bo'ladi.

Kompozitsiya mashg'ulotlarini bolalar uchun qiziqarli bo'lishligi uchun manzara va turmush janrlaridan tashqari, tarixiy, batal janrlarda "Spitamen qo'zg'oloni", "Jizzax qo'zg'oloni", "Muqanna qo'zg'oloni", "Manguberdining mo'g'illarga qarshi kurashi" kabi mavzularda rasm ishslash uchun tavsiya etilsa, afsonaviy janrda "Suv parilari", "Devlar hayoti", "Kentavrular jangi", "Ajdarlar

bilan kurash", "Boshqa sayyoralarda" kabi mavzular tavsiya etiladi. Shu bilan birga animal janrdagi ona va bola hayvonlar haqidagi mavzular ham bolalarda katta qiziqish hosil qiladi.

Tasviriylar amaliy san'atdan nazariy bilimlar to‘garaklarning turiga qarab oddiy yoki murakkab mazmun va hajmda beriladi. Xususan:

1. San’atshunoslik to‘garaklari (Tasviriylar san’atning alohida tur va janrlari. O‘zbekiston tasviriylar san’ati. U yoki bu davr tasviriylar san’ati). Bunday to‘garaklarda nazariy bilimlar bolalarga ancha keng va chuqurroq hajmda beriladi.
2. Tasviriylar san’at (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) to‘garaklari. Bunday to‘garaklarda nazariy bilimlar o‘rtacha hajmda beriladi.
3. Amaliy-bezak san’ati to‘garaklari. Bunday to‘garaklarda nazariy bilimlar qisqartirilgan hajmda beriladi. Biroq, xalq amaliy san’ati tarixi uni nazariy asoslari, xalq ustalari, amaliy san’atda ishlataladigan ish qurollari va jihozlar, materiallar, ish uslublari, xalq san’ati rivoj topgan markazlar, san’at va viloyat o‘lkaShunoslik mo‘zeylari, ulardagi eksponatlar haqida keng ma’lumotlar berilishi talab etiladi.

Amaliy san’ting u yoki bu turi bo‘yicha mashg‘ulotlarda bolalar kompozitsiya ishlar ekanlar avvalo uni bevosita amaliyot yoki buyumlar bilan bog‘lab amalga oshiradilar, ya’ni bajariladigan naqsh yoki bezaklar u yoki bu buyumning badiiy bezagi uchun mo‘ljallangan bo‘lishligi lozim. Bunda bolalar buyumning vazifasi, materiali, shakli, o‘lchovlari kabilarni hisobga oladilar. Ular buyumning vazifasi, shakli, materialini hisobga olib, yo‘lsimon, kvadrat, uchburchak, to‘rburchak, doira, ko‘pburchak, namoyon shakllarida badiiy bezak ishlarini bajaradilar. Bu ishlar amaliy san’atning turiga qarab ham eskiz, ham bevosita buyum yo‘zasiga ishlanishi mumkin.

San’atshunoslik asoslari tasviriylar va amaliy san’atdan barcha to‘garak mashg‘ulotlarida o‘rganiladi. San’atshunoslik bo‘yicha to‘garaklarda san’at tarixi ancha keng va chuqur o‘rgatilsa amaliy tarzdagi rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, Shuningdek, amaliy san’atning turlari bo‘yicha tashkil etilgan to‘garaklarda ularning hajmi ma’lum miqdorda torayadi.

Rangtasvir to‘garaklari San’atshunoslik asoslari bo‘yicha to‘garak rahbari san’atining kishilar hayotidagi ahamiyati, tasviriy san’atning tur va janrlari, amaliy-bezak san’ati, me’morchilik san’atiga doir ma’lumotlarni ham beradi. San’atshunoslik yuzasidan olib boriladigan ishlarni imkonи boricha amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lab olib borilishi samarilidir. Shunga qaramasdan to‘garak mashg‘ulotlarida bolalarni muzeylarga, ko‘rgazmalarga, rassomlarning ustaxonalariga olib borilishi, ularning tasviriy-ijodiy ishlar tanlovi va ko‘rgazmalarini o‘tkazilishi nihoyatda zarur. Mashg‘ulotlarni san’at asarlarining reprodo‘qtsiyalari, slayd va diapozitivlari, diafilm va kinofilmlar, vidiofilmlar namoyish etish orqali o‘tkazilishi katta foyda beradi.

Shuningdek, bolalarni san’at asarlarining reproduktsiyalari va otkritkalarini, rassom, haykaltaroshlar haqida materiallar to‘plashga odatlantirish samaralidir. Shu maqsadda bolalar tasviriy san’atning tur va janrlari, rassom va haykaltaroshlar haqida albom tayyorlashlari mumkin. Bu ish ularni san’atga qiziqishlarini oshirishda, badiiy fikr doiralarini kengaytirishda, badiiy tafakko’rini o‘stirishda katta yordam beradi.

O‘rganiladigan mavzuning maqsad va vazifalari, mazmuniga qarab mashg‘ulotlar rasm ishslash, ma’ro‘za, suhbat, munozara, seminar, insho yozish, testlar yordamida o‘tkaziladi.

Imkonи boricha amaliy ishlarni turli o‘quv qurollari, badiiy va tabiiy materiallar, turli tasvirlash texnikasi yordamida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Badiiy materiallar hisoblangan akvarel, guash, sous, pastel, sangina, ugol, rangli qog‘ozlar, folga, tush, tabiiy materiallardan-barglar, gullar, meva va sabzavot urug‘lari, rangli toshlar, chig‘anoqlar, qush patlari Shular jumlasidandir. Bunday materiallar bilan ishslash mashg‘ulotlarni turli-tuman va qiziqarli bo‘lishni ta’minlaydi.

To‘garak mashg‘ulotlariga xos bo‘lgan jihatlardan yana biri bu rasm ishlanadigan qog‘oz formati, o‘lchovi, shaklini, rangining turlicha bo‘lishligidir va ular mavzuning mazmuniga bog‘liq holda tanlanadi.

To‘garak mashg‘ulotlari uchun mavzu tanlashda O‘qituvchi o‘zidagi mavjud shart-sharoitlar, o‘quvchilarining qiziqishlari, turli-tuman bo‘lishligiga e’tiborni qaratmog‘i darkor.

Tasviriylar san’atdan amaliy ishlarga ajratilgan vaqt ham topshiriqlarning vazifasi va ish mazmuniga qarab turlicha bo‘ladi. Xususan, qoralama va ranglamalar 5-15 daqiqada, o‘quv topshiriqlari 2-5 soat hajmda, pleynardagi har bir ish 15 daqiqadan 1 soatgacha bo‘lishi mumkin.

San’at tarixiga doir to‘garak mashg‘ulotlarida O‘qituvchi o‘zbek milliy san’atining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, jahonga mashhur o‘zbek rassomlari va amaliy san’at ustalari, o‘zbek tasviriy va amaliy-bezak san’ati ustalarining yuksak badiiy saviyada yaratgan asarlarini jahonning yirik va mashhur mo‘zeylaridan o‘rin olganligi hamda o‘zbek xalqi bundan faxrlannishi haqida so‘zlab berishi lozim. Afrosiyob, Varahsha, Ayrton, halchayon va boshqa joylarda yer ostidan topilgan shaharlar va uy devorlariga ishlangan devoriy rasmlar, Shuningdek haykallarning foto nusqalarini namoyish etish va Sharq Uyg‘onish davrida Movaraunnahr miniatura san’ati, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan bahosiz asarlar, IX-XV asrlarda O‘zbekiston me’morchiligining noyob ishlari haqida ma’lumot berish bolalarda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Maktabda tasviriy va amaliy san’atdan o‘tkaziladigan kechalar o‘quvchilarni estetik va axloqiy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u yoshlarni san’atga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, badiiy fikr doirasini kengaytiradi. Kechalar o‘z mazmuniga ko‘ra bir qator san’at turlarini mujassam etadi. Xususan, unda tasviriy san’atdan tashqari, musiqa san’ati, adabiyot, xoreografiya san’ati, tsirk san’ati, teatr san’atlari ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga unda maktab jamoasi, Shuningdek, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari ishtirok etishi kechani katta ko‘tarinkilik bilan o‘tishiga imkon beradi, tashkilotchilarning tadbiriga mas’uliyatini oshiradi. Kechani o‘tkazganda maktabdagি musiqa, o‘yin, drama to‘garaklari a’zolarining hamkorligi yaxshi natijalar beradi.

Kechaning mavzusi nihoyatda qiziqarli bo‘lishi lozim. Masalan, u mashhur rassom yoki amaliy san’at ustasining tavallud kuni munosabati bilan, yil fasllarini tasviriy san’atda aks etishiga doir, ma’lum bir mamlakat yoki davr san’atiga bag‘ishlanishi mumkin. Kecha san’atimizning yorqin yuldo‘zlari Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrant Van Reyn, Ilya Repin, Chingiz Axmarov kabi rassomlar, Usta Shirin Muradov, Ota Polvonov kabi xalq amaliy san’ati ustalarining hayoti va ijodi, Shuningdek, "Sharq miniatura maktablari", "Tasviriy san’atda O‘zbekiston ko‘zi", "Monna Liza. Jokondaning siri", "Mustaqillik va O‘zbekiston tasviriy san’ati" kabi mavzular kechalar uchun yaxshi material bo‘lshi mumkin.

Kechani o‘tkazishda maktab tasviriy san’at to‘garagi a’zolari asosiy rolni o‘ynaydilar. Unga tuman, shaxar, viloyatdagi taniqli rassomlar, xomiylarning yordamini tashkil etish mumkin. Shu bilan birga kechani o‘tkazishda maktabning musiqa, adabiyot, mehnat o‘qituvchilari va to‘garak a’zolari ishtirok etishlari samaralidir. Ular kechada qo‘shiqlar, kuylar, she’rlar, spektakllardan parchalar, sahnani yorug‘lantirish, stendlar tayyorlashda ishtirok etadilar. Kechani yuqori badiiy va tashkiliy saviyada o‘tkazish uchun texnika vositalaridan keng foydalanish, kinofilmlar namoyish etish, kecha mavzusi bilan bog‘liq holda ko‘rgazma, tanlov, viktorinalar tashkil etsa foydadan holi bo‘lmaydi. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, kechani o‘tkazishdan ancha avval maktab ma’muriyati ishtirokida uni tayyorlash uchun hay’at to‘ziladi. Unga kecha o‘tkazish bilan aloqador bo‘lgan barcha shaxslar kiritiladi, kecha stsenariysi va ish rejasi to‘zilib muhokama etiladi. Vaqtি-vaqtি bilan tayyorgarlik ishlari hay’at yig‘ilishida eshitilib turiladi.

To‘garak mashg‘ulotlarida tasviriy va amaliy san’at, me’morchilikka oid suhbatlar, ma’ro‘zalarga keng o‘rin beriladi va ularni to‘garak rahbari, to‘garak a’zolari bilan birlikda o‘tkazadi. Bunday tadbirlar mashg‘ulotlar bilan bog‘liq holda, ham mashg‘ulotdan tashqari vaqtarda ham mustaqil ravishda o‘tkazilishi mumkin.Ular to‘garak rahbari tomonidan u yoki bu mavzuni chuqurroq o‘rgatishni

maqsad qilib qo‘yanida yoki mavzu bolalar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilmay qolgani taqdirda ham tashkil etilishi mumkin.

Ular rassom, halq amaliy san’ati ustasining hayoti va ijodi, ma’lum bir davr san’ati, san’tdagi biron bir oqim, san’atning tur va janrlari, bironqa mamlakat san’ati, tasviriy san’atda mehnat, sport, buyo‘q shaxslar, ekologiya, onalik va bolalik kabi mavzularga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkin. Bunday suhbatlar mazmuni qiziqarli bo‘lishligi bilan bir qatorda u bolalarning faol ishtirokida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda san’at asarlarining reprodo‘qtsiyalari, slayd va diapositivlari, diafilmlari texnika vositalari orqali namoyish etilishi samaralidir. Suhbatlar bolalarning yoshi va sinfiga qarab 45 minutdan oshmaganligi ma’qul. Suhbatlar ma’ro‘za shaklida bo‘lib taniqli san’atshunoslar, rassomlar, tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘zi, to‘garakning yetakchi a’zolari tomonidan olib borilishi mumkin. Suhbatga viloyat davlat universitetining o‘qituvchilari, viloyat o‘lkaShunoslik muzeyining san’atShunos xodimlarini ham jalb qilsa bo‘ladi. Suhbatlarga ma’ro‘zachi avvaldan tayyorgarlik ko‘rib boradi, uning rejasini tayyorlaydi, maktab tasviriy san’at o‘qituvchisi bilan kelishilgan holda ma’ro‘za matni va namoyish etiladigan illyustrativ materiallarni belgilab oladi. Ma’ro‘zachiga qo‘shimcha ravishda to‘garak a’zolaridan birontasini yoki tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘zi tayinlanishi mumkin. Maro‘zalar barcha sinflarda darsdan so‘ng yoki tarbiyaviy soatlarda bolalarning yoshini hisobga olib, tor yoki keng hajmda, oddiy yoki murakkab tarzda o‘tkaziladi. Suhbat 20-45 daqiqa atrofida bo‘lgani ma’qul.

Suhbatlar uchun "Sharq miniatura maktablari", "Yevropada Uyg‘onish davri tasviriy san’ati", "Mustaqillik va O‘zbekiston tasviriy san’atida xotin-qizlar obrazi", "Sport va tasviriy san’at", "Tasviriy san’atda yil fasllarining ifodalanishi", "O‘zbekiston xududidagi eng qadimgi tasviriy san’at", "Tasviriy san’atda oqim va yo‘nalishlar", "Tasviriy san’atda animal janr (manzara, portret, natyumort, turmush, batal, tarixiy, marina, afsonaviy)" "Kamoliddin Behzod buyo‘q naqqosh va musavvir", "Leonardo da Vinchi", "Monna Liza. Jokondaning sirlari",

K.Bryulovning "Pompeyning so'ngi kuni" asari tarixi", "O'zbekiston tasviriy san'at muzeyi", "Qadimgi Misr san'ati", "Qadimgi Yunonistonda haykaltaroshlik" kabi mavzular tanlanishi mumkin. Shu kabi bezakli-amaliy san'at, uning turlari, ustalarining hayoti va ijodiga doir ma'ro'zalar samaralidir.

Maktablarda eng yaxshi ishlangan rasm, haykal, amaliy san'at namunasiga doir ishlar uchun tanlovlardan bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, ularning faolligini oshiradi. Eng muhimi bolalarning ijodkorligiga keng yo'l ochib beradi, mustaqil ishslashga o'rgatadi. Tanlovlardan faqat bolalarning ijodiy ishlari yuzasidan o'tkaziladi. Ular tasviriy va amaliy san'atning barcha tur va janrlariga doir bo'lishi mumkin. Tanlovlardan bolalarni guruhlarga yoki yosHLariga qarab tashkil etiladi. Hususan, kichik (1-4 sinflarda), o'rta (5-7 sinflarda), katta (8-9 sinflarda) guruhlarga bo'linadi. Tanlov uchun beriladigan mavzular bu guruhlar uchun alohida-alohida tanlanadi. Tanlov uchun quyidagi mavzular bolalarda katta qiziqish uyg'otadi: "Mustaqillik kuni", "Navro'z", "O'zbekiston go'zal diyor", "O'zbekiston mening Vatanim", "Tasviriy san'atda O'zbekiston me'morchiligi yodgorliklari", "O'zbekiston ko'zi", "Ular mustaqillik uchun kurashgan edilar", "Boshqa sayyoralarda", "Suv osti dunyosi", "hosil bayrami", "Men sevgan kasb" v.b. Tanlov uchun bolalarga erkin mavzularni tavsiya etsa ham bo'ladi. Tanlovlardan faqat muktab miqyosida emas, uni tuman, shahar, viloyat miqyosida ham o'tkazilishi mumkin.

Tasviriy san'atdan viktorinalar tashkil etish bolalarni mustaqil ishslashga o'rgatadi, ularning bilim doirasini kengaytiradi. Bu tadbir o'yin va musobaqa shaklida bo'lganligi uchun unda bolalar katta qiziqish bilan ishtirok etadilar.

Viktorina san'at tarixi, uning nazariyasi (yorug'soya, perspektiva, rangShunoslik) janrlari, rassom, haykaltarosh, amaliy san'at ustalarining hayoti va ijodi, rangShunoslik, rassom va ustalarning ish qurollari va materiallari, tasvirlash texnikasi, tasviriy va amaliy san'atda ishlatiladigan atama va iboralar, ayrim mamlakat, o'z o'lkasining san'atiga doir bo'lishi mumkin. Biroq bunda bolalarni guruhlarga (kichik, o'rta, katta) moslab mavzu tanlanadi. Ayrim mavzular bo'yicha

tadbir mazmunini soddalashtirgan yoki murakkablashtirgan holda barcha guruhlarda o'tkazsa ham bo'ladi. Viktorinalarda krossovord, chaynvord, topishmoqlar ham berish mumkin.

Viktorinani o'tkazishdan avval o'qituvchi va bolalar katta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishlari lozim. Xususan, ko'rgazma, tanlov, sayohat, ma'ro'za, uchrashuv v.b. mazkur tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu tadbirni o'tkazishda maktab kutubxonasi katta rol o'ynaydi, u san'atga oid adabiyotlar bilan boyitilgan bo'lishi lozim. Aks holda, u kutilgan natijani bermaydi. Viktorinani o'tkazishda tasviriy san'at o'qituvchisi bilan bir qatorda sinf rahbarlari faol ishtirok etishlari talab etiladi. Ular tayyorgarlik davrida o'z sinflari uchun ma'ro'zalar tashkil etishda, adabiyotlar, san'at asarlarining reproduktsiyalarini to'plashda bolalarga muntazam yordam ko'rsatishlari lozim. har bir viktorina savollariga qaytarilgan javoblar uchun mezonlar belgilangan bo'lib, tadbir natijalari hay'at a'zolari tomonidan ko'rib chiqiladi va yuqori ball to'plagan o'quvchilar taqdirlanadilar.

Tasviriy san'atdan sayohatlar muzeylarga, rassomlarning ustaxonalariga, haykaltaroshlik yodgorliklariga, ko'rgazmalarga tashkil etiladi. Natijada bolalar san'at asarlarining asl nusxalari bilan tanishadilar, ularining yaratilish jarayonining shohidi bo'ladilar. Odatda bunday sayohatlarga O'qituvchi ham, o'quvchilar ham katta tayyorgarlik ko'radilar, bu tadbirning rejasini to'zib oladilar. Rassom ustaxonasiga sayohatlar uyuştirilganda rassomlar o'zlarining hayotlari va ijodlari, kelajak rejalar haqida atroficha gapirib beradilar, o'z asarlari bilan tanishtiradilar va ularning yaratishlish tarixi haqida hikoya qilib beradilar. Rassomning jonli nutqi va uning hikoyasi bolalarni hayajonlantiradi, ularning xotirasida o'chmas iz qoldiradi.

Rejada sayohat qaerda tashkil etilishi va unga qachon borilishi, kim bilan uchrashilishi, u yerda nimalarni ko'rishi, kim bilan nimalar haqida suhbat bo'lishi bayon etiladi. Agarda mo'zey, biron ta yodgorlik yoki rassom ustaxonasiga boriladigan bo'lsa u haqda sayohatdan oldin bolalarga qisqacha ma'lumot beriladi.

Sayohat vaqtida bolalar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan rassom, mo‘zey xodimiga murojaat etadilar. Sayohatdan so‘ng O‘qituvchi bolalar bilan sayohatdan olgan taassurotlari bilan fikr olmashadilar.

Maktablarda keng tarqalgan dasrdan tashqari ishlarning shakllaridan yana biri ko‘rgazmalardir. Ko‘rgazmalarning asosiy turlari quyidagilardir:

- 1.Bolalarning ijodiy-tasviri va amaliy-bezak ishlari ko‘rgazmasi.
2. Rassomlar va amaliy san’at ustalari asarlari reprodo‘qtsiyalarining ko‘rgazmasi.
3. Rassomlar va amaliy san’at ustalari asarlarining asl nusxalari ko‘rgazmasi.

Bolalarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi yillik, yarim yillik va chorak natijalari bo‘yicha to‘plangan eng yaxshi ishlari asosida o‘tkaziladi. Bunday ijodiy ishlari ko‘rgazmasi eng yaxshi ishlangan rasmlar tanlovida g‘olib chiqqan ishlardan, qo‘shti maktab qo‘shtimcha ta’lim markazlarida bajarilgan ishlardan, tuman maktablaridan yig‘ilgan eng yaxshi rasmlardan tashkil topishi mumkin. Ular maktab tuman, shahar, viloyat, respublika darajasida o‘tkaziladi.

Rassomlar asarlarining reprodo‘qtsiyalaridan tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ham nihoyatda rang-barangdir. Xususan, tasviriy san’atning u yoki bu turi, u yoki bu janri, biron ta rassomning hayoti va ijodi, biron ta mamlakat yoki davr rassomlari ijodi namunalari, rasmlar galereyasi yoki Muzeyning biron ta bo‘limi kollektsiyalari asosida tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, reprodo‘qtsiyalar asosida o‘tkaziladigan ko‘rgazmalarni mamlakatimiz hayoti, uning tarixi, kelajagi, mehnat, sport, sog‘liqni saqlash, ekologiya, ilm-fan, xotin-qizlar mavzularida o‘tkazsa ham bo‘ladi. Bunday ko‘rgazmalar nafosat bilan tayyorlangan stendlar yordamida maktab foesi, yo‘lagi yoki boshqa bolalar gavjum bo‘ladigan joylarda tashkil etiladi. Ko‘rgazmani tasviriy san’at xonasiga yaqin joyda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. har bir ishning tagiga ish muallifi va uning nomi, yoshi, yaratilgan yili yozib qo‘yiladi.

Rassomlar, amaliy san’at ustalarining asarlari reprodo‘qtsiyalari, bolalar ijodi asosida o‘tkaziladigan ko‘rgazmalar uchun ishlari tanlashni bevosita bolalar

ishtirokida amalga oshirilishi ularning badiiy didini o'stiradi, badiiy bilim doirasini kengaytiradi, faoligini oshiradi.

Katta hajmdagi ko'rgazmalar tashkil etilganda faol ishtirok etgan bolalar maktab ma'muriyati tomonidan ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Rassomlar va amaliy san'at ustalari asarlarining asl nusxalaridan ko'rgazmalar tashkil etish jiddiy tayyorgarlik asosida amalga oshiriladi. Ko'rgazmaga qo'yilgan asarlarni yuksak badiiy qiymatga ega ekanligi, unda maktabning barcha o'quvchilari va jamoasi ishtirok etishi buni talab etadi. Bunday ko'rgazma uchun keng va yorug' joy (maktab foesi yoki zali) tanlanadi. Uni tashkil etishda maktab ma'muriyatidan tashqari ota-onalar, mahalla, tuman halq ta'limi boshqarmasi va hayriya tashkilot vakillari ishtirok etadilar.

Ko'rgazmalar tantanali ravishda rassom va xalq ta'limi boshqarmalari vakillari tomonidan ochiladi. Ko'rgazmalarning qiziqarli shakllaridan biri maktab tasviriy va amaliy san'at muzeyi hisoblanadi. Bunday mo'zeylar rassom, usta va o'quvchilar tomonidan ishlangan ishlarning asl nusxalari asosida tashkil etiladi. Muzeyning turlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tasviriy va amaliy san'at muzeyi; tasviriy san'at muzeyi; amaliy san'at muzeyi; bironta rassom yoki usta ijodi muzeyi; bolalar tasviriy ijodi muzeyi. Bunday mo'zeylar alohida keng va yorug' xonada tashkil etiladi. Mo'zeylarni tashkil etishda uning tashkilotchilari tomonidan katta ma'suliyat talab etiladi. Uni maktab ma'muriyati, hayriya tashkilotlar, rassom va ustalar yordamida amalga oshiriladi. Uni tashkil etishda maktab tasviriy va amaliy san'at to'garagi a'zolari faol ishtirok etishlari lozim. Muzeyni faqat asarlar namoyish etadigan joy deb qaramaslik lozim. Uni maktabda san'atga oid ma'ro'zalar, uchrashuvlar, suhbatlar, munozaralar, viktorinalar tanlovlari, ko'rgazmalar o'tkazib turiladigan, kinofilmlar namoyishi etiladigan joyga aylantirish ayni muddodir. Mo'zey ishlarini bunday tarzda keng qamrovli tashkil etilishi bolalarni san'atga bo'lgan qiziqishlari, muhabbatini oshiribgina qolmay, balki ularni badiiy madaniyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Respublika, viloyat, shahar, tuman miqyosidagi rassomlar, amaliy bezak san'ati ustalari bilan maktablarda uchrashuvlar o'tkazish o'quvchilarni san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday uchraShuvda rassomlar, ustalar o'zlarining ijodiy yo'llari, yaratgan asarlari, uning yaratish sirlari, kelajak rejali haqida bolalarga so'zlab beradilar. Tasviriy san'at o'qituvchisi esa bu kasbning jozibali faxrli kasblardan biri ekanligi, bu sohada kishilar hayotidagi o'rni haqida gapirib beradi. UchraShuvdagagi rassom misolida uni ho'qumatimiz, xalqimiz tomonidan yuksak qadrlanganligi (uning mo'qofotlari, lovozimi, unvonlari v.b.), asarlarini qaysi joylarda namoyish etilganligi, uning safarlari haqida so'zlab berish bolalarda katta taassurot qoldiradi. UchraShuvni to'laqonli bo'lishligi uchun rassom yoki ustaning asarlari ko'rgazmasini tashkil etilishi tadbirning yanada samarali bo'lishligini taminlaydi. Rassomlar va ustalar bilan bunday aloqalarning kengayishi maktabda san'at muzeyini tashkil etishga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki, uchrashuvlardan so'ng rassomlar yoki ustalar o'zlarining ijodiy ishlari namunalaridan maktablarga esdalik uchun qoldiradilar. Bunday tadbirlar orqali o'quvchilar o'zlarini qiziqtiradigan ko'pgina ma'lumotlarni oladilar, ulardan ayrimlari ana Shu rassom yoki ustaga o'xshashni orzu qiladi, bu sohaga qiziqish, orzulari oshadi.

### **Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor.**

O'qituvchi kasbi barcha kasblar orasida eng faxrlisi va mohiyati jihatidan nihoyatda jamiyat uchun zaruri hisoblanadi. Bu kasb jamiyat hayoti, uning barcha jumboqlari haqida yoshlarga, ularni butun hayoti davomida kerak bo'ladigan bilimlarni beradi. Yosh avlodni yuksak va oliyjanob fazilatlar bilan quollantiradi, kishilardagi nodonlik va yomon illatlar bilan kurashishga o'rgatadi. Kishilarning o'tmishdagi tarixiy tajribalarini yoshlarga o'tkazadi. Bu borada jamiyatimiz uchun vositachilik qiladi. Natijada jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zamin yaratiladi.

O'qituvchilik kasbi hamma zamonlarda ham ma'suliyatli va sharafli kasb

ekanligi e'tirof etib kelingan.

O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida bu kasb yanada katta ahamiyat kasb etayapti. Chunki, o'zbek xalqi chet el bosqinchilarining ko'p yillik zulmi ostida o'zining ma'naviyati va madaniyati, an'anasi va urf-odatlarini unutayozgan edi. O'zbek xalqi oldida turgan muhim vazifalaridan biri o'z-o'zini anglash, milliy istiqlol mafkurasi asosida o'z Vatani va xalqiga sodiq bo'lган, yangi barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Bu borada O'qituvchi benihoyat katta rol o'ynaydi.

Barcha mutaxassislardan farqli o'laroq o'qituvchi shunday shaxski, u moddiy boyliklar ishlab chiqarishi bilan emas, yosh avlodni ichki dunyosini, ma'naviyatini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Bundan bu kasbni qiyin, biroq mas'uliyatli ekanligini bilib olish mumkin. Boshqa kasb mutaxassislari o'z faoliyatlarida xato qilishlari mumkin bo'lsa-da, muallim xato qilishi mumkin emas. Chunki bu xato yosh avlod kelajagini barbod qilishi yoki mamlakatda nodon kishilarning bir butun avlodini vujudga keltirishi mumkin.

O'qituvchining birovlarni o'qishga majbur etib o'rgatishi ham, o'zini-o'zi majbur etishi ham oddiy ish emas. hamma gap shundaki, hamma yoshlar bir xil emas. Birovlari o'qishga o'zлари harakat qilsalar, boshqalarni majburlash kerak bo'ladi. Ko'pchilik hollarda bir emas, butun bir jamoani majburlash kerak bo'ladi. Bunday hollarda yoshlarni ishga jalb etish, intizomli bo'lishga erishish ayniqsa og'ir kechadi. Maqsadga erishish uchun eng avvalo shu jamoa orasida obro'qozonmoq zarur. O'qituvchilik kasbining yana bir muhim xususiyati Shundaki, u o'z tengqurlari bilan emas, boshqa yoshdagilar bilan ishlaydi. O'qituvchi bilan bolalarning hayotiy tajribalari, bilimlari, dunyoqarashlarida ancha farq bor. Bu esa ularni bir-birlarini tez tuShunib yetishlariga imkon bermaydi. Shunday ekan, o'qituvchi bolalarni yoshlik xususiyatlari, dunyoqarashlari, qiziqishlari, bilim darajalarini yaxshi bilishi kerak bo'ladi. Shundagina uning ishi samarali kechishi mumkin.

O‘qituvchi kasbining yana bir muhim jihat Shundaki, bu kasb kishiga mammunlik va xursandchilik keltiradi. Bu mammunlik, unga o‘z faoliyati natijalarini ko‘rganida, o‘z shogirdlarini turmushda, ilmu-fan va yuksak mansablarni egallaganlarida, hayotda o‘z o‘rinlarini topganliklarida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Shunda, o‘qituvchilar o‘z mehnatlarini zoe ketmaganligini his etadilar.

O‘qituvchilik kasbida iste’dod katta rol o‘ynaydi. Ya’ni o‘qituvchilikda o‘z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallahga intilish bo‘lishi lozim. Bu sifatlar ko‘pchilik hollarda bolalarni sevganda, bolalarning shovqin-suronidan, jovidiragan ko‘zlaridan zavqlangandagina namoyon bo‘ladi.

Muallimlik iste’dodi uni tug‘ma bo‘lishligini bildirmaydi, Shunga qaramasdan, u kishilarda yoshligidan, ochiq yoki berk holda paydo bo‘ladi. Muallimlik iste’dodi kishilarda bolalar bilan bog‘liq hayotiy voqealar zamirida, kishilarning yoshlik chog‘larida bo‘lishi ham mumkin. Kishilarda bo‘ladigan ruhiy bu sifatlar ularni o‘qituvchilik kasbiga qiziqtiradi.

Iste’dod–kishilar baxti uchun kurashish istagi, O‘zbekistonning kelajagi, buyo‘q davlat qurish uchun kurashi bilan bog‘lanadi. Mahorat o‘zbek o‘qituvchisi hayot va jamiyatga ilg‘or nazar bilan qarovchi, mustaqillikni mustahkamlash yo‘lida tinimsiz mehnat qiluvchi shaxsdir.

O‘qituvchining yana bir muhim sifati bu yoshlarga namuna, ibrat bo‘lish shogirdlariga qattiq qo‘l va o‘z o‘rnida mehribon bo‘lishda ifodalanadi. Masalan, soqoli o‘sib ketgan, kiyimlari tozalanmay, yoqasining yag‘iri chiqib ketgan O‘qituvchi so‘zsiz bolalarga ibrat bo‘la olmaydi. O‘qituvchi bolalarga faqat tozalik borasida emas, hamma sohada ibrat bo‘ladigan bo‘lishi lozim. Xususan, u odobi, bir so‘zligi, halolligi, sof vijdonliligi, adolatparvarligi, mehribon bilan ajralib turadi.

Bolalar o‘z xislatlariga ko‘ra ko‘zatuvchan, qizo‘quvchan, tahlidchan bo‘lib, o‘qituvchilarni doimo ko‘zatib yuradilar, ularga o‘xshashga harakat qiladilar. Buni O‘qituvchi hech vaqt unutmasligi lozim.

Bolalardagi bu sifatlar o‘qituvchini o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishlikni

taqozo etadi. Bu esa, uni doimo o‘zi ustida mustaqil ishlashi, ilmiy metodik adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni muntazam o‘qib borishga yo‘llaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi respublikamizning madaniy hayoti bilan bir safda borishi, kontsertlar, spektakllar, tasviriy san’at ko‘rgazmalariga doimiy ravishda borib turishi zarur bo‘ladi. Badiiy adabiyot o‘qish ham o‘qituvchiga nihoyatda zarur. Chunki o‘qituvchi o‘zining badiiy madaniyati bilan ham bolalarga namuna bo‘lishi darkor. O‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar orasida eng muhimlaridan biri bu o‘qitiladigan barcha fanlardan ta’lim mazmunini va uni o‘qitish metodikasini yaxshi bilishi hisoblanadi. Chunki, ta’lim mazmuni ham, o‘qitish metodlari ham borgan sari takomillashib turadi.

Ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or tajribalar yuzasidan muallimning eng muhim vazifalaridan biri tadqiqot natijalarini va ilg‘or tajribalarni o‘rganish bilan chegaralanib qolmasdan, balki bu tajribada uning o‘zining ham ishtirok etishi hisoblanadi. Buning uchun u o‘z faoliyatida to‘xtovsiz tajriba-sinov ishlarini o‘tkazib turishi, boshqalarning ilg‘or tajribalarini o‘rganib borishi kerak bo‘ladi.

Shuni ham qayd qilish lozimki, o‘qituvchi ishining murakkabligi Shundaki, u ham ta’lim ham tarbiya beradi. Bu esa o‘qituvchidan ko‘p vaqt, mas’uliyat va ijodkorlikni talab etadi.

O‘qituvchi bolalarning tasviriy san’atdan bilim va malakalari haqida tasavvurga ega bo‘lish bilan birga, ularning sog‘ligi, psixik xususiyatlari, qiziqishlari, odobi, uydagi shart-sharoitlari, ularning ota-onalari haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga bolalarning uylariga tez-tez borib turishi, bolalar haqida ularning ota-onalari bilan muloqotda bo‘lib turishi pedagogik faoliyatning samaradorligini yanada oshiradi.

Yuqorida qayd qilinganidek, tasviriy san’at o‘qituvchisi bolalarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgandagina u kutilgan natijalarga erisha oladi. Bu narsa ko‘proq o‘qituvchining ko‘zatuvchanligiga bog‘liq. U faqat tevarak-atrofdagi voqeja va hodisalarmigina emas, bolalarda va ularning harakatlarida sodir bo‘layotgan jarayonlarni ko‘zatib borishi, ulardan tegishli xulosalar chiqarib

olishlari, Shunga yarasha tegishli choralar ko‘rishi kerak bo‘ladi. Ko‘zatuvchan O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida juda ko‘p jarayonlarni hayolidan o‘tkazadi. Xususan, dars berayotganda, qaysi bola nima haqida o‘ylayapti, nega Shunday harakatlar qilayapti, rost gapiroayaptimi yoki yolg‘onmi, qaysi bolalarga yordam berish kerag-u, qaysinisiga shart emas, qaysi bolalar mashg‘ulotga qiziqayaptilar, qaysilari yo‘q v.b.

O‘qituvchining xotirasi yaxshi bo‘lmasa, u o‘qituvchilik qilishi mumkin emas. Aks holda, bolalar o‘rtasida ziddiyatlarni kelib chiqishi tabiiydir. O‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida ko‘p qirrali fikr yuritadi. Birinchidan, bolalarga berish kerak bo‘lgan bilimlarni xotirlaydi, ikkinchidan beriladigan bilimlarni yengil va tez yetkazish yo‘llari haqida o‘ylaydi, uchinchidan bolalar berilayotgan bilimlarni o‘zlashtirayaptilarmi yoki yo‘qmi? O‘qituvchining bunday aqliy faoliyati tafakkur deb yuritiladi. Bu narsa o‘qituvchining tafakkuri har jihatdan rivojlangan bo‘lishini ko‘rsatadi. Agarda bola o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirmasa, uning sabablarini izlashi, Shu maqsadda, u bilan suhbatlashishi, uni kuzatishi, ota-onalari bilan muloqotda bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchining to‘xtovsiz o‘ylashi, ta’lim jarayonlarini takomillashtirib borishini talab etadi.

O‘qituvchining psixik jarayonlaridan hisoblangan tasavvur, uning faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Agarda uning bu xususiyati yaxshi rivojlangan bo‘lsa, u mashg‘ulotlarda narsalar va hodisalarning o‘lchovi, shakli, rangi, tuzilishi, holati, harakati kabilarni tezda va jonli tasavvur etib, ularni bolalar ongiga osongina yetkaza oladi. Natijada, uning bolalarga beradigan ma’lumot va tushunchalari ishonarli chiqadi. Tasavvuri yaxshi rivojlangan o‘qituvchilar o‘zlarining gaplari bolalarga qanday ta’sir ko‘rsatishi, qanday fikr tug‘ilishini oldindan bila oladilar va shunga yarasha o‘zlarini tayyorlaydilar.

O‘qituvchi faoliyatida nutq beniqoyat katta rol o‘ynaydi. Nutqi yo‘q o‘qituvchining bolalarga ta’limiy ham, tarbiyaviy ta’siri ham yuqori bo‘lmaydi. Nutq orqali u san’at asarlari yuzasidan suhbat, munozara qilishi mumkin. O‘z nutqida o‘qituvchi faqat leksika, fonetika, talaffo‘z, gap tuzish, urg‘ularni joy-

joyiga qo‘yishi bilan chegaralanib qolmasdan balki, uning ta’sirchanligi va ifodali bo‘lishiga e’tibor bermog‘i lozim. Shuningdek, bu nutq tushunarli va bolalarning hissiyotiga ta’sir ko‘rsata oladigan, maroqli, jonli, aniq, ravshan, sermazmun bo‘lgandagina yaxshi samara beradi. Lekin, bu nutqni aShulaga aylantirib yuborish kerak emas. Nutq zerikarli, o‘zundan-o‘zun, haddan ziyod baland yoki past, bir xil ohangda bo‘lmasligi lozim. Bunday nutqlar bolalarni e’tiborini susaytirishi yoki asabiylashtirishi mumkin. Nutq kerak joyida balandroq yoki pastroq ohangda bo‘lgani ma’qul.

O‘qituvchi “aktyor” bo‘lishi lozim deyishadi. Chunki sinfda turli xil vaziyatlar paydo bo‘ladi. Bolalar o‘rtasida yoki o‘qituvchi va bolalarning o‘rtalarida shunday og‘ir vaziyatlar bo‘lib qolganda, uning aktyorlarga xos xislatlari yordam beradi. O‘qituvchi biror bo‘lgan yoki bo‘lmagan voqeani so‘zlaganda, uni faqat nutq bilan emas, hatti-harakatlari bilan shunday tushuntirishi lozimki, bolalar uning bu gaplariga hech ikkilanmasdan ishonsinlar .

Odatda o‘qituvchi bolalar kabi hissiyotga boy bo‘lsa yaxshi o‘qituvchi bo‘ladi. Yaxshi o‘qituvchi bolalarning qilayotgan ibratli ishlari, yaxshi javoblaridan mammun bo‘libgina qolmay, balki, ulardan quvonadi, zavqlanadi, ularga bo‘lgan muhabbat yanada oshadi. Muallimlar bolalarni sevib, ularni kamchiliklariga befarq bo‘lib qolishlari, ularni haddan tashqari erkalab, taltaytirib yuborishlari to‘g‘ri emas. Aks holda bolalarda manmansirash, boshqalarni mesimaslik kabi alomatlar paydo bo‘ladi. Muhimi shundaki, o‘qituvchi, o‘z o‘quvchisining muvaffaqiyatidan qanchalik mammun bo‘lmasin, qanchalik hissiyotlari jo‘s sh urmasin, u o‘zining tashqi harakatlari, ovozining ohangi bilan ham hursanligini sezdirmaslagi lozim. Aks holda, bolalar ustozlarning bu ruhiy kechinmalarini suistemol qiladilar, manmanlik, maqtanchog‘lik kabi salbiy sifatlarni o‘zlariga ep ko‘radigan bo‘lib qoladilar.

O‘qituvchida iroda bo‘lmasa, u o‘zoq vaqt ishlay olmaydi. Iroda, ham toqat, ham chidam, ham intizomli bo‘lish kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Muallimlik shunday bir murakkab kasbki, unda irodaning bo‘lmasligi, o‘qituvchini nihoyatda

noxush ahvolga tushirib qo'yishi mumkin. Ayrim hollarda u o'qituvchini o'z kasblarini tark etish darajasigacha olib boradi.

O'qituvchilarga xos xususiyatlardan yana biri, bu uning estetik didli, ozoda va batartibli bo'lishligidir. Bu sifatning o'qituvchida bo'lishligi nihoyatda ahamiyatlidir. Shuni alohida qayd etish lozimki, bolalar o'qituvchiga nisbatan nihoyatda tahlidchan bo'lib, ko'pincha unga o'xshashga harakat qiladilar. O'qituvchi estetik didli va ozoda bo'lsa, bolalar ham shunday bo'ladi. O'qituvchi haqiqiy go'zal narsalarni sun'iy go'zallikdan farqlay bilishi, go'zallik har qanday narsada va harakatda bo'lishligini, uning mohiyatini tushunib yetishi zarur.

O'qituvchi mahorati. Mahoratli o'qituvchida o'z sohasiga doir bilim va malakalarni, pedagogik va psixologik zarur bilimlarni bo'lishligi yetarli emas. U boshqa oddiy o'qituvchilardan bir pog'ona yuqorida turadi. U ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallah bilan bir qatorda o'zi ham bu texnologiyalarni yaratishda ishtirok etadi. U puxta bilimlar berish bilan birga har qanday pedagogik og'ir sharoitlardan osongina chiqib ketadi. U doimo izlanish, bolalar ustida tajriba- sinov ishlarini o'tkazib turadi.

Mahoratli o'qituvchi xoh darsda, xox darsdan tashqari vaqtarda bo'lmasin o'z o'quvchilarini bir daqiqa e'tibordan qochirmasligi, ularni har birini ko'rib, ko'zatib turishi, ular Shu vaqtida nimalar haqida o'ylayotganliklari, ularning qanday orzu-umid va tashvishlar bilan yashayotganliklarini bilishi, ular bilan shunga yarasha ish olib borishi kerak bo'ladi.

Mohir o'qituvchining bolalarni sevishi, ularga inson sifatida munosabatda bo'lishi yetarli emas. Uning mahoratga erishuvi ikki komponentdan tashkil topadi:

1. Tafakkur, aql-idrok.
2. Tajriba.

O'qituvchi mahoratining asosini esa avvolo kasbiy bilimlar egallaydi. Bunday bilimlarga ega bo'lgan o'qituvchi dars vaqtida bolalarga ko'proq bilim va malakalar berishda qiyalmaydi. Darsda esa u ko'proq bilimlarni qanday yo'llar

bilan yetkazish haqida o‘yaydi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan O‘qituvchi o‘z faoliyatida quyidagilarga alohida e’tibor beradi:

- sinfda odob va intizomga qat’iy rioya qilish;
- o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtira olish;
- bolalar psixologiyasini yaxshi bilish;
- o‘quvchi bilim va malakalari darajasini bilish va Shunga yarasha ular bilan munosabatda bo‘lish, ta’limiy ishlarni olib borish;
- mashg‘ulotlarda bolalarga individual va tabaqalashtirilgan holda munosabatda bo‘lish;
- doim tetik, sinfda paydo bo‘lgan turli muammo yoki ziddiyatlarni to‘g‘ri baholay olish, sog‘lom fikr yuritish;

O‘qituvchi bolalarni majburlab, zo‘rlab, zulm o‘tkazish yo‘li bilan emas, tuShuntirish, ishontirish, pedagogik taktni saqlagan holda xushmuomilalik bilan ish olib borgandagina, yaxshi natijaga erisha oladi.

Mahoratga ega bo‘lishning bir qator yo‘llari bor:

- o‘z sohasi bo‘yicha to‘xtovsiz o‘qish, o‘rganish, o‘z bilimini muntazam boyitib borish;
- o‘qituvchilarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va tahlil etish;
- o‘z darsida ilg‘or pedagogik texnologiyalar yuzasidan tajriba- sinov ishlarini olib borish;
- o‘zining shaxsiy metodikasiga ega bo‘lish, unga intilish;
- bolalarni to‘xtovsiz ko‘zatib yurish, e’tibordan qochirmaslik;
- ta’limni tashxis orqali amalga oshirish;
- har bir bola bilan olib borilayotgan individual ishni chala yoki yarim yo‘lda tashlab ketmaslik, uni oxiriga yetkazish;

-o‘z ishiga sidqi-dildan yondoshish, zavq-shavq bilan mehnat qilish, tushkunlikka tushmaslik;

O‘qituvchilik mahorati har bir bolaning ko‘ngliga, diliga yo‘l topa-bilishlik, u bilan til topa bilishlik, bir-birlarini tushuna bilishliklarida ham ifodalanadi.

Shuning uchun o‘qituvchi buni doimo o‘z e’tiborida saqlashi lozim.

Mahoratli o‘qituvchi bo‘lishi uchun, uni shunchaki odobli bo‘lishi yetarli emas. U odobning yuksak namunasiga ega bo‘lishi lozim. Bu sifat o‘qituvchidan insonparvarlikni, har qanday og‘ir sharoitlarda ham o‘zini tuta bilishlikni, sabr-toqatli, tavoze va odobli, sahovatlari, qimmatli, muruvvatli bo‘lishlikni, xayrihohlikni talab etadi. Bu sifatlar o‘qituvchida o‘z-o‘zidan emas, to‘xtovsiz mehnat qilish, o‘rganish, ijod qilish, bolalar ta’limi yuzasidan tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, ish natijalari yuzasidan o‘rtoqlashish, muhokama o‘tkazish jarayonida hosil bo‘ladi.

O‘qituvchining mahoratli bo‘lishi ko‘p jihatdan uning madaniyatli bo‘lishiga ham bog‘liq. Bunda ko‘proq axloqiy va estetik madaniyat nazarda tutiladi. Mahoratli o‘qituvchi o‘z ishiga o‘ta mas’uliyatli va talabchan bo‘ladi, u doimo o‘zini muallimlik mahoratini qanchalik uddasidan chiqqanligini tekshirib borishi, bola ongi va qalbiga yo‘l topishiga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Mahoratli o‘qituvchi uni 30-40 sinchkov qorako‘z ko‘zatib turganligini, uni ma’naviy madaniyati, adolatparvarligi, tashqi qiyofasi, mehribonligidan bolalar namuna olishlarini doimo yodda tutishi lozim.

Mohir o‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalarini tinimsiz o‘rganib boradi. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Tashhis ta’lim asosida ish yuritish.
2. Texnika vositalaridan keng foydalanish.
3. Modulli o‘qitish metodini bilish.
4. Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish, bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish.
5. Ta’limga individual va tabaqalashtirilgan holda yondoshish.
6. Darslarni munozarali o‘yin va musobaqa tarzida o‘tkazish v.b.

Ilg‘or tajribani o‘rganish, undan ko‘r-ko‘rona o‘z faoliyatida foydalanish degan ma’noni bildirmaydi. Uning ayrim jihatlaridangina foydalanish mumkin.

Chunki, har bir maktabni, har bir sinfni, har bir o‘quvchini, u yerda olib borilayotgan ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi.

Har bir o‘qituvchi mahorati, avvalo o‘z sohasini yaxshi bilishiga bog‘liq. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlarining tarixi va nazariyasini bilish;
- o‘zbek san’atining milliy, badiiy an’analari yuzasidan chuqur bilimlarga ega bo‘lish;
- tasviriy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish hamda uni muntazam takomillashtirib borish;
- tasviriy san’atning pedagogik-psixologik asoslari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga doir ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallagan bo‘lish;
- tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlarining u yoki bu turi yoki janrlari bo‘yicha ijodiy ishlar bilan shug‘ullanish;
- o‘quvchilarning tasviriy faoliyatiga doir to‘xtovsiz tajriba-sinov, ilmiy-metodik ishlar bilan shug‘ullanish;
- tasviriy san’atni o‘qitish metodikasiga doir ilg‘or tajribalarni muntazam o‘rganib borish;
- tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi, San’atshunoslikka doir adabiyotlarni va tadqiqot natijalarini muntazam o‘rganib borish;
- maktabda o‘qitiladigan barcha fanlardan (ayniqsa, adabiyot, tarix, matematika, biologiya, chizmachilik, mehnat v.b.) ta’lim mazmuni bilan tanishgan bo‘lishlik.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, bir o‘qituvchi boshqa bir o‘qituvchi metodikasini o‘rganib Shu asosda to‘liq ish olib borishi mumkin emas. har bir o‘qituvchi o‘zining shaxsiy o‘qitish metodikasiga ega bo‘lishi lozim. Chunki o‘qitish ishlarida yagona retseptdan foydalanib bo‘lmaydi. har bir ta’lim-tarbiya

retsepti har bir tuman, maktab o‘qituvchining ish sharoiti va o‘ziga xos xususiyatlari asosida belgilanadi.

Yuqorida qayd qilingan fikrlardan o‘qituvchilik kasbini murakkab, og‘ir, mushkul kasb ekan, degan xulosa chiqarmaslik va tushkunlikka tushmaslik lozim. O‘z ishiga mas’uliyat bilan qaragan har bir o‘qituvchi mohir muallim bo‘lib yetishishi muqarrardir. Shuningdek, o‘qituvchilik kasbi qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, uning sharafli kasb ekanligini unutmaslik lozim.

### **Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi xonasini tashkil etish va jihozlash.**

Hozirda tasviriy san’at darslarini davlat ta’lim standartlari talablari darajasida o‘tkazish uchun uning moddiy texnikaviy asoslarini yaratish zarur. Chunki, tasviriy san’at darslarida texnika vositalari, ko‘rgazmali va metodik materiallar shunchalik ko‘p ishlataladiki, ularni maxsus xonalarsiz to‘plab bo‘lmaydi.

Tasviriy san’atdan olib boriladigan ishlarning hajmi va turlari ham xilmoxildir. Maxsus xonaning zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- tasviriy san’at va chizmachilik darslarini yuksak metodik saviyada olib borish:
- tasviriy va amaliy san’atdan to‘garak ishlarini o‘tkazish;
- tasviriy va amaliy san’atdan sinfdan tashqari ishlarni (uchraShuv, tanlov, ko‘rgazma, suhbat, munozara, kecha v.b.) tashkil etish;
- o‘quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlarini o‘tkazish;
- jamoa bo‘lib televidenie orqali beriladigan maxsus ko‘rsatuvlarni tomosha va munozara qilish v.b.

Ayniqsa, san’at asarlarini perspektiva, rangShunoslik, yorug‘soya qonunlarini, rassomlarning hayoti va ijodini o‘rganishda tasviriy san’at xonasining ahamiyati beqiyosdir. Tasviriy san’atdan ko‘rgazmali qurollar hisoblangan gipsli geometrik shakllar, gipsli rozetkalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari (lagan, choynak,

piyola, guldon, kapkir, bidon, qumg'on, patnis, sabzi taxta v.b.) musiqa asboblari (rubob, dutor, nay, childirma, surnay, skripka, v.b.) meva va sabzavotlar (olma, nok, behi, qovun, tarvo'z, qovoq, sabzi, piyoz, baqlajon, o'zum, anor, v.b.)ning modellari, qush va hayvonlarning (quyon, chumchuq, qaldirg'och, kabutar, qarg'a, bulbul, sa'va, to'ti, tipratikon, laylak, turna v.b.) tulumlarini saqlash va ulardan foydalanish uchun maxsus xona talab etiladi.

Tasviriy san'atdan o'zbek va chet el rassomlari, xalq amaliy san'ati va me'morchilik asarlarining reprodo'qtsiyalari, rangshunoslik, yorug'-soya va perspektiva qonunlariga oid chizish va bo'yash usullarini ko'rsatuvchi ko'rgazmali qurollar borki (22 - rasm), ulardan unumli foydalanish ko'p jihatdan maxsus xonaga bog'liqdir.



22-rasm.

Ma'lumki, tasviriy san'at mashg'ulotlarini dastur talablari darajasida o'tkazish, rasm chizish uchun molbert yoki moslamali parta, natura qo'yish uchun taglik, naturani sun'iy ravishda yorituvchi asboblar kerak bo'ladi. Tasviriy san'at xonasi bo'limgan taqdirda bu ko'rsatilgan ko'rgazma va texnika vositalarini (mavzuga taaluqli bo'lganlarini albatta) o'quvchi sinfdan-sinfga ko'tarib yurishiga to'g'ri keladi. Bu ishlar esa ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ularni amalga oshirib bo'lmaydi. Natijada, mashg'ulotlarning ko'pchiligi

ko‘rgazmaliliksiz o‘tiladi va u dastur talablariga javob bermaydi. hozirda, boshqa fanlar qatori tasviriy san’at darslarini texnika vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki, San’atshunoslik asoslari kursini o‘tishda ko‘plab slayda, diopozitiv, diafilm, kinofilmlar namoyish etish kerak. Maktablarni yoppasiga kompyuterlashtirish amalga oshirilayotgan bir davrda maxsus xonaning bo‘lishi yanada oydinlashadi. Mana shuning uchun ham hozirda tasviriy san’at predmetining o‘qitilishini talablar darajasiga ko‘tarish uchun har bir mакtabda bu fandan maxsus xona bo‘lish shart.

Hali ko‘pchilik maktablarimizda maxsus xonalar tashkil etilmagan, tashkil etilganlari esa zamon talablari asosida jihozlanmagan.

O‘qituvchilar maxsus xonani tashkil etishda ota-onalar, faollar, jamoatchilik, hayriya tashkilotlar yordamiga tayanmaydilar, mehnat o‘qituvchisi bilan hamkorlikni ravo ko‘rmaydilar.

Ma’lumki, maxsus xonalarda tasviriy san’at darslari, to‘garak mashg‘ulotlari asosiy o‘rinni egallaydi. Shunga qaramasdan, ba’zi bir o‘qituvchilar mashg‘ulot jarayonini takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishda xonaning katta imkoniyatlaridan yaxshi foydalana olmaydilar. Masalan, o‘quvchilar darsga kirganlarida qo‘yiladigan natura, texnika vositalari orqali ko‘rsatiladigan ko‘rgazmalar, reproduktsiyalar tayyor holda keltirib qo‘yilmaydi, sinfni qorong‘ilashtiruvchi shtorlar, texnika vositalari avtomatik ravishda emas, qo‘l bilan boshqariladi.

Ba’zi bir o‘qituvchilar, ta’lim va tarbiyadagi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda san’atga oid kitoblar, broshyura, albom, diafilm, diapozitiv, san’at asarlari reprodo‘qtsiyalarining roli kattaligini tushunib yetmaydilar yoki tushunib yetsalar qam unga yetarlicha e’tibor bermaydilar. Tajribali o‘qituvchilar esa ko‘rgazmali qurollar uchun shkaf va stol ostlarida alohida-alohida o‘rinlar ajratadilar va ulardan maqsadga muvofiq foydalanadilar. Ko‘rgazmalar xonada shunday joylashtiriladiki, o‘qituvchi ishlatish vaqtি kelganda har qanday sharoitda xohlagan ko‘rgazmasini hech qiynalmasdan bir zumdayoq topa oladi. Yana shuni

ham qayd qilish lozimki, bu ko‘rgazmali qurollarning doimo toza va bejirim bo‘lishiga harakat qiladilar. Ishdan chiqqan yoki shikastlangan ko‘rgazmalar bolalar yordamida yaroqli holga keltirib qo‘yiladi.

Shuningdek, o‘quvchilar tasviriy san’at mashg‘ulotlarining qiziqarli va sermazmun bo‘lishi uchun xonaning maxsus shkaflarida guash, akvarel bo‘yoqlar, flomaster, pastel, ugol, sangina sous, rangli tushlar, plastilin, rangli qog‘ozlar, gazlama parchalari, sabzavot va meva urug‘lari, haykaltaroshlik uchun maxsus loy, tabiiy materiallarni saqlaydilar. Ko‘rgazmali qurollarni yig‘ishda (reproto‘qtsiyalar, otkritkalar, turmushda qo‘llaniladigan buyumlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, musiqa asboblari, v.b. ) bolalar kuchidan unumli foydalanadilar.

Xona jihozlari, ko‘rgazmali qurollarni yig‘ishda turli-tuman, tadbirlarni o‘tkazishda bolalarning kuchidan yetarlicha foydalana olmaslik olib borilayotgan ishlarning to‘laqonli va sermazmun bo‘lishiga imkon bermaydi. Shu narsa aniqki, bola qilgan mehnatining samarasidan zavqlansagina uning qadriga yetadi. Shuning uchun ham xonadagi hamma ishlarga bolalarni jalb qilish va ularning sevimli joyiga aylanishiga erishish lozim.

Tasviriy san’at xonasida to‘garak ishlari mashg‘ulotlarini oddiy stol yoki partada olib borish mumkin emas. Shunga qaramasdan, ko‘pchilik tasviriy san’at xonalarida bunday jihozlar yo‘q.

Tasviriy san’at darslari molbert, planshet va tagliklar, yorituvchi asboblar, safit, shkaf va boshqa Shu kabi o‘quv jihozlari bo‘lishini talab etadi.

Xonada ish joyini shunday tashkil etish kerakki, darsdan tashqari vaqtarda mustaqil ravishda rasm ishlash maqsadida xonaga kirgan har bir o‘quvchi, u yerda o‘zi uchun tegishli sharoitni his etsin.

Yuqorida ta’kidlab aytganimizdek, tasviriy san’at xonasida darsdan tashqari ishlar katta o‘rinni egallaydi. Bular tanlov va ko‘rgazmalar, ma’ro‘za va suhbatlar, san’at haftaliklari va kechalar, uchrashuv va olimpiadalar o‘tkazish, devoriy gazetalar chiqarish, albomlar tayyorlash, markalar yig‘ish va boshqalardir. Bu ishlar xonada muntazam ravishda o‘tkazilib turgan taqdirdagina samarali

natijalarni kutish mumkin, xonani mактабда estetik tarbiya markaziga aylantirsa bo‘ladi.

Shunday ekan, tasviriy san’at xonalariga qanday talablar qо‘yiladi, uning faoliyati qanday tashkil etiladi, degan savol tug‘iladi. Xonani tashkil etish uchun avvalo, kengroq va oftob nuri tushmaydigan xona tanlanadi. Yuqorida qayd qilganimizdek, tasviriy san’at xonasini talablar darajasida jihozlash uchun kerak bo‘ladigan o‘quv qurollari va jihozlar yetarli bo‘lishiga erishish zarur. Masalan, texnika vositalari, natura uchun taglik, rasm chizish uchun maxsus molbert, loy va bo‘yoqlar bilan ishlangan ishlarni quritish uchun etajerkalar, naturani yorutuvchi asboblar, suvni tez-tez tozalab turish uchun chelaklar Shular jumlasidandir. Maxsus xona uchun joy tanlash yoki ajratish haqida gap borganda, natura va metodik fond uchun uning yonida kichik bir xona bo‘lishiga e’tibor bermoq lozim. Shuningdek, xonada suv krani bo‘lishi ham shart, chunki bolalar bo‘yoq bilan ishslash darslarida ifloslangan suvni tez-tez tozalab turishlari kerak bo‘ladi.

Xonaning jihozlari haqida gap borganda shuni ham qayd qilish lozimki, derazalarga albatta oq pardalar tutilishi va ular derazanining butun yo‘zasini egallashi lozim. Pardalar sinf derazalaridan to‘g‘ri to’shadigan quyosh yorug‘ligini to‘sadi. Bu esa chizish uchun qо‘yilgan naturada yorug‘soyani ish davomida kechgacha bir xil saqlanishiga imkon beradi.

Xonada texnika vositarining bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, katta to‘q rangdagi pardalarning (shtor) bo‘lishi ham shart. U naturaga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida juda zarur bo‘ladi. Chunki, darsda naturaga yorug‘lik faqat birgina manbadan tushishi talab etiladi. Yorug‘lik ikki va undan ortiq manbadan tushgan taqdirda soyalar soni ham shuncha bo‘ladi. Natijada birinchi manba yorug‘ligiga qarashli soyani ikkinchi manba yorug‘ligi yo‘qotib, yorug‘lantirib yuboradi va soyalar butunlay ko‘rinmay qoladi.

Naturaning o‘ziga qarab rasm ishslashda iloji boricha uni tabiiy kundo‘zgi yorug‘likda ishslash lozim. Kechki payt chizish lozim bo‘lib qolgan taqdirda natura lyuminetsentli lampalar orqali yorug‘lantiriladi. Oddiy lampochkalar orqali

yorug‘lantirilganda u natura ranglariga ta’sir ko‘rsatib, ularni o‘zgartirib yuboradi, ya’ni naturaning haqiqiy rangi bo‘ziladi.

Naturaning o‘ziga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarida sinfni normal yorug‘lantirish imkonini bo‘lmagan taqdirda (ayniqsa havo bulutli paytlar yoki kechqurun) naturani yorug‘lantirish maqsadida maxsus yorituvchi asboblardan foydalaniladi. U safit deb yuritiladi. Naturani to‘g‘ri yorug‘lantirish orqali undagi yorug‘, soya, yarimsoya, refleks, blik kabilar bolalarda aniq va ravshan ko‘rinadi. Bunday yorituvchi asboblar lampochka, yorug‘lik qaytaruvchi va oyoqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning oyog‘ini yog‘ochdan, Shuningdek, metalldan oson tayyorlash mumkin. Bunday asboblarni usta yoki o‘qituvchilarining o‘zlarini tayyorlaganlarida, uning lampochka o‘rnataladigan qismining rasmida ko‘rsatilganidek vertikal va gorizontal bo‘yicha bemalol harakat qiladigan bo‘lishiga e’tibor berish lozim.

Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish darslari uchun tagliklar kerak bo‘ladi. Odadta ularning bir necha xillari ishlatiladi. Ko‘p tarqalgan turlari bu oyoqli va devorga osiladiganlari hisoblanadi. U ikki gorizontal va vertikal holatdagi planshetlardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro oshiq-moshiq bilan mahkamlanadilar.

Bunday tagliklar, asosan doska oldiga natura qo‘yish uchun mo‘ljallanadi. Bunday tagliklarning gorizontal qismi naturani qo‘yish, vertikal qismi esa fonga mo‘ljallangan drapirovkalarga xizmat qiladi.

Ma’lumki, naturani bir yerga qo‘yish yetarli emas. Natura o‘quvchining ufq chizig‘idan pastga o‘rnatalishi sababli hammaga bir xil ko‘rinmaydi. Shuning uchun natura partalar orasiga ham qo‘yiladi. Bunday sharoitda oyoqli tagliklarni ishlatish lozim bo‘ladi. Oyoqli tagliklar polga qo‘yish uchun mo‘ljallab yasaladi. Yasalish jihatdan juda sodda bo‘lgan oyoqli taglik oddiy taburetkanining oyog‘ini 20-25 sm.ga o‘zaytirish va fon uchun vertikal planshetni uning ustki tomoniga mahkamlash orqali hosil qilinadi. Bunday tagliklardan faqat partalararo natura qo‘yishda foydalaniladi. Darslar maxsus xonada o‘tkazilmaydigan maktablarda bunday tagliklardan foydalanib bo‘lmaydi. Ikkala turdagи tagliklarni ham

yog‘ochdan, Shuningdek, metalldan maktab ustaxonalarida osonlik bilan yasash mumkin.

Quyidagi jihozlarni tasviriy san’at xonasida bo‘lishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Maxsus sinf doskasi (oddiy, magnitli v.b.)
2. Ko‘rgazmali qurollar uchun shkaflar.
3. O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun maxsus mebellar.
4. Bolalar ishlangan rasm va haykallarni quritish uchun stelajlar.
5. Loydan ishlangan haykallarni pishirish uchun mufel pechi.
6. Dioproektor, filmoskop, epidiaskop, televizor, video, magnitafon, kompyuter, fotoapparat v.b.
7. Diapositiv, epiproektsiya, diafilmlarni namoyish etish uchun ekran.
8. Texnika vositalarini o‘rnatish uchun taglik.
9. Sinf xonasini qorong‘ilatish uchun kerak bo‘ladigan pardalar.
10. Naturani yorituvchi safitlar.
11. Haykal ishlash uchun tagiga linoleum qoplangan planshetlar.
12. Toza suv uchun chelak.
13. Mo‘yqalamni bo‘yoqdan tozalash uchun ishlatiladigan chelak.
14. Har bir o‘quvchi uchun suv idish.
15. Oq va rangli bo‘rlar.
16. Haykaltaroshlik ishlari uchun katta hajmli idishda loy.

Xona uchun natura fondi va san’at asarlari reproduksiyalarini to‘plashga o‘quvchilarni, molbert natura uchun tagliklar, yorituvchi asboblar, shkaf va stend tayyorlashga, texnika vositalarini sotib olishga esa hayriya tashkilotlar va otonalarni jalg qilish yaxshi natijalar beradi. Natura fondida turmushda qo‘llaniladigan asbob va uskunalar katta o‘rinni egallaydi. Ular lagan, tovoq, qoshiq, choynak, piyola, kosa, kapkir, sabzi taxta, cho‘mich, kastryul, guldron, tarelka, patnis, musiqa asboblaridan-doira, childirma, rubob, dutor, g‘ijjak, tor,

skripka, nay, sport buyumlaridan - futbol to‘pi, tennis raketkasi, ko‘tariladigan toshlar-gantel, shaxmat doskasi v.b. shular jumlasidandir.

Turmushga yaroqsiz (singan yoki chekkasi uchgan) buyumlardan natura sifatida foydalanish mumkin. Bu buyumlar bolalar yordamida natura fondi uchun yig‘iladi. Ular ishlatilmay yotganligi sababli iflos va ko‘rimsiz bo‘ladi. Natura uchun ularni bunday holda qo‘yish yaramaydi. Iflos buyumlarni tozalattirish va ishga yaroqli ko‘rinishga keltirib qo‘yish lozim.

Tasviriy san’at asarlarining reproduktsiyalari va otkritkalari haqida ham ana shunday fikrlarni bildirish mumkin.

Ma’lumki, ko‘plab jurnallarda tasviriy san’atga oid rangli reprodo‘qtsiyalar beriladi. Ularni yig‘ishga o‘quvchilar kuchidan dars va darsdan tashqari vaqtarda foydalanish mumkin. San’at asarlari reproduktsiyalari va otkritkalarini yig‘ishga O‘qituvchi jiddiy va maqsadga muvofiq holda yondoshgandagina yaxshi natijalar olishi mumkin. Bunday namunalarni ma’lum mavzu asosida yig‘dirish va ularni albomga yopishtirish, unga baho qo‘yish, olib borilayotgan (surat tagiga uning muallifi nomini yozib qo‘yiladi) tadbirning samarali bo‘lishiga olib keladi.

Tasviriy san’at xonasini maqsadga muvofiq tashkil etishda uning badiiy bezagi alohida ahamiyat kasb etadi. Xonaning badiiy bezagi deganda avvalo, xona jihozlarini joy-joyiga qo‘yish, buyumlarni, xona devorlarini tegishli ranglarga bo‘yash ham nazarda tutiladi. Shuningdek, xonaning badiiy bezagi uning to‘g‘ri yorug‘lanrilishi bilan ham bog‘liqdir. Badiiy jihatdan to‘g‘ri bezalgan xona o‘quvchilarning ruhiyatiga ta’sir etib, ularda iliq kayfiyat hosil qiladi, tez toliqtirmaydi, tasviriy faoliyatlarga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi o‘qituvchilar tasviriy san’at xonasini jihozlashda unga ortiqcha e’tibor berib yuboradilar. hattoki, o‘quvchilarning chizmachilikdan chizmalarini, bolalar rasmlarining ko‘rgazmalarini, turli ko‘rgazmali qurollarni, san’at asarlari reproduktsiyalarini devorlarga osib qo‘yishadi. Geometrik va gipsli shakllar, qush tulumlari va meva sabzavotlarning mulyajlarini ochiq saqlashadi, turli lozung va chaqiriqlar ham bo‘ladi. Xonaning yuqori qismini buyo‘q rassomlarning portretlari bilan to‘lg‘azib

tashlash hollari ham tez-tez uchrab turadi. hattoki Shunday hollar ham bo‘ladiki, xona devorlarida bo‘sh joy qolmaydi. Bu yo‘sinda bezatishning zarari shundaki, xonada turli-tuman qurollar, ko‘rgazmali materiallarning ko‘pligi, ularning ranglari xonaga kirgan o‘quvchi ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, o‘quvchi o‘zini sinfda siqilib qolayotgandek his qiladi va xonadan tezroq chiqib ketishga harakat qiladi.

Ba’zan, xonalar uning jihozni va badiiy bezagi yillab o‘zgarmay turaveradi. Natijada, ular o‘quvchilarni me’dasiga tegadi va ularni mutlaqo qiziqtirmay qo‘yadi. Natijada bu yerdan bolalar yangi ma’lumot va yangi taassurotlar ololmaydilar.

Xonaning devorlarini tinch, sokin ranglar bilan bo‘yash maqsadga muvofiqdir. Chunki, keskin va yorqin ranglar bolalarni tez toliqtiradi. Shuningdek, xonadagi eshik, deraza, pol, shift, doska kabilarning ranglarini ham xonaning umumiyligi rang gammasiga bo‘ysundirish lozim. Ular bir-birlaridan och-to‘qligi bilan, rang tusi, to‘yinganligi bilan keskin farq qilmagani ma’qul. Xona devorlarida turli-tuman, umuman, rang-barang ko‘rgazmalarning bo‘lishi dars jarayonida ba’zi bolalarning e’tiborini o‘ziga tortadi. Natijada, bola chalg‘iydi, unga o‘qituvchining nutqi e’tibordan qoladi. Bular hammasi xonada olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham tasviriy san’at xonasida ortiqcha narsalarning bo‘lmasligi, sinfda mashhur rassomlardan birontasining portreti, texnika vositalari (u ham usti yopiq holda), tuvakli gullarni sinf burchagini bo‘lishligi yetarlidir. Ko‘rgazmali qurollar esa maxsus shkaflarda (o‘quvchilarni ko‘zi tushmaydigan joyda) saqlanishi lozim. Turli xil ko‘rgazma, fotostend va e’lonlar, diplom va yorliqlarni muktab yo‘lagiga (tasviriy san’at xonasiga yaqin joyga) o‘rnatish maqsadga muvofiqdir.

Maktabda tasviriy san’at xonasi ko‘rgazmali qurollar, texnika vositalari va boshqa jihozlar saqlanadigan, ta’lim-tarbiya ishlari olib boriladigan madaniyat o‘chog‘idir.

## **Tasviriy san'at darslarini olib borishda o'qituvchining oldiga qo'yiladigan talablar.**

San'at maktablari va maktablarda rasm chizishga o'rgatish, eng avvalo bolaning o'quv sharoitidagi rassomlik faoliyati shunchaki o'yin uchun emas, balki ta'lif sifatida bajarila boshlanishini esdan chiqarmaslik kerak. Ilk saboqdan boshlab o'quvchilarda realistik tasvirga xos bilim va ko'nikmalar asosini tarbiyalash, ularni sodda va ibridoiy rasmdan chetlashtirish zarur. O'quv jarayonida bolalarga bilim asoslarini o'rgata boshlaydilar, xuddi shunday tasviriy san'at sohasida ham shaklning tekislikda tasvirlanishi qoidalari va qonunlari haqida ularda to'g'ri tushuncha tarbiyalamoq darkor. Shu boisdan, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilib, o'quvchining e'tiborini eng asosiy masalaga qarata olib, o'quv materialini tez o'zlashtirish yo'llarini ko'rsatish lozim bo'lgan o'qituvchining asosiy rahbarlik roliga ega ekanligi o'z-o'zidan tushunarlidir.

Badiiy ma'lumot, pedagog tomonidan qilinadigan mohirona rahbarlikning zarurligini qayd qila turib, bolalar san'at bilan yuzaki tanishib qolmasdan, iloji boricha chuqurroq bilim va ko'nikmalar o'zlashtirishlariga intilamiz. Inson o'zi bilmagan narsani sezsa olmaydi, u hech qachon shug'ullanmagan biron ishga qiziqa olmaydi.

Yoshlikda bolalar har qanday ish bilan shug'ullanishiga ham tayyorlar, ular bajonidil shaharlar qurishga kirishadilar, rasm soladilar, raqs tushadilar, ashula aytadilar va h.k. Ammo shu ish jarayonida takomillashishi zarur bo'lgan pallada ular yordami va rahbarlikka muxtoj bo'ladilar. Ana shu paytda ularning oldiga tajribali raxbar kelmas ekan, ular oldin butun vujudi bilan qiziqib bajargan mashg'ulotlaridan sovib qoladilar. Pedagog tafakkurning ajoyib vakillari rasmdan dars berishni to'g'ri yo'ldan olib borish zarurligini har doim uqtirib kelganlar.

O'quv dargohida rasmdan berishni umumta'lism predmeti sifatida baholash bilan birga uni ayni vaqtda o'yin, ermakka aylantirib yubormaslik zarur.

Har bir tasviriy san'at o'qituvchisi ta'lif va tarbiya uchun mas'ul bo'lib, o'quvchilar faoliyatini boshqaradi va izga soladi, ularning mashg'ulotlarini tashkil qiladi. Pedagogning rahbarligi va yo'l ko'rsatuvchi rolisiz, har bir o'quvchini

xormay-tolmay diqqat bilan kuzatib bormay turib o‘quv dargohida ta’lim-tarbiya ishini olib borish mumkin emas.

Tasviriy san’atni ko‘pdan-ko‘p maktablarda o‘qitish, aytib o‘tganimizdek, dastavval maxsus maqsad emas, balki umumta’lim maktablar ko‘zlaydi. Ularning bolalarning tevarak-atrofdagi olam bilan tanishishlariga ko‘maklashadi, kuzatuvchanliklarini rivojlantiradi, buyumning shakli va rangini farqlashga, ularni o‘zaro taqqoslashga, o‘xhashlik tomonlari va farqlarini aniqlashga o‘rgatadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar oldida go‘zallik olamini ochib beradi, ularning estetik didlarini rivojlantiradi, bilim olishga, kamolatga erishishida, ularni qurshab turgan hamma narsani yaxshiroq va go‘zalroq qilishga bo‘lgan intilishlarini tarbiyalaydi. Pedagog buning hammasiga o‘quvchilarni katta san’at realistik yo‘nalishidagi san’at asarlari bilan ilhomlantiribgina emas, balki tasviriy savod asoslarini o‘qitish bilan erishish mumkin.

Tasviriy san’at asarlarini o‘quvchi faqat o‘qituvchi ko‘magidagina o‘zlashtirish mumkin. Ta’limning dastlabki qadamlaridan o‘qituvchi unga ustoz va rahbar darkor. Masalan, naturadan rasm chizish, o‘quvchi unga qanday qilib kirilmog‘i kerakligini, ishini nimadan boshlash zarurligini, qanday qilib bir varaq oq qog‘ozdagagi ishning uddasidan chiqmoq kerakligini bilmaydi. Tajribali pedagog unga o‘zi ishini alohida bo‘laklarga qanday qilib bo‘lish va ularni qanday izchillikda hal qilish mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Naturadan rasm chizishni o‘rgatish pallasida pedagog dastavval naturani kuzatish va qabul qilish masalasiga e’tibor beradi.

To‘g‘ri ko‘ra olish qobiliyati insonda tabiiy bo‘lib, u rivojlanmog‘i zarur. Buning uchun bolalik chog‘dan narsalarni diqqat-e’tibor bilan ko‘zdan kechirishga, uning shaklidagi, rangidagi, proporsiyasidagi o‘ziga xos xususiyatlarga e’tibor berishga, buyumlar qurilishini tahlil qilishga o‘rgatmoq kerak.

Naturani tahliliga kirishmasdan turib, o‘qituvchi bolalarning e’tiborini mazkur buyumga qaratib, quyidagiday qator savollar beradi: Buyum shaklining xususiyati qanday? Proporsiyalar qanday, ya’ni buyumning balandligi enidan

ziyodmi, yo aksinchami? Buyumga yorug‘ qanday tushmoqda? Natura bilan shu tariqa tanishish uni keyinchalik o‘rganib borishda yo‘llanma bo‘ladi.

Pedagog asta-sekin chuqurroq kuzatishlarga o‘tadi: u natura ko‘rilishining taqsimlanishi qonuniyatini, perspektiv hodisalar qonuniyatini tushuntiradi.

O‘rganilayotgan ob‘ektni aniq tasavvur etish uchun o‘quvchi dastavval uning shaklini butunligicha qamrab olishi, so‘ng mazkur buyumning barcha belgilarini, uning barcha muxim detallarini, xususiyatlarini aniq ilg‘ab olmog‘i va shu bilan birga mazkur elementlarning o‘zaro joylashishi, ya’ni naturaning qurilish birligini yorqin tasavvur qilmog‘i zarur.

O‘qituvchining tushuntirishlarini sinf taxtasida rasmlar bilan ko‘rsatmali qilib izohlab berilsa yoki metodik qo‘llanmalarda foydalanib tushuntirilsa hammaning anglab olishi osonlashadi.

O‘quvchi natura bilan tanishib olgandan keyin rasm chizishga o‘tishi mumkin bo‘ladi. Pedagog uning oldiga o‘quv vazifalarni qo‘yadi, ma’lum sistemaga ko‘ra tasvirni chizish jarayonida uning kuzatishlarini tashkil qiladi, natura ko‘rilishidagi eng muhim xususiyatlarga uning e’tiborini kuzatadi.

Pedagog o‘quvchi fikrining faoliyatini diqqat bilan kuzatib boradi, doim uni to‘g‘rilab, qo‘llab-quvvatlab turadi. “O‘quvchi uchun o‘ylash” kerak emas, ayniqsa uning o‘rniga rasm chizishning hojati yo‘q, u o‘z fikri, ko‘nikmalarini mashq qildirsin, lekin uning ishini ham nazardan chetlatib bo‘lmaydi. O‘quvchi mushkullariga duch kelganida unga o‘z vaqtida ishora, yordamchi savol bilan ko‘maklashishi kerak.

Boshlang‘ich kurslarda bolalar naturani tasvirni bunyod etish jarayonida tahlil qilishga o‘rganmagan bo‘lib, rasmni dastlabki taassurot bo‘yicha bajaradilar. Ular naturaga kamdan-kam murojaat qiladilar, o‘z rasmlarini natura bilan taqqoslamaydilar ham desa bo‘ladi. Ularning o‘quvchilar bolalar diqqatini yuzaki kuzatishdan naturani qanday taxlil qilishga yo‘llagan holda ko‘niktirib o‘rgata boradi. Rasm chizayotib o‘quvchilar shoshmasdan, ehtiyyotlik bilan bir qiyinchilikdan ikkinchisiga o‘tib bormoqlari zarur.

Agar o‘quvchi noto‘g‘ri chizsa, pedagog darhol uning xatosini ko‘rsatib, tuzatishni maslahat beradi. O‘quvchi tasvirni ilgarigiday, qalamning uchini qog‘ozga asta tegizgan holda, iloji boricha o‘chirg‘ichdan foydalanmasdan tuzatadi, rasm juda kirlangan bo‘lsa, uni tuzatib bo‘lmaydigan xoldagina o‘chirg‘ich ishlatalidi.

Xatolarni tuzatish texnikasini o‘qituvchi shogirdining o‘zi chizgan rasmni ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga xatoni tuzata turib o‘quvchiga batafsil tushuntirish kerak, toki u o‘z xatosining sababini va uni tuzatish metodikasini yaqqol anglab olsin. Amalda bu qoidaga ko‘pincha amal qilinmaydi. O‘qituvchi “noto‘g‘ri” deb qo‘ya qoladi, xato nimaligini va uni qanday qilib kuzatmoq kerakligini tushuntirmaydi.

Xatoni o‘z vaqtida ko‘rsatish va o‘z vaqtida yordam berish kerak. Bu borada o‘qituvchi kechikar ekan, keyinchalik o‘quvchiga xatosini tuzatishda ko‘maklashish ancha mushkul bo‘ladi.

O‘quvchilar endi rasm chiza boshlaganda o‘quvchi sinfda o‘z ishini qanday qilib yaxshiroq uyushtirish mumkin? Tushuntirgandan so‘ng 2-3 minut o‘tgach u xonani aylanib chiqadi va o‘quvchilarning ishini kuzatadi. Shunday qilib, o‘qituvchining birinchi aylanib chiqishida har bir o‘quvchi pedagogdan ishini davom ettirishda to‘g‘ri ko‘rsatma oladi. Auditoriyani aylanib chiqqan o‘qituvchi yana o‘sha eng oldin ko‘rsatma bergen o‘quvchining yoniga qaytadi.

Pedagog hamma bolalarda tipik xatoni sezib qolsa, u ishni to‘xtatib, barcha o‘quvchilarning diqqatini ana shu xatoga jalb etadi. Bunday hollarda tushuntirishni doskaning yonida turib olib borgan ma’qul. O‘qituvchi dastlabki xatoning sababibini batafsil tushuntiradi, so‘ng auditoriya doskasida uni qanday tuzatish kerakligini ko‘rsatib beradi.

O‘quv materialini bayon qilish jarayonida o‘qituvchi oldida doim o‘quvchilar uni tushunib olishlari uchun qilish kerak bo‘lgan barcha ishni bajarish vazifasi turadi. O‘qituvchining har bir so‘zini o‘quvchilar anglab olmoqlari lozim. O‘quv materiali shunday bayon etilsinki, bolalar uni qiynalmasdan o‘zlashtirib

olsinlar. Buning uchun esa o‘quvchi tushunmaydigan, u birinchi bor eshitayotgan so‘zlar va iboralarni ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Agar o‘qituvchi bunday so‘zlarni ishlatmaslikka harakat qilish kerak. Agar o‘qituvchi bunday so‘zlarning ishlatmaslikning iloji bo‘lmasa (masalan, ton, kolorit, lessirovka), u shu yerdayoq ularning ma’nosini o‘quvchilarga tushuntirib, bu haqda aniq va yorqin qilib aytib berishi lozim.

Material bayoni quruq va zerikarli bo‘lib qolmasligi ham ahamiyatlidir. O‘quvchilarni qiziqtirib, maftun etmoq kerak.

O‘qituvchi materialni oddiy va maroqli tarzda gapirar ekan, uni odatda, butun sinf jiddiy e’tibor bilan tinglaydi. O‘qituvchi mavzusi noaniq, chalkashtirgan tusda aytib bersa, o‘quvchi mavzuni noaniq, chalkashtirgan tusda aytib bersa, o‘quvchilar asta-sekin uni eshitmay qo‘yadilar.

Pedagog amaliyat davrida biz o‘quvchilar va o‘qituvchini ko‘p kuzatib, shunday hodisalarining shohidi bo‘lishiga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi sinfga kirar ekan, darhol hamma bolalarning dikqatini o‘ziga tortadi. Endi ular o‘qituvchining ixtiyorida va bunday keyingi vaziyat muallifning bolalar diqkatini shu holatda saqlay olishga bog‘liq bo‘ladi. Tajribali o‘qituvchi darhol bolalarning e’tiborini o‘ziga qaratadi va bir daqiqaga ham vaziyatni o‘zgartirmasdan dars mavzusiga o‘tadi. Kam tajribali o‘qituvchi esa ko‘pincha o‘z o‘quvchilarning diqqat-e’tibolrini bo‘lib qo‘yadi, yo o‘quvchilarga dars mavzusini zerikarli tarzda e’lon qiladi, yoki materialni shu qadar zavqsiz ayta boshlaydiki, bolalar unga quloq solmay qo‘yadilar.

Ko‘p hollarda dars bolalarning emas, balki o‘qituvchining aybi bilan yomon o‘tadi. Masalan, o‘qituvchi san’at haqida suhbat dars o‘tkazar ekan, ko‘plari tinglamayotganini sezadi. U darsni bo‘lib hammani tartibga chaqiradi va so‘zida davom etadi.

Yana o‘sha natija. O‘qituvchi bu bolalarni hech narsa bilan qiziqtirib bo‘lmash ekan deb o‘ylay boshlaydi. Lekin buning sababi o‘qituvchi bolalarga notanish ibora va terminlarni ishlatishida edi.

Bu terminlarning mazmunini tushuntirib berishni xayoliga ham keltirmasdi. Bu narsa, albatta, bolalarni charchatar, tushunarli bo‘lmagan gaplar ularni qiziqtirmsidi.

Yuqorida aytilganidek, dekorativ va tematik rasm chizish darslarida o‘quv jarayonini uyushtirish metodikasiga alohida e’tibor bilan qarash lozim. Ko‘pchilik o‘quvchilar bu mashg‘ulotlarni passiv tarzda o‘quvchilarni o‘z hollariga tashklab quygan holda o‘tkazishadi. Ular bolalarning ana shu mashg‘ulotlarda mustaqil ijodiy ish olib bormoqlari zarur degan fikrga amal qiladilar. Masalan, agar o‘quvchilar o‘qituvchi bergen sxema bo‘yicha naqshlar chizib, asosan xalq ijodiy namunalaridan nusxa ko‘chirsalar, keyingi topshiriqlarni, ba’zi bir o‘quvchilarning fikriga ko‘ra, ular mustaqil ravishda, pedagogning yordamisiz bajarishlari lozim.

Bu esa noto‘g‘ridir. O‘qituvchi o‘zini chetga olib qolmasdan, doim o‘quvchilarni boshqarib borishi, ularga murakkab ijodiy masalalarda yordam berishi kerak.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida ayniqsa kompozitsiyadan dars berish metodikasi masalalariga alohida e’tibor berish kerak.

Shuni aytish kerakki, ba’zi rasm o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchilarni tematik rasm chizish darslarida o‘z holatiga tashlab qo‘yadilar. Bunda o‘qituvchilar kompozitsiya uchun mavzu berish bilan chegaralanadilar. Bolalarning ijodiy faoliyatiga aralashmay «erkin tarbiya» prinsipida ish ko‘radilar. Bunday hol bolalarning ijodiy rivojlanishiga, avvalgi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirgani grafik malakalarini mustahkamlashiga, qolaversa umumiy rivojlanishiga ham ta’sir etmaydi. Mashg‘ulot mazmuni samarali bo‘ladi.

Mavzu asosida rasm ishslash syujet qidirishdan boshlanib, o‘quvchining vazifasi mazkur yoshdagi o‘quvchilar uchun tushunarli va zavqli bo‘lgan syujet berishdan iboratdir. Qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda dastavval bolalarning oldindan ko‘rgan voqealardan qolgan taassurotlari, yo‘llarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlaridan foydalanish yordam beradi.

Fikr qilish va tasavvur etishda o‘tgan tajribalardan foydalanmasdan inson yangilik ijod etish, fikr qilishi mumkin emas. Rassom yoki yozuvchi asar yaratish ekan, doim hayotdan olingan real obrazlardan kelib chiqadi. Hatto fantastik obrazlarni yaratish jarayonida ijodkor insonga yaxshi ma’lum bo‘lgan obrazlar elementlariga tayanadi.

Mavzu asosida rasm chizish darslarida o‘quvchilarning ijodiy xayollarini rivojlantira turib, o‘qituvchi doim buni nazarda tutishi va o‘quvchilarning tafakkularini doim aktivlashtirishi, ularga kompozitsion mavzu qidirishlaridan to uni rasmda nihoyasiga yetkazgunlariga qadar bo‘lgan ishlarida ko‘maklashib bormog‘i kerak. Ayni vaqtda o‘qituvchi rasm kompozitsiyasini izohlar ekan, rasm chizuvchiga syujetni aniqroq, ifodaliroq tasvirlashga, mazkur voqeа va hodisaga nisbatan o‘zining munosabatini bildirishga yordamlashadi.

O‘qituvchi rasm darslarida, ayniqsa uning turlaridan biri mavzu asosida rasm chizish darslarida o‘quvchilarga komplzitsiya asoslari – simmetriya va assimetriya, muvozanat va surat, dinamika, ikkinchi darajali va rasm kompozitsiyasidagi asosiy masalani aniqlash zarurligini tushuntirib boradi.

Simmetriya qonuni kompozitsiyada uning o‘ng va chap qismlari o‘zaro bir-birining oynadagi aksi bo‘lishini talab qiladi. Yangi pedagogik texnologiya asosida tasviriy san’at metodikasi nazariyasi fanidan noan’anaviy – darslarni tashkil etish metodikasi (namuna).

Hammamizga ma’lumki, siz bilan biz 1-paralik, 80 ni 90 minutlik darsni tashkil etishga, (muhim dasturga suyangan holda) o‘rganib kelganmiz. Bu dars an’anaviy dars turi.

Endi tasviriy san’at metodika nazariyasidan qiziqarli noa’anaviy dars o‘tishdan bir lavhani sizga taqdim etmoqdamiz. Bizlar tavsiya etayotgan darsimiz namunaviy. Shuning uchun har bir tasviriy san’at o‘qituvchisi metodik tomondan mukammallashtirilgan, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda ijodiy yondoshishi maqsadga muvofiqdir. Sizga taklif etayotgan o‘yin – darsimiz quyidagicha:

Guruhdagi talabalarni dumaloq stol atrofiga o‘tkazamiz.

O‘qituvchi esa auditoriyani bir chekkasiga turib o‘yin-darsiga raxbarlik va tashkilotchilik qiladi.

Talabalarni yoki o‘quvchilari 1.2.....10 chi stullariga o‘tkazib bo‘lgandan so‘ng sinf taxtasiga darsni maqsadini yozib quyadi.

So‘ng har bir talaba yoki o‘quvchi oldilariga 1 tadan oq varaq olishadi.

1 chi stuldagи o‘quvchi, 2 chi stuldagи o‘quvchiga, o‘zining oq varag‘iga tasviriyl san’at metodika nazariyasidan savol yozib o‘tkazadi. 2 chi o‘quvchi, esa o‘zining toza varag‘iga savol yozib 3 chi o‘quvchi yoki talabaga o‘tkazadi. Shunday tarzda oxirgi ya’ni 10 chi talabaga yoki o‘quvchiga qadar savol varaqalari aylanib beradi. Endi 10 chi o‘quvchi yoki talaba yozgan savolni tegiga 1 chi o‘quvchi javobini yozib, ikkinchi talaba yoki o‘quvchiga o‘tkazadi. 2 chi o‘quvchi esa 9 chi talaba yoki o‘quvchini savoliga javob yozib 3 chi o‘quvchi yoki talabaga o‘tkazadi.

Shu tarzda, savol varog‘lari aylanib-aylanib, 1 chi o‘quvchiga o‘zining savoli va javobi yetib keladi. Shu payt o‘yin tugaydi.

Natijada har bir talaba yoki o‘quvchi o‘zining savolini va javobini o‘qib eshittiradi. Bu javoblar guruhda muhokama qilinadi.

Savolning mazmuniga, javobning qanchalik to‘g‘riligiga o‘qituvchi yakun yasaydi.

Qizg‘in muhokamadan so‘ng talabalar yoki o‘quvchilar o‘z o‘rtoqlarining bilishini baholashadi. Qaysi javob va saol eng mukammal va to‘g‘ri bo‘lsa, o‘sha talabaga yoki o‘quvchiga eng yuqori baho (ball) beriladi. Bu jarayonda o‘qituvchining fikri bilan albomda mos kelishi o‘ta muhimdir. O‘qituvchining o‘z mansabidan foydalanib yakkahokimlik qilishi mumkin emas. Bu o‘yin-darsi erkin holatda olib borilishi va har bir talaba yoki o‘quvchining shaxsiy fikrini va shaxsini hurmat qilishiga o‘qituvchi majburdir. Izoh: (o‘quvchi so‘zini qo‘llashimizdan maqsad ushbu o‘yin-darsni talabalar o‘zlarining pedagogik amaliyoti jarayonida qo‘llash mumkin). Yuqorida taklif etgan namunaviy o‘yin-darsini tashkil etish o‘quvchining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir.

## **Nazorat uchun savollar:**

O‘quvchilarni ijodini baholash yo‘llari.

Rasm chizishga o‘rgatish usullari.

## **Inson gavda a’zolarining tasvirlashni o‘rganish metodikasi.**

Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyotchi va matematik, geograf yoki ximik, u nafosat va go‘zallikni ko‘ra olishi va tushuna olishi kerak. Har bir talabani hayotga davlatimizni ravnaq topishida faol ishtirok etishga qatnashadigan qilib tarbiyalash uchun unga har tomonlama bilim berishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, balki uning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangilik yaratishga o‘rgatish, go‘zallik qonuni bo‘yicha yashash va ijod qilishni ham shakllantirish lozim. Hayot go‘zalliklarini ko‘rishga intilish insonni olivjanob etib tarbiyalaydi, uning kundalik ishi estetik roxat va farog‘at manbaiga aylanadi.

Bolalar ko‘nglida go‘zallik va yuksak g‘oyalar hissini uyg‘otishga da’vat etishda tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘rni g‘oyat kattadir. Bolalarda ma’naviy didni rivojlantirish uchun o‘qituvchi avvalo ularning e’tiborini hayotdagi go‘zallikka, go‘zallikni sevish, his etish, qabul qilish, huzurlanish, quvonishga qaratishi lozim. Did insonning tug‘ma xususiyati emas, u rivojlantiriladi, oliv o‘quv yurtlari uni takomillashuviga yordam beruvchi birinchi inson tasviriy san’at o‘qituvchisidir.

O‘qituvchi bolalarga tabiatning rang-barang olamini, rang-barang shakllarini ko‘rsatadi. Tabiat go‘zalligi, ochiq havoda o‘tkazilgan kunlar haqidagi xotiralar, ular hayotda ko‘rib bag‘ri-dillari ochilgan, tasvir etish qiyin bo‘lgan gulzorlarning ranglari, ularning ko‘nglini shod etgan, hayajonlantirgan narsalar, xotirasida uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Talabalar naturadan manzara, daraxt shohlari, yaproqlar, go‘zal gullarning rasmini chizar ekanlar, ularning shakllarini o‘rganar ekanlar, tabiatga, uning shakl va ranglari naqadar boy va turfalogiga mehr-muhabbatlari oshib boradi. Rasm darslari orqali ular dunyoni har yoqlama

ko‘radigan bo‘ladi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga va ko‘rgan narsasini anglab yetishga o‘rganadi.

Talabalar tasviriy darslarida atroflaridagi yaqin turgan narsalar, ularning shakli, rangi, hajmi va boshqa o‘ziga xos jihatlaridagi xilma-xillik bilan tanishadilar. Bu tanishuv ularning xotirasini kengaytiradi, buyumlar haqidagi aniq va to‘la tasavvurlari paydo bo‘lishiga yordamlashadi. Tasviriy jarayonida talaba ilgari qisqagina nazar solib o‘tgan, endi chuqurroq o‘rganishga imkon yaratib, talaba rasmini chizayotgan buyumning shaklini, ularning qurilishi, proporsiyasi, bo‘shliqdagi holati, rangi, uning och-to‘qligi, qandayligini e’tibor bilan o‘rganadi, shu bilan ularni yanada samaraliroq, har tomonlama teran va aniq his etishga o‘rganadi.

Tasvir chizishga o‘rgatish davrida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki masala hal qilinadi: uning ko‘rish qobiliyatini o‘stirish hamda ko‘rgan narsasini anglab yetish<sup>24</sup>.


Talabaning ko‘rish qobiliyatini o‘stirish deganda, biz ulardagagi bir maqsadga qaratib yo‘naltirilgan kuzatishni nazarda tutamiz. Buyum va hodisalarni o‘zaro taqqoslash, o‘xshashlik va tafovut jihatlarini aniqlash, ularning shakliga qarab turkumlashtirishga o‘rganishni tushunamiz. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining vazifasi jiddiy e’tibor bilan qarashga, fikrlashga, buyumlar shaklini aniq tahlil qilishga o‘rganishdan iboratdir. Rang-barang suratlarini muhokama qilish, kuzatishlardan xulosalar chiqarish natijasida talabalar malakasi rivojlanadi, ulardagagi yangi bilimlarni egallahsga intilish uyg‘onadi.

To‘g‘ri tasvirlash uchun:(23-rasm).

Tasvirlash lozim bo‘lgan narsani (ob’ektni) holatini, o‘lchamini quyidagicha o‘lchash mumkin. Ya’ni qalamni qo‘lga olib, qo‘lni uzunasiga uzatib, qalamni narsaga nisbatan tik turgan holda bosh barmoqni qalamga qo‘ygan holda narsani bo‘yi-bastini berkitgunga qadar quyidagi sur’atdagiga o‘xshagan holda o‘lchash kerak.

---


<sup>24</sup> Ten N.D. Gips modellarning rasmi. T. O‘qituvchi. 1994.



23-rasm.

Narsani nisbatlarini aniqlash uchun predmetni boshqa bir predmetga nisbat asosida tasvirlash mumkin. Tasvir qanday bo‘lishidan qat’iy nazar narsalarni bir-biriga nisbatlari o‘zgarmaydi. Agar tez-tez bunday holatda mashqlar bajarsangiz, sizning ko‘zingiz shu darajada o‘rganib ketadiki, natijada siz natyurmortdagи bir narsani boshqa bir narsaga nisbatini solishtirib ham o‘tirmaysiz.


**Inson qo‘l muskullari.** Agar insonning tanasi muskullardan iborat bo‘lmasganda edi, siz bilan biz hech qachon qo‘llarimizni qimirlata olmas edik. O‘tirish, turish, yotish, birorta-bir ish bajarish, qo‘ying-ki, hatto kulishga, jilmayib turishni ham iloji bo‘lmas edi. Inson tanasini qoplagan muskullarni hayotda ko‘p uchraydigan prujinaga qiyoslasak bo‘ladi. Prujina qanday harakat qilsa, insonning muskullari ham xuddi shunday harakat qiladi. Prujinani tomosha qilib o‘zingizning qo‘l-oyoqlaringizdagи muskullarni harakatini kuzatishingiz mumkin. Quyidagi tasvirlarda ushbu holatni ko‘ramiz. Agar chuqur mushohada qiladigan bo‘lsak, insonda 366 dona tomir, 226 dona pay, 444 dona suyak, 366 dona bo‘g‘in borligiga ishonch hosil qilamiz (24,25,26,27,28,29, 30,31,32-rasmlar).




24-rasm.





25-rasm




26-rasm.




27-rasm.



28-rasm.




29-rasm.




30-rasm.

**Qo'llar.** Odamzod qo'lllarining harakati doimo san'at ahlini qiziqtirib kelgan. Ayniqsa, rassomlar uchun juda ham katta ahamiyat baxsh etadi. Chunki insonning qo'llar xuddi insonning boshiga o'xshab doimo harakatda bo'ladi. Shuning uchun qo'llarning har bir detalini erinmasdan chizib o'rganish zarur.

Chunki har bir harakat, kuzatish uchun, chizishni mashq qilishga, mahoratni oshirishga zamin tayyorlaydi.



31-rasm.




32-rasm.


Agar narsa biz tomonga yaqin yoki qiyshaygan holda joylashgan bo'lsa, albatta bizning ko'zimizga yaqin tomoni katta ko'rindi. Bu holatni kuzatish va kuzatuvchanlik mahoratiga ega insongina sezishi mumkin.

**Ko'zlar.** Insonni ko'zlari uni xarakterini ochib beradi. Ko'zlarning tuzilishi har xil bo'ladi. Quyida inson ko'zlarining ko'rinishlari berilgan. Qalamtasvirda ish bajarish, ko'zlarni tasvirlash texnikasi rassomdan katta mahorat talab etadi. Insonning ko'zi shar shaklida bo'lib, ko'z qorachig'i, ko'zning milki, kipriklardan iborat. Yaxshilab e'tibor bersangiz, ishlagan ishingizni mazmunini ko'zlarning

qanday tasvirlanganligi ochib beradi. Ko‘z insonning xarakterini belgilab beradi (33,34,35-rasmlar).




33-rasm.





34-rasm.

**Oyoqlar.** Insonning oyoqlari suyak, muskul va hokazolardan iborat. Oyoqlarning tuzilishi juda murakkab yaratilgan. Insonning butun gavdasini tutib turishiga hamda harakat manbaiga asoslangan. Shuning uchun ham, oyoqlarni tasvirlash, har bir detalini o‘rganib chiqish zarur. Agar e’tibor bilan qaralsa,

insonning oyoqlari juda mukammal muhandislik qurilmasini eslatadi hamda doimo harakatda bo‘ladi(36-rasm).



35-rasm.



36-rasm.

**Portret.** Amaliyotda har bir inson portret ishlashni xohlaydi. Lekin hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Portret yaxshi chiqishi uchun, avvalam bor boshning proporsiyasini to‘g‘ri tasvirlash insonning xarakterini, yuz qismini holatini, tuzilishini chuqur o‘rganish kerak. Portret chizishda yorug‘-soya asosiy rol o‘ynaydi. Yorug‘-soyani to‘g‘ri topish, portretni ijobiy yakunlashga zamin yaratadi. Og‘iz, ko‘z, burun, qulqoq, qoshni, ya’ni boshdagi barcha a’zolarni to‘g‘ri joylashtirish portretni ko‘ngildagidek chiqishini ta’minlaydi (37,38-rasmlar).



37-rasm.




38-rasm.

“Portret” ishlaganda insonni bosh qismini ko‘rinishiga bog‘liq. Agar insonning boshi bir tomonga qayrilgan bo‘lsa, boshni tasvirlash uchun o‘tgan o‘rtadagi o‘q chizig‘i perspektiva qonuniyatlariga asosan tasvirlanadi. Huddi sharni ikkiga bo‘lgandek, portret ishlaganda insonning bosh qismi ham o‘q chiziq orqali proporsiya qonuniga asosan taqsimlanadi.

**Yosh bolaning gavda tuzilishi.** Yosh bolalarning gavda tuzilishi yoshiba qarab o‘zgarib turadi. Yosh bolaning bosh qismi gavdasiga nisbatan zo‘rg‘a uch marta joylashishi mumkin. Yosh bolaning boshi nisbatan katta, bo‘ksa qismi uzun, qo‘l va oyoqlari kaltaroq bo‘lishi tabiiy. Ammo bola o‘sishi tufayli, gavda proporsiyasi ham o‘zgarib boradi Yosh bolaning bosh qismi juda sekinlik bilan kattalashadi, aksincha qo‘l va oyoqlari, beli, gavdasi juda tezlik bilan o‘z holatini o‘zgartiradi.

Yosh bolaning gavdasi asta-sekin, kattalarnikidek proporsiyalari (nisbatlari) tenglashadi va nisbat jihatdan voyaga yetgan insonlarni gavdasiga moslashib boradi(39-rasm).



39-rasm.

Shuningdek, yosh bolani gavdasini yoki portretini tasvirlashda uning fiziologik va anotimik tuzilishiga e'tibor berish kerak. Yosh bola portretini xarakterini bolaning bosh qismining ko'rnish ifodalab beradi(40,41-rasmlar).



40-rasm.




#### 41-rasm.


**Inson gavdasi (Figura).** Insonning figurasi-shubhasiz eng bir qiziqarli, odamzodni to‘lqinlantiruvchi, ilhomlantiruvchi ko‘rinishga ega. Juda aniqlik bilan

taqsimlab qilinganligiga qarab hayron qolish mumkin.


Ming yillar davomida rassomlar, odamlar inson gavdasini tasvirlashgan, haykallarini yasashgan, gavdaning go‘zalligini (gormoniyasini) ta’riflab she’rlar yozishgan, dostonlar bitishgan. Shuning uchun ham, inson gavdasini tasvirlamoqchi bo‘lsangiz, qarshingizda turgan figurani yaxshilab kuzating. Tayanch nuqtalarini aniq belgilab olish kerak. Gavdani tasvirlash uchun eng oddiy ko‘rinishdan boshlagan ma’qul. Chunki tik holatda, qo‘llar tepaga yopishgan holda tasvirlash-inson gavdasini eng oddiy ko‘rinishi hisoblanadi. Quyida inson gavdasini tasvirlashni turli usullari ifodalangan (42,43,44-rasmlar).



42-rasm.



43-rasm.




44-rasm.

**Inson suyaklari.** Bosh suyagi, yelka suyagi, tirsak, qovurg‘alar, umurtqa, dumg‘aza, katta oyoq suyaklari, kurak suyaklari, barmoqlar, oyoq barmoqlari, bel suyagi, ko‘krak qafas suyaklari, tizza suyagi, jag‘ suyaklari va h.k.


Biz yuqorida inson gavdasida mavjud bo‘lgan suyaklarni qisqacha ro‘yxatini berdik. Shu holatni unutmasligimiz kerakki, ayrim holatlarda insondagi ba’zi bir suyaklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri teri ostiga joylashganligi uchun ham inson gavdasini chizishda o’rnini beqiyos.

**Harakatdagi inson gavdasini tasvirlash.** Harakatdagi inson gavdasini tasvirlash murakkab mashqlardan biri hisoblanadi. Agar harakatdagi odamni o‘ng oyog‘i oldinga tashlansa, albatta chap qo‘l teskari tomonga harakat qiladi yoki aksincha. Agar odam yurishiga, yugurishiga e’tibor bersangiz, o‘ng oyoq oldinga qarab odimlasa chap qo‘l ham oldinga qarab harakat qiladi. Bunday holatni inson o‘zi boshqarmaydi. Aksincha, harakat davrida avtomatik ravishda holat qaytariladi. Bunday qonuniyatga qat’iy amal qilish zarur. O‘sanda tasvir to‘g‘ri va tabiiy chiqadi (45-rasm).




45-rasm.

Qalamda harakatdagi odamni jonli hamda jozibali tasvirlash uchun albatta gavda qismlarini tarozini pallasidek his qilish zarur. Agarda tasvirdagi muvozanat ozgina buzilsa, qalamtasviringiz sun'iy chiqib qoladi. Harakatdagi inson gavdasini tasvirlash uchun juda ham ko‘p amaliy mashq bajarish kerak, tinmay mashq qilish talab etiladi. Shuni unutmaslik kerakki, mashqda qiyin bo‘lsa-jangda oson bo‘ladi. (46,47,48,49-rasmlar).



46-rasm.



47-rasm.



48-rasm.




49-rasm.

## Tasviriylar san'atda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.



### VEN DIAGRAMMASI




Ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko'rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g'oyalar, adabiy va tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo'llaniladi. Aylanma diagramma. Har bir doiradagi bo'sh joylar tafovutlami yozish uchun ishlatalidi; doiralar kesishganda hosil bo'lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar, qahramonlar va hokazolar) umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniadi. Iy va tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo'llaniladi. Aylanma diagramma. Har bir doiradagi bo'sh joylar tafovutlami yozish uchun ishlatalidi; doiralar kesishganda hosil bo'lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar, qahramonlar va hokazolar) umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniadi.



### VEN DIAGRAMMASI

#### Portret janri bilan natyurmort janrining o'ziga xos va umumiy tomonlarini aniqlash



## Klaster


Klaster (tutam, bog'lam) – axbarot xaritasini tuzish yo'li va barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.



## Klaster

### “Amaliy bezak san’ati” mavzusi bo'yicha





## T-Chizmasi

Bitta konsepsiya (ma'lumot)ning jihatini o'zaro solishtirish (ha/yo'q, ha/qarshi) uchun.  
Taqidiy mushohadani rivojlantiradi.

(+) Tomonlari	(-) Tomonlari



## T-Chizmasi

Bolalar akvarel bo'yog'ining rasm chizishdagi yutuq va kamchiliklarini ko'rsating.

(+) Tomonlari	(-) Tomonlari
1. Ranglarning yorqinligi. 2. Barcha ranglarning bir joyda jamlanganligi. 3. Narxining arzonligi. 4. ....	1. Ishlash texnologiyasining murakkabligi. 2. Oq rangning o'rniga qog'ozning oqligidan foydalanish kerakligi. 3. Ranglarning bir-biriga aralashib ketishi. 4. ....



## SMART texnologiyasi

S – **Specific** – aniq/tegishli

M – **Measurable** – o'lchamli

A – **Achtevable** – erishuvchan

R – **Relevant** – mos, real

T - **Time based** – vaqt bilan cheklangan



## SMART texnologiyasi naturmort chizish misolida

S – **Specific** – geometrik jismlardan tashkil topgan naturmort chizish

M – **Measurable** – naturmortni A4 yoki A3 o'lchamdagи qog'ozga vertikal yoki gorizontal holda joylashtirib chizish


A – **Achtevable** – naturmortni mavjud qo'yilmalar asosida chizish

R – **Relevant** – qo'yilmalar o'quvchilar yosh xususiyatlariga mos va real holda bo'lishi kerak

T - **Time based** – naturmortni chizishda darsga ajratilgan vaqtни hisobga olish



## Qanday metodi



## Tasviriy san'atning qanday janrlarini bilasiz?





## B B B



Ushbu jadval bilan ishslash ma'lum o'quv materialini o'rganish vaqtida amalga oshiriladi:

**Birinchi ustunga** o'quvchi mavzu yoki muammo bo'yicha biladigan barcha ma'lumotlar yoziladi. **Ikkinci ustunga** esa o'quvchi bilishni xohlaydigan ma'lumotlar yoziladi. **Uchinchi ustunga** esa mavzu o'rganilgandan so'ng bilib olgan ma'lumotlar, bilimlar yoziladi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim



## Б Б Б




Ushbu jadval bilan ishslash ma'lum o'quv materialini o'rganish vaqtida amalga oshiriladi :

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
“Avtoportret” haqida o'quvchi bilganlarining barchasini yozadi	O'quvchi “Avtoportret” mavzusi yuzasidan yana qanday ma'lumotlarni bilishni xoxlashini yozadi	“Avtoportret” mavzusi o'rganilgandan so'ng bilib olgan ma'lumotlar, bilimlar yoziladi.

## Baliq skeleti

Muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi.


1. Bir varaq oq qog'ozda (vatman yoki A-3 varag'i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg'alari).
2. Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastdagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo'llari, o'qituvchi o'z oldiga qo'yan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo'yiladi.



## Baliq skeleti

Muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi.

Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastdagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo'llari, o'qituvchi o'z oldiga qo'yan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo'yiladi.



## ATAMALARNING IZOHLI LUG‘ATI

### «A»

**ABAK** (lot. avasiya-taxta) – antik arxitektura orderlari

**ABRIS** (nemischa – abriss – chiziq, xomaki rasm) – kalka, o‘ta yupqa materiallarga tushiriladigan kontur tasvir. Abris ko‘p rangli asar orginalining tus va ranglari chegarasini aniqlaydi.

**AKSONOMETRIYA** – perspektiv tasvirlash usuli turlaridan biri, shakl, tekislikni uch tomonlama tasvirlash usuli.

**AKSENT** (lotincha so‘zdan. Accentus – urg‘u) – tasvirlanayotgan gavda, yuz, shakl bo‘laklarini tomashabin e’tiborini jalb qilish maqsadida rangda, chiziqlarda va tuslash usuli bilan bo‘rttirib ko‘rsatish.

**ABSTRAKSIONIZM** (lotincha – abstractio – mavxumlik). Bu oqim XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Rus rassomlari V.V.Kandinsiy va K.S.Malevich, golland rassomi P.Mondrian, fransuz rassomi R.Delonelar uning asoschilaridir. Abstraksionizm real borlikni aks ettirishdan voz kechuvchi va badiiy asarlari xar xil dog‘ va chiziqlar, Haykaltaroshlikda beo‘xshov konstruksiyalardan iborat va milliy shakl va an’analarning san’atdagi ijtimoiy moxiyatini inkor etib, estetik didni dag‘allashtiradi xamda kishilarni tabiatga va ijtimoiy xayotdagi go‘zallikni bilishdan va undan baxramand bo‘lishdan maxrum etadi.

**AVANGARDIZM** – XX asr san`ati yo‘nalishining yangi, ga`yritabiyy, izlanishlar boshlanishi.

**AVTOGRAVYURA** (yunon.autos - o‘zim va frans. gravure) - o‘ymakorlik. Naqsh chizishda muallifning o‘z qo‘li bilan yog‘och, linoleum yoki metallga o‘yib ishlangan va undan qolip sifatida foydalanib chop qilingan nusxasi. Yog‘och avtogravyuralaridan kitoblarga rasmlar tayyorlashda, linoleum va metall avtogravyuralaridan esa alovida nusxalar chop etishda foydalaniladi.

**AVTOLITOGRAFIYA** (yunon.autos - o‘zim. litos – tosh, grapho – yozaman, chizaman). Litografiyaning ishslash usullaridan biri. Bunda rassom o‘z

g‘oyasini dastlab toshga o‘yib, so‘ng undan qog‘oz satxiga tushiradi. Rassomning o‘zi tomonidan qog‘ozga tushirilgan surat xam avtolitografiya deb yuritiladi.

**AVTOPORTRET** (yunon. autos - o‘z, frans. portrait - tasvir) Portret janrining bir turi. Avtoportretda rassom yoki xaykaltarosh o‘zini o‘zi tasvirlaydi. O‘zbekiston rassomlaridan A.Volkov, L.Nasriddinov, A.Siddiqiy, B.Xamdamiy, A.Abdullaevlar qator avtoportretlar yaratgan.

**AKADEMIZM** - Qadimgi dunyo va Uyg‘onish davri san’ati shakllariga taqlid etishga asoslangan, burjua badiiy akademiyalarida rasmiylashgan dogmatik oqim. Akademizm klassik metod va syujetlarni asosiy shart qilib qo‘yib, san’atdan zamonaviylikni chetlashtirdi. Akademizmning qadimiyligi an’analarga va yuksak madaniylikka tayanishi, ta’limotning kuchli tomonlaridan biridir.

**AKADEMIYA** – (yunon. Akademia – Afina yaqinida joylashgan, yunonlarning afsonaviy qaxramoni Akadem ismli bilan atalgan joy nomi)–san’atni rivojlantirishga qaratilgan oliy ilmiy muassasa. Bu nom tarixi miloddan avval 4 asrda Qadimgi Yunoniston va Platon(Afrotun)ning idealistik falsafiy maktabiga asos solinishidan boshlanadi. Xirot miniatyura rasmlar maktabini O‘rta asr Sharqida davlat tomonidan ta’sis etilgan birinchi badiiy akademiya deb xisoblash mumkin. (Bexzod shu akademianing eng yirik vakilidir).

**AKANT** – ayiqtovan, katta bargli chiroyli o‘simplik. Ayiqtovan barglarining shakllari rassomlar tomonidan klassik naqshlarning asosi sifatida keng foydalanilgan.

**AKVAREL** – (ital. acquerello) – suvda eruvchi bo‘yoqlar. Bu bo‘yoqlarning ajoyib xususiyati bo‘yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir. Akvarelda oq rang bo‘lmaydi, uning o‘rnida bo‘yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko‘rinadigan yoki bo‘yalmay qolgan o‘og‘ozning rangi xizmat qiladi. O‘zbekistonda akvarel san’ati rivojini B.Xamdamiy, U.Tansiqboev, G.Shev'yakov, G.Chiganov, K.Chiprakov, K.Kaydalovlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlarda ko‘rish mumkin.

**AKRIL** – sintetik bo‘yoq, birinchi marotaba 1940 yilda yog‘ va akvarelning qo‘sib ishlanishi natijasida hosil bo‘lgan. Ko‘p hollarda turli xil– tiniq ranglardan to mo‘yqalam zarbalaridan hosil bo‘lgan natijalarni olish uchun qo‘llaniladi.

**AKSESSUAR – buyum, narsa.**

**ALFRESKO** – nam suvoq ustiga suvda qorilgan bo‘yoqlar bilan ishlanadigan tasvir. Bu qadimgi rus san’atida keng qo‘llanilgan.

**ALLEGORIYA** (yunon. allegorio – kinoya, majoz) – mavxum tushunchalarning asosiy tomonlarini aniq obraz shaklida yorqin namoyon qiluvchi badiiy tasvir usuli. Allegoriya san’at tarixida keng foydalilanilgan va xozirgi zamон san’atida xam ishlatiladi. Masalan, Volgogradda o‘rnatilgan yodgorlik qilich ko‘targan ayol xaykali – g‘alaba allegoriyasi.

**ALLA-PRIMA** ital. («a-lya prima»). Tasviriy san’atda, xususan, rangtasvirda «namligicha yozish» usulini anglatadi.

**ALBOM** (fran. Albut, lot. avit. – xat yozadigan oq taxtacha) rasm chiziladigan, she’r, xotiralar va avtograflar yoziladigan muqovali daftар.

**AMALIY GRAFIKA** – grafika san’ati turlaridan biri. Turli xildagi tabrik xatlari, markalar, etiketkalar - shirinliklarni o‘raydigan qog‘ozlarni bezash san’ati.

**ANIMALIST** (lot.animal- xayvon) – xayvon va jonivorlar aks ettirilgan rasm, surat, xaykallar bo‘yicha mutaxassis rassom, xaykaltarosh. o‘zbekistonda rassom B.Jukov; xaykaltarosh D.Mileev, P.Ivanov va M.Ivanovlar ijodiy ishlari, Samarqandlik U.Jo‘raqulov, gjiduvon tumanining o‘ba qishloG‘ida yashovchi X.Raximovalarning o‘zbek milliy an’analari zaminida yaratgan sopol xaykalchalari xam animalistika janriga mansub.

**ANIMAL JANR** - xayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san’at turi.

**ANSAMBL** (frans. ensemble–birlik, uyg‘unlik, oxangdosh-lik) – arxitekturada – bir xildagi arxitektura kompozitsiyasini tashkil etuvchi imoratlar yig‘indisi. Tasviriy san’atda badiiy asarning g‘oyaviy yetukligini, barkamolligini anglatadi. o‘zaro mos va uyg‘un qismlarni birlashtirish orqali xosil bo‘lgan bir

butun narsa yoki ayrim badiiy asarga nisbatan xam qo'llaniladi. Bunga – Toshkent metrosi bezaklaridagi me'morchilik, naqqoshlik, Haykaltoroshlik va rangtasvir san'atlarining uyg'unligi misol bo'ladi.

**ANTABLEMENT** (frans. entablement – stol, taxta) – binoning yuqorisi, klassik arxitektura orderlarining kolonna tepasida joylashgan ajralmas qismi. Uch qismdan iborat. Ko'tarib turuvchi – arxitrav, friz va karniz.

**APPLIKATSIYA** – (lot. applicatio - yopishtirish) – gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklari, teri tikish yoki donli o'simliklar poyalarini yelimlash yo'li bilan naqsh tuzib, badiiy tasvir yaratish.

**ARKA** – (lot. arcus – yoy, egma) – bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinalarining yuqori qismiga yoki ko'prik tayanchlariga qo'yiladigan yoysimon qurilma.

**ARKADA** – ustunlarga tiralgan xar xil xajm va shakldagi arkalar qatori.

**ARXITEKTONIKA** – mutanosiblik.

**ARXITEKTURA** - qurilish san'ati, me'morchilik, inshootlarni loyixalash ilmi. Masalan, Samarqand arxitekturasi.

**ASOSIY RANGLAR** – rassomlikda asosiy deb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va ko'k.

**ATRIBUT** – (lot. attribuo - bag'ishlayman) – san'atda – shaxs, qaxramon iloxning eng muxim moddiy alomati. Masalan, antik san'atda gerakl atributi – gurzi.

**AFISHA** – (frans. affiche - e'lon) Spektakl, konsert va boshqa madaniy tadbirlar, tomoshalar, to'g'risida xabar beruvchi maxsus e'lon.

**AXROMATIK RANG** – (yunon. achrimatos - rangsiz) bu ranglar bir biridan yorug'lik kuch bilan farq qiladilar. Axromatik ranglarga oq, qora va kul rangning barcha tuslari kiradi.

**AXTA** – xitoy qog'izi.

**AKROPOL** – ( grekcha akros- ustki, polis- shahar), qadimgi grek hahrining baland va mustahkam qismi, qasr, urush vaqtlarida boshpana. Akropolda shu shaharning barcha ibodathona va cherkovlari joylashgan.

**AEROGRAFIYA** – havo zichlangan moslamada bo‘yoqni qog‘oz yoki matoga mayin va nozik holatda purkab ishlanadigan san`at turi.

## «B»

**BADIY AKADEMIYA**– tasviriy san’atning eng yirik namoyandalari uyushmasi... san’at masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy nazorat markazi – muassasa... oliv badiiy o‘quv yurti. Birinchi «akademiya» XVI asrda Italiyada vujudga kelgan.

**BADIY QURISH - YASASH** (lot. konstriuktio - qurilish). Turli materiallardan (rangli karton qog‘ozlar... yog‘och... tashlandiq materiallar... tabiiy materiallar... maxsus qurish - yasash to‘plamlari va shu kabilar) xar xil o‘yinchoqlar yasash faoliyatları tushuniladi.

**BISTR** –qalamtasvir turi.

**BISKVIT** – sirlanmagan chinni, sirlanmagan chinnidan ishlangan buyum, xaykalchalar va x.k.

**BENALE** – ikki yilda bir marta bo‘ladigan ko‘rgazma.

**BOSH BEZAK** – kitoblarining ichki bezagi.

**BOG‘DOD MINIATYURASI** - arab-mesopotamiya minia-tyurasi – X-XIII asrlarda arab qo‘lyozmalariga ishlangan rasm va bezaklar, o‘sha zamondagi arab tasviriy san’atining rivojlangan turi. o‘rta asrlarga tegishli qo‘lyozma kitoblarga ishlangan miniatyuralar bizgacha kam yetib kelgan. Ular orasida Dioskoridning «Farmakologiya»si diqqatga sazovor. Bu kitobdagi miniatyuralarni musavvir Ayudullox ibn Fazl yaratgan. Rasmlar qizil va to‘q ko‘k ranglarda ishlangan. Suratlarda shartli va ramziy belgililar mavjud. o‘rta asrlar arab yozuvchilari «Maqomat»lariga ko‘p miniatyuralar ishlangan. Asarda bosh qaxramon-shoir Abu Zayd sarguzashtlari, xalifaning tantanali qabuli, olimlar anjumani, karvonning yo‘lda dam olishi, bayram marosimi, dengizdagi kema

tasvirlangan. «Makomat» qo‘lyozmasining bir necha nusxasi bizgacha yetib kelgan. Musavvur Yaxyo ibn Maximud bezagan qo‘lyozmadagi rasmlar (Parijda saqlanadi). Asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmunini ochib berish, odamlarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Bog‘dod miniatyurasining badiiy uslubi sodda, rasmlarda mayda va ikkinchi darajali bo‘laklar yo‘q.

**BAGET** - portret, rasm va shu kabilar solinadigan to‘rt burchakli moslama.

**BARELEF** - (frans. bas-relief) past relef – xaykaltarosh-likda relef turi – tekis yuzadan ko‘tarilib turadigan, tasvirlar qalnligining yarmidan kami bo‘rtib chiqqan bo‘ladi. Tanga, medal va znachoklar bunga misol bo‘la oladi.

**BAROKKO** - (ital. varocco – jimjimador, ajib, g‘alati ma’nosida) XVII-XVIII asrlarda bir qator Yevropa mamlakatlarida paydo bo‘lgan me’morchilik, Haykaltaroshlik va tasviriy san’at uslubi.

**BATALIYA JANRI** – (frans. bataille – jang, urish) – tasviriy san’atning jang, urush manzaralarini aks ettiruvchi turi. Asarlarda, asosan tarixiy axamiyatga ega bo‘lgan jang epizodlari tasvirlanadi. o‘rta asrlarda kitoblarga ishlangan anchagina miniatyuralar xam bataliya janriga mansub. (Muxammad Murod, Samarqandiy, Bexzod ijodida.) P.Bennkov, V.I.Ufimsev, S.F.Abdullaev, O.Tatevosyan va boshqa rassomlar bataliya janrining taraqqiyotiga katta xissa qo‘shdilar.

**BEZAK** – biror narsaga ishlangan naqsh, ziynat, pardoz.

**BUKLET** – taxlam nashr, rassom, xaykaltarosh ishlari, ko‘rgazma yoki biror badiiy asarning g‘isg‘acha tafsiloti, bu yaxlit bir varag‘ qog‘oz bo‘lib, bir necha marta buklangan xolda bo‘ladi.

**BYUST** – (lot. vustun - kuydirish joyi, frans - qabr ustiga qo‘yiladigan xaykal) – odamning ko‘krakdan yuqori qismini tasvirlaydigan xaykal. Portret xaykaltaroshligining qadimdan (Misr, Yunoniston, Rimda) ma’lum bir turi. Toshkentdagи «She’riyat bo‘stoni»da Bobur va Nodira, Furqat va Xamza, A.Qodiriy va g.gulom, A.Pushkin, va boshqalarning byustlari o‘rnatilgan. o‘zbek

xaykaltaroshlaridan A.Axmedov., Q.Saloxiddinov, X.Xusniddinxo‘jaevlar xam ko‘p byustlar yaratgan.

**BADIYLIK** – borliqni, inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o‘zaro o‘xshatish, shakllantirish va rango–rang tasvirlash.

**BADIY USLUB** – san’atda ko‘llaniladigan usul. Bosqichma–bosqichlik – rasm chizishni nisbiy tarzda ketma ketlik asosida olib borish.

### «D»

**DIORAMA**- (yunon.dia- orqali, orama-ko‘rinish, manzara). Rassomlikning bir turi. Bunda tasvir nur o‘tkazadigan material (nafis mato, xira oyna va sh.k.) sirtiga chiziladi. Fonda asosiy tasvir chizilib, old tomonda butaforiya jixozlari (kishilarning figuralari, turli xil meva va x.k.) qo‘yilgan katta rasmning bir turi. Diorama panoramadan ufqning bir qismi aks ettirilganligi bilan farqlanadi. Katta dioramalar maxsus ko‘rilgan binolarda bo‘ladi.

**DIZAYN**- kundalik xayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovog‘, mebel va shunga o‘xhash narsalarni g‘ulay, chiroysi shakl va rangini, yangi shakl-shamoyil yaratish san’ati.

**DIPTIX**- (yunon. diptikos– ikki qavat, buklama). Bir mavzuda bo‘lib, bir-birining mazmunini to‘ldiradigan ikki kartina.

**DETALLASHTIRISH** – tasvirning har bir detalini maydalab ishlash. Detallashtirish rassom usuliga qarab har xil darajada bo‘lishi mumkin.

**DINAMIK** – harakatdagi, tez o‘zgaruvchan (holat).

**DASTGOXLI SAN’AT**– mustaqil axamiyatga ega bo‘lgan tasviriy san’at asarlarining umumiyl nomi. Uch xilga bo‘linadi; dastgoxli rassomlik, dastgoxli Haykaltaroshlik, dastgoxli grafika. Tasviriy san’atning mozaika, freska, relef kabi asarlari arxitektura inshootlari bilan bog‘liq bo‘ladi, illustrasiya kitob bilan bog‘liq, dastgox (molbert, Haykaltaroshlik dastgoxi)da yaratiladigan kartina, grafika asarlari, xaykallar esa mustaqil axamiyatga ega bo‘ladi. Uyg‘onish davridan, ayniqsa, XIX asrdan keng rivoj topa boshladi.

## «E»

**EGARCHILIK** – egar – jabduq yasash kasbi. Xunarmandchilikning qadimiylaridan bo‘lib, asosan yirik shaxarlarda rivojlangan. o‘tmishda egar-jabduq oddiy kustar usulda maxsus do‘konlarda tayyorlangan. Ustalar asosan tesha, bolta, randa, arra va boshqa asboblardan foydalanganlar. Tol, urik, bexi, olma, yong‘oq, chinor, archa yog‘ochlari asosiy material xisoblanib, mix o‘rniga xom teridan qirqib tayyorlangan ip ishlatilgan.

**EKSLIBRIS** (lot. exlibris – kitoblardan) - kitob belgisi, kitobning egasi ko‘rsatilgan bo‘ladi. Muqovaning ichkari tomoniga yopishtiriladi. Gravyura, litografiya usullarida tayyorlana-digan ekslibrislar keng tarqalgan. Rassomlar maxorat bilan ishlab bergen ekslibrislar badiiy qimmatga ega bo‘ladi. A.Dyurer, X.Xolbeyn, o‘zbekistonlik rassomlardan V.Kaydalov, Q.Basharov va boshqa ekslibrislar yaratganlar.

**EKSPOZITSIYA** (lot. Expositio - bayon etish, ko‘rsatish )- muzey va ko‘rgazmalarda namoyish etiladigan narsalar, materiallarning ma’lum bir tizimda joylashtirilishi va shu materiallarning o‘zi.

**EKSPONAT** (lot. Expono – ko‘rgazmaga qo‘yilgan) – muzey va ko‘rgazmalarda namoyish qilinadigan narsa.

**EKSTERER** (lot. Exterior - sirtqi, tashqari), xayvonlar ekstereri- xayvon tanasining tashqi ko‘rinishi va tana qismlarining joylashuvi.

**EMBLEMA** (yunon. emblema) – biror tushuncha, g‘oyani ifodalovchi shartli yoki simvolik tasvir (masalan, og‘ kaptar tasviri – tinchlik emblemasi).

**ENKAUSTIKA** (yunon. enkaio-kuydiraman) - keng ma’noda rassomlik san’atining mum bo‘yog‘lar bilan ishlanadigan soxasi: tor ma’noda bo‘yog‘ning bog‘lovchi moddasi mum bo‘lgan rassomlik texnikasi (bunda issig‘ mum bilan ishlanadi, bu asarning namga chidamli bo‘lishini va uzog‘ sag‘lanishini ta’minlaydi). Milloddan avvalgi XIV asrdan Qadimgi Misrda ibodatxonalarining fasadlarini bo‘yashda g‘o‘llanilgan. Milloddan avval 5 asrda Yunonistonda takomillashgan, mum bo‘yog‘larni g‘aynog‘ usulda tayyorlash texnikasi rivoj

topgan. Fayyum portretlari, Vizantiya ikonalari shu usulda ishlangan. Keyinchalik mum bo‘yog‘larni sovug‘ usulda (skipidarda) tayyorlash usuli targ‘algar, bu usul oson, lekin ancha chidamsiz bo‘ladi. Mum rassomligi ko‘prog‘ restavratsiyalarda qo‘llaniladi.

**ESKIZ** (frans. esquisse) - xomaki tasvir. Badiiy asar, bino, yaratish jarayonida muallif ko‘zda tutgan mag‘sadini, uning shakli, xolati, ko‘rinishini gavdalantiradigan tasvir. Ko‘pincha rasm bilan ifodalanadi. Moybo‘yog‘ bilan ishlangan, Haykaltaroshlik eskizlari xam bo‘ladi.

**ESTAMP** (frans. estampe) - badiiy matbaa grafikasiga mansub dastgoxli asar: rassom tomonidan tayyorlangan matbaa formasi (gravyura, litografiya, monotipiya)dan olingan nusxa, formadan qog‘ozga bosma yo‘li bilan tushirilgan tasvir.

**ETYUD** (frans. etude - mashg‘) - rassom naturani o‘rganish jarayonida unga g‘arab, kuzatib chizgan tasvir. Moybo‘yog‘ bilan ishlangan, grafik, Haykaltaroshlik etyudlari odatda kartina, xaykal, grafika asarlari yaratishda tayyorgarlik materiali bo‘lib xizmat g‘iladi.

**ETYUDNIK** – rasm chizish uchun, mo‘yg‘alam va bo‘yog‘larni, etyudrasmlarni joylab g‘o‘yishga va etyud ishlashga moslashgan maxsus ko‘chma yassi quти.

**EKSPERSSIYA** –shijoat, shiddat, tezkorlik, ifodalilik, fikr, kayfiyat va his – tuygularning yorqin namoyon bo‘lishi.

**ESTETIKA** (grekcha aisthetike) – hayotda va tasviriy san’atda go‘zallik haqidagi fan. Estetika borliqqa san’atning munosabati, badiiy ijod qonunlari asosini, ijtimoiy hayotda san’atning rolini o‘rganadi. Go‘zallik – estetika keng ahamiyatini o‘rganadi.

## «F»

**FAKTURA** (*lot. Factura – ishlov, tuzilish*) – badiiy asar sirtining ishlanish yoki tuzilishi xususiyati. Badiiy moxirlilikning o‘ziga xosligi xam, foydalanilgan material sirtining tabiiy xususiyatlari xam faktura deb yuritiladi.

**FAS** – old ko‘rinish, yuz, chexra. Xar bir narsaning to‘rt tomondan ko‘rinishi bor. Old, ikki yoni, tepa va tagi.

**FAYANS** – yarim chinni, yasama, sun’iy, yolg‘on chinni nomini xam olgan.

**FLEYS-** katta mo‘yg‘alam, cho‘tka.

**FON** (lot. Fundus – tub, asos), zamin – kartina va grafika asari, relef va naqshda asosiy shaklning orqa ko‘rinishi, qo‘s Shimcha tasvir. Buyuk rassomlar portret fonida manzara aks ettirganlar, bu bilan shaxs yashagan muxitni ko‘rsatganlar. Relef va naqshda shaklning jozibador chiqishiga yordamchi vosita bo‘ladi.

**FORZAS** (nem. Vorsatz) - kitob bloki bilan muqovasi orasidagi qo‘shaloq qalin qog‘oz varog‘i. Blokni muqova bilan birlashtiradi. Kitobni bezatish elementi.

**FRESKA** (ital. Fresko – yangi, qurimagan) - bo‘yoqni suvga yoki oxak qo‘shilgan suvga qorib yangi, qurimagan suvoq ustiga ishlanadigan rassomlik san’ati asari. Qadimdan devoriy rasmlarning asosiy texnikasi bo‘lib kelmoqda. Suvoq, odatda, o‘chgan oxakka ikki xissa kum qo‘shib tayyorlanadi, suvoq qurigandan keyin uning yorilib ketmasligi ta’minlanadi. Oxak bilan qo‘shilganda aynimaydigan, shuningdek vaqt o‘tishi bilan nur ta’sirida buzilmaydigan bo‘yoqlardan foydalaniladi. Freska uchun suvoq va bo‘yoq tayyorlashning turli usullari mavjud. Freska rassomdan katta maxorat, tezkorlik talab qiladi, tasvir qisqa vaqt ichida suvoq qurimay turib tayyorlanishi kerak.

**FRONTISPIS** (lot. Frons – old, old tomoni va spicio - qarayman) - kitob titul saxifasi chap tomonida berilgan illustrasiya. Unda asarning asosiy g‘oyasi ifodalanadi yoki muxim epizodi tasvirlanadi. Ayrim xollarda muallif portreti beriladi.

**FORMA** (lotincha — forma – tashqi ko‘rinish) – 1) tashqi ko‘rinish, qiyofa; 2) tasviriy san’atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytildi. Tasviriy san’atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatliligi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy goya mujassamligidir.

**FORMAT** (fransuzcha) – tasvir bajarilayotgan tekislik shakli (to‘gri to‘rtburchak, oval, doyra va boshqalar). Format balandligining eniga nisbati va umumiyligi doira chegarasiga bogliq. Format tanlash san’at asarining mazmuniga va ruhiyatiga bogliq. Kartina formata tasvir kompozitsiyasiga to‘gri kelishi lozim.

**FRAGMENT** (lotincha – fragmentum – bo‘lakcha) – asarning bir qismi, bo‘lakchasi.

### «G»

**GALEREYA** - (frans. galeril) – turar joy, jamoat, ma’muriy va maishiy binolar ichidagi uzun, tor yo‘lak joy. Binoning bir tomoniga taqab solingani uchun oynavand yoki peshayvon qilib quriladi. o‘rta asrlarda saroy va uylarning rasm va xaykallar bilan bezatilgan yo‘laklari.

**GAMMA** – rang gammasi ma’nosida, rangning turli tuslari, masalan, iliq va sovuq rang tuslari.

**GANCHKORLIK** – amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turi, o‘ymakorlik tarmog‘i. Ganchkorlik qadimgi sanatlardan biri. o‘yma ganchlar, asosan binolarning ichki qismidagi devorlar, namoyon, taxmon, tokcha, jonivonlarning yuqorisi sharofalar va boshqa joylarni bezashda ishlatiladi. Ganchkorlikda o‘yma naqsh metall kesiklar vositasida ishlanadi. o‘yilgan naqshning yuzi gul ganch bilan pardozlanadi. Pardozning turlari chok pardoz, pax pardoz, lo‘la pardoz va tabaqa pardozlardir. Ganchkorlik sanatida xam tarixan bir necha mustaqil maktab - Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona, Toshkent, Xiva maktablari tashkil topgan. Taniqli xalq ustalari - Usta Shirin Murod, Tosho‘lat Arslonqulov, Quli Jalilov, Rashid Jalilov, Shamsiddin Fofurov, Usmon Ikromov, Maximud Usmonov, kabi yetuk ganchkor ustalar samarali ijod qilganlar.

**GEMMA** – (lotn. gemma-marvarid)-o‘yma tasvirli tosh. Ikki xil bo‘ladi: tasviri o‘yib ishlangan - intamit (mil. av. 4 ming yillik) va bo‘rtma tasvirli-kameya (mil. av. 4-a). Gemma ayni vaqtida muxr, tumor, bezak buyumi sifatida xam qo‘llanilgan. Gemma yasash ishi tosh o‘ymakorligi sanatiga kiradi.

**GLAZUR** – sir, sirbo‘yog‘.

**GLIPTIKA** (yunon. gliptike, glifo – kesaman)- asl toshlar o‘ymakorligi san’ati. Yaqin Sharqda mil.av. IV asrdan tosh sirtiga bo‘rtma naqshlar tushirish keng tarqalgan. Uyg‘onish davrida, ayniqsa XVIII-XIX asr klassitsizm davrida Ovro‘pa, jumladan Rossiya taraqqiy etgan. XIX-asr oxirlaridan Gliptika o‘zining amaliy axamiyatini yo‘qotib, san’atning mustaqil turi sifatida rivojlanishdan to‘xtadi. Ayrim sangtarosh ustalari gliptikani zargarlik san’atining bir ko‘rinishi sifatida qayta tiklash uchun tajriba ishlarini olib borishmoqda.

**GOBELEN** - bezak gazlama. Gobelenlar turli rangdagi jun, ipak, paxta, ba’zan zar iplardan maxsus to‘quv dastgoxlarida to‘qiladi. Xar xil yo‘g‘onlikdagi iplardan to‘qilgani sababli, gobelenning sirti g‘adir-budur bo‘ladi. Gobelen sirtiga bezaklar tushiriladi. Gobelen ilgari qo‘lda to‘qilardi. XIX asrdan boshlab mexanik usulda to‘qila boshladi.

**GORELEF** (frans. xout-relef) - bo‘rtma xaykal yoki naqsh. Xaykal yoki naqsh-gulning yarmidan ko‘pi bo‘rtib chiqqan bo‘ladi.

**GORIZONT** (ufq tekisligi), (yunon.gorisont-checklayman) - perspektiva nazariyasida shartli ravishda qabul qilingan tekislik, ochiq va tekis yerda ko‘rinadigan qismi. Dala manzarasida yer bilan osmonning «tutashish» joyidan o‘tadigan chiziq gorizont chizig‘i deyiladi. Gorizont doira shaklida bo‘lib, kuzatuvchi o‘zini shu doiraning markazida turgandek xis qiladi, balandga ko‘tarilgan sari gorizont kengaya boradi. Kartinada gorizont chizig‘ining pastroq yoki yuqoriqdan olinishi tasvirlanayotgan narsalarning turish xolatiga bog‘liq. Gorizont chizig‘i kartina o‘rtasining pastrog‘idan o‘tsa, narsalar ta’sirli, xashamatli, baxaybat bo‘lib ko‘rinadi. Shaxar manzarasida esa bu chiziq tramvay izlarining, ko‘cha chetlarining va yo‘lkalarining, bir xil balandlikdagi uylar yoki simyog‘ochlarning qisqarib-torayib, bitta nuqtada «uchrashish» joyidan o‘tadi.

**GOTIKA**- gotika uslubi-asosan garbiy Ovro‘pa mamlakatlari sanatida XII-asrdan vujudga kelgan, badiiy uslubning shartli nomi (Germaniyadagi gotlar qabilasi nomidan olingan). o‘ziga xos jixatlari binolarning sinchlari ustunlardan va ular ustiga yo‘nib o‘rnatilgan ariqlardan iborat ekani, binolarning baland va keng

bo‘lishi, devor o‘rnida ustunlardan foydalanilgani, bu ustunlar orasiga ulkan derazalar o‘rnatilgani bino ichining yorug‘ bo‘lishini ta’minlaydi.

**GRAVYURA** (frans.graver- o‘yish)-grafika turi. Gravyura metall, yog‘och, linoleum, tosh va boshqalarga maxsus asboblar yoki kimyoviy vositalar orqali bo‘rtma yoki o‘yma qilib tayyorlanadi. Gravyuraning ajoyib namunalarini o‘zbekistonda V.Ye.Kaydalov, K.Basharov, N.Xolikov, V.Parshin, G.I.Chiganov, A.N.Siglinsev va boshk. Gravyura usulida bir qancha asarlar yaratganlar.

**GRAFIKA** (yunon. grafikus-tasvirlangan, aks ettirilgan) - tasviriy sanat turi. Unga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mazmunli rasmlar, plakatlar, markalar va shu kabilar kiradi. Grafika sanati asarlari xajm jixatdan uncha bo‘lmaydi va ko‘pincha qog‘ozda bajariladi. Grafika to‘rt turga bo‘linadi: dastgoxli grafika, gazeta-jurnal grafikasi, plakat va amaliy (sanoat) grafikasi.

**GRIZAYL** (frans. grisale, gris- kul rang so‘zidan) - bir rang bilan turli (och, to‘q, nim rang qilib), ko‘pincha kul rang bo‘yoqda yaratilgan rasm. Asosan devoriy rasmlar relefli bo‘lib ko‘rinishi uchun shu tarzda ishlanadi.

**GROTESK** (ital. grotta- g‘or) - kishilar va narsalarning fantaslik tarzda qing‘ir-qiyshiq qilib kulgili tarzda yaratilgan tasvir.

**GUASH** – (frans. guuische, ital. guacco— suv bo‘yog‘i) - yelim va belila aralashtirilib, suvgaga qorilgan bo‘yoq va shu bo‘yoq bilan ishlangan rassomlik asarlari. Ishlatish yo‘llari jixatidan guash akvarel bo‘yoqlarning yumshoq xillariga o‘xshasada, belila qo‘shilganligi, bo‘yoq qatlaming qalinligi va xiraligi bilan akvareldan farq qiladi.

**GARMONIYA** (grekcha so‘z bo‘lib, harmonia – xushbichim, umumiylilik, qismlari (bo‘laklari) kelishgan) – Tasviriy san’atda tasvirlanayotgan buyum shakli yoki rangning o‘zaro umumiyligi, xushbichimligi.

**GIPERRIALIZM** – tasviriy san’atda: fotorealizm, minimum muallifga tegishli yozuvga keltiruvchi rasm. Rasmni tayyorlash – rasm yoki kompyuter proektsiyasi.

**GRAFIT** – (grek. grapho – yozaman). 1. To‘q kulrang yoki qora rangdagi mineral, uglerodning tabiiy turi. Qalam o‘zagini tayyorlashda qo‘llaniladi. Grafit matodan yoki boshqa materialdan qilingan qog‘ozga tushganda kumush iz qoldiradi. Grafit qalam XVIII asr oxirlaridan qo‘llanila boshladi, ilk marotaba u qattiq bo‘lishi uchun grafit va loyni kuydirish yo‘li bilan tayyorlandi. 2. Toshqalam, o‘zak qalamning ichida joylashgan.

**GRUNT** – (nem. Grund yer, o‘zak). O‘zakni (mato, daraxt, karton yoki metal) fizik, ximik, mexanik va estetik to‘ldirish. O‘zak yuzasiga, bo‘yoq qatlamini ushlab qolish, bo‘yoq moddalari bog‘lashini cheklash, istalgan rang va jilo berish uchun maxsus tayyorlangan qatlam surtiladi.

## «I»

**IKONA** (yunon. Ikon – tasvir) - diniy rangtasvirning dastgoxli asari. Xristiyan dinida xudo (payg‘ambar) va avliyolarning sajda qilish uchun ishlangan rasmlari relefli tasvirlari.

**ILLUSTRASIYA** lotn. illuastratsion - yoritish, ko‘rgazmali tasvirlash-kitob, jurnal, gazeta matniga qo‘sishimcha tarzda beriladigan, uni to‘ldirishga, matn malumotlarini ko‘z o‘ngida gavdalantirishga xizmat qiladigan surat, rasm, reproduksiya, shuningdek, kartina, sxema va turli tasvirlar. o‘zbekistonda V.Kaydalov, Ch.Axmarov, K.Basharov, L.Abdullaev va boshqa rassomlar bu soxada samarali ijod qilmoqda.

**IMPRESSIONIZM** (frans. Imprezion – taassurot) - XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida tasviriy sanatda paydo bo‘lgan oqim. K.Monening 1872 yilda yaratilgan «Taassurot. Chiqayotgan quyosh» kartinasi yangi oqimning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Impressionist rassomlar/ K.Mone, O.Renuar, E.Dega, K.Pissaro, B.Morizo va b./ Bevosita ochiq xavoda kartina ustida ishlab, tabiat va u bilan organik bog‘liq bo‘lgan inson qiyofasidagi o‘zgarishlarni jonli bo‘yoqlar vositasida tasvirlash imkoniga ega bo‘lgan.

**INKRUSTATSIYA** (lot. Inkrustazio – qadash) - buyum, binolarni badiiy bezash usullaridan biri. Yog‘och, tosh, sadaf, suyak va boshqalarni qadab,

yopishtirib naqsh, yozuv, tasvir xosil qilinadi. Bezatilayotgan material yuzasiga boshqa material yuzasiga boshqa material yoki shu materialning boshqa ranglisi o‘yib qadaladi.

**IKONOGRAFIYA** – tasvir, rasm xag‘ida izox yoki ma’lum shaxs, xodisa vog‘ea, mavzu tasvirlarini ko‘rsatuvchi izox va ularni muntazam ravishda o‘rganish.

**INTERER** frans. interior- ichki - badiiy bezalgan va jixozlangan xonaning ichki ko‘rinishi. Intererning xarakteri bino ichining ko‘rinishi, xajmi, shakli, bezak xili, rangi, ma’nosi g‘oyasi va boshqa bilan aniqlanadi. Toshkentdagi ko‘p binolar intereri diqqatga sazovor: Navoiy nomidagi, Davlat akademik Katta teatr binosining vestibyulida Navoiy «Xamsa»si asosida ishlangan panno.

#### «J»

**JANR** – (frans.- tur, ko‘rinish). Tasviriy san’atda janr deyilganda, chegaralangan mavzuni o‘zida aks ettiradigan san’at asarlari tushuni-ladi. Bular manzara - tabiat ko‘rinishlari, portret - odam qiyofasi tasviri, natyurmort - meva, gul va buyumlar tasviri va x.k. Mazmunli suratlar xam o‘z navbatida tasnif-lanadi: tarixiy, maishiy, xarbiy, animalistik, interer.

**JIVOPIS** – rangtasvir.

#### «K»

**KALLIGRAF** – Xattot. Xusnixat qoidalariga rioya qilib chiroqli yozadigan kishi.

**KALLIGRAFIYA** /yunon. kallos – chiroqli va ... grafiya/ - xarflarni chiroqli va aniq qilib yozish san’ati. Kalligrafiya, ayniqsa, Sharq xalqlarida rivoj topgan. Arab yozuvida kufiy, sulo, tavqe’, riko’, rayxoniy, nasx, ta’liq, nasta’liq kabi uslublar vujudga kelganki, bu uslublar yozuvni geometrik, o‘simliksimon naqshlar darajasiga ko‘targan, nafislashtirgan. Kalligrafiya san’ati kitob bezaklarida, plakatlardagina ko‘zga tashlanadigan bo‘lib qoldi. Chiroqli yozish san’ati xozir boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchi raxbarligida o‘rganiladi.

**KALKA** /frans. kalgu/ - chizmachilikda qo'llaniladigan shaffof qog'oz. Chizmadan tush va yorug'lik vositasida ko'plab nusxa ko'chirish uchun maxsus modda shimdirlilgan, xamda kalandrlangan kalka, qalamda nusxa ko'chirish uchun esa kalandrlanmagan kalka /shaffof qog'oz/ ishlataladi.

**KANDAKORLIK** qadimiy amaliy san'at turi, metall o'ymakorligi. XIX asrda Buxoro, Qo'qon, Marg'ilon, Samarqand, Toshkent, Shaxrisabz, Xorazm kandakorlik maktablari mavjud.

**KANON** – qonun.

**KAOLIN** – chinni loy.

**KAPITEL** - Lonj-kala, - bosh/ - ustunning yuqori qismidagi bezagi.

**KARANDASH** - qalam – yog'och yoki plastmassa qobiq ichiga joylashtirilgan grafitning ingichka tayoqchasi. Karandash yordamida yozuv yoziladi, rasm chiziladi, chizmalar chizishadi. Karandash iborasining kelib chiqishi aslo ruscha so'zidan emas. «Kara» so'z qismi «qora», «dash»- «tosh» ma'noni anglatadi.

**KARIKATURA** (ital. karikare— bo'rttirish) – ijtimoiy siyosiy va maishiy mavzuda xajv yoki kulgili qilib ishlangan rasm. Biror voqeal yoki shaxsni tanqid qilish, achchiq kulgi tug'diradigan qilib bo'rttirib tasvirlanadi. Rasmga qisqa mazmundor matn ilova qilinadi.

**KARTINA** - mustaqil badiiy qiymatga ega bo'lgan tasviriy sanat asari. Romga tortilgan mato, metall yoki yog'och taxta, karton, qog'ozga moyli bo'yoq, akvarel, pastel, guash, tush, mum kabilar bilan dastgox (molbert)ga o'rnatib ishlanadi. Bu italyancha «karta» so'zidan bo'lib, «qog'oz» degan ma'noni anglatadi. Kartina so'zining dastlabki ma'nosi – «nozik, chiroyli, bezatilgan qog'oz».

**KASHTA** (fors-toj.- tortilgan, chizilgan) - ama-liy bezak sanatining eng qadimiy va keng tarqalgan turi. Kashta guli (naqshi) qo'lida (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki popop mashinasida, asosan, mato (bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va boshqa) va charmga (etik, maxsi, pichoq qini, kamar va boshqa) tikiladi. Matoga tikilgan kashta turlari: palak, so'zana, kirpech, zardevor,

gulko‘rpa, choyshab, parda, belbog‘ va boshqa badiiy buyumlar, shuningdek, do‘ppi, ko‘ylakka kashta tikiladi.

**KERAMIKA** (yunon. keramos - loy) - maxsus tuproq bilan turli minerallar aralashmasidagi loyni pishitib, undan tayyorlangan va keyin qattiq qizdirib xosil qilingan maxsulot. Ulardan ro‘zg‘orda (sopol va chinni idishlar, buyumlar) keng foydalaniladi. Tarixiy manbalar Markaziy Osiyoda turli tuman rangda sirlangan sopol idishlar XIII-XII asrlarda keng tarqalganini ko‘rsatadi. o‘zbekistonning turli tumanlarida Toshkent, Samarqand, Farg‘ona viloyatining Rishton qishlog‘larida chinni, keramika zavodlari ishlab turibdi.

**KUKRINIKSLAR** (uch rassom familiyasining dastlabki xarflaridan olingan taxallus) – Kupriyanov Mixail Vasilevich, Krilov Porfiriy Nikitovich, Sokolov Nikolay Aleksandrovich xalq rassomlari, satira ustalari, shu bilan bir qatorda plakat, illustrasiya, rassomlik san’ati soxasida xam mashxur.

**KULOLChILIK** – xunarmandchilikning turli-tuman loydan idish, buyum, qurilish materiallari va boshqa ishlaydigan soxasi. Afrosiyobda va Markaziy Osiyoda VIII-XII asrda rivojiana boshlangan. Ayniqsa, o‘zbeklar va tojiklar yashaydigan shaxar xamda qishloqlarda keng rivoj topgan. Koratog‘, Panjikent, Samarqand, Shaxrisabz, Fijduvon, Toshkent, Rishtonda sopol idishlarning sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublari vujudga kelgan. 1930 yildan Toshkent eksperimental keramika, Samarqandda keramika ustaxonalari, Shaxrisabzda ochildi. Turob Miraliev (Toshkent), Rustam Egamberdiev, Karim Xazratqulov (Shaxrisabz), Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov (Rishton), Muxammad Siddiq, Usmon Umarov (Fijduvon) singari o‘nlab atoqli kullollar yoshlarga ta’lim berdilar. o‘zbekistonda kulolchilik ishlarini rivojlantirish, yoshlardan kullollar taylorlash kullolchilikni tadqiq etishda o‘zbekiston xalq rassomi, san’atshunoslik nomzodi Muxiddin Raximov samarali mexnat qildi.

**KOLORIT** – (lot. kolor – rang)- tasviriy san’atda real xayotni xaqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o‘zaro mutanosibligini, nisbati. Rassom asarida g‘oyani, obrazni ifodalashda bo‘yoqlarga alovida axamiyat bilan

qaraydigan san'atkor kolorist rassom deb ataladi. o‘zbekistonlik rassomlardan o‘.Tansiqboev, N.G.Karaxan, Z.M.Kovalevskaya, Ch.Axmarov, M.Saidov va boshqalar O‘zbekiston manzaralari, zamon kishilari qiyofasini ifodalashda rangga aloxida axamiyat beradilar.

**KONTRAST** – (frans. kontraste – keskin ziddiyat) Qora rang oq rang oldida yana xam qoraroq ko‘rinadi; issiq narsani sezish ketidan sovuqqa sezgirlik kuchayadi va x.k.

**KONTUR** - /frans. kontoir/ predmetning umumiy shaklini tasvirlovchi ko‘rinish, abris, chiziq.

**KSILOGRAFIYA** – (ksilo-yunon.hilon -yog‘och va grafiya)- yog‘och o‘ymakorligining, gravyurining eng ko‘p tarqagan, qadimiy turlaridan biri. Rasmning /tasvir/ bosish /nashr etish/ uchun tayyorlanadigan formasi /klishesi/ yog‘ochni o‘yib qo‘lda tayyorlanadi. Rasm shakli /chiziqlari/ yog‘och taxta yuzasida bo‘rttirib, tasvirdan tashqari barcha qismi maxsus pichoq, iskana bilan o‘yib olinadi. Matbaada bo‘yoq taxtaning bo‘rtib qolgan joylariga tegib, ulardan qog‘ozda tasvir xosil bo‘ladi.

**KITOB BADIY BEZAGI** – kitob san’ati. Qadimdan kitob tuzish ishi bilan turli xunar egalari mashxur bo‘lganlar. Kitobni saxifalarini tayyorlovchi xunarmand saxxof yoki varroq deb atalgan. Jildsoz charimdan jild yasagan. Tayyor qog‘oz saxifasiga xattot asar matnini ko‘chirgan, lavvox esa uning saxifalarni rangli jadval bilan ziynatlagan. Kitobning birinchi ikki saxifasiga sarlavxa /unvon/ ishlangan. Unvon /titul/ naqshlar bilan bezalgan, undan keyin kitob tasvir tushirish kerak bo‘lsa, musavvirga topshirilgan. Musavvir oldin nozik chiziqlar bilan suratni ustixonini /kompozitsiyasini/ chizgan, so‘ngra rang bergen.

**KLASSIK SAN’AT** – ko‘p yillar mobaynida xalq tomonidan obro‘ qozonib, namuna sifatida qo‘llanilib kelinayotgan san’at.

**KOMPOZITSIYA** – lot. – tuzilish, qurilish. Badiiy asarning tuzilishi, asarda tasvirlanayotgan narsalarning obrazlari va badiiy vositalarning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibiy joylashishi va ularning muvofiqligi.

**KARTINA TEKISLIGI** – tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog‘oz yuzasi.

**KOMPOZITSIYA QURILISHI** – kartina yoki qog‘oz tekisligida uning o‘lchami, hajmi, formatiga muvofiq joylashtirish, kompozitsiya markaziy o‘qini aniqlash va unga nisbatan tasvirning ikkinchi darajali bo‘laklarini bo‘ysundirish, guruhash va tasvirning barcha qismlarini asosiyga nisbatan bo‘yundirib yaxlit biriktirish, asarning nafis yaxlitligi. Naturadan ishlaganda tasvir mavzusini izlash, tasvirlanayotgan narsalar ni saralash va qo‘yib chiqish, qiyofachining harakat holatiini maqsadga muvofiq tarzda to‘g‘ri tashkil etish. Tasvirning eng jozibali tus yechimini topish, masshtablarning va nisbatlarining o‘zaro mosligi bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq jarayon bo‘lgan tasvirning perspektiv qurishning eng ma’qul holatini topish uchun izlanish.

**KONTRASTLIK** (fransuzcha – contraste – keskin farq, qarama – qarshilik) – tasviriy san’atda qarama–qarshi qo‘yilgan tue, rang, shakl, qiyofa nazarda tutiladi. Masalan: oq – qora, yorug –soya, qizil – ko‘k, to‘g‘ri – egri, issiq – sovuq va boshqa kontrastlar. Kontrast tue yoki rang kompozitsiyada badiiylik obrazini kuchaytiradi, asosiy qismining ta’sirchanligini yanada oshiradi.

**KONSTRUKTIV SHAKL** – tasvirning alohida va yaxlit ko‘rinishlari nisbatlarining o‘zaro mutanosplibligida ko‘rinadigan; narsa shakli qismlarining nisbatlari, ularning bir biriga mosligi, mohiyati, har qanday shakl tuzilishi ning o‘ziga xos jihatlari.

**KOORDINAT** – ma’lum masofalarda belgilab olingan, o‘lchami aniqlangan joylar, nuqtalar. (tasvirdagi)

«L»

**LAVX** (arab.- taxta) - eski maktablarda talabalar savod chiqarish uchun ishlatgan yozuv taxtasi o‘qish vaqtida ustiga kitob ochib quyiladigan maxsus kursicha (taglik), odatda lavx taxtadan ishlanadi. Samarkandda Bibixonim masjidining xovlisida marmardan ishlangan katta lavx bor. Lavx kitobning boshiga bob va fasllarning avvaliga saxifaning eni bo‘ylab solingan naqsh.

**LEVKAS** – tasvir ishslash uchun tayyorlangan taglik.

**LINOGRAPHYU RA** (linoleum va gravyura)-linoleum parchasiga ishlangan gravyura. Texnikasi ksilografiyaga yaqin. Ishlangan tasvirni ko‘p nusxada nashr etish imkonini beradi. Ko‘pincha rangli bosmada qo‘llaniladi. Linoleum yog‘ochdan yumshoq bo‘lgani sababli chizig‘lar g‘uyug‘rog‘ va jozibalirog‘ chig‘adi, lekin chizig‘larning to‘g‘riliqi va tekisligi ksilografiyaga nisbatan zaifrog‘ bo‘ladi.

**LITOGRAFIYA** (yunon. lito-tosh, grafiya) - yassi bosmaning g‘adimgi va keng targ‘algan usuli bosma g‘olip /shakl/ maxsus litografiya toshida tayyorlanadi. Yozuv yoki tasvir tosh sirtiga relefsiz litografiya tushi yoki qalami bilan tushiriladi. Maxsus litografiya qog‘ozga ishlangan tasvirni tosh sirtiga ko‘chirish xam mumkun. Tasvirli yozuvli tosh sirti kimyoviy ishlovdan keyin bosiladi.

**LESSIROVKA** rangtasvir usularidan biri. Qurigan g‘alin bo‘yog‘ g‘atlami yuzasiga yorqin yoki yarim yorqin ranglarning berilishi.

**LOKAL RANG** - bu rang buyumning asl rangi, masalan, gipsdan ishlangan oq vazaning oqligi vazaning lokal rangi.

**LUBOK** - yog‘och bosma tasvir turi, odatda, tasviriy san’atda xalg‘ xayotidan olingan ertak va cho‘pchaklar mavzusini ifodalaydigan sodda va xajviy rasmlar.

## «M»

**MAVZOLEY** - lot. maqbara. Kabr ustiga ishlangan monumental yodgorlik.

**MAYOLIKA** (ital. mayolika, malorka orolining qadimgi nomidan) - keramika turi, maxsus rangli tuproqdan sirlab tayyorlangan sopol. o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqagan. Binolarni bezashda, devor va minoralarning sirtini xashamlashda, uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlashda keng foydalaniladi.

**MAKET** (ital. makietta – xomaki) - biror joy, narsaning kichraytib tayyorlangan fazoviy shakli. Odatda, muzeylar uchun, o‘quv va boshqa maqsadlarda yasaladi.

**MANZARA** peyzaj – ma'lum bir joyning ko'rinishi, tasviri; tasviriy san'at janri. Manzarada tabiat tasviri – dengiz ko'rinishlari /marina/, daraxtzorlar, g'irlar, shaxar va qishloqlarning qiyofasi, umuman, turli joylarning tasviri orqali kishining xis-tuyg'ulari badiiy obrazlarda ifodalanadi. Manzara o'rtalarda Xitoy, Yaponiya, Uyg'onish davrida esa Yevropada rivoj topdi. o'zbekistonda o'.Tansiqboev manzara janridagi jozibador asarlari bilan mashxur.

**MAZOK** - bo'yoq surmasi.

**MAISHIY JANR** – kundalik turmushda uchraydigan xodisalarini o'zida aks ettirgan tasviriy san'atning bir ko'rinishi.

**MARINA** - dengiz rasmi.

**MASTIXIN** grekcha so'z. Egiluvchan po'latdan yasalgan maxsus asbob bo'lib, rangtasvir ishlash jarayonida palitrani ortiqcha bo'yoqlardan tozalash maqsadida va kurimasidan oldin noto'g'ri qo'yilgan bo'yoq qatlamini sidirib olib tashlash uchun foydalilanadi.

**MO'YQALAM.** Bo'yoq bilan ishslashga mo'ljallangan qurol, asbob. Ular dumaloq va yassi shakllarda bo'lib, olmaxon, suvsar, bo'rsuq kabi xayvonlarning mo'ynasidan tayyorlanadi. Mo'yqalamni katta-kichikligini ko'rsatuvchi raqam asosan 12-20 gacha bo'ladi.

**MULYAJ** frans. Haykaltaroshlikda naturadan olingan nusxa, tabiiy maxsulotlar, odam gavdasi qismlarining sun'iy shakli.

**MU'JAZ** - miniatyuraviy.

**MEMORIAL** (lot. memorialis–xotira) - ayrim shaxs va muxim tarixiy voqealar sharafiga barpo etiladigan arxitektura inshootlari, tasviriy san'at asarlari/ odatda, xaykal, maqbara, qabr toshi, exrom va x.k. (Markaziy Osiyo, Qozog'istonidagi memoriallar) Amir Temur maqbarasi, Paxlavon Maxmud maqbarasi, Axmad Yassaviy maqbarasi/ bu kabi qurilishning dunyodagi mukammal namunalaridan sanaladi. Toshkentda Mustaqillik maydonida /»Motamsaro ona»/ va boshqa joylarda o'rnatilgan memoriallar monumental san'atning yuksak namunalari sanaladi.

**MINIATYURA** (lotin. Minium-kinovar qizil bo‘yoq) - nafis ishlangan kichik xajmli tasviriy san’at asarlari: qo‘l yozma kitoblarga ishlangan surat, manzara, grafik tasvirlar; emal, guash, akvarel va boshqa. bilan ishlangan kichik portret, suratlar. Markziy Osiyo, jumladan o‘zbekiston xududida xam qo‘lyozma kitoblarga ishlangan tasvirlar qadimdan bor. Miniatyura san’ati X-XI asrlarda rivoj topgan. Sharafiddin ali Yazdiyning «Zafarnoma»si xamda «Shayboniynoma», «Fatixnoma», «Tarixi Abulxayron» kabi tarixiy asarlar katta maxorat bilan miniatyurada bezatilgan. Xirot miniatyura maktabi, Tabriz miniatyura maktabi, Isfaxon miniatyura maktabi, Buxoro miniatyura maktabi, miniatyura maktablari mavjud bo‘lgan bo‘lgan. Rossiyada Mstera, Palex, Fedoskino, Xoluy miniatyura maktablari vujudga kelgan.

**MINORA** (arab.- mayoq) - baland inshoot. Minoralar doira, ko‘p qirrali, to‘rtburchak shaklida bo‘lib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Samarqand, Xiva, Buxoroda yuksak maxorat bilan ishlangan minoralar saqlangan.

**MIRAK NAQQOSH** (tug‘. yil noma'lum – vafoti 1507) - naqqosh, musavvir. Kamollidin Bexzodning ustozi /uni Sayyid Mirak, Xoja Mirak deb xam atashgan/. Usta xattot bo‘lgan. Xirot jome masjidi kitoblarini, ko‘pgina yirik binolarni bezagan.

**MISGARLIK** - xunarmandchilikni qadimgi turi, misdan qurol, uy-ro‘zg‘or ashyolari, turli buyumlar yasash kasbi. Mis idishlar yasashning qadimiy markazi Buxoro bo‘lgan. Misgarlar mis idishlarni, asosan ikki xil yo‘l bilan: eritib qo‘yib yoki bolg‘alab yasaganlar.

**MODERN** uslubi (frans. moderne – eng yangi, eng zamonaviy) XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Ovro‘pa va Amerika san’atida vujudga kelgan uslubiy yo‘nalishlardan biri. Tasviriy san’at, Haykaltaroshlikda yangi izlanishlar bo‘ldi, kartina va pannolar bino intererining elementi bo‘lishiga axamiyat berildi, bu ularning dekorativ ruxda yaratilishiga olib keldi. An’anaviy uslub, badiiy shakllardan yuz o‘girib, yangi, zamonaviy uslub, shakllar yaratishda izlandilar;

amalda realizmga qarshi qaratilgan, shaklbozlikdan iborat, tushunib bo‘lmaydigan, shakli go‘zallikka zid asarlar yaratdilar

**MOZAIKA** - rang-barang qoshin, shisha, marmar, tosh, yog‘och, metall parchalari bir-biriga zich terib yopishtirib ishlangan naqsh, tasvir monumental-bezak san’ati turlaridan biri. Binolarni bezashda, dastgoxli asarlar yaratishda, amaliy san’at asarlarida foydalaniladi. Mozaika tayyorlashning ikki usuli ma’lum. 1-usulda tosh, shisha, sopol parchalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri devorga, polga, shiftga sement yordamida yopishtirib suvab, tasvir xosil qilinadi /to‘g‘ridan-to‘g‘ri terish/. 2-usulda koshin, sopol parchalari, qog‘oz, metall, yog‘och taxtaga yopishtirib tasvir xosil qilinadi, keyin shu tasvir tegishli joyga ko‘chiriladi /qayta terish/ usuli. Toshkentdagi «Bilimlar uyi», Respublika Amaliy san’at muzeyi mozaika bilan bezatilgan.

**MOLBERT** (nem. Malbrett)- rassomlikda ishlatiladigan uch oyoqli dastgox. Ramkaga tortilgan polotnoni yoki taxtani unga o‘rnatib rasm chiziladi. Uch oyoq deb xam yuritiladi.

**MONIY IBN FATAK** (216 – 276) - moniylik ta’limoti asoschisi; naqqosh va rassom. Moniy «Shoburakon», «Kanz ul-axyo‘», Jabborlar xaqida, Sirlar kitobi, «Kefalaya», «Bungoxang» nomli asarlar yozgan. Turli rivoyatlarda Moniyning o‘z davrida iste’dodli naqqosh, rassom sifatida tanilgani xikoya qilinadi.

**MONUMENT** (lotin. monumentum – yodgorlik) - biror muxim tarixiy voqeа, ulug‘ shaxs sharafiga yaratilgan xashamatli yodgorlik, arxitektura yoki Haykaltaroshlik asari. Xar qanday ob-xavo sharoitiga chidamli materiallar / marmar, granit, bronza va bosh/ dan ishlanib, o‘rnatalayotgan joyning muxiti bilan uyg‘unlashtirib quriladi.

**MUSAVVIR** (arab – rassom)- turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

**MANERA** –uslub. Mastixin – (italyancha metsichino) po‘latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina; rangtasvir ishslashda

qo‘llaniladi. Model (fransuzcha so‘zdan modele – ob’ekt, tasvirlanayotgan shakl, naturachi odam) – ko‘p holda tirk natura, umuman odam.

**MONOXROM** (grekcha so‘zdan monos – bir, chronos – rang) – bir rangli demakdir. Motiv (fransuzcha so‘zdan motif – sabab, syujet): 1) natura ob’ekta, rassom tomonidan tasvirlash uchun mo‘ljallangan ob’ekt yoki ba’zi hollarda manzara bo‘lishi mumkin; 75 2) Amaliy – bezak san’atda – asosiy element ornament kompozitsiyasi ko‘p takrorli bo‘lishi mumkin.

**MOLBERT** – rassom dastgohi, anjomi. Muvozanat – o‘quv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, o‘lcham, shaklning o‘zaro mos kelishi, sath og‘irligi mutanosibligi.

**MUALLIF** – asar yaratgan shaxe. Munosabat, nisbat (otnosheniya) – asar yaratishda foydalanilgan natura elementlarining o‘zaro bog‘liqligi. Masalan: rangtasvirda tue va rang munosabati, xar xil yorokinlik nisbati. Chizmatasvirda o‘lcham va shakl nisbatlari. San’atda taqqoslash usuli bilan aniklanadi. Tus va rang munosabatalari kontrast, o‘tkir va yengil nyuansli bo‘lishi mumkin.

**MUTANOSIBLIK** (garmoniya) – tasvir ob’ekti yoki tasvirning turli qismlarining (o‘lcham, rang tuzilihatidan) o‘zaro blg‘lanib, go‘zallik me’zoniga mos bo‘lishi.

## «N»

**NATURA** (lot. natura – tabiat)- rassom, shuningdek, fotograf, kinooperatorga tasvir ob’ekti bo‘lib xizmat qiladigan real, borliq (inson, narsalar, manzara va x.k.) Naturani tanlash va tasvirlashda rassomning dunyoqarashi, ishodiy maxorati ko‘zga tashlanadi. Portret, manzara, natyurmort, etyud va boshq. naturaga asoslanib bajariladi.

**NATURALIZM** (lot. naturalis – tabiiy). San’atda XIX asrning II-yarmida vujudga kelgan oqim va ijodiy metod. Tasviriy san’atda naturalizm aniq shakllangan oqim sifatida ko‘zga tashlanmaydi, lekin naturalistik tendensiyalar ko‘pgina rassomlarning ijodida xukmronlik qildi, ular fakt va voqealarni fotograflardek aks ettirib, ikkinchi darajali detallarga ko‘p o‘rin berdilar.

Fransiyada E. Mane /ayniqsa E.Zolya portreti, «Nana» kartinası/ E.Dega, T.Steynlin, Germaniyada M.Liberman, G.Bertels, Italiyada naturalizmga xamoxang bo‘lgan oqim – verizm vakili V.Vela o‘z ijodlarida bir qarashdayoq ko‘z ilg‘agan xayot lavxalarini aks ettirishga intildilar.

**NATURMORT** (frans. nature morte - jonsiz tabiat) - tasviriy san’at janri. Gul, meva, qushlar, ro‘zg‘or buyumlari, ayrim mexnat qurollari, to‘kin dasturxon tasvirlanadi. Natyurmort asarlari qadimdan ma’lum. Uning paydo bo‘lishi tasviriy san’atda realistik uslubning qaror topishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq. Birinchi namunalari qadimga Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm mozaikalarida uchraydi. Respublikamizda V.Ufimsev, M.Kurzin, Z.Kovalevskaya, Yu.Yelizarov, N.Kashina, R.Axmedov, Yu.Taldikin kabi o‘nlab natyurmort ustalari yetishib chiqqan.

**NAQSH** (arab – tasvir, gul) - elementlari ma’lum tartibda takrorlanadigan geometrik shakllar, o‘simlik, qush, xayvon, va boshqalarning sxematik tasviridan tashkil topadigan bezak. Ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, toshtaroshlikda ganch, yog‘och, mis, toshga o‘yib, qirqib, qog‘oz, mato, yog‘ochga tush, turli bo‘yoqlarda chizib, bo‘yab, kashtado‘zlik va zardo‘zlikda choc yordamida, kulolikda chizma bosma, qalami singari usullarda bo‘yab, sirlab, shuningdek, koliplar yordamida xosil qilinadi. Gilamchilik va to‘qimachilikda to‘qib, inkrustatsiya va panjarada qadab xam naqsh ishlanadi.

**NAQQOSH** – naqsh chizuvchi san’atkor. Ganch, yog‘och tosh, metallga o‘yib, ganch va yog‘ochga chizib va bo‘yab naqsh ishlovchi xunarmandalarga, shuningdek, kashtado‘z, zardo‘z, gilamchi, zargarlarga naqsh nusxalarini ishlab, chitga gul bosuvchi kosiblar uchun g‘olip tayyorlaydigan ustalarga xam naqsh chizib beradi.

**NAQQOSHIK** – naqsh chizish, naqsh yaratish kasbi, badiiy ijodkorlik, xalq amaliy san’atining qadimiy turlaridan biri. Me’morlik, kulollik, misgarlik, zargarlik, gilamchilik, kashtado‘zlik kabi kasblarning taraqqiyoti naqqoshlikning xam rivojini taqozo etgan. Quykirilgankal’a, Tuproqqal’a, Ko‘xna Urganch,

Qadimgi Termiz, Ayrитом, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan naqsh namunalarining jozibadorligi ajdodlarimizning yuksak madaniyatidan darak beradi. Naqqoshlik avloddan-avlodga o‘tgan, shogirdlar otalari, ustozlaridan o‘rgangan naqsh namunalarini rivojlantirib borganlar.

**NUSXA** (arab. – rasm) xalq amaliy san’ati - kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, to‘qimachilik va boshg‘a tarmoqlarida qo‘llaniladigan va ma’lum kompozitsiyaga asoslangan naqsh namunasi. Nusxa xalq ustalari va ularning ijodiy fantaziysi asosida vujudga kelib, davr taqozasi bilan o‘zgarib, yangilanib boradi.

**NYUANS** (frans. Nyuanse) – nozik farq.

«O»

**OLEOGRAFIYA** (lot. Oleum – moy va ...grafiya) - moybo‘yoq bilan ishlangan kartinalardan bosmaxonada ko‘plab nusxa ko‘chirish usuli.

**ORNAMENT** (lat. Ornamentum- bezak) - naqsh, bezak. Geometrik shakllar bilan o‘simplik yoki xayvonlar olamidan olingan tasvirlarni qo‘shib, uyg‘unlashtirib ishlangan bo‘yoqli, o‘yma yoki chizma naqsh, bezak.

**OTTISK** (ruscha) - bosish uchun tayyorlangan matn yoki jadval tasvir /bosma shakl/ning poligrafiya usuli, ya’ni bosim orqali bo‘yoq bilan qog‘oz yoki boshqa materialga o‘tkazish jarayoni va shu jarayon natijasida olingan nusxasi.

**OFORT** (frans. laau-forte – kislota)- gravyura/metall o‘ymakorligi/ning keng tarqalgan turlaridan biri. Bunda tasvir metall taxtaga kislota ta’sir ettirib xosil qilinadi. Tekis va silliq mis yoki qo‘rg‘oshin taxta sirti kislotaga chidamli lak bilan bo‘yaladi. Keyin gravyura ignasi yordami bilan o‘yib tasvir chiziladi. o‘yilgan joylar kislota ta’sirida yana chuqurlashadi va u yerga bo‘yoq tushib, uning ottiskasida tasvir xosil bo‘ladi. Bu usul rangli bosmada xam qo‘llaniladi.

**OLTIN KESIM** – biror bir shaklningg mutanosib tenglikda bo‘linishi, bunda kichik qism katta qismga, huddi katta qism eng katta qismga bog‘liq bo‘lgani kabi bo‘ladi. Rasm qismlari va bir butunning mutanosiblik nazariyasi ilk marotaba Uyg‘onish davrida shakllangan. Son ekvivalentida oltin kesim cheksiz kasrdan iborat: 1,618033988.....

**OBRAZ** (badiiy) – san’atda hodisalarining aks ettirilish shakli (formasi). Original (lotincha so‘zdan originalis – birinchi bor, asli, asl nusxasi).

## «P»

**PALITRA** (frans. palette– plastinka, planka)- rassom bo‘yoq qoradigan taxtacha. Metall, chinni, ba’zan yog‘ochdan tayyorlanadi. Ma’lum bir rassom, rasm uchun xarakterli bo‘lgan rang, bo‘yoqlar xam palitra deb yuritiladi.

**PANNO** (lat. pannus – mato parchasi) - bino devori yoki shiftining ramkaga olinib, rasm, naqsh, barelef ishlangan qismi. Rasm moyli bo‘yoq bilan tempera, freska, mozaika usullarida ishlanadi. A. Navoiy nomidagi Toshkent opera va balet teatri bezashdagi U. Tansiqboev, M. A. Arinin, K.P. Cheprakov, usta Shirin Murodov, Tashpulat Arslonqulovlarning ishlari buning yorqin misoli bo‘la oladi.

**PANORAMA** (pan... va yunon. orama– ko‘rinish) - tevarak – atrofni qamrab olib aks ettiradigan kartina. Panoramada atrofdagi manzara, ro‘y berayotgan voqeа to‘la aks ettiriladi. Illyuziya yordamida voqeа jonli gavdalanmog‘i uchun kartinaning oldiga binolar, turli joylarning maketi, narsalar, kishi, xayvonlarning shakllari ishlab joylashtiriladi. Panorama aylana bino ichidagi devorda bo‘lib, tomoshabinlar shu binoning o‘rtasida maxsus qurilgan maydonchadan panoramani ko‘radilar. Birinchi panoramani 1787-88 yillarda irlandiyalik rassom R. Barker Edinburgda yaratgan.

**PAPE-MASHE** (frans. papier mashe– ezilgan qog‘oz)- to‘yib ezilgan qog‘oz, karton va boshqa narsalarga yopishqoq moddalar, kraxmal, gips qorishtirib xosil qilinadigan material. Badiiy maxsulotlar, o‘yinchoqlar, ayrim ro‘zg‘or buyumlari, o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalaniladi. Xitoy, Koreya, Yaponiyada miniatyuralar tayyorlashda qadimdan foydalanilgan. Pape-mashenni bo‘yash, lakash, qabartirib turli tasvirlar ishslash, rasmlar chizish mumkin. Quticha, niqoblar tayyorlashda ko‘p foydalaniladi.

**PASTEL** (ital.pasta– xamir)- rasm chiziladigan maxsus rangli qalam, shu qalam bilan chizilgan rasm. Grafikada ko‘p foydalaniladi. Rassomlar yangi asarlari uchun etyudlar chizishda xam pastelni ishlatadilar.

**PEYZAJ** (frans. peuz – joy, makon) - tasviriy san’at turlaridan biri. Manzara.

**PEREDVIJNIKLAR** (sayyor ko‘rgazmachilar) - Rossiyada yirik progressiv demokratik badiiy uyushma (870-1923). Realistik yo‘nalishdagi iste’dodli rassom va xaykaltarosh-lardan tashkil topgan bu uyushmaning tashabbuskorlari G.G.Myasoedoev, I.N.Kramskoy, N.N.Ge, V.G.Perov va boshqalar bo‘lib, g‘oyaviy yetakchisi I.N.Kramskoy edi. Peredvijniklar asarlarida mexnatkashlar xayotini ko‘proq aks ettirdilar, vatanparvarlik tuyg‘ularni tug‘diruvchi manzaralarni ko‘rsat-dilar. Eng yaxshi peredvijniklardan I.Ye.Repin, V.I.Surikov, V.M.Vasnesov, V.G.Perov, I.I.Shishkin, K.A.Saviskiy, I.I.Levitan, N.A.Yaroshchenko, V.D.Polenov, N.A.Kasatkin, V.A.Serov va boshqalar yaratgan asarlar rus tasviriy san’atining oltin fondiga kirdi. Peredvijniklar Moskva, va mamlakatning boshqa ko‘pgina yirik shaxarlarida sayyor ko‘rgazmalar tashkil qildilar/nomi xam shundan berilgan/.

**PERSPEKTIVA** (lot.perspitio – ravshan ko‘raman) - narsalarni tekislikda tasvirlash qonun-qoidalarini o‘rganuvchi amaliy fandir. Rasm chizayotgan kishiga nisbatan narsalarning xolati, shakli, rangi ularning joylashishiga ko‘ra o‘zgaradi. Narsaning yaqindagi qismiga nisbatan uzoqdagi qismi qanday o‘zgarishini chiziqli perspektiva o‘rgatsa, narsalar uzoqlashgan sari rang jixatdan xam o‘zgarib borishini xavo perspektivasi o‘rgatadi. Perspektiva Qadimgi Yunonistonda qo‘llana boshlagan. Uyg‘onish davrida Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, Perro della Francheska va boshqa rassomlar perspektivadan muntazam foydalangan.

**PLAKAT**(frans. plakard – e’lon) - ko‘rgazmali targ‘ibot maqsadlariga xizmat qiladigan tasviriy san’at turi. Ko‘pincha, qisqa matnli bo‘ladi. Kundalik xayotning eng muxim mavzulari-da diqqatni tortadi-gan qilib chiziladi va bir yoki ko‘p rangli bo‘ladi. Plakat tasvi-riy san’atning eng ommabop turlaridan biri bo‘lib, maqsad-vazifasiga ko‘ra cha-qiriq, xajviy, rek-lama, tashviqot, ta’-lim-tarbiya plakat-lariga bo‘linadi.

**PLASTIKA** (yunon. Plastike – muloyim, go‘zal) -Haykaltaroshlik, bo‘rttirib xajmli turli shakllar yaratishda uyg‘unlik, ifodalilik tasvirlar yaratish san’ati.

**PLASTIK ANATOMIYA** - odam tanasining tuzilishi, shakl shamoyili, mushaklar ko‘rinishi va ularning o‘zaro bog‘lanishi, uyg‘unligi munosabatini o‘rganadigan ta’limot. Plastik anatomiya rassomlarga o‘rgatiladigan fanlardan biri.

**PLASTILIN** – loy, mum va boshqa moddalar aralashmasidan xosil bo‘ladigan xamirsimon modda. Rassomlar o‘z xaykal asarlarining dastlabki eskizlarini ishlashda ko‘pincha plastilin ishlatishadi.

**PLENER** – frans. (ochiq kenglik).

**PORTRRET** - (frans.portreit - tasvir)- real borlikda mavjud bo‘lgan yolg‘iz, ikki yoki bir gurux kishilarning tasviri. Kishilarning boshi, beligacha yoki butun gavdasi to‘la aks ettirilishi mumkin.

**PODRAMNIK** – chorcho‘p, rasm ishlanadigan matoni tortib turadigan g‘urilma.

**POSTAMENT** – (nemes. postament) – muzey, badiiy ko‘rgazmalarda haykallarning tagiga qo‘yiladigan marmar, yog‘och taglik.

**PROPORTSIYA** - (lot.proportio – munosabat)- badiiy asarning aloxida elementlari va butun asar kattaliklari munosabati.

**PROFIL** – (ital. Profilo – ko‘rinish) – yuz yoki biror narsaning yon tomonidan ko‘rinishi.

**PEDESTAL** – (ital. Puede – oyoq, stalle - joy) ko‘pincha ustiga xaykal qo‘yiladigan ustunsimon supa. Unga dekorativ vazalar, ustun, obelisk xam o‘rnatishi mumkin. Xar xil shakllarda (doira, to‘rt, besh, olti qirrali va boshq.) bo‘lib, g‘isht, xarsang, yaxlit toshdan ishlanadi, ko‘pincha naqsh, bo‘rtma tasvir (relef)lar bilan bezatiladi.

**PERPENDIKULYAR** – gorizontal tekislikka nisbatan tik chiziq.

**PLASTIK YECHIM** – qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik asarlarida shakl jozibadorligi.

**PLAN** – tasviriy sanatda: tasvirlash masshtabi, tasvirdagi buyumlarning joylashish o‘rni.

### «Q»

**QALAM** (yunon. kalamos-g‘amish so‘zidan – ko‘mir, g‘o‘rg‘oshin, grafit, g‘urug‘ bo‘yog‘dan g‘ilingan sterjen). Sharg‘ xalg‘lari, jumladan, Markaziy Osiyoda xattotlar siyox bilan yoziladigan g‘amish g‘alamlardan foydalanganlar. 1790 yili fransuz olimi N.Konte yog‘och g‘alam ixtiro g‘ildi. Ayni vag‘tda chex olimi Y.Gartmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlari tayyorlashni taklif etdi. Bu metod xozirgi g‘alam ishlab chig‘arish texnologiyasining asosini tashkil etadi. Qalamning maxsus turlari – sangina va pastel. Qattiqlik darajasi bir necha xil bo‘lgan grafitli g‘alamlar chig‘ariladi: g‘attiqlik darajasi M/yumshog‘/, T /g‘attig‘/ va MT /g‘attig‘ligi o‘rtacha/ xarflari xamda xarflar oldidagi rag‘amlar bilan belgilanadi.

**QOG‘OZ** - o‘simlik tolalaridan yupqa varag‘ tarzida tayyorlanadigan material. Qog‘oz dastlab (II asrda) Xitoyda olingan. say Dun o‘simlik tolalarining suvli suspenziyasini sim turdan o‘tkazib, qog‘oz olishga muyassar bo‘lgan. Qog‘oz olishning bu usuli ko‘p vag‘tlargacha sir sag‘lab kelindi. VI asr boshlarida bu usul Yaponiyada joriy g‘ilindi. VI-VIII asrlarda qog‘oz ishlab chig‘arish Osiyodagi boshg‘a mamlakatlarga targ‘aldi. Keyinchalik qog‘oz tayyorlash arablar org‘ali Eron va Shimoliy Afrika, Kiprga, keyinrog‘ esa Ispaniya, Marokko va boshg‘a mamlakatlarga yoyildi. Qog‘oz bungacha yozuvda ishlatib kelinayotgan PAPIRUS va boshg‘a materiallarni sig‘ib chig‘ardi. Qog‘ozning 600 dan ortig‘ turi bor. Qog‘oz g‘anday mag‘sadlarda ishlatilishiga ko‘ra: g‘alinligi, kulliligi, namliligi, rangi, og‘ligi, sillig‘ligi, singdirish g‘obiliyati, xavo, bug‘, yog‘ o‘tkazmasligi, dielektrikligi va boshg‘a xossalari bilan xarakterlanadi. Klassifikatsiyaga ko‘ra qog‘oz 11 sinfga bo‘linadi: matbuot, yozuv, chizmachilik-rasmchilik, elektr izolyatsion, papiro, shimuvchi, apparat, yorug‘lik sezgir, ko‘chirish, o‘rov, sanoat – texnika. Xozirgi davrda qog‘ozlar matodan emas, yog‘ochdan ishlab chiqariladi. Qog‘ozni yupqa, qalin, tekis, g‘adir-budir turlari mavjud. Kitob, ro‘znama

bosiladigan, jurnal, daftarga mo‘ljallangan qog‘ozlarning turlari boshqa-boshqa bo‘ladi. Qalam va akvarel buyoqlari bilan chizishda vatman, yarim vatman deyiladigan g‘attig‘, tig‘iz qog‘ozlar ishlataladi.

**QOMAT** – kishilarning umumiy ko‘rinishi.

**QO‘SHIMCHA RANGLAR** – ranglarni aralashtirganda xosil bo‘ladigan omuxta rang yoki rangning tusi, oxangi, to‘g‘ligi, ochligi, g‘izil, sarig‘ zangori ranglarni g‘o‘shish org‘ali olingan ranglar.

**«R»**

**RAKURS** (Frans. Raccourci – qisqarish) – tasviriy sanatda: narsaning uzoqdagi qismlarini qisqartirib, kichraytirib tasvirlash. Tasvirlanayotgan shaklning perspektiv qisqarishi.

**REFLEKS** (lotincha so‘zdan reflekus qaytish) – 1) rangtasvirda – kuchli yorug‘lik bilan yoritilgan buyum sirtidagi soya qismida qo‘shni turgan rang tusi, turi. Rangli refleks buyumning tevarak atrofidagi narsalar ta’sirida hosil bo‘ladi. Masalan: qizil mato qizg‘ish refleks hosil qilishi mumkin.

**RITM** (vazn)(fekcha so‘zdan rhithmicos – bir me’yordagi, tekis) – asar kompozitsiya qurilmasining muhim tomonlaridan biri. Buyum, shakl, rang yoki naqsh elementlarining bir me’yorda takrorlanishi, ayniqsa monumental san’atda. Amaliy – bezak san’atida va arxitekturada ko‘p uchraydi. 76 Tasviriy san’atda ritm murakkabroq bo‘lib kartinada alohida ruh beradi. Ritm kompozitsiyada qomatlar guruhi harakatlarida, qo‘l joylashuvi variantlarida, tus va rang takrorlanishida, shakllar joylashuvida bo‘lishi mumkin.

**REALIZM** – tasviriy san’atda narsalar hayotda qanday ko‘rinsa, shundayligicha tasvirlanishiga asoslangan oqim.

**RENESSANS** – uygonish. Reproduksiya – tasviriy san’at asaridan olingan nusxa.

**RESTAVRATSIYA** – ta’mirlash.

**RETUSH** – maxsus kalam.

**RANGLI KERAMIKA** – bo‘yalgan sopol idish. Bronza davridan boshlab kishilar sopol idishlarni turli ranglar bilan naqshlaganlar. Markaziy Osiyoda rangli keramika VIII- asrda paydo bo‘lgan. Idishlar qadimgi davrda qizil va qora,antik davrda ko‘proq qizil, V-VII asrlarda kul rang, IX-XIII asrlarda oq, qizil, qora, oltin rang, XIV-XVI asrlarda och yashil rangga bo‘yalgan.

**RASSOM** – tasviriy san’at soxasidagi ijodkor. Qog‘oz, karton, mato va boshq. Materiallar, shuningdek devor va shiftlarga tasviriy san’atning turli texnikalarida chizib, bo‘yab rasm chizuvchi kishi. Rassom inson faoliyati, xayoti uchun zarur bo‘lgan xar xil narsalarning shaklini,xajmini yaratishga, ularni did bilan bezatishga xam xissa qo‘sadi.

**REALIZM** – voqelikni badiiy ijodning turlariga xos maxsus vositalar bilan xaqqoniy, ob’ektiv tarzda aks ettirish. o‘zbekiston xududida yuksak darajaga ko‘tarilgan miniatyura san’atida realizm elementlari ko‘zga tashlanadi.

**REKVIZIT** –(lot. pegistum- zaru)- natyurmortni tasvirlashda foydalaniladigan buyumlar majmui.

**REKLAMA** – (lotin. reklamo - qichqiraman)- san’at asarlari va boshqalarni ommalashtirish maqsadida ma’lumot tarqatish. Uning matbuotda paydo bo‘lishi U.Kekston (Angliya) va T.Renodo (Fransiya) nomi bilan bog‘liq. Gazeta, jurnal, e’lonlar, shuningdek, vitrina, yorug‘lik reklamalari, tovarlarni o‘rab joylash, tovar va firmalar belgisi va boshqa xozirgi zamon reklama vositalaridir.

**RELEF** - (lotn. relefo- ko‘taraman) - Haykaltaroshlikning bir turi. Shakl, tasvir fon (zamin)dan bo‘rttirib yoki, aksincha, o‘yib xosil qilinadi. Relefning asosiy turlari: barelef va gorelef. Tasviriy san’atda qadimdan mavjud bo‘lib, binolarni bezashda, medal ishslash san’atida, metallga zarb berib bezak buyumlari ishslash va xokazolarda keng qo‘llaniladi.

**REPRODUKSIYA** (re... va lotn. produko - xosil qilaman) – turli tasvirlar (rasm, chizma, kartina, fotosurat, xujjat va boshqalar)ning nusxasini ko‘chirish va ko‘paytirish.

**RETUSH** (frans. retusher – tasvirni tuzatmoq) – tasvir (rasm, fotosurat, naqsh va shu kabilar)ni qalam, bo‘yoq bilan tuzatish, yaxshilash. Retusher rasm, fotosurat, negativning ayrim joylarini ravshan ko‘rinadigan qiladi, tuzatadi, dog‘larni yo‘qotadi. Shu maqsadda qayta chizadi, bo‘yaydi, qirib tashlaydi.

**REFLEKS** (lotn. reflehus - qaytgan, aks etgan). Narsalarda shaxsiy soyaning eng chekkasiga uning yonidagi narsadan yoki tekislikdan aks etgan nurlar bilan yoritilgan joy.

**ROKOKO** – (frans. rokoko), rokayl – XVIII asr Yevropa plastik san’atida uslubiy yo‘nalish. Chiziqlari chig‘anoqqa o‘xshatib, gajaksimon ishlangan naqsh motivi. Dastlab Fransiyada absolyutizm inqirozi munosabati bilan vujudga kelgan, keyinchalik Germaniya, Avstriya va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Rokoko arxitekturada bino intererlarini bezashda keng qo‘llaniladi. Rokoko Ovro‘pada o‘z o‘rnini klassitsizmga bo‘shatib berdi.

## «S»

**SAMARQAND MINIATYURA MAKTABI** – Samarqandda shakllangan miniatyura uslubi. Asosan, temuriylar davrida vujudga kelgan. Rassomlar asosan, manzarani Markaziy Osiyo tabiatiga xos o‘simlik, xayvonlarni va qushlarni chizganlar. Miniatyuralarida ko‘p figurali voqealar – jang va ov lavxalari, suxbat va shu kabilar ko‘rsatilgan. Samarqandda tasviriy san’at qadimdan mavjud bo‘lgani Afrasiyob devoriy rasmlaridan ma’lum. Turfon shaxri(Sinszyan-Uyg‘ur avtonom rayonida) arxeologlar topgan Moniy rasmlari bu yerda qadimdan tayyorlangan latif qog‘ozga chizilgan. Temuriylar davrida devoriy rasmlar ishlash yanada avj olgan. Samarqand miniatyura maktabining eng yirik vakillaridan biri Ustod Gung bo‘lgan. Amir Temur saroyida yashab ijod etgan Xoja Abdulxay, Ustod Shamsiddin, Pir Axmad Bog‘ishamoliy, Junayd naqqosh va boshqa rassomlarning ayrim asarlarigina saqlanib qolgan. Xoja Abdulqodir Go‘yanda musavvir, xattot, musiqa nazariyotchisi sifatida mashxur bo‘lgan. Miniatyura va devoriy rasmlarda Amir Temur yurishlari, uning elchilar, olimlar bilan suxbatlari, jang va ov lavxalari ifodalangan.

**SANGINA** –(lot. Sangumens - kondek) - qizil va qizg‘ish-jigarrang qalam. Yog‘och ishlatmay, temir oksidli tuproqsimon jinslardan tayyorlanadi. Tabiiy va sun’iy xillari bo‘ladi. Rassomlar etyud, grafika asarlari ishslashda foydalanadilar.

**SANOAT GRAFIKASI** – amaliy badiiy grafika turi. Sanoat korxonalar, uskuna va mollari uchun zarur bo‘lgan emblema, yorlik, qadaq, reklama(katalog, buklet, prospekt va boshqalar), sanoatni boshqarishda ishlataladigan turli tuman xujjalalar (blanka, konvert va shu kabilar)ni badiiy ishslashga xizmat qiladi. Ularni badiiy bezatish uchun shrift tanlash, naqsh va tasvirlar ishslash, xar xil fotosuratlardan foydalanish grafik rassomning ijodiy mexnatini taqozo etadi. Sanoat grafikasi XIX asr oxirlarida grafikaning muxim soxalaridan biri sifatida shakllandi, badiiy oqimlar ta’sirida rivoj topdi, takomillashdi.

**SAN’AT** – arabcha atama bo‘lib, xayotdagi narsa va xodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma’naviy madaniyatning tarkibiy g‘ismi. U tasviriy va amaliy san’at, musig‘a, me’morchilik, teatr, kino, badiiy adabiyotni o‘z ichiga oladi.

**SILUET** - (frans. Silhouette –XVIII asr fransuz davlat arbobi nomidan)– kishi, xayvon, qush, narsa va boshqalarning soyaga o‘xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirga rangdagi qog‘ozni kesib ishlab boshqa rangdagi qog‘oz yoki materialga yopishtirilishi xam mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiyada va boshqa Sharq mamlakatlarida, XVIII asrdan Ovro‘pada rivojlangan. Keng ma’noda – narsa, bino, turli shakllarning xarakterli ko‘rinishi.

**SIMVOLIZM** – san’atda XIX asr oxirida XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan oqim. Simvolistlar simvolni – biror tushunchani, xodisani ifodalovchi yoki eslatuvchi shartli belgini badiiy ijod asosi xisoblab, mavjud olamni bilish, tushunishda u vosita bo‘lib xizmat qiladi, deb qaraganlar. Simvolizm oqimi ob’ektiv xaqiqatni bilish mumkinmas deyishdi. Simvolizm tasviriy san’atda «modern» uslubi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, simvolist rassom, xaykaltaroshlar, ularning o‘zлари aytganlaridek, o‘z asarlarida «bilib bo‘lmaydigan, aql bovar qilmaydigan dunyoning illyuziyalarini ifodalaydilar», aslda esa tushunib, faxmlab bo‘lmaydigan beo‘xshov asarlar yaratdilar. XX asrda turli-tuman badiiy oqimlar (ekspressionizm, syurrealizm, futurizm va boshqalar)da simvolizmning ta’siri

bo'ldi. Umuman, simvolistlar san'atni xayotdan uzoklashtirishga, xayot xaqiqatidan ko'z yumishga intildilar, badiiy asarni real borliqqa, asar tilini umumxalq tiliga qarama-qarshi qo'ydilar.

**SOUS** – yumshog‘ g‘alam. Shu g‘alam yordamida ishlangan asar xam «sous» deyiladi.

**STEK** – yog‘ochdan ishlangan Haykaltaroshlik g‘uroli.

**SUYAK O‘YMAKORLIGI**- amaliy bezak san'atining qadimiy turi. Mamont, morj, fil va boshqa xayvonlar suyaklari ko‘p uchraydigan joylar (masalan, Yoqutiston, Xindiston, Okeaniya, Afrika)da suyakni o‘yib naqsh, tasvir ishslash,kesib va yo‘nib turli xaykalchalar, buyumlar tayyorlash qadimdan rivoj topgan. Geografik sharoit tufayli suyak o‘ymakorligi Markaziy Osiyoda rivojlanmagan.

**SUPERMUQOVA** – ustmug‘ova, sarmug‘ova. Kitob mug‘ovasi ustidagi yupqa bezakli qog‘oz.

**SYUJET** (frans. Sujet - predmet)- tasviriy san'at asarida aks ettirilgan ma'lum voqeа, vaziyat. Voqeа mazmuni o‘z aniq ifodasini topgani bilan (ayniqsa maishiy, tarixiy janrga mansub tasviriy san'at asarlarida) ko‘zga tashlanib turadi.

**SYURREALIZM** (frans. Surrealisme - o‘ta realizm)- XX asr san'atidagi formalistik oqim. Dastlab Fransiyada vujudga kelgan, keyin Ovro‘paning boshqa mamlakatlariga tarqalgan. o‘z asarlarida «o‘ta predmetli olam»ni, ya’ni instinktlarni, galliyusinatsiya, tushlarni aks ettirishga intiladilar, narsa va xodisalarning noreal bog‘lanishini ifodalaydilar, dunyo insonga yot bo‘lgan ma’nosiz, tartibsiz olamdir, degan g‘oyani olga suradilar. 30-yillardan syurrealizm markazi AQShga ko‘chdi, ayniqsa tasviriy san'atda o‘ta reaksiyon kuchga aylandi. Syurrealist rassom va xaykaltaroshlar imperializmga, atom urushiga maddoxlik qila boshladilar (masalan, S.Dali), kishilarda daxshat, vaxima tug‘diruvchi mantiqsiz lavxalar yaratdilar.

**SO‘ZANA**, so‘zani (fors - toj. - igna bilan tikilgan) - matoga kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Odatda xonani bezatish uchun devorga tutiladi.

Satin, shoyi, baxmal singari matolarga turli choklarda kashta tikib tayyorlanadi. Matoning rangidan kashta foni sifatida foydalaniishi bilan palakdan farq qiladi. So‘zananing kashta gullari, asosan, o‘simpliksimon, islimiy naqshlardan iborat bo‘lib, ko‘pincha o‘rtasiga doirasimon gul tikiladi, atrofi xoshiyalanadi. So‘zana tikish o‘zbekiston va Tojikiston xududlarida qadimdan rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Fargona, o‘ratepa va boshqa joylarda tayyorlangan so‘zanalar, kashtasining o‘ziga xos tikilish uslublari bilan san’atshunoslar diqqatini tortib kelmoqda. XX asrda, ayniqsa, 40-yillardan keyin so‘zanalarning kashtasi mashinada tikila boshlandi.

**SAFIT** – naturani yoritish uchun maxsus chiroq.

**SILUET** (fransuzcha so‘zdan silhouette – shakl ko‘rinishi) –XVII asr fransuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarning soyaga o‘xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg‘a rangdagi qog‘ozni kesib ishlab, boshqa rangdagi qog‘oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turi qadimdan Xitoyda, Yaponiya va boshqa sharq mamlakatlarida, asrdan boshlab esa Yevropada rivojlangan. Keng ma’noda narsa, bino turi shakllarining xarakterli ko‘rinishidir.

**SIMMETRIK** – narsa yoki tasvir ikki qismining bir biriga aynan o‘xshashligi, mutanosibligi (muvozanatda ekanligi).

**SKALPEL** – qalam tarashlash uchun tig‘larini almashtirib turish mumkin bo‘lgan maxsus pichoqcha.

**SOYA** – naturaning yorug‘lik tushmagan qismi.

**STATIK** (grekcha so‘zdan statos – harakatsizturgan) – dinamikaga qarama – qarshi aksincha, harakatsiz turg‘un holat.

**STIL** (fransuzcha so‘zdan style – manera dasthat) Stil (dasthat) bir guruh rassomlarga yoki bitga rassomga xos bo‘lishi mumkin. Agar uning ijodi keskin farq qilsa, faqat unga xos tomonlari mavjud bo‘lsa, bunday rassomlar ham alohida dasthat (stil)ga ega bo‘ladilar.

**STILIZATSIYA** – tabiatdan olingen murakkab shaklni, soddalashtirib ifoda etish (bezak ko‘rinishiga) yo‘li..

**SYUJET** – (fransuzcha – buyum, narsa, harakat), tasviriy san’atda tasvirlangan buyum yoki voqea tushuniladi, Hayotiy voqea, lavha, harakat.

### «T»

**TABRIZ MINIATYURA MAK TABI** – XVI asr boshlarida Tabrizda vujudga kelgan miniatyura uslubi. Bu yerda XIII asr oxirlaridan, ya’ni mug‘ul bosqinchilari xukmronligi yillarida xitoy miniatyurasining ta’siri kuchli bo‘lib, miniatyura rassomligi rivojvana boshlagan. 1420 yilda tabrizlik musavvirlar Xirota ko‘chirildi. XV asr oxirida Tabriz yana miniatyura rassomligining markazlaridan biriga aylandi. Tabrizning Safaviylarga poytaxt bo‘lishi, shox Ismoilning 1522 yilda Kamoliddin Bexzodni saroy ustaxonasiga boshliq qilib tayinlashi Tabriz miniatyura maktabining vujudga kelishida muxim voqea bo‘ldi. Maxalliy an’analarning Xirot miniatyura maktabi an’analari bilan uyg‘unlashuvi, davr talablari odatdagi kanonik tasvirlardan uzoqlashishini, manzaraga, oddiy kishilarga e’tiborni kuchaytirishni taqozo etdi. Miniatyuralarda ko‘p figurali kompozitsiyalar, tabiat tasvirlari xaqqoniy ifoda etila boshladi. Borliqni, kishilar kayfiyatini tiniqroq aks ettirish, tabiat vaishilarni xarakatda, detallashtirib, aniq ko‘rsatish (masalan, arxitektura inshootlaridagi naqsh-largacha) Tabriz miniatyura maktabining asosiy yo‘nalishidir. Og‘a Mirak, Sulton Muxammad, Qosim Ali, Mir Sayid Ali, Muzaffar Ali, Mirzo Ali va boshqalar Nizomiy, Jomiy, Navoyi kabi buyuk shoirlarning asarlarini shu uslubda bezadilar. XVI asr oxirida Tabriz miniatyura maktabi o‘rnini Isfaxon miniatyura maktabi egalladi.

**TARIXIY JANR** – badiiy san’atning asosiy janrlaridan biri: san’atkor yashagan zamonga nisbatan yaqin va uzoq o‘tmish materiali asosida yaratilgan asarlar turkumi. San’atda tarixiy janr portret (tarixiy shaxslarning tasvirlari, gurux portret, tarixiy kompozitsiyalar), manzara (tarixiy voqealar aks ettirilgan, umuman, tarixiy axamiyatga ega bo‘lgan manzaralar), ayniqsa bataliya janri bilan chatishib ketadi. o‘zbek tasviriy san’atida Ch.Axmarov, R.Axmedov, M.Saidov, M.Nabiev,

R.Choriev va boshqa o‘zbek rassomlari tarixiy janrda diqqatga sazovor kartinalar yaratdilar.

**TASVIRIY SAN’AT** - san’at turi. Rassomlik san’ati, grafika, Haykaltaroshlik va foto san’ati soxalarini o‘z ichiga oladi. Tasviriy san’at real borliqni ko‘rgazmali obrazlarda, mavjud narsalarni ularning tabiiy shakli, o‘rn ni va boshqalarni o‘ziga o‘xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi, predmetlarning xajmi,o‘zaro qanday masofada joylashgani va boshqalar to‘g‘risida tomoshabinda tasavvur xosil qiladi.

**TEMPERA** (ital.temperare - bo‘yoq qorish)- rassomlikda keng tarqalgan usullardan biri. Binolarni bezashda, dastgoxli san’at asarlarida keng qo‘llaniladi. Tempera bilan ishlangan kartinalar, bezaklar quyosh nuri va changdan yaxshi asralsa, o‘z rangini, tusini yaxshi saqlab qoladi.

**TERRAKOTA** (lot. Terra – yer va cotta - qizdirilgan) – kulollikda ishlatiladigan loy va shunday loydan tayyorlab olovda qizdirilgan maxsulot, sopol. Ro‘zg‘orda (idish va buyumlar), Haykaltaroshlik va qurilishda (sopolak, parchin, arxitektura detallari) ishlatiladi. Terrakota tayyorlash uchun, odatda, tarkibi va rangi bir xil tuproq tanlanadi. Shakl berishda yog‘och va gips qoliqlar ishlatiladi. Koshinning ayrim xillari xam terrakotadan tayyorlanadi.

**TITUL** (lot.titulus – yozuv, izox) – kitob, jurnal va boshqalarning birinchi saxifasi. Unda muallif ismi va familiyasi, kitob nomi, nashriyot nomi, nashr joyi, yili ko‘rsatiladi.

**TOREVTIKA** (lot. Toreno - qirqaman, zarb qilaman) – metalldan tayyorlangan turli badiiy buyumlar relefini ishlash san’ati. Zarb qilish, bosib naqsh va tasvir ishlash (bunda bir tomoni bo‘rtadi, orqa tomoni chuqurlashadi). Quyib tayyorlanadigan metall maxsulotlarni badiiy ishlash xam torevtika deb ataladi.

**TORS** (ital. Torso – inson tanasi boshsiz, qo‘l-oyoqsiz)- tasviriy san’atda tananing xaykal tarzida ishlangan yoki chizilgan ko‘rinishi.

**TOSH O‘YMAKORLIGI** – amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turlaridan biri. Toshni o‘yib yozuv, naqsh, tasvir relef xosil qilib o‘yib qirib

ishlanadi. Ishlatish vazifasiga qarab, yumshoq (gips-tosh, talkoxlorit, oxaktosh va boshq.), o‘rtacha (malaxit, marmar va boshq.), qattiq (nefrit, lazurit, yashma va boshq.)toshdan foydalaniladi. Markaziy Osiyoda yassi relefli tosh o‘ymakorligi rivoj topgan. Toshtaroshlik bilan shug‘ullanuvchi ustalar XX asr boshlarigacha toshni kesish, yo‘nish va bezash ishlarini ibridoiy usullarda bajarganlar, ularning ish qurollari xam yog‘ochsozlar, yog‘och o‘ymakorligi qurollariga juda o‘xhash bo‘lgan.

**TRANSPARANT** (frans. Transparent – shaffof, tiniq) – shior, surat yoki biror shakl tushirib ramkaga tortilgan gazlama. Odatda, namoyish yoki tantanalarda ko‘chalarga osiladi, yoki ko‘tarib yuriladi.

**TRAFARET** (ital. Trafaro - teshish)- belgi, naqsh yoki tasvirlarning elementlariga mos keluvchi o‘yiqlar o‘yilgan metall, yog‘och, karton, plastmassa va boshqalardan yasalgan plastina: bu o‘yiqlardan bo‘yoq o‘tadi. Trafaret matn yoki reklama plakatlari rasmlarini va boshqalarni ko‘plab ishlab chiqarishda ishlatiladi.

**TRIPTIX** (yunon. Triptychos – uch buklangan)- yaxlit umumiyl syujet, mazmun va g‘oyani ifodalaydigan uch kartina,grafika asari yoki rasmdan iborat san’at asari.

**TUS** – oxang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.

**TUSH** (frans. touche) - vaqt o‘tishi bilan rangini o‘zgartirmaydigan qora bo‘yoq. Suv qo‘shib suyultirilsa, kul rang tus oladi. Bo‘yoq xosil qiluvchi toshko‘mir moddalaridan tayyorlanadigan qizil, yashil,ko‘k va boshqalar. Rangli tush xam bo‘ladi. Sharq mamlakatlari, ayniqsa, Xitoy, Koreya, Yaponiyada qadimdan foydalanilgan. XV - XVII asrlarda Ovro‘paga tarqalgan. Tush chizmachilikda, grafika asarlari yaratishda, xat yozishda ishlatiladi.

**TASVIR YAXLITLIGI** – alohida qismlarning umumiyya, ikkinchi darajadagi narsalarning asosiyya bo‘ysunishi, barcha qismlarning o‘zaro mutanosibligi, bajarish usullarining bir xilligi.

**TAQQOSLASH** – suratdagি o‘zaro yorug‘ soya, tus, shakl va hajm nisbatlarni aniqlash usuli.

**TUGALLANGANLIK** – rassom tomonidan uzoq vaqt ishlangan qalamtasvirni har bir bo‘laklarining yaxlitliiga erishish, umumlashtirish qisqa qilib aytganda maqsad qilib qo‘yilgan vazifani uzil–kesil tugallash.

**TUS** – narsaning rang hamda tusining och–to‘qlik darajasini bildiruvchi tushuncha.

«U»

**UFQ, gorizont** (yunon. Horizo - chegaralayman) – ochiq joyda yer yuzasining ko‘rinadigan chegara qismi yoki yer yuzasining osmon sferasi bilan kesishgan qismi. Tasviriy san’atda ufq chizigi ko‘z balandligida joylashgan faraziy tekislik.

«V»

**VATMAN** - vatman qog‘oz, chizma va rasm chizish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog‘oz.

**VARAXSHA** - Buxoro yaqinidagi joy. Bu yerda III-IV asrlarda saroy qurilgan, uning devoriga bo‘rtma ganch naqshlar ishlashgan. Naqshlar odamlar boshini, xayvonlar, qushlar, baliqlar va xar xil o‘simliklar shaklini ifodalagan bo‘lib, ular juda jonli va ta’sirli chiqqan. Varaxsha saroyining devorlarida bo‘yoq rasmlar bo‘lib, ular birinchi asrlardagi xind-eron uslubida talqin qilingan mifologik voqealarni aks ettirgan.

**VERNISAJ** – ko‘rgazmaning ochilishi. Dastlab ko‘rgazmadan oldin rangtasvir asarlari satxiga lok berish degan ma’noni bildirgan. Bunday odatni fransuz rassomlari boshlab berishgan edi.

**VITRAJ** - (fransuzcha vitva – deraza oynasi) oynadan yoki yorug‘lik o‘tkazuvchi boshqa materiallardan qilingan rangli rasm yoki naqshli kompozitsiya. Deraza, ba’zan eshik oynasi o‘rnida foydalilanadi. Vitraj naqshli yoki rasmlari unga yorug‘lik tushganda ko‘rinadi. Vitraj X asrda paydo bo‘lgan. Avvallari vitraj turli shakllardagi-rangli oyna parchalarini bir-biriga qo‘rg‘oshin xoshiya

yordamida ulash yo‘li bilan ishlangan. Vitrajlar arxitekturada dekorativ element sifatida xam foydalilanadi. Toshkentda vitraj namunalarini «Guliston» restorani zalida ko‘rish mumkin.

**VITRINA** – kitoblar, eksponatlar, turli buyumlarning namunalari qo‘yilgan oynavand javon, deraza va xar xil oynavand qutilar.

**VOQEABAND KOMPOZITSIYA** – mavzuga asoslangan voqelikni aks ettiruvchi tasvir, kompozitsiya, asar.

#### «X»

**XAYKAL** – tasviriy san’at asari. Tosh, yog‘och, suyakni, yo‘nib, metall, beton, gipsni g‘olipga g‘uyib, g‘otirib, loyni shaklga solib, keyin g‘izdirib (sopol, chinni xaykalchalar tayyorlashda) ishlanadi. Monumental (ochig‘ xavoda, ko‘pchilik e’tiboriga xavola g‘ilinadigan), dastgoxli (binolar ichida o‘rnataladigan), bezak (arxitekturada bog‘-parklarda)- juda kichik xajmda ishlanadigan uy ichida bezak vazifasini o‘taydigan xillari bor).

**HAYKALTAROSHLIK** - tasviriy san’at soxasi. Tasvirlanadigan narsani xajmli, uch o‘lchovli (uzunlik, kenglik va balandlikka ega) qilib aks ettirish prinsipiiga asoslangan san’at turi.

**XATTOT** - chiroyli yozadigan va nag‘sh ishlaydigan shaxs.

**XOLST** – kanopdan to‘kilgan mato.

#### «Y»

**YODGORLIK** - qal’a, devor, mozor, bino, ibridoiy odamlar yashab o‘tgan makonlardir. San’atda tarixiy shaxslarga atab qo‘yilgan xaykal tarixiy voqealarni eslatib turuvchi monumental Haykaltaroshlik asari.

**YORUFLIK VA SOYA** – narsalarning shaklini va xajmini tug‘ri bajarishda yorug‘ va soya qonun-lari muxim axa-miyatga ega. Yorug‘lik va soya majmuasi quyidagi: yorug‘lik, yarim soya, soya, ref-leks, shu’la.

**YORUG‘LIK** - buyum yuzasidagi tik tushuvchi quyosh yoki sun’iy yoritgichlar nurlari.

**YARIM SOYA** - narsa yuziga qiyaroq ravishda tushuvchi yorug‘liq.

**YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI** - amaliy bezak san’atining qadimiy va keng tarqalgan turi, o‘ymakorlikning bir soxasi. Yog‘ochni o‘yib, kesib, chizib, bo‘rttirib, teshib, taxtacha yoki yog‘och bo‘laklarini bir-biriga ulab ishlanadi. Asrlar mobaynida o‘zbekiston xududidagi shaxarlarda o‘zbek ustalari turli-tuman uslub va usullar yaratganlar.

#### «Z»

**ZARGARLIK** - amaliy sanatning o‘zbekistonda keng tarqalgan turi. Qimmatbaxo tosh va metallardan ziynatlanib ishlangan buyumlar; yarim oy shaklidagi ziraklar, nozik o‘yma gulli zirak va bilaguzuklar shular jumlasidagilar-sanat namunasidir.

**ZARDO‘ZLIK** - amaliy sanatning bir turi bo‘lib, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Kashtachilik sanatining bir ko‘rinishi. o‘tmishda zardo‘zlik bilan erkaklar shug‘ullanganlar, zar va kumush iplar bilan erkaklar to‘ni, sallasi, do‘ppilari, poyafzallari va ayollarni ko‘ylak, kamzul, etikcha va xaltachalariga bezak tikilgan.

**ZASTAVKA** - peshlavxa. Kitob matning boshlanishi yoki xar bo‘limning oldidan qo‘yiladigan naqshli yoki syujethli rasm.

#### «O‘»

**O‘YMAKORLIK** – amaliy bezak san’atining eng g‘adimiy va keng targ‘algan turlaridan. Yog‘och, ganch, metall, tosh, suyak, lak, terrakota va boshg‘alar o‘yib, yo‘nib, badiiy shakl beriladi, ulardan bino g‘ismlarini bezashda, uy-ruzg‘or buyumlari, turli asbob, g‘urollarni nafislashtirishda, kichik Haykaltaroshlik asarlari yaratishda qo‘llaniladi. Mustag‘il soxasi gliptika va o‘ymakorlikda foydalanilgan materialga ko‘ra yog‘och o‘ymakorligi,ganch o‘ymakorligi, tosh o‘ymakorligi, metall o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi kabi xillari mayjud.

Markaziy Osiyoda, jumladan, o‘zbekiston xududida juda g‘adimdan rivoj topgan. Buxoro, Samarg‘and, Xiva obidalari, shuningdek, Termiz, Shaxrisabz, Qo‘g‘on shaxar va g‘ishlog‘larida sag‘langan arxitektura yodgorliklari ganch,

yog‘och, tosh o‘ymakorligi bilan jozibador bezatilganki, bezashning turli usul va uslublari o‘ymakorlik san’atining yuksak darajaga ko‘tarilganini namoyish etadi. Bu soxada aynig‘sа, Usta Shirin, Murodov Shamsiddin gafurov, Quli Jalilov, Toshpulat Arslonkulov, Maxmud Usmonov kabi ganch o‘ymakorlari, Ota Polvonov, Sulaymon Xo‘jaev, Usmon Zufarov, Maqsud Qosimov, Ne’mat Ibroximov, Qodirjon Xaydarov, Nurullo Nazrullaev kabi yog‘och o‘ymakorlari g‘adimiy an’analarni yangi davr ruxi bilan boyitib, o‘ymakorlik san’atini rivojlantirdilar.

### «SH»

**SHAXSIY SOYA** - narsaning yoritilgan qismining orqa tomoniga yorug‘lik nurlari tushmagan yeri.

**SHTRIX** (nemischa – strich – chiziq) – chizmatasvirda tasvirlash vositalardan biri.

**SHU’LA** – narsalarning yorug‘ qismi o‘rtasidagi tiniq oq dog‘ yaltirashi. Bu xолат shisha, chinni, nikel-metall buyumlarda kuzatiladi.

**SHABLON** (*nem. Schablone - namuna*) – bir shakldagi narsalar tayyorlash uchun yasalgan namuna: ayrim tayyor buyumlarning shaklini tekshiradigan moslama, asbob.

**SHARJ** (frans. Charge – bo‘rttirish) – biror xodisa, narsa, ayniqsa kishini xajv yoki xazil qilib karikatura shaklida tasvirlash. Kishilar, odatda portretiga o‘xshatib, bir jixati bo‘rttirib fosh etiladi, xazil qilinadi, ba’zan narsalarga, xayvon, qushlarga o‘xshatiladi va x.k. Moybo‘yoq, grafika, Haykaltaroshlikda sharj qilinadi, ayniqsa grafik sharj keng tarqalgan. o‘rtoqlik sharjlari samimiyl, yaxshi niyat bilan do‘stona xazil mazmunida bo‘ladi.

**SHMUSTITUL** (*nem. Schmuts – iflos va titel – sarlavxa, titul*) – kitobning titul varog‘idan yoki xar bir bob xamda qismidan oldin qo‘yiladigan ikki saxifali qog‘oz varaq. Shmustitulda kitobning qisqa nomi, ayrim xollarda faqat kitob va nashriyot nomi beriladi. Shmustitulda kitobning aloxida qism va boblari oldidan shu qism yoki bobning nomi, rasm xamda bezaklar joylashtiriladi. Eski kitoblarda

shmustitul asosiy, badiiy titulni ifloslanishdan saqlash uchun xizmat qilgan (nomi shundan kelib chiqqan).

**SHRIIFT** (nem. Schreiben – yozmoq) - yozuvning alfavit tizimida barcha xarf, raqam va belgilarning grafik shakli. Shrift chiziqlarining yaqqolligi (xarflar asosiy chiziqlari bilan tutashtirish shtrixlari yo‘g‘onligining nisbati)ga, chiziqcha (zasechka)larning borligi va ularning shakliga qarab bosmaxona shriftlari asosan guruxlarga bo‘linadi. Bosmaxona shriftlari yozilish shakliga, ya’ni qiyaligiga qarab to‘g‘ri, kursiv, qiya, normal, ensiz, enli: oddiy, yarim qora, qora shriftlarga bo‘linadi. Yozilish shakli bir xil bo‘lgan shriftlar turli kegldagi shriftlarga bo‘linadi: kegli va yozilish shakli turlicha, lekin yozilish xarakteri bir xil bo‘lgan shriftlar shrift garniturasi deb ataluvchi bitta guruxga birlashadi. Xar bir garnitura o‘z nomiga ega, masalan, jurnalnaya, shkolnaya va x.k..

**SHTRIX** (nem. Strich – chiziq)

«YA»

**YAZD MINIATYURA MAKTABI** – XV asrda Yazd shaxrida shakllangan miniatyura uslubi. Sheroz miniatyura maktabiga yag‘in. 1409 yilda yaratilgan «She’riyat antologiyasi» va Nizomiy «Xamsa»sining 1446 - 1447 yillarda ko‘chirilgan g‘o‘lyozmasiga ishlangan minia-tyuralar 1445 yilda ko‘chirilgan «Shoxnama» g‘o‘lyozmasi minia-tyuralari shu maktabga mansub. Amir Xisrov Dexlaviyning Bokuda sag‘lanayotgan «Xamsa»si miniatyuralari xam shu maktab maxsuli sifatida dig‘g‘atga sazovor. Uni 1445-96 yillarda yazdlik xattot Xasan ibn Kamoliddin al-Yazdiy ko‘chirgan /unga 26 miniatyura ishlangan/. Tasvirlar ko‘pincha issig‘ koloritda aks ettirilgani, kishilarining kiyimlarida kontrastlikka axamiyat berilgani, tasvirning sodda, lekin nafis va tinig‘ ifodalangani bilan ShEROZ miniatyuralaridan farg‘ g‘iladi.

**YARIMSOYA** – nim soya, narsalarda va tasvirda yorug‘ bilan soya o‘rtasidagi g‘ism.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sultanov X.E., Sobirov S.T. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" (1-sinf uchun). O'quv qo'llanma. - T.: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021.
2. R. Xasanov. "TASVIRIY SAN'AT" 1-sinf uchun darslik. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019.
3. Ражабов Р., Султонов Х. "Тасвирий санъат ўқитиши методикаси". Ўқув қўлланма. Т.: 2008.
4. Abdirasilov S., Tolipov N. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" (amaliy mashg'ulotlar). O'quv qo'llanma. - T.: «Aloqachi», 2007.
5. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik. — T.: «Fan va texnologiya nashriyoti», 2012.
6. Р. Хасанов. "БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ" ТОШКЕНТ "ЎҚИТУВЧИ"1983.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. S.M.Abdulhamidov. "Tasviriy va amaliy san'at" (Tasviriy san'at o'qitish metodikasi), o'quv qo'llanma. "Malik Print Co" MCHJ. Chirchiq-2021
2. Sultanov X. E. "Rangtasvir" (Akvarelda naturmort ishslash, o'quv qo'llanma T.: "VNESHINVESTROM" MChJ, 2019.
3. Sultanov X.E. "Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish" o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2016
4. Sultanov X. E. "RANGTASVIR" (grizaylda rangtasvir ishslash, meodik qo'llanma) Toshkent – 2014.
5. Tojiyev B. T, Sultanov X. E. QALAMTASVIR (manzara ishslash, qo'llanma) Toshkent – 2013.
6. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi.(o'quv]-metodik qo'llanma) Toshkent – "ILM ZIYO" – 2013.
7. N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T. 1996 y.

8. Abdirasilov S. “Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Ilm-Ziyo, 2011.
9. S. ABDIRASIROV, N. TOLIPOV. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi (O‘quv qo‘llanma) Toshkent – 2007.
10. B. Boymetov “Qalamtasvir” Pedagogika institatlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Iqtisod-Moliya”-2010.
11. S. ABDIRASIROV, B. BOYMETOV, N. TOLIPOV. TASVIRIY SAN’AT. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa iiodiv uyi. Toshkent – 2006.
12. Ten N.D. Gips modellarning rasmi. T. O‘qituvchi. 1994.
13. Rajabov R. Sultonov X. “Tasviriy san’at o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar”. Metodik qo‘llanma. TDPU. 2014 y.
14. Sobirov S.T. “Tasviriy san’at atamalarining izohli lug’ati”. Uslubiy qo‘llanma, Toshkent viloyati CHDPI, Chirchiq 2021.
15. Sultanov X.E, Sobirov S.T, O‘.Xudaynazarova, R.Anqaboyev. “Yosh musavvir to‘garagi” Uslubiy qo‘llanma, Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent-2016
16. Xasanov R. “Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi”. T.: Fan, 2004.
17. Oydinov N. Rassom – o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
18. X.X.Muratov. “Qalamtasvir”. – Toshkent: Ijod-print, 2020.
19. N.X.Tolipov, R.R.Jabborov, N.N. Tolipov, D.Sh. Rasulova, D.X. Irgasheva Sh. Dilshodbekova. “Tasviriy san’atdan atamalarining izohli lug’ati” 2016.
20. S.Abdirasilov, O‘.Nurtoev, T. Qo‘ziev. Tasviriy san’at. 5-sinf, darslik. T.: O‘zbekiston. 2015 y.
21. Р.Ш.Халилов. Живопис акварел. Ташкент. “Навруз”. 2013.
22. Набиев М.Н. Рангшунослик. Т. 1995.

23. Xudoyorova O. O‘zbekiston mакtablarida tasviriy san’at o‘qitish tarixidan. T. 1993.
24. Sobirov S.T. O‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda illyustratorlar hayoti va ijodiy faoliyatini o’rganishning axamiyati. Academic Research in Educational Sciences. Vol. 1 No. 2, 2020 ISSN 2181-1385. 2020 yil noyabr.
25. Султанов Х. Э, Худайбердиев П.У, Собиров С. Т. “Непрерывное образование в Узбекистане как требование времени”. МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ илмий журналининг 2017 йил № 4 сони.
26. Байметов Б.Б., Собиров С.Т., Исматов У.Ш. “Проблемы профессионально - педагогической подготовки учителей изобразительного искусства”. Международный научный журнал “ВЕСТНИК НАУКИ” № 7 (16) Том 1. Июл 2019.
27. Sobirov S.T. “Tasviriy san’at fanning o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashdagi o‘rni”. “Science and Education” Scientific Journal. ISSN 2181-0842. VOLUME 1, ISSUE 9. December 2020.
28. Sobirov S.T. SOME FACTORS THAT IMPEDE THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN FINE ART CLASSES. Asian Journal of Research № 1-3, 2020, ISSN 2433-202x. 2020 yil.
29. Sobirov S.T. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga to’sqinlik qiluvchi ba’zi omillar va ularni bartaraf qilish yo’llari. “Maktab va hayot” ilmiy metodik jurnal. MAXSUS SON №2. ISSN 2010-5460. 2020 yil dekabr.

### **Elektron resurslar**

- [www.cspi.uz](http://www.cspi.uz)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)  
[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)  
[www.painterest.com](http://www.painterest.com)

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>6</b>
<b>NARSANING O'ZIGA QARAB RASM CHIZISH.....</b>	<b>35</b>
<b>NATURADAN RASM ISHLASH DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH.....</b>	<b>41</b>
<b>MAVZU ASOSIDA RASM CHIZISH (<i>illyustrativ rasm ishlash</i>).....</b>	<b>47</b>
<b>BEZAKLI – DEKORATIV TASVIR ISHLASH.....</b>	<b>58</b>
<b>HAYKALTAROSHLIK.....</b>	<b>70</b>
<b>SAN'ATNI IDROK QILISH.....</b>	<b>75</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT METODIKASI FANI, MAZMUNI VA MOHIYATI .....</b>	<b>78</b>
<b>CHET ELLARDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH TARIXIDAN. UYG'ONISH DAVRIDA TASVIRIY SAN'AT O'RGATISH METODLARI.....</b>	<b>83</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASIDA ROSSIYA MAKTABLARI.....</b>	<b>93</b>
<b>O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING O'QITILISHI.....</b>	<b>102</b>
<b>1920-1990 YILLARDAGI TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASINING QISQACHA TARIXI.</b>	
<b>ROSSIYA, O'ZBEKISTON.....</b>	<b>115</b>
<b>UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'ATNING MAQSAD VA VAZIFALARI, MASHG'ULOTLARNING MAZMUNI.....</b>	<b>124</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT DAVLAT TA'LIM STANDARTI (MAKTAB, OLIY TA'LIM).....</b>	<b>130</b>
<b>TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA DIDAKTIK PRINSIPLAR.....</b>	<b>134</b>

<b>BOSHLANG'ICH 1-4 SINFLARDA VA 5-7 SINFLARDA TASVIRIY</b>	
<b>SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI.....</b>	<b>156</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT FANIDAN TOPSHIRIQLAR. ULARNI</b>	
<b>NAZORAT QILISH VA BAHOLASH.....</b>	<b>161</b>
<b>TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI FANIDAN</b>	
<b>DARSDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH</b>	
<b>METODIKASI .....</b>	<b>169</b>
<b>TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI O'QITUVCHISI</b>	
<b>TASHKILOTCHI, METODIST VA IJODKOR.....</b>	<b>181</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI XONASINI TASHKIL</b>	
<b>ETISH VA JIHOZLASH.....</b>	<b>191</b>
<b>TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI OLIB BORISHDA</b>	
<b>O'QITUVCHINING OLDIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....</b>	<b>200</b>
<b>INSON GAVDA A'ZOLARINING TASVIRLASHNI O'RGANISH</b>	
<b>METODIKASI.....</b>	<b>208</b>
<b>TASVIRIY SAN'ATDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN</b>	
<b>FOYDALANISH.....</b>	<b>232</b>
<b>ATAMALARNING IZOqli LUG'ATI .....</b>	<b>239</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>283</b>

**Sobirov Sarvar Tursunmurotovich**

**TASVIRIY SAN'AT O'QITISH  
METODIKASI  
o'quv qo'llanma**

Muharrir:

X. Taxirov

Tehnik muharrir:

S. Melikuziva

Musahhih:

M. Yunusova

Sahifalovchi:

A.Ziyamuhamedov

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**

Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. "Times new roman" garniturası, kegli 14.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'I 17,75. Adadi 100  
dona. Buyurtma № 1568694

**City of book MCHJda chop etildi.**